

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
TABIIY FANLAR FAKULTETI
GEOGRAFIYA KAFEDRASI



AHOLI GEOGRAFIYASI VA DEMOGRAFIYA ASOSLARI
O`QUV-USLUBIY MAJMUA

Fanning kodi:	AGDB1406
Bilim sohasi:	500000 - Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Talim sohasi:	530000- Fizikaga oid fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	60530400 - Geografiya

Namangan

Fanning o'quv uslubiy majmuasi Namangan davlat universiteti Kengashi qaroriga muvofiq, 2022 yil "___" _____ dagi ____ - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan " Aholi geografiyasi va demografiya asoslari" fan dasturi asosida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Jumaxanov Sh.Z Namangan davlat universiteti Geografiya kafedrası dotsenti, g.f.n.

Akaboyev I.Z Namangan davlat universiteti Geografiya kafedrası o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Boymirzayev K.M Namangan davlat universiteti Geografiya kafedrası professori v.b., g.f.d. (DSc)

Mahmudova M.J Namangan davlat universiteti Geografiya kafedrası professori, g.f.n.

O'quv-uslubiy majmua Namangan davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (202_ yil "___" _____ dagi ____ - sonli bayonnoma).

Fakultet dekani:

g.f.n., dots. A.S.Baratov

MUNDARIJA

№		BET
	So`z boshi	4
1	O`quv materiallari	5
1.1	Aholi geografiyasi va ijtimoiy geografiya fanlari tizimi. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining ob`yekti, predmeti, maqsadi va vazifalari, tadqiqot usullar	5
1.2	Demografiya asoslari fani va uning aholi geografiyasi tadqiqotlarida tutgan o`rni	14
1.3	Demografik tadqiqotlar rivojlanishi va aholi geografiyasining fan sifatida shakllanishi tarixi	18
1.4	Aholi to`g`risida ma`lumotlar manbalari	22
1.5	Aholi ro`yxati	23
1.6	Aholisi soni va dinamikasi	28
1.7	Aholi tabiiy harakati. Aholi takror barpo bo`lishi tartibi va geografiyasi	35
1.8	Tug`ilish jarayoni va uning hududiy xususiyatlari	45
1.9	Aholining o`limi va uning o`rtacha umr ko`rish davomiyligi	53
1.10	Aholining tarkiblari: aholining yosh tarkibi	58
1.11	Aholining jinsiy va oilaviy tarkibi	59
1.12	Aholining irqiy tarkibi	66
1.13	Aholining etnik tarkibi	74
1.14	Dinlar geografiyasi	83
1.15	Aholining ijtimoiy tarkibi	103
1.16	Mehnat resurslari	106
1.17	Aholi bandligi	115
1.18	Aholining mexanik harakati. Migratsiya geografiyasi	117
1.19	Aholi va aholi manzilgohlari joylanishi	123
1.20	Shahar aholisi geografiyasi va urbanizatsiya jarayoni	128
1.21	Qishloq aholisi va qishloq aholi manzilgohlari geografiyasi	135
1.22	O`zbekistonda aholi geografiyasi va demografiya asoslari	144
2	Amaliy mashg`ulotlar mavzulari	153
3	Mustaqil ta`lim mavzulari	154
4	Glossariy	155
5	Ilovalar	163
5.1	Fan dasturi	163
5.2	Testlar	181
5.3	Baholash mezonlari	188
5.4	Tarqatma materiallar	191

SO`ZBOSHI

Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining geografiya va aholishunoslik fanlari tizimidagi tutgan o`rni, aholi joylanishi xususiyatlari va u bilan birga aholi soni dinamikasining asosiy o`zgarishlari, aholi tarkibi, aholi migratsiyasi va urbanizatsiyasi, aholi haqida ma'lumotlar manbalari, aholi ro`yxati materiallari, aholi tabiiy harakati, tug`ilish va o`lim ko`rsatkichlari omillar, sharoitlari kabi masalalarni qamrab oladi. Unda demografik jarayonlarni va ularning hududiy ko`rinishining zamonaviy holati tavsiflanadi.

O`quv uslubiy majmua universitetning geografiya yo`nalishi talabalari va magistrleri uchun mo`ljallangan bo`lib, malakali mutaxassislar tayyorlashda muhim o`rin egallaydi.

Fanni o`qitishning maqsadi – Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanini o`qitishda talabalarni: dunyo mintaqalari, mamlakatlari aholi soni va tarkibidagi doimiy o`zgarishlar; aholi joylanishi va hududiy harakati to`g`risida bilim, ko`nikma va malaka shakllantirish; aholi takror barpo bo`lishining yangi an'analari shakllanishi, aholi qarishi, yer shari mintaqalari irqiy va etnik tarkibi kabi masalalarni tizim tahlil nuqtai nazaridan tanishtirishdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarga demografik jarayonlar va ularning hududiy xususiyatlari, aholi soni, tarkibi va joylanishi qonuniyatlari haqida bilimlar berish, buning asosida xulosalar chiqarishni o`rgatishdan iborat.

Fan bo`yicha talabalarning bilim, ko`nikma va malakalariga quyidagi talablar qo`yiladi. Talaba:

- aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining tadqiqot ob'ekti va predmeti; fanlar tizimida tutgan o`rni va aloqalari; asosiy g`oya, kontseptsiya va nazariyalar; aholi soni va uning yer yuzasi bo`yicha taqsimlanishi; aholi to`g`risida ma'lumotlar manbalari; aholi ro`yxati materiallari haqida tasavvurga ega bo`lishi;

- demografik koeffitsientlarni; aholi soni va joylashuviga ta'sir qiluvchi omillarni; demografik vaziyat va unga ta'sir etuvchi omillarni, aholini geografik o`rganishda zamonaviy ilmiy tadqiqot usullari hamda geografik axborot tizimlarini bilishi va ulardan foydalana olishi;

- hududlarning demografik vaziyatini baholash; aholining takror barpo bo`lishi jarayonlarini tahlil qilish va ularning mintaqaviy xususiyatlarini aniqlash; yer shari mintaqalari aholisining yosh-jins, milliy, etnik, irqiy va diniy tarkibini tahlil qilish; aholi kartalarini loyihalash va tuzish ko`nikmalariga ega bo`lishi kerak.

1. O`QUV MATERIALLARI

1-Mavzu: Aholi geografiyasi va ijtimoiy geografiya fanlari tizimi. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining ob'yekti, predmeti, maqsadi va vazifalari, tadqiqot usullari

Mavzu rejasi:

1. Aholi geografiyasi va demografiya asoslarifanining shakllanishi va rivojlanishi.
2. Uning fanlar tizimida tutgan o'rni, boshqa fanlar bilan fanlararo aloqalari.
3. Fanning ob'yekti, predmeti, maqsadi va asosiy vazifalari. Tadqiq etish usullari.
4. Aholi geografiyasi va demografiya asoslarifanining asosiy bo'limlari.
5. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining xorijda va O'zbekistonda rivojlanishi.

Aholi deganda ma'lum xududda yashayotgan kishilar guruhi tushuniladi. Aholi va uning xo'jalik faoliyati hamma davrlarda geografiya fanining qiziqtirib kelgan. Geografiya fanining tuzilishida iqtisodiy geografiyaning qaror topishi bilan bu masalaga qiziqish ayniqsa kuchaydi. Bu bejiz emas edi. Chunki iqtisodiy geografiyaning vazifasi ishlab chiqaruvchi kuchlarning xududiy joylashish qonuniyatlarini o'rganishdir. Aholi esa, har qanday jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchidir. Jamiyat hayoti uchun zarur bo'lgan barcha boyliklar insonning mehnati natijasida yaratiladi. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan mehnat qurollari, xom ashyo, yoqilg'i va boshqa qo'shimcha materiallar faqat inson qo'li, odam mehnati tufayligina harakatga keltiriladi. Inson mehnati ishlab chiqarish jarayonining eng ilg'or qismidir. Shunday qilib, aholi, birinchi navbatda, ishlab chiqarishning asosiy sub'ektidir. U barcha moddiy boyliklarni yaratuvchi asosiy kuchdir.

Taraqqiyot jarayonida aholining shaxsiy iste'moli bilan birga, aholining o'zini takror barpo qilinadi – kishilarning avlodlari tarbiyalanadi va voyaga yetkaziladi. Shuning uchun ham aholini geografik jihatdan o'rganishida quyidagilarga e'tibor berish zarur: 1. Aholi – ishlab chiqarish sub'ekti, barcha moddiy ne'matlarni ishlab chiqaruvchi. 2. Ishlab chiqarilgan jami ijtimoiy mahsulotlardan ma'lum qismining is'temolchisi. 3. Aholi butun ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'zi ham takror barpo qilinishi zarur.

Aholiga xos bo'lgan ana shunday xususiyatlarni o'rganmay turib, har qanday iqtisodiy-geografik muammoni chuqur tahlil qilish va xal qilish qiyin. Xuddi shunga ko'ra olimlar aholi geografiyasini iqtisodiy geografiyaning bir

tarmog'i deb hisoblaydilar. Aholining xududiy joylashuvi xalq xo'jaligining joylashuvi hamda strukturasi bilan bog'liq va aksincha, aholining joylashuvi, o'z navbatida xo'jalikni rivojlantirish hamda joylashtirishga bevosita ta'sir etadi.

Turli mamlakatlar va tumanlar xo'jaligining ixtisosi va rivojlanish darajasiga qarab shu xududlarda aholining faoliyati, turlicha bo'lishi mumkin. Aholi geografiyasi iqtisodiy geografyaning bir tarmog'i orasida alohida o'rin tutadi. Chunki aholi asosiy ishlab chiqaruvchi kuch va ishlab chiqarilgan mahsulotlarning iste'molchisi sifatida barcha ishlab chiqarish sohaslarida faol qatnashadi, iqtisodiy geografiya o'rganadigan barcha xodisa va jarayonlarda o'zi bevosita ishtirok etadi. Binobarin, iqtisodiy geografyaning barcha boshqa tarmoqlariga muhim o'rin beriladi. Aks holda, tegishli xo'jalik tarmog'i geografiasining barcha xususiyatlari to'la ochilmay qolishi mumkin. Chunki hozirgi zamon konstruktiv geografiya fanining muhim vazifalaridan biri – tabiiy sharoit, xo'jalik, aholining o'zaro aloqalari hamda turli mamlakatlar va tumanlarda ana shu aloqalar jarayonida vujudga keladigan xududiy dinamik tuzimni o'rganishdan iborat.

Aholi yer sharining turli qismlarida vujudga keladigan ana shunday xududiy dinamik tuzimlarining eng ilg'or tarkibiy qismidir.

Aholi geografiyasi – aholining tarkibi, dinamikasi va joylashuidagi regional farqlarni, bu farqlarni vujudga keltiradigan qonuniyatlarni, aholi punktlarining xududiy tuzimlarini va ularning rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganadi. Aholi geografiyasi, shuningdek, aholining yer shari bo'yicha va ayrim mamlakatlar va tumanlar miqyosidagi harakatini ham o'rganadi.

Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, jamiyat taraqqiyotining asosiy qonunlari kabilar ana shunday muhim nazariy masalalardir.

Jamiyatning iqtisodiy qonunlarigina turli mamlakatlar xalq xo'jaligining har xil tarixiy davrlarda rivojlanish va xududiy joylashish xususiyatlarini to'g'ri va to'la tushuntirib bera oladi. Bu esa, o'z navbatida, aholining yuqorida sanab o'tilgan asosiy xususiyatlarini tushunib olishga imkon beradi.

Aholining xududiy joylashish formalari aholi geografiasining muhim tushunchalaridan biridir. Aholining xududiy joylanish formalari deganda aholining turli aholi manzilgohlarida joylanishigina emas, balki uning butun xudud bo'yicha tarqalishi, xududni o'zlashtirish jarayoni ham tushiniladi. Mana shu muhim jarayon ijtimoiy takror ishlab chiqarishning xududiy formalari bilan belgilanadi. Bu esa aholi geografiasining muhim qonuniyatidir.

Mana shu holatdan aholi geografiyasi o'rganayotgan voqealarga tarixiy jihatdan yondoshish zarurligi kelib chiqadi. Aholining xududiy taqsimlanishi va joylashuviga tabiiy sharoit ham ta'sir ko'rsatadi. Ammo tabiiy sharoit bilvosita ya'ni ishlab chiqarish orqali ta'sir etadi. Chunki bir xil tabiiy sharoitdan xo'jalik maqsadlarida foydalanishi, binobarin tabiiy sharoitning aholi xududiy joylanishiga ta'siri turli xil ijtimoiy tuzim sharoitida, texnika taraqqiyotining turli darajasida turlicha bo'ladi.

Aholi geografiasining yana bir tushunchasi – aholini funksional guruhlarga bo'lish ham ishlab chiqarish negizida amalga oshiriladi. Moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlari sanoat, qishloq xo'jaligi va transportda ishlovchi aholi birinchi funksional guruhni tashkil qiladi. Aholining ikkinchi funksional guruhi tashkil qiladi. Aholining ikkinchi funksional guruhi xizmat doirasida ishlovchilardir. Xizmat doirasiga savdo, maorif va sog'liqni saqlash kabilar kiradi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etmaydiganlar – bolalar, nafaqaxo'rlar, uy bekalari uchinchi guruhni tashkil etadi.

Aholi geografiasining yana bir qonuniyati shundan iboratki, xududning ishlab chiqarish majmuasi qanchilik to'la va tugallangan bo'lsa mahnat resurslaridan shunchalik to'la foydalaniladi, aksincha, ishlab chiqarish bir tomonlama rivojlangan bo'lsa, mehnat resurslaridan foydalanishda katta kamchiliklar sodir bo'lishi mumkin.

Aholining migratsion aloqalari sohasida ham bir qancha qonuniyatlar aniqlangan. Chunonchi aholi ko'chib ketgan tuman bilan ko'chib borib joylashgan tumanning ishlab chiqarish ixtisosi va tabiiy sharoiti o'xshash yoki yaqin bo'lsa, migratsiya muvofiqiyatli chiqadi, agarda bir-biridan keskin farq qilsa, migratsiya yaxshi natija bermaydi. Shuningdek, hamma joyda qishloqlardan shaharlarga bo'lgan migratsion harakat yaxshi natija beradi.

Aholi geografiasini bir qancha yo'nalishlarga bo'linadi:

1. Aholining tarkibi va uning takror barpo qilinishidagi geografik farqlar va bu farqlarning sababini o'rganish.
2. Mehnat resurslarini va ulardan foydalanishdagi geografik farqlarni o'rganish.
3. Aholining xududiy taqsimlanishi va uning harakatini o'rganish.
4. Aholi punkt iva ularning xududiy sistemalarini o'rganish. Aholi geografiasining bu yo'nalishda shaharlarni va qishloq aholi punktlarini alohida o'rganuvchi shaharlar geografiasini va qishloq aholi punktlari geografiasini va qishloq aholi punktlari geografiasini vujudga keladi.
5. Aholining madaniyati va turmush tarzidagi geografik farqlarni va ularning sabablarini o'rganish.
6. Tarixiy aholi geografiasini. Bu yo'nalish o'lgan tarixiy davrlar aholi geografiasini o'rganadi va tarixiy geografianing bir qismi hisoblanadi.
7. Aholining xaritaga tushirish. Ijtimoiy iqtisodiy tuzum jamiyat hayotining barcha sohalariga, shu jumladan aholining ijtimoiy tarkibiga va mehnatkashlarning hayot sharoitiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Maktablarda o'lkashunoslik ishlarini yanada yaxshi yo'lga qo'yishda aholi geografiasini, ayniqsa, yaxshi xizmat qila oladi. O'quvchilar yashayotgan qishloq yoki tumanni, qo'shni qishloqlarni yoki tumanlarni ularning vujudga kelishi va rivojlanishi, aholining tashkil topishi, uning milliy tarkibi va mehnat malakalari hamda boshqa tomonlarini o'quvchilar geografiasini o'quvchisi rahbarligida o'rganishlari mumkin.

“Aholi geografiasini” oldida bir qancha muhim vazifalar turadi:

Birinchi, mamlakatimiz aholisi va chet mamlakatlar aholisi haqida, ularning soni va o'sishi, xududiy joylashuvi, xalqlar geografiyasi, turli mamlakatlarda sharoitga qarab shaharlarning rivojlanish muammolari va boshqalar. Ma'lumotlar bilan keng kitobxonlar ommasini va shuningdek bevosita amaliy maqsadlar uchun qiziquvchi tashkilotlarni ta'minlaydi.

Xalqimizning madaniy talablarini va tegishli rejalashtiruvchi organlar extiyojini mamlakatimiz yoki chet davlatlar aholisi geografiyasi bo'yicha maxsus kitoblar yozish, darslik va o'quv qo'llanmalari, ilmiy ommabop kitoblar va risolalar yozish, ayrim mamlakatlar va tumanlarga bag'ishlangan geografik asarlarning aholiga bag'ishlangan maxsus boblarini yozish yo'li bilan qondirish mumkin.

Ikkinchi muhim vazifa aholi geografiyasining nazariy masalalarini ustida ishlashni davom ettirish.

Uchinchi vazifa – aholi geografiyasining bevosita amaliy vazifalarni hal qilishga qaratilgan tadqiqot ishlarini kuchaytirish. Mamlakatimiz butun xududi bo'yicha aniqsa qishloq aholi punktlarida maktab, savdo korxonalari, madaniyat muassasalari, shaharlar va ularning rejasi rejalashtirish, mehnat resurslaridan mumkin qadar to'la va oqilona foydalanish masalalarini xal qilish ishiga va bu bilan shahar bilan qishloq o'rtasidagi tafovutlarni sekin-asta tugatib borish kabi muammolarni xal qilishda aholi geografiyasi o'z munosib xissasini qo'shib kelmoqda.

Aholi geografiyasining boshqa fanlar bilan aloqasi juda keng va har tomonlamadir. Chunki aholiga taaluqli bo'lgan masalalarga katta e'tibor beradigan fanlar va fan tarmoqlari juda ko'pdir.

Aholi geografiyasining o'z tadqiqotlari jarayonida aloqa qiladigan yoki hamkorlikda ishlaydigan fanlarni shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin:

1) Geografiya fanining boshqa tarmoqlar bilan aloqasi. Xo'jalik geografiyasi orqali u tabiiy geografiya bilan aloqada bo'ladi. Har qanday ishlab chiqarish – muayyan tabiiy sharoitda va har xil tabiiy resurslardan foydalangan xolda vujudga keladi va rivojlanadi. Xo'jalikning ixtisosi va boshqa ayrim xususiyatlari ko'p jihatdan tabiiy sharoit bilan belgilanadi. Aholi geografiyasining tibbiyot geografiyasi bilan aloqalari ham tez rivojlanmoqda. Tibbiyot geografiyasi ikki fan tibbiyot va geografiya fanlari chegarasida vujudga kelib, u tabiiy muxitning hamda turli tumanlarda yashash va mehnat qilish sharoitining aholi sog'ligiga ta'sirini, shuningdek, ayrim kasalliklarning geografik tarqalishini o'rganadi. Turli tumanlarga aholining gigienik yashash sharoiti nuqtai nazaridan baho berish, ovqatlanish, kiyinish xususiyatlari bo'yicha tavsifnomalar berish ham tibbiyot geografiyasining muhim vazifalari qatoriga kiradi.

Aholi geografiyasi bilan xizmat doirasi geografiyasining aloqadorlari va o'zaro hamkorligi ayniqsa mustaxkamdir. Xizmat doirasi geografiya aholining barcha extiyojlariga xizmat ko'rsatuvchi xizmat doirasi tarmoqlarining rivojlanishi darajasi va xududiy joylashishini geografik taqsimlash usulida o'rganadi. Xizmat

doirasi geografiyasi o'rganishi kerak bo'lgan barcha masalalarning hammasi faqat aholi va aholi punktlari haqidagi batafsil ma'lumotlar asosidagina analiz qilinishi va xal qilinishi mumkin. Shuning uchun ham u dastavval aholi geografiyasi tarkibida vujudga kelgan bo'lib, ular o'rtasidagi aloqalar har tomonlamadir.

Aholi geografiyasi geografiya fanining yangi vujudga kelayotgan turizm geografiyasi, iste'mol geografiyasi kabi yo'nalishlari bilan ham mustaxkam aloqador. Bu har ikkala yo'nalishda ham aholining soni, yoshi, jinsi tarkibi va boshqa ko'rsatkichlar muxim ahamiyatga ega. Aholi geografiyasi bilan tarixiy geografiya o'rtasidagi aloqa shundan iboratki, o'tgan tarixiy davrlar aholi geografiyasi ichidagi maxsus yo'nalish – tarixiy aholi geografiyasi shug'ullanadi va u yo'nalish shu bilan birga tarixiy geografiyaning ajralmas bir qismidir. Geografiya fanining barcha tarmoqlari va yo'nalishlari singari aholi geografiya ham kartografiya bilan chanbarchas bog'liqdir. Aholi geografiyasida aholi va aholi punktlarining maxsus xaritalari tuziladi, ulardan keng foydalaniladi. Chunki, aholi va aholi punktlariga xos bo'lgan xilma-xil ko'rsatkichlar, ularning xududiy joylashuvi hamda regional farqlarini xaritada tushirish yo'li bilan yaqqol ko'rsatish mumkin.

2) Aholi geografiyasi bilan chanbarchas va har tomonlama aloqador bo'lgan fanlarning ikkinchi guruhi demografiya va etnografiya fanlaridir. Demografiya va etnografiya fanlarini alohida guruhga ajratamiz, buning boisi shundaki, ular ham aholi geografiyasi singari aholini o'rganadi. Ularning har qaysisi aholini o'z nuqtai nazaridan tadqiq qiladi. Ammo shunday masalalar borki, ularni bu fanlarning har uchchalasi o'rganadi, biri ikkinchisining materiallaridan foydalanadi.

Demografiya – grekcha – demos – “*xalq*” va grafiya – “*tasvirlash*” so'zlaridan iborat bo'lib, aholi haqidagi fandır. U aholining soni, xududiy joylashuvi va tarkibini, ularning o'zgarishi va bu o'zgarishning sabablarini, aholidagi o'zgarishlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlarning aloqalarini o'ziga xos istedodlar bilan o'rganadi. Shuningdek, demografiya aholi takror barpo qilinishining qonuniyatlarini ochib beradi. Ko'rinib turibdiki, aholi geografiyasi bilan demografiya o'rganadigan masalalar bir biriga juda yaqin. Shuning uchun aholi geografiyasi demografiya o'rganadigan va aholiga taluqli bo'lgan demografik statistika tomonidan to'planadigan ma'lumotlardan keng foydalanadi. Demografiya ham o'z navbatida o'rganilayotgan demografik jarayon va ko'rsatkichlardagi geografik farqlar va u farqlarning sabablariga qiziqadilar. Shunday qilib, aholi geografiyasi bilan demografiya o'rtasida birgalikda hal qilinishi kerak bo'lgan bir qator muammolar vujudga keladiki, bularni faqatgina ana shu ikki fan chegarasida vujudga kelgan yo'nalish – **demogeografiya** hal qiladi.

Aholi geografiyasi etnografiya bilan ham chanbarchas bog'liq. Etnografiya – xalqlarning turmushi va madaniyati, vujudga kelishi va madaniy – tarixiy aloqalarini o'rganadi.

Etnografiya xalqlarning etnik birligi urug', qabila, elat, millat, xalqlarning geografik tarqalishi bilan ham qiziqadi. Xalqlarning geografik tarqalishi masalalarini **etnografiya** o'rganadi. Etnografiyani ayni vaqtda etnografiya ham, aholi geografiyasiga ham kiritish mumkin, to'g'rirog'i, ular chegarasida vujudga kelgan yo'nalishidir.

Shunday qilib, aholi geografiyasining demografiya va etnografiya fanlari bilan aloqasi va hamkorligi juda yaqin va kengdir. Shu narsani qayd qilish kerakki, aholi geografiyasi aholini demografiya va etnografiyaga nisbatan chuqurroq va har tomonlama o'rganadi. Chunki, aholi geografiyasi aholini o'rganayotganda uning xo'jalik va tabiat bilan aloqalarini chuqur tahlil qiladi, bu o'zaro aloqa va munosabatlarning o'rganilayotgan har bir tumanda vujudga kelish xususiyatlarini aniqlaydi, aholi geografiyasi muammolarini shular bilan bog'lab tushuntiradi.

3) **Antropologiya** – odamlarning paydo bo'lishi, kishi organizmining evolyusiyasi va undagi jismoniy o'zgarishlarning qonuniyatlari, shuningdek irqning vujudga kelishi va geografik tarqalishini o'rganadigan fan. Aholi geografiyasining asosiy o'rganish ob'ekti bo'lgan kishilarning mehnat faoliyati, turmush sharoiti va madaniyati, aholi punktlarining xududiy shakllaridagi farqlar bilan bog'liq emas. Aholi geografiyasining mehnat resurslari va ulardan foydalanishini o'rganadigan yo'nalishni iqtisodiyot fanining mehnat iqtisodiyoti va uni tashkil qilish yo'nalishi bilan yaqindan aloqadordir. Jumladan, geograflar mehnat resurslarni o'rganishda iqtisodchilarning mehnat balansi tuzish kabi ayrim qo'llanmalaridan keng foydalanadi. Ammo iqtisodchilar va geograflar mehnat resurslaridan o'rganishda bir-birlarining tadqiqotlarini takrorlamaydilar. Ma'lumki, iqtisodchilar mehnat unumdorligi kabi masalalarni ayrim korxonalar yoki ayrim xo'jalik tarmoqlari miqyosida o'rganadilar. Geograflarning asosiy vazifalari esa, mehnat resurslarining xududiy tashkil topishi va ulardan foydalanishning regional masalalarini taxlil qilishdan iborat.

Nihoyat, aholi geografiyasi bir qator ilmiy-amaliy fanlar bilan yaqindan hamkorlik qiladi.

Shuningdek, aholi geografiyasi har bir tumanning tabiiy – iqtisodiy sharoitlarini e'tiborga olgan holda, ularning rivojlanish istiqbollari haqida asosli takliflar berishi mumkin. Aholi geografiyasi o'z navbatida, ilmiy-amaliy fanlarning ayrim qo'llanmalaridan foydalanadi.

Geografiya fani aholi va unga taalluqli bo'lgan ma'lumotlarni qadimdan o'rganib kelgan. Masalan: 1650-yilgda Vareniy (Varenius)ning niderlandiyada bosilib chiqan "Umumiy geografiya" nomli asaridayoq aholiga tegishli ko'pgina masalalar geografiya o'rganadigan muhim muammolar qatoriga kiritilgan edi. Varenius geografiyani ikkita katta bo'limga bo'lgan.

1. Asosiy (umumiy) geografiya.
2. Ayrim mamlakatlarni o'rganadigan hususiy geografiya (mamlakatshunoslik).

Ana shu xususiy geografiyaning iqtisodiy geografiya bo'limi o'rganadigan masalalar orasida aholining tarkibi, turmushi, iste'mol qiladigan ovqatlari, daromadi, bilim darajasi, hunarmandchilik, savdo aloqalari, tug'ilgandan o'lguncha bo'lgan urf-odatlar, siyosiy tuzum, shaharlari kabi ko'rsatkichlar bo'lgan. Ammo u paytlarda va undan keyin ham uzoq davrlar davomida aholi geografiyasi geografiya fanining alohida yo'nalish sifatida tashkil topmagan edi.

Faqat XIX asrga kelib, dastavval Germaniyada va keyinchalik G'arbdan boshqa davlatlarga antropogeografiya paydo bo'la boshladi. Antropogeografiyaning asoschisi nemis geografi Fridrix Ratsel (1844-1904) bo'lib, bu yo'nalish geografning determinizmning vulgar-deterministik konsepsiyasiga asoslanardi va aholi geografiyasidagi tabiiy sharoitning tasiridan deb tushuntirishga urinar edi. XIX asr ohiri XX asr boshlarida G'arbiy Yevropada (asosan Fransiyada) odam geografiyasi deb nomlangan yo'nalish ham vujudga keladi. Fransuz geografi Vidal de la Blash (1869-1930) bu yo'nalishning asoschilari edi. Bu yo'nalish ham aholi geografiyasi masalalarini tushuntirishda jamiyat taraqqiyotining haqiqiy qonunlariga emas, balki burjua falsafasi, siyosiy, iqtisodiy va tarihining konsensiyalariga asoslangan. Bu yo'nalish nomoyondalari tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi, tabiat bilan aholi o'rtasidagi munosabatlar va aloqalarni ilmiy asosda o'rganmasdan, balki alohida bir odamning tabiat bilan o'zaro munosabatlari va bir-biriga ta'sirini o'rganish bilan shug'ullanganlar. Shuning uchun ham ular o'z fanlarining nomini aholi geografiyasi emas, odam geografiyasi deb atashgan. MDH davlatlariga XX asrga qadar geografiyasiga taalluqli yirik ilmiy asarlar juda kam edi. Chunki aholi geografiyasi geografiyasining maxsus tarmog'i sifatida ham tashkil topmagan edi. Ana shu davrda Pyotr Petrovich Semyonov Tyanshanskiy (1870-1942) haqida Aleksandr Avanovich Voeykovning (1842-1916) ishlari alohida o'rin egallaydi. P.P. Semyonov –Tyanshanskiy XIX asr ohirida Rossiya aholisi va aholi punktlarini geografik ahaliz qilgan, bir necha ishlar bajargan. U o'zining 1871 yilda chiqqan “Imperiya aholisining taqsimlanish sabablarga ko'ra, Rossiya Yevropa qismida aholining zichligi” nomli asarida aholi zichligi kartasini batafsil va mazmundor analiz qilgan. 1863-1885 yillarda P.P.Semyonov Tyanshanskiy “Geografik statistik lug'at” tuzdi.

Lug'atda Rossiyaning barcha shaharlari, stansiya va yirik qishloqlariga xarakteristika berdi. U Rossiya qishloqlariga birinchi bo'lib, batafsil sotsial-iqtisodiy xarakteristika berdi, ularni 27 tipga ajratdi. Ayniqsa uning “Muraevnaya volost” (1880) asari alohida diqqatga sazovordir. Bu asarda aholini va qishloq aholi manzilgohlarining kompleks geografik ekspeditsiyalar yordamida o'zgarishi bo'yicha birinchi tajriba bo'lib, o'sha davrda Rossiya va chet mamlakatlarda aholigabag'ishlangan ishlar orasida o'z ilmiy saviyasiga ko'ra birmuncha yuqori turar edi. Ma'lumki. P.P.Semyonov-Tyanshanskiy “Rossiya vatanimizning to'la geografik tasviri” (1899-1914) nomli ko'p tomli nashrning asosiy tashkilotchisi edi. Bu asarda Rossiya turli qismlarining aholisi va aholi

manzilgohlari karakteristikasiga keng o'rin berishgan. Pyotr Petrovich Semyonov-Tyanshanskiy o'g'li Veniamin Petrovich Semyonov-Tyanshanskiy ham o'z ishlarida aholini o'rganishga katta e'tirof bergan. Ayniqsa, uning "Yevropa Rossiyasida shahar va qishloq" (1910) nomli asari muhim fantalogik asari ma'lumotlarga boyligi va ilmiy analizdan ba'zi yangicha yondoshishlari bilan diqqatga sazovordir. Keyinchalik (1922-1925) V.P.Semonov-Tyanshanskiy raxbarligida Rossiya Yevropa qismining 46 varaqdan iborat aholi zichligi kartasi tuzildi (dozimetrik karta). O'sha davrda bunday karta boshqa birorta ham mamlakatda tuzilmagan edi. Aholi geografiyasi bo'yicha revolyutsiyadan avval nashr etilgan asarlar orasida mahshur geograf Aleksandr Ivanovich Voyekov o'z asarlarida alohida o'rin egallaydi eng muhimi shuki, A.I.Voyekov o'z ishlarida antropogeografiya ta'siriga berilmadi. U "Yer shari aholisini tabiiy sharoiti va kishilar faoliyatiga qarab taqsimlanishi" (1906), "Yevropa Rossiyasi va G'arbiy sibir qishloqlarining gavjumligi" (1909) kabi asarlarida tabiat va aholiga jonli, qiziqarli geografiya ta'rif berish namunasini ko'rsatdi.

A.I.Voyekov aholining hududiy taqsimlanishida tabiiy sharoit emas, balki odamlarning o'zi hal qiluvchi rol o'ynadi degan xulosaga keldi. Bu esa, o'sha davrda hukmron bo'lgan antropogeografik ta'limoti butunlay qo'shilmaslik edi. U aholining shaharlar bilan qishloqlar o'rtasida taqsimlanishi, bu protsessning rivojlanishini analiz qilib shaharlarni o'rganishda ularning ma'muriy-yuridik tomonlariga emas, balki iqtisodiy ko'rsatkichlariga ahamiyat berish muhimligini qayd qildi. Bu esa o'sha davr uchun muhim progressiv qarash edi. Chunki, shaharlarni o'rganishda, birinchi navbatda ularning iqtisodiy rolini (xalq xo'jalik funksiyasini) tahlil qilish zarurligi hozirgi zamon aholi geografiyasida ham asosiy prinsipial masalalardan biridir. A.I.Voyekov bu ishida «Millioner shaharlar» atamasini birinchi bor ishlatdi va fanga kiritdi. A.I.Voyekov aholi geografiyasi masalalari sotsial-iqtisodiy fanlarga katta ahamiyat berib, o'z davri olimlaridan ancha yuksak pog'onaga ko'tarila oldi. Shunday qilib, XX asrga kelib aholini geografik nuqtai – nazardan o'rganishda ayrim yutuqlar qo'lga kiritilganiga va geograflarning ishlari ilmiy saviyasi bo'yicha g'arbdagi antropogeografiya va odam geografiyasi nomoyondalarining ishlariga nisbatan ancha yuqori turgan. Lekin bu davrda O'rta Osiyoda, juislardan O'zbekistonda aholi geografiyasi fan sifatida, iqtisodiy geografiyaning muhim tarmog'i sifatida tashkil topmagan edi. Aholi geografiyasi iqtisodiy geografiyaning alohida muhim uzviy qismi sifatida mamlakatimizda sobiq ittifoq davrida shakllandi.

Ma'lumki, sobiq ittifoqning dastlabki yillarida rejali ijtimoiy xo'jalik sharoitida iqtisodiy geografiya fani tashkil topa boshladi. Iqtisodiy geografiya fanining shakllanishi va rivojlanishida, uning asosiy nazariy-metodologik masalalarini ishlab chiqishda N.N.Baranskiyning roli ayniqsa katta bo'ldi. Davr taqozosi bilan iqtisodiy-geograflar asosan sanoatni hududiy joylashtirish va iqtisodiy rayonlashtirish masalalari bilan ko'proq shug'ullanishdi.

1940 yillargacha aholi geografiyasining faqat shaharlar geografiyasi yo'nalishinigina ancha rivoj topdi. Chunki, shaharlar muammosi «ishlab chiqarish markazlari», «Sanoat tugunlari» va «Iqtisodiy rayonlarning asosiy yadrolari» sifatida iqtisodiy geografiyaning boshqa sohalarida ham o'rganiladi. Shaharlar geografiyasining rivojlanishida ham N.N.Baranskiyning xizmati katta. Deyarli barcha geograflar shaharlarni geografik jihatdan o'rganish haqida N.N.Baranskiy yozgan-nazariy maqolalarga hozir ham suyanishadi. II jahon urushidan keyingi yillarda esa, aholi geografiyasining turli yo'nalishlari bo'yicha ilmiy ishlar, ekspeditsion tadqiqotlarni kuchaytib ketdi.

Aholi geografiyasining metodologik va metodik masalalari ishlab chiqildi. Shaharlar geografiyasi bilan bir qatorda, qishloq aholi manzilgohlarini o'rganish, aholi geografiyasining umumiy masalalari, aholining migratsion harakatlari, mehnat resurslaridan unumli foydalanishning geografik aspektlarini tadqiq qilish, aholini kartaga tushirish kabi yo'nalishlar bo'yicha ko'plab qimmatli ishlar bajarildi. Aholi geografiyasining rivojlanishi, tashkil topishi va turli tarmoqlarining shakllanishida N.N.Baranskiy bilan birga R.M.Kabo, O.L.Konstantinov, Yu.G.Saushkin, V.V.Pokshishevskiy, N.I.Liyanov, S.A.Kovalyov va boshqa olimlarning xizmatlari katta. Aholi geografiyasining, ayniqsa keyingi yillarda yangi bosqichga ko'tarilmoqda, turli yo'nalishlar bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlaridagi sifat o'zgarishlari va yangi yutuqlar bilan birgalikda, chuqur umumlashtirishlar hamda kompleks yondoshishni talab qiluvchi sintetik tadqiqotni aholi va aholi manzilgohlarining xududiy xususiyatlariga qarab rayonlashtirish» (O.A.Konstantinov), «Aholi punktlarining yagona sistemasi» (B.S.Xorev) va aholi hamda aholi punktlarini o'rganishda sistema nazariyasi nuqtai nazardan yondashish kabilar ana shular jumlasidandir.

Aholi geografiyasi eng yangi metodlarni qo'llash bo'yicha ham ancha ilgari siljidi. Jumladan matematik metodni qo'llash bo'yicha aholi geografiyasi iqtisodiy geografiya fanining barcha tarmoqlari orasida alohida o'rin tutadi va bu sohada ham salmoqli yutuqlar qo'lga kiritildi. (N.I.Blotko, Yu.V.Medvedov va boshqalarning ishlari) Aholi geografiyasining juda ko'p muhim, prinsipial masalalari bo'yicha fikr almashish, ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirishda Geografiya jamiyati tomonidan olib borilayotgan ishlar ahamiyatidir.

Respublikamiz xududida aholini o'rganishga qadimdan asos solingan. Chunki, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Bobur, Maxmud Qoshqariy, Alisher Navoiy kabi allomalarimiz asarlarida aholi masalalariga e'tibor berilgan. 1926 yilda respublikada aholi ro'yxati o'tkazilishi aholini chuqurroq o'rganishga dastlabki ilmiy qadam bo'ldi. Respublikamizda XX asrning II yarmida aholi geografiyasi fan sifatida rivojlandi. Respublikamizda «Geografiya jamiyati» faoliyatida, demograf olimlar tadqiqotlarida aholi geografiyasi fanining rivojlanishini ko'rishimiz mumkin. Hozirgi kunda «Aholi geografiyasi», «Demografiya asoslari» fanlari mustaqil fan sifatida rivojlanmoqda.

O'zbekistonda demografik bashoratlar ishlab chiqish, aholishunos olim M.K.Qoraxonov rahbarligida 1962-80 yillarda ishlab chiqilgan. Keyinchalik respublikada R. Mullajonov, R. Ubaydullaeva, M. Ali Qoriyev, M. Bo'riyeva, L. Maksakova, A. Soliev va boshqalar fan rivojiga xissa qo'shib kelmoqdalar.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Aholi to'g'risida dastlabki fikr kimning asarida etirof etilgan?
2. Odam geografiyasi yo'nalishi asoschilarining fikrlari qanday edi?
3. Antropogeografiya yo'nalishi qachon, qayerda yuzaga keldi?
4. Aholi to'g'risidagi g'ayriilmiy nazariyalarni izohlang.
5. A.Voeykovning aholi geografiyasiga qo'shgan hissalarini aytib bering.
6. Aholi geografiyasi fani rivojlanishiga hissa qo'shgan o'zbek olimlaridan kimlarni bilasiz?

2-mavzu: Demografiya asoslari fani va uning aholi geografiyasi tadqiqotlarida tutgan o'rni

Mavzu rejasi:

1. *Demografiya*- lug'aviy ma'nosi. Fanning ob'yekti, predmeti va vazifalari.
2. Aholi ijtimoiy va tabiiy fanlarning o'rganish ob'yekti sifatida.
3. Demografiyaning alohida fan sifatida rivojlanishi. Aholi-demografiyaning ob'yekti sifatida.
4. Aholi- insonlarning takror barpo bo'lishi yig'indisi.
5. Demografik tarkib va jarayonlar. Demografiya va boshqa fanlar. Demografiya fanlari tizimi.

Demografiya–aholini, avlodlar almashuvi jarayonlari va uning qonuniyatlari o'rganuvchi fan bo'lib aholishunoslik fanlar tizimida asosiy o'rinni egallaydi. “Demografiya” – ikki yunon so'zining qo'shilishidan iborat bo'lib, “demos” – halq, aholi, “grafiya” – tasvirlash, yozish, o'rganish, ya'ni “halq haqida yozmoq”, yoki “aholini sharhlash” ma'nosini anglatadi. Biroq, demografiya fani faqat sharhlash bilan chegaralanib qolmay, bal'ki uning o'rganish doirasi bir muncha keng va chuqurdir.

Demografiyada asosiy kuzatuv birligi – inson hisoblanadi. Inson hayoti davomida uning fiziologik va psixologik xususiyatlari, ma'lumotlilik, darajasi, oilaviy holati, kasbi-kori, malakasi ijtimoiy guruhi, yashash joyi, til bilish kabi imkoniyatlari o'zgarib boradi. Ana shu alohida inson hayotida ro'y bergan o'zgarishlar yig'indisi umuman aholi hayotida ijtimoiy-iqtisodiy va demografik o'zgarishlarga olib keladi. Nikohga kirish natijasida, oilalar soni oshib boradi, yolg'izlar, bo'ydoqlar soni kamayadi. Nikohning bekor etilishi, ya'ni ajralish jarayoni esa aholi tarkibida tugalmas oilalarning va bevalar salmog'ining ko'payishiga sabab bo'ladi. Inson dunyoga kelar ekan ma'lum davr yashaydi. Ana

shu davr moboynida u ulg'ayib boradi. Go'daklik davridan bolalikka, o'smirlik, yoshlik va o'rta yoshlik, yetuklik, qariyalik davrlariga o'tadi. Har bir o'quv yili tugashi bilan aholi tarkibida ma'lumotlilar soni oshib boradi. Ana shu tarzda shaxs xayotidagi o'zgarishlar aholi guruhidagi o'zgarishlarga olib keladi. Insonlarning bir hududdan ikkinchi bir hududga ko'chib o'tishi – migratsiya, ushbu hududlar aholi soniga va tarkibiga ta'sir etadi.

Aholi soni tug'ilish va o'lim hisobiga doimo o'zgarib boradi. Tug'ilish jarayoni aholi sonini ko'payishiga olib kelsa, o'lim uning kamayib ketishiga sabab bo'ladi. Tug'ilish va o'lim jarayonlari asosida aholi tabiiy o'sishi sodir bo'ladi. Agar tug'ilganlar o'lganlar sonidan yuqori bo'lsa, aholi ko'payib boradi, aksincha, o'lganlar soni tug'ilganlar sonidan ko'p bo'lsa, aholi soni kamayib boradi. Ma'lumki, jamiatda har doim qandaydir sabablarga ko'ra aholining bir qismi xayotdan ko'z yumadi, ya'ni vafot etadi. Yana bir qism aholi esa, dunyoga keladi. Jamiatdagi o'lgan aholi o'zni, yangi tug'ilganlar hisobiga to'lib boradi, avlodlar almashadi. Ana shu jarayon aholi takror barpo bo'lishining asosini tashkil etadi.

Biror bir hududda, ma'lum davrdagi aholi tarkibi, o'tgan davrdagi aholi takror barpo bo'lishining natijasi, keyingi davrdagi aholi takror barpo bo'lishining zamini hisoblanadi. Demak, aholi takror barpo bo'lishi jamiyat taraqqiyoti davomidagi doimiy, murakkab jarayondir.

Aholining takror barpo bo'lishi natijasida aholi soni va uning yosh-jinsiy tarkibi muntazam o'zgarib turadi. Yangi tug'ilgan bolalar jinsi aholi jinsiy tarkibiga ma'lum o'zgarishlar olib keladi. O'lganlar soni esa aholi yosh tarkibiga ta'sir etadi. Aholi yosh va jinsiy tarkibidagi o'zgarishlar jamiatda ma'lum sosial muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Aholining takror barpo bo'lish jarayoni esa, o'z navbatida qator, ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Shu bois aholining takror barpo bo'lish jarayoni jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida o'ziga xos xususiyatlarga, qonuniyatlarga egadir. Demografiyaning asosiy predmeti aholining takror bo'lish qonuniyatlarining tahlili hisoblanadi.

Aholini o'rganar ekan, demografiya alohida fan sifatida, uning miqdoriy va sifatiy xususiyatlarining mukammal tahlil etadi.

Aholining miqdoriy xususiyatlari ma'lum millat, hudud aholisi sonining o'zgarib (ko'payishi yoki kamayishi) borishida ifodalanadi. Aholining sifatiy xususiyatlari esa, ma'lum millat yoki hudud aholisining salomatlik va ma'lumotlilik darajasida, o'rtacha umr ko'rish muddati, bandligi kabi jihatlarda ifodalaniladi.

Har ikkala jarayon, ya'ni, aholining miqdoriy va sifatiy rivojlanishi bir-biriga chambarmas bog'liq, xolda sodir bo'ladi. Masalan, aholi salomatligini yuqori darajada bo'lishi, aholi o'rtasida o'limning kamayishi, o'rtacha umr ko'rish muddatining uzayishiga olib keladi. Natijada aholi soni ko'payib boradi. Shuningdek tug'ilishning juda yuqori darajada bo'lishi, ko'p hollarda ona va bola organizmning zaiflashib borishiga va o'lim hollari ko'payishiga olib keladi.

Jamiyat taraqqiyotining eng dastlabki bosqichidan to hozirgi davrga qadar har bir hudud aholisi ham miqdor, ham sifat jihatdan muntazai o'zgarib kelgandir. Demografiya aholining miqdoriy va sifatiy o'zgarishlarini aholining takror barpo bo'lishining asosiy omillari sifatida o'rganadi.

Aholining takror barpo bo'lishi, keng ma'noda tabiiy o'sish, o'lim, migratsiya aholining hududlar bo'ylab harakati, bir ijtimoiy guruhdan ikkinchi ijtimoiy guruhga o'tishi, mu'lumot olishi, mehnat faoliyatining boshlanishi va h.q. natijasida aholi tarkibini yangilab turishini bildiradi.

Demografiya asosiy e'tiborini tabiiy avlodlar almashuvi – ya'ni, tug'ilish va o'lim asosida aholining takror barpo bo'lish jarayoniga qaratadi. Ushbu jarayonni jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlaridagi qonuniyatlarini, turli millat, hudud va davlatlardagi xususiyatlari, omillarini o'rganadi, muammolarini aniqlaydi va istiqbolini belgilab beradi. Bu vazifalarni bajarish uchun demografiya jamiyat taraqqiyoti bosqichlari, tarixiy shart-sharoitlarini atroflaricha o'rganish lozim.

Demak, *demografiya, aholining takror barpo bo'lishi qonuniyatlari haqidagi fan bo'lib, bu jarayonni ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlarga bog'liq holda o'rganadi, omillarini, muammolarini aniqlab, istiqbolini beogilab beradi.*

Har bir fanning vazifasi tabiat va jamiyatning ma'lum qismidagi rivojlanish qonunlarini o'rganishdir. Lekin bu bilan bir qatorda har bir fanning o'ziga xos amaliy ahamiyatga ega bo'gan vazifalari ham mavjud. Demografiya ham alohida fan sifatida o'z vazifalariga egadir. Ushbu vazifalarni uch guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir¹.

1. Demografik jarayonlar va ularning omillarini o'rganish
2. Demografik prognozlarini ishlab chiqish
3. Demografik siyosat chora tadbirlarini ishlab chiqish

Demografik jarayonlarga tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish va oila kiradi. Demografik jarayonlar tarkibida tug'ilish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, o'rganilayotgan mavjud aholi avvalo tug'ilish jarayoni natijasida dunyoga kelgan. Demografiya tug'ilishni alohida, aholi takror barpo bo'lishining demografik zamini sifatida o'rganadi, unga ta'sir etuvchi barcha ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy omillarni tahlil etadi. Shuningdek, o'lim jarayoni ham aholi takror barpo bo'lishining asosiy elementi sifatida demografiya fanining e'tiborida turadi. Aholining takror barpo bo'lishida birinchi navbatda oila tashkil topishi ya'ni shakllanishi ahamiyatlidir. Chunki dunyoda tug'ilayotgan insonlarning aksariyati oiladi, oila muhitida dunyoga keladi, shaxs sifatida shakllanib o'zining demografik faoliyatini (oilani qurish, farzandlar ko'rish) boshlaydi.

Oila shakllanishi esa, o'z o'rnida nikoh va ajralish jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir. Demografiya nikoh evolyusiyasi va uning aholiga takror barpo bo'lishidagi o'rnini ham o'rganadi.

¹ V. A. Borisov. Demografiya. M, 1999 g, S. 14

Ajralish, ya'ni nikohni bekor etilishi ham aholi takror barpo bo'lishiga ta'sir etuvchi demografik jarayon hisoblanadi. Demografiya ushbu jarayonni o'rganar ekan, unga ta'sir etuvchi qator sabab va oqibatlarini atroflaricha taxlil etadi.

Demografiya aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi – migratsiyasini ham o'rganadi. Lekin bu jarayonni o'rganishda, aholi geografiyasidan farqli ravishda, asosiy e'tiborini migratsiya jarayonining hududiy xususiyatlarga emas, balki ushbu jarayon natijasida ro'y beradigan hududning demografik holatidagi o'zgarishlarga qaratadi.

Demografiyada oila asosiy ijtimoiy – demografik gurux sifatida o'rganiladi. Oilani jamiyat taraqqiyoti davomidagi o'rni, evolyusiyasi, aholining takror barpo bo'lishidagi asosiy faoliyati va uning o'zgarib borish omillari va oqibatlari o'rganilib, kelajak rivojlanishining asosiy yo'nalishlari aniqlanadi.

Ma'lumki, aholi, tug'ilish va o'lim jarayoni natijasida mavjud bo'lgan avlodlar almashuvini yig'indisidir. Inson mavjudligini ta'minlovchi barcha demografik jarayonlar – tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish uning hayotidagi ma'lum davrida, ya'ni ma'lum yoshda ro'y beradi.

Shuning uchun, yosh demografik jarayonlarni o'rganinishda asosiy mezon hisoblanadi. Insonning demografik va ijtimoiy holatida, o'z xayoti davomida yosh va jins asosiy ko'rsatgichdir. Aholining jinsiy tarkibi ham demografik holatga ta'sir etuvchi asosiy, demografik taxlili lozim bo'lgan mezonlardandir.

Demografik proghozlar ishlab chiqishda demografiya fani, birinchi navbatda o'rganilaniyotgan hudud yoki ijtimoiy gurux aholisining demografik maylini (demografik jarayonlariga bo'lgan munosabati) atroflicha taxlil etadi va ayni shu asosda demografik jarayonlarda kelajakda kutilayotgan o'zgarishlarni ko'rsatib beradi.

Demografik siyosat mazmuni va tadbirlarini ishlab chiqish juda ma'suliyatli va murakkab jarayondir. Ushbu yumushni bajarishda demografiya o'rganilayotgan davlat yoki alohida hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish qoninuyatlarini, demografik holatini mukammal o'rganishi lozim.

Demak aholi geografiyasi va demografiya o'rganish ob'ektlari va predmetlari nuqtai nazardan, o'zaro juda yaqin tutash fanlardir. Ular o'z tadqiqotlarida bir hil manbalarga asoslanadilar, va o'z yo'nalishlari, maqsadlari bo'yicha tadqiqot olib boradilar, va hulosa chiqaradilar. Masalan, demografiya ma'lum hudud aholisi soni va tadqiqotidagi ma'lum vaqtda sodir bo'lgan o'zgarishlarni demografik jarayonlarga asosan izohlaydi, aholi geografiyasi esa uning geografik omillari hamda hududiy xususiyatlariga e'tibor qaratadi.

Aholi migratsiyasini ham har ikkala fan mukammal o'rganadi. Demografik tadqiqotlarda aholi migratsiyasi demografik jarayonlarga ta'sir etuvchi omil sifatida taxlil etilsa, aholi geografiyasi esa migratsiya oqimining yo'nalishlari, hududiy xususiyatlari mehnat resurslari shakllanishda ishlab chiqarishni tashkil etishdagi o'rni va ahamiyati kabi jihatlari tadqiq etadi.

Aholi geografiyasi va demografiya fanlarining eng muhim predmetlaridan biri aholining takror barpo bo'lishi, tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralim kabi demografik jarayonlar asosida avlodlar almashuvini; oila tashkil topishi va uzluksiz davom etishini ta'minlovchi jarayon sifatida taxlil etadi. Shuningdek, aholi soni dinamikasi va tarkibining shakllanishida ham aholi takror barpo bo'lishini, asosiy omil sifatida o'rganadi. Aholi geografiyasi esa aholi takror barpo bo'lishidagi hududiy farqlarni o'rganadi. Aholi geografiyasi har bir hudud aholisi soni dinamikasi, yosh-jinsiy oilaviy tarkibi, takror barpo bo'lishi, mehnat resurslarining hududiy shakllanishini o'rganganda bevosita demografik ko'rsatkichlarga, demografik tadqiqot natijalariga asoslanadi. Ana shu bois geograf mutaxassislar asosiy demografik tushunchalar, ko'rsatkichlar, uslublar haqida batafsil bilimga ega bo'lishlari zarur.

3-Mavzu: Demografik tadqiqotlar rivojlanishi va aholi geografiyasining fan sifatida shakllanishi tarixi

Mavzu rejasi:

1. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining rivojlanish an'analari.
2. XVIII-XXI asrlarda xorij va MDH olimlarining aholishunoslik va demografik jarayonlarni o'rganish bo'yicha qarashlari va yondoshuvlari.
3. Demografik rivojlanishning turli konsepsiyalari.
4. Aholi geografiyasi rivojlanishining ilmiy nazariy masalalari. Antik davr olimlari ishlarida aholi to'g'risida ma'lumotlar

Demografiya ham alohida fan sifatida o'z shakllanish va rivojlanish tarixiga egadir. Mazkur fanning tarixi aholi haqidagi ma'lumotlar ya'ni demografik bilimlarning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir.

Demografik bilimlar – aholi soni, yosh-jinsiy va ijtimoiy tarkibi, tug'ilishi, o'lim hollari, nikoh va ajralish jarayonlari, mionrasiya, hamda oilaning demografik holatiga oid ma'lumotlardan tashkil topadi. Bunday ma'lumotlar jamiyatning, ayniqsa davlatning tashkil topishi bilan bog'liq bo'lib, juda qadimiy tarixga egadir. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, aholi ayniqsa erkaklar xo'jaliklar, oilalar soniga oid demografik ma'lumotlar eramizdan oldingi davrlardan boshlab mavjud ekan. Bularga eramizdan oldingi III – VI asrlardan boshlab Osiyo va Afrika davlatlari, MSR, Mesopotamiya, Hindiston, Hitoy, Yaponiya hamda qadimgi Rim va Gresiyada o'tkazilgan aholi ro'yhatlari orqali to'plangan ma'lumotlar misol bo'la oladi. Demografik bilimlar tarixini o'z mazmuniga ko'ra, jamiyat raqqiyotning dastlabki bosqichlardan to bugunga qadar uch davrga bo'lib, o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi davr. XVI asrga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ushbu davrda davlatchilik rivojlanishi bilan bog'liq holda aholining soni, ayniqsa erkaklar

soni, xo'jaliklar haqida ma'lumotlar to'plangan. Ba'zi davlatlarda esa aholi ro'yhati ham o'tkazilib turilgan. Lekin bu davrda demografik bilimlarga oid ma'lumotlar dunyoning hamma hududlarida ham to'planib borilmagan. Ilmiy manbaalarga demografik bilimlarga oid ma'lumotlar juda kam uchraydi.

Ikkinchi davr. XVI – XVIII asrlarni o'z ichiga oladi. Demografik bilimlarni rivojlanishida bu davr alohida ahamiyatga egadir. Chunki bu davrda demografik bilimlarga ehtiyoj kuchaydi. Aholi hayoti da katta ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar yuz berdi. Feodalistik munosabatlarni asta-sekin kapitalistik munosabatlar egallay boshladi. XVI – XVII asrdagi buyuk geografik kashfiyotlar, halqaro savdning rivojlanishi, kapitalistik turmush tarzining shakllanishi natijasida turli davlatlar aholisi, ularning urf-odatlariga qiziqish kuchaydi. Ayniqsa, Yevropa davlatlarida aholi soni, harakatiga oid qator tadqiqotlar olib borildi. Bularga florensiyalik siyosatshunos va tarixchi N. Makiavelli, fransiyalik J. Boden, italiyalik D. Botero, angliyalik D. Graunt, V. Petti, rossiyalik V. Lomonosovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda dunyo aholisi, uning ba'zi hududlari, davlatlar aholisi haqida ancha mukammal ma'lumotlar to'plangan.

Uchinchi davr. Dunyodagi deyarli barcha davlatlar, ularning hududlari bo'ylab ham muntazam demografik bilimlar to'planib borilgan. Demografik bilimlar tizimi yana ham mukammallashgan. XVIII asrning ikkinchi yarimida Angliyada boshlangan sanoat to'ntarilishi XIX asrga kelib, AQSh, Fransiya, Germaniya, Rossiya, Italiya, Yaponiya kabi davlatlarni qamrab oldi. Natijada feodal jamiyatga qaraganda, ishlab chiqarish kuchlari ancha rivojlandi, texnika bilan ta'minlangan, ixtisoslashtirilgan industriyaga ega bo'lgan, sanoat kapitalizmi vujudga keldi. Uning rivojlanib borishi jamiyat taraqqiyotida ulkan o'zgarishlarga sabab buddi. Bu xolat Yevropa mamlakatlarida yaqqol ko'zga tashlandi. Natijada demografik jarayondar ham rivojlanib, ular haqidagi bilimlar doirasi yana ham kengayib bordi. Demografik tadqiqotlar o'tkazilishi har bir davlat uchun zaruriy ilmiy yo'nalishga aylandi. Ushbu davrda yirik demograf olimlar yetishib CHIQDI. Ular jumlasiga E.Rosset, R.Pressa, U.Laplas, A.Kettle, A.Giyyar, D.Mendeleev, S.Novoselskiy, V.Bunyakovski, G.Syundberg, V.R.Smulevich, D.I.Valentey, Ya.N.Guzevatey, A.E.Boyarskiy, A.Ya.Kvasha, O'zbekistonda esa Ye.S.Timm, A.A.Shoroxova, M.K.Koraxanov, I.R.Mullajonov va boshqalarni kiritish mumkin. Shuning bilan birga bu davrda dunyo, miqyosida jamda uning barcha davlatlarida demografik tadqiqotdar olib boruvchi, muttaxassislar tayyorlovchi yirik oliy va ilmiy maskanlar tashkil topdi va rivojdaiddi.

Demografiya fanining paydo bo'dish tarixi xaqida ilmiy manbalarda batafsil ma'lumotlar mavjuddir. «Bunday manbalarga D, K. Shelestovning «Demografiya: istoriya i sovremennost», V.Borisovnnng «Demografiya» nomli kitoblari, hamda, «Demograficheskiy ensiklopedicheskiy slovar» larnn misol qilib keltirish joizdir. Bu manbaalarda qayd etilishicha demografiya fanining paydo bulishi, asosan XVII asrning ikkinchi yarimidan boshlandi. Ana shu davrda Angliyada vabo va boshqa

yuqumli kasalliklar tarqalib, aholi o'rtasida o'lim hollari nihoyatda ko'payib ketdi. Shu bois Londonda har hafta o'lim haqida byulletenlar, ya'ni maxsus ma'lumotlar chop etilib, axoliga tarqatilar edi.

O'z salomatliklarini saqlash maqsadida mazkur ma'lumotlarni juda ko'p fuqarolar o'qirdilar. Angliyalik savdogar olim J.Graunt London tug'ilish va o'lim xaqidagi 80 yillik ma'lumotlarni o'rganib chiqdi va 1662 yili o'zining 90 betdan iborat «O'lim haqidagi byulletenlar asosida olib borilgan va mundarijada ilova etilgan tabiiy va siyosiy kuzatishlar natijalari. Ko'rsatilgan shaharning boshqaruvi, dini, savdosi, havosi, o'sishi va boshqa o'zgarishlar hususiyada London fuqarosi Djon Garuntning asari» kitobini yozdi. Kitob juda uzun nomlangan bo'lib, o'z oldiga keng qamrovli ijtimoiy hodisalarni maqsad qilib qo'ygan edi. Kitobda muallif Londonda ulum xolati va o'limning yosh guruhlari bo'yicha atroflicha urgangan. Tug'lishning shahar va qishloqlar farqlari, aholi migratsiyasi tahlil etilgan. Shuningdek, J.Graunt birinchi bo'lib, o'limning matematik jadvalini ishlab chiqqan. Ushbu asar o'z zamonasida ziyoblar tomonidan juda ijobiy baholandi. Uch yil mobaynida asar to'rt marta qayta chop etildi. Kitob qirol Karl II ga juda ma'qul keldi va muallif J.Grauntni qirollik jamiyatiga qabul qildi.

J.Graunt bu kichik hajmli kitobchasi bir ejas uch fanning rivojlanishiga zamin yaratdi. Bu fanlar demografiya, statistika va sosiologiya fanlari edi. J.Graunt olib borgan tadqiqotlarning davomchisi sifatida fanda «Siyosiy-arifmetika» yo'nalishi paydo bo'ldi, Mazkur fan jamiyatdagi hodisa va jarayonlarni miqdoriy qonuniyatlarani o'rganardi.

XVIII – XIX acrlarda jamiyat xayotidagi demografik, jarayonlarni o'rganishga qiziqish kuchaydi. Taniqli iqtisodchilar, tarixchilar, siyosat junoslar, astronomlar shifokorlar, matematiklar tomonidan demografik jarayonlarni o'rganishga doir qator tadqiqotlar olib borildi. Nihoyat XIX acrda A.Giyyar yangi vujudga kelgan fanga nom berdi. Uning 1855 yilda Parijda “Inson statistikasi elementlari, yoki qiyosiy demografiya”, deb nomlangan kitobi chop etildi. Bu asarda demografiyaning mustaqil fan sifatida maqsadi yoritilgan. A. Giyyar asarida demografiyaga ko'p jarayonlarni o'z ichiga oluvchi insonlarning tabiiy va ijtimoiy tarixi va ularning umumiy harakati jismoniy, fuqarolik va ahloqiy holatini matematik tarzda o'rganuvchi fan deb ta'rif berilgan. 1851 – 1922 yillarda yashab ijod etishgan olim Jan Bertilon (A. Giyyarning nabirasi) tomonidan ham demografiyaning fan sifatidagi o'rganuvchi predmetiga baho beriladi. Olim 1881 yilda yozilgan “Fransiya aholisi harakatining statistikasi” nomli asarida “Demografiya jamoia hayotini o'rganish bilan shug'ullandi. Uning maqsadi jamiyatning rivojlanishi, qayta tiklanishi va nihoyat inqirozga uchrab, bahram topishlarning sabablarini o'rganish. U halqning, ham jismoniy, ham ahloqiy tuzulishni ko'rib chiqadi: odamlar qanday va nima uchun nikoh quradilar, qay miqdorda ko'payadilar va tadbiiq etadi. Va nihoyat u insonlar necha yoshda qanday

vaziyatda qaysi sabablarga ko‘ra, o‘lishlarining sabablarini yoritadi” deb yozadi. Demografiyani predmetiga oid A.Giyyar va J.Bertilonlarning hulosalaridan ko‘rinib turibdiki, demografiya juda keng muammolarni o‘z ichiga oladi. Ana shunday qarashlar XX asrning 70 yillarida qadar mavjud edi. Keyinchalik demografiyaning o‘rganish doirasi bir oz torayib, aniqlanib bordi. Nihoyat demografiya aholining tabiiy harakatini, ya’ni uning takror barpo bo‘lishini atroflicha o‘rganadigan fan, degan hulosaga kelindi.

XX asrning keyingi 30 yilida dunyoda demografiya alohida fan sifatida juda rivojlandi. AQSh, Yaponiya, Fransiya, Angliya, Rossiya kabi davlatlar oliygohlarida “Demografiya” kafedralari tashkil topib, shu soha bo‘yicha demograf olimlar tayyorlash hai yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekistonda ham, 2000 yilda, O‘zbekiston Milliy Universitetining geografiya fakultetida respublikada dastlabki “Demografiya” kafedrasi tashkil topdi. Bu hol o‘lkada “Demografiya” ning fan sifatida rivojlanishi tomon ko‘yilgan dastlabki, lekin ahamiyatli qadamdir.

O‘zbekistonda ham demografik tadqiqotlar rivojlanishi o‘z tarixiga egadir. Respublikada fan, madaniyat va davlatchilik rivojlanishi juda qadimiy tarixga ega. Yuqorida demografik bilimlar to‘plash, asosan davlatchilik bilan bog‘liq ekanligi haqida fikr yuritildi. Demak, O‘zbekistonda ham, demogafik bilimlar juda qadimdan mavjud bo‘lgan. Bular haqida qadimiy qo‘lyozmalar, arxeologik yodgorliklar, qator ilmiy manbalar guvohlik beradi. Lekin o‘lkada maqsadli demografik tadqiqotla o‘tkazish asosan 1960 yillardan boshlanadi. Ana shu davrdan to hozirgi kunga qadar Respublikada juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan demogafik tadqiqotlar olib borilgan, hamda shu sohada yirik mutaxxasislar tayyorlangan. Demografiya sohasida erishilgan yutuqlar ustoz olim M. K. Qoraxonov nomi bilan bog‘liqdir. Olim nafaqat O‘zbekistonda, balki Markazaiy Osiyoda yirik demografik tadqiqotlar olib bordi. Ushbu hududning XIX asrning ikkinchi yarimidan boshlab, demografik tarixini tikladi. Aholi o‘sishi, tug‘ilishi, o‘lim, nikoh va ajralish kabi demografik jarayonlar xususiyatlarini o‘rgandi. Ular bilan bog‘liq omillar, muammolarni aniqlab berdi.

O‘rta Osiyo tarkibiga kiriuvchi respublikalarda aholi o‘sishi prognozini yaratishda iomiy rahbarlik qildi. Qoraxonov o‘lkamiz aholisining miqdoriy rivojlanishi bilan bir qatorda uning sifatiy rivojlanishi sohasida ham yirik tadqiqot ishlarini olib bordi. Ustoz rahbarligida O‘zbekistonda aholi ma’lumotlilik bosqichlari bo‘yicha proghozi ham ishlab chiqilgan. Olimning olib borgan tadqiqotlari asosida monografiya, risolalar va 200 dan ortiq ilmiy maqolalari sop etilgan.

Ustoz o‘z ilmiy faoliyatini 1960 yillardan boshlab, hayotning ohirgi damlarigacha O‘zbekiston Milliy Universitetining geografiya fakultetida olib bordi. Dastlab respublikada demografiyasini o‘rganuvchi ilmiy guruh tuzdi. 1972 yilda ana shu guruh O‘rta Osiy Respublikalari demografik holati va muammolarini o‘rganuvchi yirik “Aholishunoslik ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi” ga aylandi.

Ushbu laboratoriyada O'rta Osiyo demografiyasini o'rganishga doir chuqur, tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan tadqiqotlar olib borildi. Shuning bilan bigan, Qoraxonov M.Q. rahnamoligida aholi muammolarini o'rganuvchi yirik ilmiy maktab yaratildi. Ustoz maktabida shakllangan muttaxislar bugungi kunda uning ishini davom ettirib, jamiyat taraqqiyatiga molik tadqiqotlar olib bormoqdalar. O'lkamiz demografik tarixini va aholi muammolarini o'rganishda Mullajonov R. I., Ubaydullaeva R. A., Ahmedov E., Ota – Mirzaev O. B., Maksakova L. P., Soliev A.S., Ali – Qoriev N. S., Salimov X., Bo'rieva M.R., Qayumov A. A., Ergashov O. E., Safarov E., Saydaxmedov O., Murtazina G., Rayimjonov Z.X., Ortiqboev R.J. Tojiyeva Z kabi olimlar borgan tadqiqotlar ham ustoz Qoraxonov M.Q., boshlagan ilmiy izlanishlarni davomi sifatida O'zbekistonda olib borilgan demografik tadqiqotlar tarixida alohida ahamiyatlidir.

4-Mavzu: Aholi to'g'risida ma'lumotlar manbalari

Mavzu rejasi:

1. Aholi to'g'risida ma'lumotlar manbalari xaqida umumiy tavsiflar. Birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlar.
2. Aholini hisobga olish, turlari. Aholining joriy statistik hisobi. Tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish va migratsiya jarayonlarining joriy statistik hisobi.

Jamiyat taraqqiyoti davomida aholi soni va tarkibi muntazam o'zgarib kelgan. Yuqorida qayd etilganidek insonlar tug'iladi, ularning ma'lum qismi hayotdan ko'z yumadi, nikohga kirib oila quradi, nikohlar bekor etiladi. Shuningdek insonlar bir hududdan ikkinchi hududga ko'chadilar, bir ijtimoiy guruhdan boshqa ijtimoiy guruhga o'tadilar. Masalan, O'zbekistonda 2007 yil 608,9 mingta chaqaloq tug'ildi, 137,4 ming kishi hayotdan ko'z yumdi, 254,2 ming kishi nikoh, 18,2 ming ajrimlar qayd etildi, 69,1 ming o'quvchilar oliy o'quv yurtlariga qabul qilindilar. Ya'ni o'quvchilik guruhidan talabalik guruhiga o'tdilar.

Respublikada 1926 yili 4,6 million aholi bo'lib, ularning 22 foizi shaharlarda, 78 foizi qishloq hududlarida istiqomat etganlar. 2008 yilda esa O'zbekiston aholisining soni 27,1 millionga yetdi va ularning 35,8 foizi shahar, 64,2 foizi esa qishloq aholisiga mansubligi haqida ma'lumotlar mavjud. Aholi soni uning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik tarkibi davrlar, hududlar bo'yicha doimo o'zgarib turadi. Ushbu jarayon dunyoning barcha davlatlari, xalqlari va hududlarida sodir bo'ladi va ular xaqida muntazam ma'lumotlar to'plab, hisobga olinib boriladi.

Aholi soni va tarkibida sodir bo'lgan barcha o'zgarishlar iqtisodiyotning rivojlanishiga, umuman jamiyatning rivojlanishiga bevosita ta'sir etadi. Har bir hududning, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida aholi sonining ortib yoki kamayib borishi, aholining umumiy tarkibida mehnat yoshidagi aholi guruhining salmog'i, ularning demografik va sifatiiy shakllanib borishi, shuningdek bolalar va

mehnat yoshidan yuqori bo'lgan qariyalar salmog'i ham juda muhimdir. Har bir davlat aholisining soni va yosh-jinsiy tarkibidagi mutanosiblik, uning rivojlanish istiqboli dasturlarini ishlab chiqishda asosiy omil, zamin hisoblanadi. Ana shu nuqtai nazardan dunyo va uning alohida hududlari, davlatlari, xalqlari bo'yicha aholi soni va tarkibini yuqorida qayd etilganidek juda qadimdan boshlab hisobga olib kelinadi. Aholi soni va tarkibini hisobga olish uslublari, dasturlari, texnikalari jamiyat rivojlanishiga monand doimo rivojlanib, takomillashib keldi. Aholini hisobga olishda, uning umumiy soni, yosh-jinsiy tarkibi bilan bir qatorda oilaviy tarkibi, tug'ilish, o'lim, nikoh va ajrim kabi demografik jarayonlar, aholi migratsiyasi haqida ham ma'lumotlar to'planib boriladi.

Aholini hisobga olishda to'plangan ma'lumotlarni aniqligi, to'la qamrovi va muntazamligi juda muhimdir. Masalan, O'zbekiston aholisi soni tarkibi haqida ma'lumotlar to'planganida, tug'ilgan chaqaloqlardan boshlab barcha yoshdagi aholi soni, eng kichik mahalla, qishloq, tuman, viloyat va shaharlar aholisi, ularning ijtimoiy-demografik tarkibi haqida ma'lumotlar aniq va har bir yil, davr uchun muntazam hisoblab borilishi lozim.

Jahondagi barcha davlatlarda aholining ijtimoiy-iqtisodiy va demografik holatlari hisobga olinib, ma'lumotlar muntazam to'planib boriladi. Hozirgi davrda aholini hisobga olishning asosiy to'rt turi mavjuddir: aholi ro'yxati o'tkazish; demografik jarayonlarning doimiy ro'yxatga olish; tanlama va sotsiologik-demografik tadqiqotlar; aholining turli ro'yxatlari va registrlari. Aholini hisobga olishda eng asosiy va aniq manba – umumiy aholi ro'yxati o'tkazishdir.

5-Mavzu: Aholi ro'yxati

Mavzu rejasi:

1. Aholi ro'yxati aholi to'g'risida ma'lumotlar manbai sifatida.
2. Aholi ro'yxati o'tkazish tamoyillari, dasturlari vazifalari.
3. Aholini ro'yxatga olishning usullari.
4. Aholi ro'yxatini o'tkazish bo'yicha jahon tajribalari.

Aholi ro'yxati-ma'lum davrda, ma'lum davlat yoki hududning har bir aholisi bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy va demografik ma'lumotlar to'plashdir.¹ Aholi ro'yxati o'tkazish jarayonida dunyo va uning alohida hududlari aholisi soni va tarkibi bo'yicha ilmiy asoslangan holda aniq ma'lumotlar olinadi.

Jamiyat taraqqiyoti davomida aholini ro'yxatga olish juda qadimdan boshlangan. Chunonchi, miloddan avvalgi yillarda Misr, Mesopotamiya, Hindiston va Xitoyda aholi ro'yxatlari o'tkazilganligi haqida ma'lumotlar bor¹. Shuningdek, miloddan avvalgi to'rtinchi asrda Yunoniston va Rimda ham aholi ro'yxatlari

¹ Demograficheskiy i ensiklopedicheskiy slovar. M, 1985. s 314

¹ Qayd etilgan manba

o'tkazilganligi ma'lum. Qadimgi Rimda dastlabki aholi ro'yxati imperator Servi Tull davrida o'tkazilgan. Eramizdan oldingi 435 yildan boshlab esa, Rimda aholi muntazam ro'yxatga olib borilgan va bu ro'yxatlar "senzi" deb nomlangan. O'tkazilgan ro'yxatlarda har bir Rim fuqarosi sensor (ro'yxatga oluvchiga) o'zi va oila a'zolarining yoshi hamda mol-mulki haqida ma'lumotlar bergan.

Miloddan avvalgi 510 yildan boshlab Rimda har besh yilda aholi ro'yxatga olingan. Shuningdek, Yaponiya, Bobilda ham juda qadimdan aholi ro'yxatlar o'tkazilgan bo'lib, undan maqsad, aholidan soliq yig'ish, boj olish, hamda harbiy maqsad uchun aholi sonini, asosan, erkaklar sonini bilish bo'lgan. Shuning uchun ham aholi ro'yxatida faqat erkaklar ishtirok etganlar. Chunki, o'sha paytlarda jamiyatda ham, oilada ham erkaklarning iqtisodiy o'rni yuqori bo'lgan. Soliq top'lashda faqat erkaklar, ya'ni oila boshliqlari ishtirok etganlar.

O'rta asrlarda o'tkazilgan aholi ro'yxatlarida esa, asosiy e'tibor xo'jaliklarga qaratiladi. Xo'jaliklar haqida maxsus kadastr kitoblarida ma'lumotlar to'plab boriladi. Bu davrda aholi muntazam ro'yxatga olinmagan. Faqat alohida sharoitlarda ba'zan yoppasiga tarqalgan epidemiyalardan yoki urushlardan keyin qancha aholi qolganligini bilish uchun aholi ro'yxatlari o'tkazilgan.

XVII asrning o'rtalaridan boshlab Yevropada milliy davlatlarning paydo bo'lishi va ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi bilan aholi haqida mukammalroq ma'lumotlarga talab ortib boradi va qator aholi ro'yxatlari o'tkaziladi. O'sha kezlardagi aholi ro'yxati o'tkazish tarixini, uning ma'zmun va mohiyatiga bog'liq holda uch davrga ajratish mumkin.

Birinchi davr XVII asrning oxiri, XIX asrning boshlarini o'z ichiga oladi va ushbu davrda aholi ro'yxati o'tkazishni tashkil etish hamda dasturini tuzishga asos solinadi. Dasturda aholi ro'yxati qonun qoidalari ishlab chiqilgan unga ko'ra aholi ro'yxati yangi tug'ilgan chaqaloqdan boshlab eng keksa guruhgacha qamrab olinishi lozim bo'lgan. Mazkur dastur asosida aholi ro'yxati 1790 yildi AQSh da, 1801 yili Fransiya, Daniya, Norvegiya hamda Angliyada o'tkaziladi. Lekin, bu aholi ro'yxatlari ham oddiy dasturga asoslangan bo'lib, ularni o'tkazish juda uzoq cho'ziladi. Masalan, birinchi Amerika aholi ro'yxati 18 oyga cho'zilgan. Bu davrda aholi soni va tarkibida qator o'zgarishlar bo'lishi tabiiy albatta.

Ikkinchi davr XIX asrning yarmi va XX asrning birinchi yarmini o'z ichiga oladi. Bu davrda statistika fan sifatida taraqqiy etadi. Qator davlatlarda statistika tashkilotlari tuziladi. Aholini ro'yxatga olish dasturlari ilmiy asosda ishlab chiqiladi.

Mukammal aholi ro'yxati maxsus dastur asosida bir kunda o'tkazilib va barcha (erkak va ayol) aholini qamrab olishi kerak. Ana shunday aholi ro'yxatlari ikkinchi davrda Yevropa va Amerikaning barcha davlatlarida, Osiyo va Afrikaning ba'zi davlatlarida o'tkaziladi. 1870-1879 yillarda dunyoda 48 ta, 1890 yillarda esa 57 ta davlatida shu tartibda aholi ro'yxati o'tkazildi. XIX asr oxirida

dunyo aholisining 21 foizi ro'yxatga olingan bo'lsa, XX asr boshlarida bu ko'rsatkich-54 foizni tashkil etdi.²

Uchinchi davr XX asrning o'rtalaridan boshlanib, hozirgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Unda aholini ro'yxatga olish dasturi yana mukammalashadi, geografiyasi kengaydi. Osiyo va Afrikada mustaqillikka erishgan qator davlatlarda aholi ro'yxatlari o'tkazildi. 1970 yillarda Arabiston yarim orolidagi davlatlarda va Afg'onistonda dastlabki aholi ro'yxatlari o'tkazildi. 1965-1974 yillarda esa dunyodagi 179 davlatda aholi ro'yxatga olindi. XX asrda aholi ro'yxatini ilmiy manba sifatida, tahlil etish takomillashdi.³

Hozirgi paytda dunyoda deyarli barcha davlatlarda aholini ilmiy asoslangan dasturlar asosida, juda keng mavzularni qamrab olgan holda, har 5-10 yilda ro'yxatga olish yo'lga qo'yilgan. Aholi ro'yxatida, aholi haqida asosan demografik (jinsi, tug'ilgan yili yoki yoshi, oilaviy holati, nikohga kirgan yoshi farzandlari soni), iqtisodiy (bandligi, iqtisodiy faoliyati, xo'jaligi, daromadi), ma'lumotlilik darajasi (savodxonligi, maktabga borishi, ma'lumot turlari, ilmiy darajasi) etnik holati (millati, tili, qaysi tillarni bilishi, ba'zan diniy mansubligi) va boshqa ma'lumotlar to'planadi. Olingan ma'lumotlar texnik vositalar yordamida, har bir yo'nalishlar bo'yicha alohida o'rganilib, statistik yilnomalarda chop etiladi. Ana shunday aholi ro'yxatlari O'zbekiston hududida ham 1897, 1926, 1939, 1959, 1979 va 1989 yillarda o'tkazilgan. Bu aholi ro'yxatlari yordamida o'lkaning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik holatiga oid qimmatli ma'lumotlar to'plangan.

Aholi ro'yxatlari aholining faqat miqdoriy ko'rsatkichlarini emas, balki uning sifatiy ko'rsatkichlarini, yuqorida qayd etilganidek, ma'lumoti oilaviy va ijtimoiy holati, iqtisodiy imkoniyatlarini ham qamrab oladi. Ana shu nuqtai nazardan aholi ro'yxati va ana shu ro'yxat o'tkazilgan davrning aholi soni va tarkibini, joylashuvi, migratsiyasini, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik holati, turmush tarzini aniq ifodalovchi tarixiy manbadir.

Demografik jarayonlarni doimiy ro'yxatga olib borish aholini hisobga olishning muhim turlaridan bo'lib, bu jarayon asosan fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tomonidan bajariladi. Bu tashkilotlar tug'ilish, o'lim, nikoh va ajrimlar holatlarini doimiy ravishda qayd etib, ro'yxatga olib boradilar. O'zbekistonda fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDO) organlari tuman, viloyat, shaharlar doirasida tashkil etilgan va ularda tug'ilganlar, o'lganlar, qayd etilgan nikohlar, ajrimlar, ularning aniq sanalari va shaxslari haqida to'la ma'lumotlar doimiy qayd etilib boriladi. Umuman demografik jarayonlarni ro'yxatga olish dasturidagi savollarni ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga jarayonlar manzili, sodir bo'lgan va qayd etilgan vaqti, ikkinchi guruhga esa jarayon o'tgan shaxslar haqidagi savollarni kiritiladi. Masalan tug'ilishni

² Demografiya asoslari. Toshkent, 2001, 18 bet.

³ Gazulov A.I. Perepisi naseleniye SSSR i kapitalisticheskix stran M., 1936; Boyarskiy A.Ya. Perepisi naseleniya v kapitalisticheskix stranax. M., 1938; Uralnis B.I. Istoriya amerikanskix senzov 1970 g. M., 1976; Vsesoyuznaya perepisi naseleniya 1979 g., M., va boshqalar.

ro'yxatga olishda-chaqaloqni otasi, onasining millati, yoshi, ish joyi kabi ma'lumotlar ham qayd etiladi.

Nikoh jarayonini ro'yxatga olishda ham nikohga kiruvchilarning millati, yoshi va ijtimoiy holati haqida ma'lumotlar ko'rsatiladi. Ushbu ma'lumotlar asosida juda ko'p ko'rsatkichli jadvallar tayyorlanadi. Ana shunday jadvallarga tug'ilganlarni onasining millati, yoshi, otasining millati, yoshi bo'yicha taqsimlanishi, vafot etganlarning hududlar, millatlar, yosh guruhlari bo'yicha, nikoh, ajrimlarni ham ana shu, holatlar bo'yicha taqsimlanishini misol qilish mumkin.

Aholi migratsiyasi davlatlarning maxsus militsiya organlarida muntazam hisobga olib boriladi. Ularda migratsiyada ishtirok etgan shaxsni demografik va ijtimoiy holatini ifodalovchi ma'lumotlar bilan birga, kelish va ketish sabablari manzillari haqida ham ma'lumotlar qayd etiladi. Aholini doimiy ro'yxatga olishda ishonchli va to'la ma'lumotlar bo'lishi muhimdir. Chunki ushbu ma'lumotlar asosida har bir hududning demografik holati, rivojlanishi o'rganiladi, qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yechimi ishlab chiqiladi. Shuning uchun har bir demografik jarayonni o'z vaqtida qayd etilishi maxsus qonunlar orqali nazorat etiladi.

Aholi ro'yxati va aholini doimiy hisobga olish, har birini to'ldirib aholi haqida to'la ma'lumot olishga imkon beradi. Lekin ularni farq etuvchi tomonlari ham mavjuddir. Aholi ro'yxati ma'lum muddatlarda (aksariyat holatlar-10 yilda) maxsus tashkilotlar, mutaxassislar tomonidan va bir vaqtda o'tkaziladi. Aholini doimiy hisobga olishda esa, qonun bo'yicha belgilangan muddatda aholining o'zi tegishli tashkilotlarga kelib, demografik jarayonlarni qayd ettiradilar.

Aholi soni va tarkibidagi o'zgarishlarni muntazam aniqlab borishda aholi ro'yxati ma'lumotlari asosdir. Ma'lum yilda aholi ro'yxati o'tkazilib aholi soni va tarkibi haqida aniq ma'lumot olinadi. Undan keyingi yildagi aholi soni va tarkibini aniqlash uchun shu yilda tug'ilganlar va ko'chib kelganlar sonini ro'yxatda aniqlangan aholi soniga qo'shib, vafot etganlar va ko'chib ketganlar sonini esa ayirib tashlanadi. Ana shunday uslub bilan navbatdagi aholi ro'yxati o'tkazilgunga qadar har yil uchun aholi soni va tarkibi haqida ma'lumotlar aniqlanadi.

Tanlama sotsiologik-demografik tadqiqotlar ham aholini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotlarda demografik jarayonlar va ularga ta'sir etuvchi omillar, xususiyatlari haqida aholi ro'yxati va aholini doimiy hisobga olish orqali olib bo'lmaydigan ma'lumotlar to'planadi. Shuningdek, mazkur tadqiqotlarda demografik prognozlar uchun juda muhim bo'lgan demografik mayl (aholining demografik jarayonlarga bo'lgan munosabatlari) uning avlodlar bo'yicha xususiyatlarini ham o'rganish mumkin. Maxsus demografik tadqiqotlar sosiologik uslubda, so'rovnomalar, suhbatlar yordamida olib boriladi.

Tug'ilish, o'lish, nikohga kirish, ajralish (nikohning bekor qilinishi), aholi migratsiyasi kabi demografik jarayonlarni sosiologik uslub yordamida o'rganish

sosiologik-demografik tadqiqot deyiladi Bunday tadqiqotlarda demografik jarayonlarning turli avlodlarda, ijtimoiy guruhlarda, millatlarda va hududlarda xususiyatlari va unga ta'sir etuvchi omillari mukammal o'rganiladi. Buning uchun o'rganilayotgan demografik jarayonlar va ularning omillarini aniqlashga oid savollardan maxsus so'roq varaqasi (anketa) tuziladi. Ular aholi o'rtasida suxbat o'tkazish, bevosita savol-javob yoki aholining o'ziga tarqatish yo'li bilan to'ldiriladi. Sotsiologik uslub bilan o'tkazilgan bunday tadqiqotlar demografik jarayonlarni o'rganishda, ularning xususiyatlarini to'g'ri aks ettirishda juda qulay hisoblanadi. Demografik jarayonlarni bevosita savol-javob, suhbat usuli yordamida o'rganganda statistik ma'lumotlar ifodalay olmagan jihatlar ham yoritiladi. Sotsiologik uslub, ayniqsa, O'zbekiston kabi qadimda demografik jarayonlari muntazam statistik ro'yxatga olib borilmagan hududlar uchun yana ham qimmatlidir. Chunki keksa avlodlar o'rtasida maxsus sotsiologik-demografik tadqiqotlar o'tkazib, qadimda demografik jarayonlar qanday bo'lganligi va ularga ta'sir etgan omillar haqida ma'lumotlar to'plab, birmuncha aniq tasavvurga ega bo'lish mumkin.

O'zbekistonda demografik jarayonlarni sotsiologik-demografik tadqiqotlar yordamida o'rganish 1928-1930 yillardan boshlangan. 1960-1970 yillardan boshlab esa mukamallashib, rivojlanib bordi.⁴ Ushbu tadqiqotlar yordamida respublika shahar va qishloq tumanlarida tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish kabi jarayonlar va ularga aholining bo'lgan munosabatlarini avlodlar bo'yicha alohida o'rganilgan, omillari, xususiyatlari aniqlangan.

Aholini hisobga olishda yana bir muhim manba aholining alohida guruhleri haqidagi ma'lumotlar bo'lib, ular turli tashkilotlar tomonidan to'planadi. Masalan, saylovchilar ro'yxati (O'zbekistonda 18 va undan yuqori yoshdagilar saylash huquqiga ega bo'lib, ular ning yoshi, jinsi, ijtimoiy holati haqidagi ma'lumotlar har bir shahar, qishloq saylov okruglar tomonidan to'planadi) harbiy xizmatga loyiq aholi (erkaklarning ma'lum yoshdagilari harbiy ro'yxatga olinadi) reproduktiv yosh (15-49) dagi ayollar (maxsus tibbiy muassasalar ro'yxatida turadi) ro'yhatlari. Shuningdek mahalla, qishloq fuqarolik kengashlarida oilalar va oila a'zolarining soni, xo'jaliklar haqida ham ma'lumotlar yig'ib boriladi.

Aholini hisobga olish, uning kategoriyalari, ya'ni belgilari orqali amalga oshiriladi (kategoriya-grekcha so'z bo'lib, aytib berish, belgi, degan ma'noni bildiradi). Aholi belgilari ularning mazkur hududda, yoki bir ma'muriy birlikda doimiy yoki vaqtincha yashashlarida ifodalanadi. Ushbu belgilar asosida aholi uch kategoriyaga ajratiladi: doimiy yashovchi aholi, mavjud (nalichnoe) aholi va yuridik aholi⁵. Aholini o'rganishda qayd etilgan uch kategoriya barcha hududlar va davlatlar uchun umumiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

⁴ M.R.Buriyeva O'zbekistonda oila demografiyasi. Toshkent, 1997 y., 133-139 betlar

⁵ Demograficheskiy ensiklopedicheskiy slovar. M., 1985, str.182.

Doimiy aholi – ma’lum aholi maskani yoki hududda ushbu vaqtda yashovchi asosiy aholini ifodalovchi insonlar yig‘indisidir. Doimiy aholini ifodalovchi mezon vaqtlar davomida o‘zgargan va davlatlar bo‘yicha farq qiladi. Masalan, O‘zbekistonda 1979 yilda o‘tkazilgan aholi ro‘yxatida aholi ro‘yxati o‘tkazilgan 16 yanvar kech soat 12 dan 17 yanvar kech soat 12 ga qadar ushbu hududda doimiy yashovchi aholi hamda, 6 oy muddatga ushbu hududdan vaqtincha ketganlar, hamda 6 oy muddatga mazkur hududga kelganlar doimiy aholi tarkibiga kiritilgan.

Mavjud (nalichnoe) aholi – aholi ro‘yxati ya’ni aholini hisobga olish davrida ushbu aholi maskani yoki hududida bo‘lgan barcha insonlar yig‘indisidir. Mavjud aholida uning faqat jismoniy mavjudligi emas, balki shu hududda (ishda, mehmonda, o‘qishda) bo‘lgan aholi ham kiritiladi.

Yuridik aholi-ushbu aholi maskanida maxsus ro‘yxatdan o‘tgan kishilar yig‘indisidir. Yuridik aholini ifodalovchi asosiy mezon uning shu hududda yashashini ifodalovchi, ma’muriy qayd etilgan xujjatdir.

Aholini ro‘yxatga olish jarayonida doimiy va mavjud aholi kategoriyalari hisobga olinadi. Shuningdek aholi ro‘yxati davomida har bir aholi yashash joylaridagi doimiy aholi, vaqtincha ketganlar va vaqtincha kelganlar hisobga olinadi. Doimiy yashovchi va vaqtincha ketganlar yig‘indisi doimiy aholini, doimiy yashovchi aholi va vaqtincha kelganlar yig‘indisi mavjud aholini ifodalaydi.

Umuman doimiy va mavjud aholi sonida katta farq bo‘lmaydi. Ushbu farq aholi maskanlarining ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatlari bilan bog‘liq. Aksariyat hollarda yirik shaharlarda, aholining dam olish hududlarida mavjud aholi soni doimiy aholi sonidan ko‘proq bo‘ladi. Ba’zi qishloq hududlarida esa aksincha-doimiy aholi soni mavjud aholi sonidan yuqoridir. Masalan, O‘zbekiston shaharlarida istiqomat etayotgan doimiy aholi soni 2003 yili 9340,7 ming kishini, mavjud aholi soni esa 9410,7 ming kishini tashkil etgan.

6-Mavzu: Aholisi soni va dinamikasi

Mavzu rejasi:

1. Aholi soni dinamikasi (tadrijiy o‘zgarishlari).
2. Aholining kategoriyalari: doimiy, vaqtincha, mavjud aholi.
3. Dunyo mamlakatlari aholi soni, ularni klassifikatsiyalash.
4. Aholi soni ko‘payishidagi tengsizlikning asosiy sabablari va oqibatlari.
5. Aholi ko‘payishi tarixiy bosqichlari.

Aholi soni - ma’lum hudud yoki aholi guruhidagi kishilarning miqdoriy ifodasidir. Demografiyada aholi soni, eng umumiy va asosiy ko‘rsatkich bo‘lib, aniq bir davrdagi aholi miqdorini anglatadi. Statistik manbalarda aholi soni ma’lum

bir chisloga (1-yanvar.1 iyulyoki 31 dekabr) keltiriladi. Masalan, O'zbekeiston aholisi 1991 yil 1 yanvarda 20708,2 mingni, 2000 yil 1 yanvarda esa 24487,7 mingni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlarni butun yil uchun qabul qilib bo'lmaydi, chunki yil davomida, ya'ni 1 yanvardan 31 dekabrga qadar aholi soni tug'ilish va o'lim hisobiga muntazam o'zgarib turadi.

Har bir xudud aholi sonini o'rganganda, uni doimiy (shu hududda doimiy ro'yxatga olingan) va mavjud real (tekshirilayotgan davrda shu hududda ma'lum muddat yashayotgan) aholiga ajratiladi.

Demografik gadqiqotlar olib borishda nazariy aholi soni, hamda mavjud, real aholi sonidan foydalaniladi. Nazariy aholi soni o'zgarmas -stabil, aholi sonidir. Stabil aholi soni lotincha 51a'shz so'zidan olingan bo'lib, doimiy, o'zgarmas degan ma'noni bildiradi. Aholi takror barpo bo'lishining maxsus koeffitsientlarini hisoblaganda stabil aholi sonidan foydalaniladi, turli demografik modellarni tuzganda nazariy aholidan foydalaniladi, ya'ni, o'rganilayotgan davr aholi soni o'zgarmas deb qabul qilinadi.

Real, mavjud aholi soni ma'lum bir ma'muriy xududning, davlatning o'rganilayotgan davrdagi mavjud aholi sonidir. Masalan, O'zbekiston davlatining aholi soni, Farg'ona vodiysining aholi soni va x.k.

Demografik koeffitsientlarni xisoblaganda odatda o'rtacha yillik aholi sonidan foydalaniladi. Chunki demografik jarayon butun yil davomiga ya'ni 1 yanvardan 31 dekabrgacha qadar bo'lgan muddatga hisoblanadi. Aholi soni esa yuqorida qayd etilgandek yil boshiga - 1 yanvarga olinadi. Ma'lum kalendar yilga o'rtacha yillik aholi soni hisoblash uchun shu, kalendar yilining boshidagi va keyingi kalendar yilning boshidagi aholi soni qo'shib ikkiga bo'linadi va o'rganilayotgan yil uchun o'rtacha aholi soni aniqlanadi. Buning uchun 1999 yil 1 yanvardagi va 2000 yil 1 yanvardagi aholi sonlarini qo'shib ikkiga bo'linadi. ($R_{1999}+R_{2000}:2$)

Aholi soni xaqidagi aniq ma'lumotlar aholi ro'yhati o'tkazish yo'li bilan to'planadi. Aholi ro'yxatlari orasidagi davr uchun, esa har yilgi tug'ilish, o'lim va migratsiya jarayonlarini e'tiborga olgan xolda aholi soni maxsus uslublar yordamida hisoblanadi.

Aholi soni va tarkibi, uning bajaradigan vazifalari bilan bog'liq holda baxolanadi. Aholi avvalambor o'zidan ko'payadigan, o'zini takror barpo qiladigan-biosotsial organizmdir. Aholi shu bilan birga jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi va iste'molchisidir. Ana shu nuqtai nazardan aholi soni tarkibi, o'sish sur'atlari, joylashishiga xos xususiyatlarni taxlil qilish alohida axamiyat kasb etadi.

Insoniyat tarixining katta davri davomida ya'ni neolit davridan milodning XIX asrigacha aholi soni va tarkibi an'anaviy deb ataluvchi tip ta'sirida takror barpo etiladi. Unga juda yuqoridagi xar 1000 kishiga nisbatan tug'ilganlar soni 40-45 ni tashkil etadi tug'ulish hamda yuqori darajadagi o'sish (30-35 %) 8 past

darajadagi tabiiy o'sishga xos edi. Aholining takror barpo qilinishining ushbu tipi agar iqtisodiyot va unga xos ijtimoiy munosabatlar bilan bevosita aloqador edi.

Er shari aholisi butun tarixi davomida sekinlik bilan o'sdi. Bunga eng avvalo insonning tabiatga qaramligi, ishlab chiqarish darajasining pastligi, urushlar, zpidemiyalar va ocharchiliklar katta ta'sir ko'rsatdi. Eramizgacha 8000 yil avval do'nyo aholisi 5 mln. kishi bo'lgan bo'lsa, 1200 yili -450 mln., 1900 yili- 1565 mln. kishi, 1999 yili esa 6 mlrd. kishiga yetdi.

XIX asrga kelib, dunyo aholisi sonida o'sish tezlashdi va ayniqsa XX asr boshlarida dunyo aholisining yillik o'sishi o'rtacha 10 mln. kishini tashkil qilgan bo'lsa, 50 —yillarda esa 80 mln. kishiga yetdi. 1.987 yilda yer shari aholisi soni 5 mlrd, kishi, 2000 yilda esa 6 mlrd. kishidan ortib ketdi. Birgina XX asrning o'zida dunyo aholisi 3,5 barobarga ko'paydi. Aholi soni ayniqsa, 60 — 70 — yillarda tez ko'paydi. Uning bunday tez ko'payishi ilmiy adabiyotlarda «demografik portlash» deb ataladi. Ushbu jarayon ko'proq Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining rivojlanayotgan davlatlari uchun xosdir.

Bunda ko'p bolali oilani tashkil qilishga intilish, ayniqsa xo'jalik ishlarida otaga ko'mak beruvchi o'g'illar bolalarning mavjudligiga va sonining ko'p bo'lishiga katta e'tibor qaratiladi ota-ona oilada 3-4 farzandga ega bo'lmoqchi bo'lishsa, unda ayol nomida mazkur miqdordagi 2-3 marta ko'p bola tug'ish lozim edi, chunki o'lim, ayniqsa go'daklar va bolalar o'limining nixoyatda yuqoriligi tug'ilgan bolalarning yarmidan ko'pini o'zi bilan olib ketadi.

Yer shari aholisining o'sishi

Yilnoma	Davr	Davrning davom etishi	Davr boshida aholi soni (mln kishi)	Aholi soni o'rtacha yillik o'sishi
Eramizdan 7000 yil avval	Neolit	5000	10	-
	Antik davr	7000	50	0,03
(yangi era)	Yangi eraning boshlanishi o'rta asrlarni dastlabki yillari	2000	230	0,1
1000 yil	O'rta asrlar	1000	305	0,02
1500 yil	O'rta asrning yakuniy davri	500	440	0,1
1650 yil	Yangi zamonning boshlanishi	150	550	0,3
1800 yil	Yangi zamon	150	952	0,5
1900 yil	Yangi zamon yakuniy davri	100	1656	0,8
1950 yil	Eng yangi zamon	50	2527	1,0

1980 yil	Yaqin o'tgan davr	30	4430	1,9
2000 yil	Hozirgi davr	20	6024	1,5

Bir necha ming yillar mobaynida o'lim juda katta va aholi o'sishining past bo'lishligi o'zining ob'ektiv sabablariga egadir. Dastavval-bu moddiy va sanitar gigienik shart-sharoitlarning qoniqarsiz ahvolda ekanligi qolaversa, vaqti-vaqti bilan takrorlanib turuvchi ocharchilik, o'lat, vabo va chechak epidemiyalari natijasida yuz minglab odamlarning qirilib ketishi. Yer sharida bunday ofatlar 200-400, 1600-1650 yillar ichida qayd etilgan bo'lib, o'sha davrlarda aholi soni umuman o'smadi, 1300-1400 yillar davomida qora o'lat epidemiyasining ta'sirida sayyora o'z aholisining 1g'4 qismidan ajradi, uning soni keskin kamaydi. Aholi ko'rsatqichlariga oxiri ko'rinmayotgan urushlar ham katta salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Urushlar XVIII asrda 5,2 mln kishining yostig'ini quritdi.

Jahon aholisining soni, dinamikasi va uning ayrim hududlar bo'yicha taqsimlanishi. (mln.)

	1950	1960	1970	1980	1990	1995	1999	2025
	2516	3019	3694	4433	5246	5702	5982	8054
Osiyo	1399	1702	2147	2623	3123	3451	3637	4923
G'arbiy Osiyo (Gruziya, Ozorbayjon, Armeniya)	50	66	86	112	145	168	186	303
Markaziy Osiyo	496	619	787	972	1215	1355	1451	2101
Janubiy Sharqiy Osiyo	182	226	288	356	439	485	520	722
SSharqiy Osiyo	671	791	986	1183	1324	1442	1481	1798
Rossiya	113	119	130	138	148	147	147	138
Evropa	436	487	527	556	578	581	582	580
Shimoliy Yevropa	78	82	87	89	91	94	95	99
G'arbiy Yevropa	133	154	166	173	180	181	183	188
Sharqiy Yevropa	116	133	146	155	162	162	159	150
Janubiy Yevropa	109	118	128	139	145	144	145	143
Afrika	224	280	361	481	645	720	771	1290
Shimoliy Afrika	52	65	83	109	140	162	170	249
G'arbiy Afrika	65	81	106	144	198	159	223	408
Sharqiy Afrika	63	80	106	142	196	226	235	387
Markaziy Afrika	27	33	40	52	69	83	94	188
Janubiy Afrika	17	21	26	33	42	50	49	57
Amerika	331	415	570	612	726	774	815	1083

Shimoliy Amerika	166	199	227	252	275	193	303	374
Markaziy Amerika	37	50	68	92	119	126	135	700
Janubiy Amerika	111	146	190	239	297	319	339	463
Karib dengizi xududlari	17	20	25	29	35	36	37	46
Avstraliya va Okeaniya Gavayi orollari	13	16	19	23	26	28	30	41

AQSH, Yaponiya, Kanada, Avstraliya mamlakatlari 2 fazani boshidan kechirmoqdalar. Xitoy va boshqa 1 qator mamlakatlar ushbu 2 fazoga o'tish arafasida turibdi. O'zbekiston va boshqa O'rta Osiyo mamlakatlarida 1 fazadan 2-fazaga o'tish uchun zamin tayyorlandi, bu jarayon yaqin 10-15 yil mobaynida boshlansa ajab emas.

Dunyo aholisi anashu davir ichida 2,4 marta o'sdi. Bundan ham yuqori ko'rsatkich (Osiyoga (2,6) va Afrikaga 3,6) xos bo'ldi. Mazkur ko'rsatkich Yevropada, 1,4 martaga teng bo'ldi. So'nggi yillarda sayyora aholisining mutloq soni o'rtacha 3286 mln kishiga yetmoqda. Aholi sonining yuqori sur'atlar bilan o'sishi Afrikada ayrim mintaqalarda esa Markaziy va Janubiy Osiyoda, Markaziy Amerikada kuzatilmoqda. Shu vaqtning o'zida Yevropaning ayrim mintaqalarida aholi soni juda past sur'atlar bilan o'smoqda yoki deyarli o'zgarmayapti.

Dunyo aholisining 1000 yildan 2005 yilgacha bo'lgan o'sishiga nazar tashlasak, aholi eng tez ko'paygan davr XX asrdir. Agar yer shari aholisining biri milliardga yetishi uchun salkam 850 yil kerak bo'lgan bo'lsa. 2 milliardga yetishi uchun 85 yil, 3 milliardga yetishi uchun 25 yil, 4 milliardga o'tishi uchun - 15 yil, 5 milliardga o'tishi uchun 20 yil va 6 milliardga o'tishi uchun - 15 yil vaqt kerak bo'ldi.

Dunyo aholisi juda notekis joylashgan. Shunday qilib, hozirgi davrda yer yuzi hududlari bo'ylab aholi notekisjoylashgan. Sayyoramizda aholi juda zich (1 km² ga 1000 kishi) yashaydigan hududlar bilan bir qatorda aholi yashamaydigan hududlar ham uchraydi. Bu yerlarda havo harorati juda past, suv yo'q va boshka sabablar mavjud. Bunday hududlar yer sharidagi quruqlikning 10 foizini tashkil etadi. Ularga Shimoliy va Janubiy qutblar, balandligi 5000 metrdan ziyod tog'lar vasahrolar kiradi. Yer kurrasidagi quruqlikning 50 foizi esa aholi yashashi uchun tabiiy sharoitlar nisbatan pastroq bo'lib, ularda aholi siyrak- 1 km² ga 1 kishidan joylashgandir. Ushbu hududlarga tundra, o'rmon-tundra, shimoliy tayga, cho'l, chala cho'l va nam ekvatorial o'rmonlar kiradi. Quruqlikning 25 foizida aholi zichligi 1 km² ga 1-10 kishini tashkil etib, bu yerlar aholi nisbatan siyrakroq

joylashgan. Yer kurrasidagi quruqlikning qolgan 15 foizida esa aholi zichligi 1 km² ga 10 kishidan oshadi.⁶

Yer sharida aholi yashaydigan asosiy hududlar 78^o shimoliy kenglik va 54^o janubiy kenglik orasida joylashgandir. Yer yuzida aholi eng zich joylashgan hududlar juda qadimdan madaniyat markazlari bo'lib kelgan Janubiy, Janubiy-Sharqiy va Sharqiy Osiyo, Shimoliy Afrikadagi daryo vodiylari hamda Yevropadagi sanoat markazlari bo'lib, ular yer sharidagi quruqlikning bor-yo'g'i 7 foizini tashkil etadilar. Bu hududda dunyo aholisining deyarli 70 foizi joylashgandir. Yer shari aholisining 4/5 qismi tekisliklar va 500 metrgacha bo'lgan balandliklarda joylashganlar. Bunday hududlar yer yuzidagi quruqlikning 28 foizini tashkil etadi.

Hozirgi davrda yer kurrasidagi quruqlikning inson yashashi mumkin bo'lgan qismida o'rtacha aholi zichligi 1 km² ga 50 kishidan to'g'ri kelmoqda. Agar aholi 1 km² ga 50 kishidan to'g'ri kelsa aholi zichligi yuqori hisoblanadi. Aholi dunyo qit'alari bo'ylab ham juda notekis joylashgandir. Ma'lumotlarga qaraganda, XXI asr boshlarida aholi zichligi 1 km² ga Osiyoda 75 kishi; Yevropada 70 kishi; Afrikada 22 kishi; Amerikada 19 kishi; Avstraliya va Okeaniyada 3 kishini tashkil etmoqda.

Aholining o'rtacha uzunligi (1 kv km) ga kelgan aholi miqdori doimiy aholisi mavjud xududlar 430 mln km doirasi 46 kishini tashkil qiladi.

Ayrim qit'alar, materiklar va regionlar bo'yicha aholining o'rtacha zichligi

Mintaqa va regionlar	1950	1990	1995	1999	2025
Butun dunyo SHu jumladan:	19,4	40,3	43,8	46,0	63,8
Evropa	74,4	97,0	101,9	702,5	703,5
Osiyo	45,1	100,7	111,3	116,3	159,3
Afrika	7,6	21,8	24,3	27,5	51,0
SHimoliy Amerika	11,0	24,4	22,8	23,8	31,0
Janubiy Amerika	6,4	17,1	78,3	19,6	26,4
Avstraliya va Okeaniya	1,5	3,1	3,3	3,7	4,6

SHu vaqtning o'zida ushbu ko'rsatkich Osiyoda 116,3 va Yevropada 102,5 kishini tashkil etsa, Afrikada 27,5 SHimoliy Amerikada 23,8 Janubiy Amerikada 19,6 hamda Avstraliya va Okeaniyada atigi 3,7 kishiga teng. Umumlashtirib

⁶Demograficheskiy-ensiklopedicheskiy slovar. M.. 1985.. s. 274.

aytganda yer quruqlik yuzasining atigi 2% da unda mavjud aholining 70% i istiqomat qiladi. Aholi nihoyatda zich joylashgan mintaqalar qatoriga Janubiy Sharqiy va Sharqiy Osiyo, Yevropa hamda AQSH ning Shimoliy Sharqiy qismi "Bosvoni" megapolisi kiradi.

Dastlabki uchta mintaqada aholi qadimdan joylashgan bo'lib, u hozirgi vaqtda juda yuqori darajadagi aholi zichligiga ega. Bunday xolat avvalambor bu yerda mexnatni juda ko'p talab qiluvchi sholichilikning qadimdan mavjudligi qolganlarda esa XVIII-XIX asrlarda yuz bergan san'at inqilobi hamda undan keyingi davrda amalga oshgan industriallashtirish jarayoni bilan uzviy bog'langandir. Insonlarning qadimdan okean va dengiz sohillarida joylashishiga intilishi ham muhim omillardan biridir. Hozirgi vaqtda dengiz va okenlardan quruqlikka tomon 200 smga cho'zilgan yer yuzasi qismida insoniyatning yarmidan ziyod qismi 50 km kenglikka ega bo'lgan quruqlik qismiga esa dunyo aholisining deyarli 30% i to'plangandir. Dunyo bo'yicha aholi juda zich joylashgan xududlar qatoriga quydagilar kiradi.; Rur, Elzas va Latingiya hamda Parij va London rayonlari, Shimoliy Italiya, Moskva rayoni, Donbass, Farg'ona vodiysi, Sharqiy Xitoy, Xind-Gang tekisligi, Yava oroli, Yaponiya orollari, Nil deltasi, AQSH ning Shimoliy Sharqi, Buyuk ko'llar rayonlari va San-san megapolisi. Aholi siyrak tarqalgan xududlar yer quruqlik yuzasining ancha katta qismini egallaydi. Shular qatoriga birinchi navbatta ekstremol tabiiy sharoitlarga ega bo'lgan geologik ob'ektlar, cho'llar, tropik o'rmonlar, baland tog'lar, tundra muz xududlari va boshqalar kiradi.

Dunyo aholisiningt vertikal mintaqalar bo'yicha ham notekis taqsimlangan. Aholining yarmidan ortiq qismi (56% i) mutloq balandligi 250 metrgacha bo'lgan tekislik va notekisliklarda istiqomat qiladi. Salkam chorak qimi (24%) 200-500 m balandlikka ega tekislik va qirralarga to'g'ri keladi. Demak yer shari aholisining 80% i mutloq balandligi 500 mitrgacha bo'lgan xududlarda joylashgan. Shu vaqtning o'zida 2000 metrdan baland xududlarga yer shari jami aholisining atigi 10% i to'g'ri keladi. Umuman olganda aholi soni va ulushi balandlik oshgan sari kamayib boradi. Lekin bu qonuniyat Janubiy Amerikada o'z ifodasini topmaydi. Bundan tashqari Osiyo qit'asi bitlan jami quruqlik yuzasiga xos bo'lgan ko'rsatkichlar bir xil miqdorlar xosligi bilan ajralib turishligini ta'kidlab o'tish lozim.

Dunyoda aholi eng yuqori zichligi Sharqiy Osiyoda joylashgan Xitoy-Makaosi (Aomin) davlatida qayd etiladi va bu yerda aholi 1 km² ga 20000 kishini tashkil etgan. Aholi zichligi bo'yicha Xitoy-Makaosidan keyingi o'rinlarda Bangladesh (981 kishi), Falastin (609 kishi), Janubiy Koreya (487 kishi), Livan (450 kishi), Niderlandiya (398 kishi), Hindiston (330 kishi), Isroil (324 kishi), Fillipin (279kishi), Vetnam (245 kishi), Buyuk Britaniya (244 kishi), Germaniya (231 kishi), Italiya (192 kishi), Pokiston (200 kishi), Nigeriya (148 kishi), Xitoy (135 kishi), Polsha(118 kishi), Yevropa Ittifoqi-15 (117 kishi), Indoneziya (114

kishi), Yevropa Ittifoqi-25 (114 kishi), Frantsiya (109 kishi), Turkiya (92 kishi), Ispaniya (84 kishi) va Misr (73 kishi) davlatlari turadi.⁷

Aholi eng siyrak joylashgan davlatlar Mo'g'iliston, Avstraliya, Kanada bo'lib, bu davlatlarda aholi zichligi 1 km² ga 2-3 kishini tashkil etadi.

Dunyoda aholi soni ko'payib borishi bilan mutanosib, uning zichligi ham ortib boradi. 1920 yilda dunyoning aholi yashaydigan quruqlik qismida o'rtacha km² ga 13 kishini tashkil etgan bo'lsa, 1950 yilda 18, 1983 yilda 34, 1999 yilda 45 va 2020 yilda 50 kishini tashkil etgan.

Yevropa dunyo qit'alari ichida aholining o'rtacha zichligi yuqori hudud hisoblanadi. Aholi zichligi Yevropaning shaharlarida yuqori bo'lib qishloq hududlaridan keskin farq qiladi. Bu qit'ada aholi umuman yashmaydigan hudud yo'q. Yevropada aholisi nisbatan siyrak joylashgan hududlar Islandiya va Norvegiya davlatlari bo'lsa, aholisi eng zich joylashgan Niderlandiya (Gollandiya) va Belgiya davlatlaridir. Aholi zichligi bo'yicha Malta davlati alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu yerda aholi zichligi 1 km² ga 1000 kishidan ortadi. Mal'tada ichishga yaroqli suv juda tanqis bo'lib, u sotiladi. Toza suvning qimmati hatto vinodan ham yuqori turadi. Yevropada aholi eng zich joylashgan hudud Reyn daryosi vodiysidir. Bu yer juda hosildor lyossimon tuproqlardan tarkib topgan bo'lib dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanish uchun juda qulaydir. Shuningdek, Dunay daryosi vodiysi bo'ylab ham aholi zichligi nisbatan yuqoridir.

7-Mavzu: Aholi tabiiy harakati. Aholi takror barpo bo'lishi tartibi va geografiyasi.

Mavzu rejasi:

1. Aholi tabiiy harakati: tug'ilish, o'lim, tabiiy ko'payish.
2. Aholi tabiiy harakatining hududiy xususiyatlari. Aholi takror barpo bo'lishining asosiy qonuniyatlari.
3. Aholi takror barpo bo'lishiga ta'sir etuvchi omillar. Aholi takror barpo bo'lish turlari.
4. Kengaygan, oddiy va qisqargan aholi takror barpo bo'lishi va uning geografik tarqalishi.

Demografik jarayonlar (tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralash) ni mukamal o'rganishda, ularni turli aholi guruhlari, davlatlar, dunyo hududlari bo'ylab qiyoslashda, kelajak istiqbolini aniqlashda, demografik koeffitsientlardan foydalaniladi. Ushbu koeffitsientlar yordamida o'rganilayotgan demografik jarayonning kerakli jihatlari chuqur va qiyosiy darajada o'rganiladi. Ma'lum tarixiy davr yoki ikki hudud orasida demografik farqlarni statistic ma'lumotlar orqali bevosita aniqlab bo'lmaydi. Shuning uchun har bir demografik jarayonni

⁷Naseleniye i obshestvo. Informatsionnsh byulleten Sentra demografii i ekologii cheloveka Instituta narodnoxyaystvennogo prognozirovaniya RAN. Avgust, 2003., № 74

koeffitsenti hisoblanadi. Demak 1000 kishi demografik jarayonlarni o'rganishda mezon hisoblanadi. Bu ko'rsatkich promille, deb yuritiladi va quyidagicha -‰ belgilanadi.

Demografik koeffitsientlar alohida demografik jarayonlarni ifodalaydi. Demografik koeffitsientlar umumiy, maxsus va xususiy jixatlarga egadir.

1. Tug'ilish va uning koeffitsientlari.

Tug'ilishning biologik asosi insonning pushtiligi, nasl qoldirish, avlod qoldirish qobiliyatidir. Erkak bilan ayol, ya'ni nikoh juftlarining farzand ko'rishga bo'lgan biologik qobiliyati pushtilik, deb ataladi va bu tushuncha demografiyada ko'proq ayollarga nisbatan qo'llanilib, har bir ayolning farzand ko'rish davridagi (o'rtacha 15-49 yosh) jami xomiladorligi bilan belgilanadi. Pushtilik erkak va ayolning biologik xususiyatlariga, salomatligiga bog'liqdir. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, sog'lom ayollar farzand ko'rish davrida eng ko'pi 35 tagacha xomilador bo'lishi (egizaklar ham bitta xomiladorlik hisoblanadi) mumkin ekan. Lekin xar bir ayol o'rtacha 10-12ta tirik farzand ko'rish, 10-15 marta xomilador bo'lishi (o'lik tug'ilishi, bola tashlash holatlari bilan birga) mumkin.

Tug'ilish-tirik tug'ilgan bolalarni ifodalovchi biologik jarayon bo'lib, u insonlarning reproduktiv mayl, ya'ni farzand ko'rishga bo'lgan munosabati bilan bog'liqdir. Reproktiv mayl esa inson yashayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muxit bilan bog'liq holda o'zgarib turadi. Natijada inson o'z pushtiligidan, ya'ni bola ko'rishga bo'lgan biologik imkoniyatidan to'la foydalanmaydi. O'zining bolani tarbiyalab voga yetkazish uchun zarur bo'lgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini xisobga olgan holda, farzand ko'rishga harakat qiladi, ya'ni farzandlar tug'ilishini cheklaydi, nazorat etadi.

Tug'ilish darajasi-tug'ilish koeffitsientlari yordamida o'rganiladi. Tug'ilishning umumiy, maxsus va xususiy koeffitsientlari mavjuddir.

Tug'ilishning umumiy koeffitsienti. Har 1000 aholiga nisbatan tug'ilgan bolalar sonini ifodalaydi va quyidagi formula yordamida xisoblanadi.

$$nq \frac{N}{TP} \cdot 1000$$

T - o'rganilayotgan davr (yil).

P - o'rganilayotgan davrdagi aholining o'rtacha soni.

N - o'rganilayotgan davrda tug'ilgan bolalar soni.

Tug'ilishning umumiy koeffitsienti odatda promilleda hisoblanadi. Bu koeffitsientdan tug'ilish darajasini ifodalashda ko'proq foydalaniladi. Uning yordamida ma'lum avlodlardagi tug'ilishda ro'y berayotgan o'zgarishlar umumiy tarzda o'rganilishi mumkin. Lekin tug'ilishning umumiy koeffitsienti tug'ilish darajasini ifodalashda biroz dag'alliklarga yo'l qo'yadi. Chunki bu ko'rsatkichga aholining yosh va jinsiy tarkibi bevosita ta'sir etadi. Agar o'rganilayotgan hudud aholi tarkibida farzand ko'rish yoshiga yetmagan bolalar (0-14) va farzand ko'rish yoshidan o'tgan keksalar (60 va undan yuqori yoshdagi aholi guruhi) salmog'i

yuqori bo'lsa, tug'ilish umumiy koeffitsientining biroz past darajada ifodalanishiga olib keladi.

Demograf olimlar B.Urlanis, V.A.Borisovlar tomonidan tug'ilish darajasini tug'ilish umumiy koeffitsienti yordamida baxolash mezonini aniqlangan. Umumiy mezon bo'yicha o'rganilayotgan hudud yoki aholi guruhida tug'ilishning umumiy koeffitsienti 16 promilledan kam bo'lsa. Tug'ilish darajasi past: 16-24 promille bo'lsa, 25-29 promille bo'lsa yuqori va 40 promilledan baland bo'lsa tug'ilish darajasi juda yuqori xisoblanadi.

Tug'ilishning maxsus koeffitsientlari tug'ilish darajasidagi o'zgarishlarni aniq ifodalaydi, tug'ilishni atroflicha o'rganishda qo'llaniladi. Ushbu koeffitsient alohida erkaklar va ayollar guruhiga nisbatan xisoblanishi mumkin. Demografik tadqiqotlarda asosan reproduktiv yoshdagi (15-49yosh) ayollarga nisbatan qo'llaniladi.

Tug'ilishning maxsus koeffitsientida har 1000 ta 15-49 yoshdagi ayollarga nisbatan tug'ilgan bolalar soni aniqlanadi va quyidagicha ifodalanadi:

$$F_{15-49q} \frac{N_{15-49}}{TW}$$

F_{15-49} - tug'ilishning maxsus koeffitsienti.

N_{15-49} - o'rganilayotgan davrda 15-49 yoshni ayollarda tug'ilgan bolalar soni.

T - o'rganilayotgan davr (yil).

W - reproduktiv yoshdagi ayollar soni (15-49 yosh, tug'ilish darajasi past davlatlarda 15-44 yoshdagi ayollar olinadi).

Tug'ilishning maxsus koeffitsienti erkaklarga nisbatan xam xisoblanadi. U xolda har 1000 ta 15-49 (14-54 yoshlar uchun xam xisoblanadi) yoshdagi erkaklarga nisbatan tug'ilgan bolalar soni aniqlanadi.

Tug'ilishning xususiy koeffitsientlari-tug'ilishning o'rganishdagi eng aniq koeffitsientlar bo'lib, ma'lum yosh guruhlarida tug'ilish darajasini ifodalaydi. Bu koeffitsient odatda har 1000 ta 15-19, 20-24, 25-29, 30-34, 35 - 39,40-44 va 45-49 yosh guruhidagi ayollarda tug'ilayotgan bolalar sonini aniqlashda qo'llaniladi va quyidagicha ifodalanadi:

$$F_{x/yq} \frac{N_{x/y}}{TW_{x/y}} \cdot 1000$$

$F_{x/y}$ - tug'ilishning maxsus yosh guruhi bo'yicha koeffitsienti.

$N_{x/y}$ - ma'lum yosh guruhidagi onalardan tug'ilgan bolalar soni.

T - o'rganilayotgan davr (yil)

W - o'rganilayotgan yosh guruhidagi ayollarning o'rtacha soni.

Tug'ilishning yig'indi (summarhgy) koeffitsienti tug'ilish darajasini eng aniq ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib, unda dunyo hududlari, davlatlar va ma'lum aholi guruhlaridagi tug'ilish darajasini ifodalashda qo'llaniladi. Hududlar bo'yicha tug'ilish darajasini taqqoslaganda xam asosan tug'ilishning yig'indi koeffitsienti

ishlatiladi. Tug'itishning yig'indi koeffitsienti ma'lum avlodga tegishli xar bir ayolning hayoti davomida (o'lim va yosh tarkibidagi o'zgarishlardan qat'iy nazar, xar bir yosh guruhidagi tug'ilish darajasi saqlangan holda) tuqqan bolalarining o'rtacha soni. Tug'ilishning yig'indi koeffitsienti tug'ilishning yosh guruhlari koeffitsientlari yikindisiga teng.

$$F_{\text{yig'indi}} = q \sum \frac{49}{15} y \cdot F_{x/x+y}$$

y - yosh guruhlari orasidagi davr (interval)

Tug'ilishning yig'indi koeffitsienti 4.0 dan yuqori bo'lsa-tug'ilish darajasi yuqori 2.15 dan kam bo'lsa tug'ilish darajasi past hisoblanadi.

2. O'lim va uning koeffitsientlari.

O'lim avlodlarni xayotdan ko'z yumish jarayonini ifodalaydi va qator omillar (endogenekzogen) ta'sirida sodir bo'ladi. O'lim jarayoni ma'lum aholi guruhlarda, avlodlarda, davlatlarda va jamiyat taraqqiyoti bosqichlarida ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga bog'liq holda, inson hayotining turli davrlarida sodir bo'ladi. O'lim jarayonini ifodalashda quyidagi koeffitsientlardan foydalaniladi. O'limning umumiy koeffitsienti:

$$mq \frac{M}{TP} \cdot 1000$$

m - o'lim umumiy koeffitsienti (promilleda ifodalanadi).

M - o'rganilayotgan davrdagi o'lganlar soni.

T - davr.

P - o'rganilayotgan davrdagi aholining o'rtacha soni.

O'limning umumiy koeffitsientiga xam aholining yosh va jinsiy tarkibi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aholi tarkibida qariyalar salmog'ining ko'pligi o'limning umumiy koeffitsientini ko'tarilishiga olib kelishi mumkin. O'lim jarayonida bo'layotgan o'zgarishlarni aniq o'rganishda uning maxsus koeffitsientlari-yosh guruhlari va jinslar bo'yicha alohida ifodalanadi.

O'limning yosh guruhlari bo'yicha koeffitsienti alohida yoshlar (1,2,3,4,5,...) yoki yosh guruhlari (1-4, 5-9, 10-14...) bo'yicha hisoblanib har 1000 ta o'rganilayotgan yoshdagi aholiga nisbatan shu yoshdagi o'lganlarning o'rtacha ifodalanadi.

$$M_{x1x+z} = q \frac{M_{x2x+z}}{TP_{x2x+z}}$$

M_{x1x+z} - o'limning yosh guruhlari bo'yicha koeffitsienti ifodasi.

T - o'rganilayotgan davr, yil.

M_{x1x+z} - o'rganilayotgan yosh guruhidagi jami o'lganlar soni.

P_{x1x+z} - o'rganilayotgan yosh guruhidagi aholining o'rtacha soni.

O'limning yosh guruhlari bo'yicha koeffitsienti yordamida har bir yosh guruhida sodir bo'layotgan o'lim hollari va omillari o'rganiladi, va o'lim jadvali tuzishda foydalaniladi. Aholi guruhidagi o'lim jarayoini o'rganishda go'daklar o'limi, ya'ni bir yoshgacha (0-12 oy) bo'lgan bolalar o'limi ham juda ahamiyatlidir. Chunki, ko'p hollarda go'daklar o'limi bir muncha ko'proq bo'lib, aholi o'limining umumiy koeffitsientining yuqori bo'lishiga sabab buladi. Shuning uchun ham gudaklar o'limi alohida hisoblanadi.

Go'daklar o'limi har 1000 ta tirik tug'ilgan bolalarga nisbatan, shu yoshda o'lgan go'daklarning sonini bildiradi va promilleda ifodalanadi.

$$\frac{\text{Bir.yoshgachao'lgan.bolalar.soni}}{\text{o'rganilayogandavrdagibir.yoshgachabo'lgan.tirik.tug'ilgan.bolalar.soni}} \bullet 1000$$

Aholi o'lim darajasini o'rganishda onalar o'limini mukammal o'rganib borish zarurdir. Onalar o'lim tug'ilish darajasi yuqori, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi nisbatan sust, davlatlarda baland bo'lib, aholi o'lim ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir etadi.

Onalar o'limiga homiladorlikning oxirigi (28 xaftadan keyin) xamda farzand tug'ilgandan keyingi (6 xafta) davrda sodir bo'lgan ayollar o'uimi kiritiladi.

Onalar o'limi xar 1000 ta tuqqan ayollarga yoki har 1000 ta tirik tug'ilgan bolalarga nisbatan hisoblanadi.

3. Nikoh va ajralish koeffitsientlari.

Nikoh erkak bilan ayolning tarixan tarkib topgan, jamiyat tomonidan muayyan tartibga solib turiladigan o'zaro, xamda bolalariga nisbatan munosabatlari shaklidir. Nikoh o'z evolyutsiyasiga, turlariga ega bo'lgan sosial jarayondir. Jamiyat taraqqiyotining ma'lum davrida paydo bo'lgan nikoh, jamiyat rivojlanishi bilan takomillashib, shaklan o'zgarib boradi. Nikoxning eng dastlabki turi ibtidoiy jamiyatning dastlabki bosqichiga mansub bo'lgan guruhiy nikoh edi. Guruxiy nikohda ikki qabila, ikki urug' ayol va erkaklari o'rtasida nikoh munosabatlari shakllangan bo'lib, bir urug' yoki qabilaga mansub erkak va ayollar o'rtasidagi nikoh munosabatlari taqiqlangan edi. Bunday nikohlar ekzogam nikohlar, deb ham ataladi.

Keyinchalik jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, chorvachilik, dexqonchilik, xunarmandchilik va savdoni, sanoatni, urbanizatsiyani rivojlanib borishi, sinfiy jamiyatni tashkil topishi, ayol va erkakning jamiyatdagi, oiladagi o'rniga bog'liq holda nikoh turlari ham mos ravishda o'zgarib bordi. Asta-sekin poligam (ko'p nikohlilik, odatda ko'pxotinlilik tushuniladi) nikoh turidan monogam (yakka nikoh, ya'ni bir erkak va bir ayol o'rtasidagi nikoh) nikoh turiga o'tiddi. Monogam nikoh sinfiy jamiyatga xos bo'lgan nikoh turidir.

Nikoxni qayd etish, ya'ni ro'yxatga olish fuqarolik tartibi qonun- qoidalarva diniy urf-odatlariga ko'ra amalga oshiriladi. Har bir davlatda nikohga kirish yosh

yigit va qizlar uchun belgilangan va davlat, oila hamda nikoh qonunlari orqali rasmiylashtirilgan. Nikoxga kiruvchilar soni davlat maxsus tashkilotlari tomonidan muntazam ro'yxatga olib boriladi.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida dunyodagi barcha xalqlarda nikoh turlari uning qayd etilishi, maqsadi va vazifalari o'zaro juda yaqin bo'lsada, lekin nikoh yoshi, yosh guruhlari, jinslar bo'yicha nikohda turuvchilar salmog'i, ya'ni nikohlilik darajasi turlichadir. Nikoh jarayonini aholishunoslik fanlari tizimiga kiruvchi qator fanlar o'z maqsadlariga mos ravishda taxlil etadilar, o'rganadilar.

Demografiyada nikoh aholi takror barpo bo'lishiga bevosita ta'sir etuvchi demografik jarayon sifatida, o'z o'rganish uslubi, koeffitsientlari yordamida taxlil etiladi. Aholi guruhidagi nikohlilik darajasini nikoh koeffitsientlari yordamida aniq o'rganiladi. Nikoh koeffitsientlari aholini (erkaklar va ayollarning) nikohda bo'lishini ifodalovchi nisbiy ko'rsatkich bo'lib, u ma'lum davrda qayd etilgan nikohlar sonini nikoh yoshidagi aholiga (16 yoshdan yuqori) nisbati bilan o'lchanadi.

Nikohning umumiy yosh guruhlari va yig'indi koeffitsientlari mavjuddir. Nikohning umumiy koeffitsienti — ma'lum xududda ma'lum davrda nikohga kirganlar sonining shu hudud aholisining o'rtacha soniga nisbatan ifodalaydi.

$$Rq \frac{B}{P_{16+}} \times 1000$$

B - bir yilda nikohga kirganlar soii

P_{16+} - 16 yosh va undan yuqori nikoh yoshdagi aholi.

Nikohning umumiy koeffitsienti orqali ma'lum davlat yoki aholi guruhi nikoh dinamikasidagi o'zgarishlar, nikohga ijtimoiy iqtisodiy omillar ta'sirini o'rganish mumkin. Lekin, nikohning umumiy koeffitsienti ham tug'ilish va o'limning umumiy koeffitsientlari kabi aholining yosh jinsiy tarkibiga bog'liqdir.

Aholining nikoh xolatini o'rganishda nikohning yosh guruhlari koeffitsienti aniq ko'rsatkich xisoblanadi. Bu koeffitsient yordamida ma'lum yosh guruhlardagi(16-19,20.24, 25-29...) erkaklar, ayollar, bo'ydoqlar, ajralganlar.bevalarga nisbatan nikohda turganlar soni aniqlanadi.

Nikohning yosh guruhlari koeffitsienti ma'lum yoshda nikohga kirganlar sonini shu yoshdagi aholi soeniga nisbatan ifodalaydi.

Nikohning yig'indi koeffitsienti nikohning yosh guruhlari (16-69 yoshdagi erkaklar yoki ayollar) koeffitsientining yirindisi bo'lib, o'rganilayotgan avlodning hayoti davomidagi nikohlar sonini ifodalaydi. Ushbu koeffitsientda o'lim hollari va avlod soniga ta'sir etuvchi omillar hisobga olinmaydi. Odatda nikohning yirindi koeffitsienti bir kishiga nisbatan xisoblanadi va ma'lum avlodning nikohda bo'lish holatini ifodalaydi, Shuningdek mazkur koeffitsient orqali o'rganilayotgan avlodda birinchi, ikkinchi nikohga kirish va nikohsizlik holatlari ham o'rganiladi.

Ajralish va uning koeffitsientlari. Ajralish er-xotinning hayotlik davrida nikohning bekor etilishidir. Ajralish murakkab soo'ial jarayon bo'lib, qator omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Ularga jamiyatda nikohning tutgan o'rni, nikoh turlari, har bir davlatda nikoh va ajralish haqidagi mavjud qonunlar, davlat tomonidan oila mustaxkamligi borasida olib borilayotgan siyosat, ayollarning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, farzandsizlik, oila turmush tarzi, din, urf odatlar. alkogolizm va narkomaniya kabilarni kiritish mumkin. Ushbu omillar ta'sirida jamiyat taraqqiyotining gurlicha bosqichlarida, davlatlarda, xalqlarda va aholi guruhlarida ajralish darajasi turlicha bo'ladi. Ajralish jarayonini o'rganishda qator koeffitsientlardan foydalaniladi.

Ajralishning umumiy koeffitsienti ma'lum davrdagi ajralish sonini shu davrdagi aholini o'rtacha soniga nisbatini ifodalaydi, va promileda belgilanadi.

$$aq \frac{A}{P} \cdot 1000$$

A - ma'lum davrdagi ajralish soni.

P - o'rganilayotgan davrdagi aholining o'rtacha soni.

Shuningdek, ajratshshning yosh guruhleri koeffitsienti (ma'lum yosh guruhleri erkaklar va ayollarda sodir bo'lgan jami ajralishlar sonini shu yosh guruhidagi jami erkaklar va ayollarga nisbatan); ajralishning maxsus koeffitsienti (ma'lum yosh guruhida erkaklar yoki ayollarda sodir bo'tlgan jami ajralishlar sonini shu yosh guruhidagi oilali erkaklar va ayollarga nisbatan) va nikoh davomiyligi bo'yicha ajralishning maxsus koeffitsient (nikohda turishning ma'lum davrida ajralganlar sonining ana shu davr boshida qayd etilgan jami nikohlar soniga nisbati) lari ham mavjud bo'lib, ular orqali ajratshsh jarayonidagi o'zgarishlar mukammal o'rganiladi.

Aholining takror barpo bo'lishi jamiyatning davomiyligini ta'minlovchi asosii jarayon bo'lib, inson avlodining muntazam yangilanib turishidir. Aholining takror barpo bo'lishi jamiyatning mavjudligini, aholi sonini o'sib borishini ta'minlovchi asosiy biologik jarayondir. Lekin, u bevosita ijtimoiy-iqtisodiy muhit bilan bog'liq holda sodir bo'ladi. Ba'zan mutaxassislar aholi takror barpo bo'lishini aholining uch asosii harakati: tabiiy, hududiy (migratsion) va sotsial harakatlari yig'indisi sifatida tahlil etadilar.

Aholining tabiiy harakatlanishi, uni takror barpo bo'lish xarakteri ko'pgina omillar bilan belgilanadi. Jumladan, mamlakatning industrial taraqqiyoti, urbanizatsiya darajasi, ijtimoiy shart-sharoitlar, madaniyat va maishiy turmush an'analari va x.k. Ular jumlasiga demografiya omilini hisobga olgan holda uy-joy sharoitlarini yaxshilash, bolalarga nafaqalar berish, bolalar muassasalari bilan ta'minlash, homiladorlik va bola tug'ilgandan keyingi ta'tillarni uzaytirish, oilani mustahkamlash kiradi.

Aholining takror barpo bo'lishida uning tabiiy harakati, ya'ni tug'ilish va o'lim holatlari asosiy omil hisoblanadi. Tug'ilishning yuqori bo'lishi aholi takror barpo bo'lishi jarayonini kuchaytiradi va aholi sonini o'sib borishiga olib keladi. Avlodlarning almashuvi, ularning uzoq yashashi esa o'lim jarayoniga bog'likdir. O'z navbatida inson xayotida o'limning sodir bo'lishi kator endogen va ekzogen omillar, aksariyat hollarda jamiyatdagi sotsial muhit ta'sirida sodir bo'ladi. Aholining takror barpo bo'lishi uning tabiiy harakatiga bog'lik, Aholi tabiiy harakati esa sotsial muhit ta'sirida o'zgarib borardi.

Aholining takror barpo bo'lishida uning bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi, ya'ni hududiy harakati ham ahamiyatlidir. Aholi takror barpo bo'lishining asosi bo'lgan tug'ilish, shahar turmush tarzi ta'sirida kamayib borgan. Aksincha, qishloq turmush tarzi tug'ilishni nisbatan yuqori darajada saqlanib qolishiga olib kelgan. Aholining shahardan qishloqqa, yoki qishloqdan shaharga kelib yashashi bevosita uning reproduktiv mayliga ta'sir etib, tug'ilishni kamayishi yoki ko'tarilishiga olib keladi. Xuddi shunday aholining sotsial harakati, ya'ni uning ma'lumotlilik darajasini oshib borishi, kasb malaka talab etgan xizmat doirasida faoliyat ko'rsatishi, tibbiy bilimlardan ko'proq xabardor bo'lishi, uning uzoq umr ko'rishiga, nasl qoldirish - farzandlar ko'rishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Insoniyatning paydo bo'lishi, jamiyatning rivojlanishi davomida aholi takror barpo bo'lishini boshqarish tizimida katta o'zgarishlar kuzatilgan. Aholining takror barpo bo'lishi, tug'ilish va o'lim jarayonlarini boshqarish orqali ma'lum maqsadga yo'naltiriladi. Aholining takror barpo bo'lishi, ya'ni avlodlar almashuvi jarayoni jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida, davlatlarda, millatlarda o'ziga xos xususiyatga egadir. Ana shu xususiyatlarni aniq bilish uchun aholi takror barpo bo'lishini ifodalovchi maxsus ko'rsatkichlar, ya'ni koeffitsiyentlardan foydalaniladi.

Aholi takror barpo bo'lishining brutto koeffitsiyenti. Har bir ayolning reproduktiv, ya'ni farzand ko'rish davrida (15-49 yosh) o'rganilayotgan davrdagi tug'ilish darajasi saqlangan holda, nechta qiz bola ko'rish mumkinligini aniqlab beradi. Aholi takror barpo bo'lishining brutto koeffitsiyentida o'lim hisobga olinmaydi.

Aholi takror barpo bo'lishining netto koeffitsiyenti. Bu koeffitsiyent, aholi takror barpo bo'lishining sof koeffitsiyenti bo'lib, u avlodlar almashuv darajasini aniq ifodalaydi, chunki bu ko'rsatkichda tug'ilgan qiz bolalarni onasini yoshiga yetgunga qadar yashab borganlari hisobga olinadi. Boshqacha qilib aytganda aholi takror barpo bo'lishining netto koeffitsiyentida o'lim ehtimoli hisobga olinadi.

Demografik o'tish deb aholi takror barpo bo'lishini, bir turdan ikkinchi turga (kengaygan aholi takror barpo bo'lishidan, qisqargan aholi takror barpo bo'lishiga) o'tishiga aytiladi. Jamiyat tarixiy rivojlanishi jarayonida aholi takror

barpo bo'lishida chuqur o'zgarishlar yuz berdi. 1950 yillarga kelib jamiyatda demografik jarayonlarni (nikoh, tug'ilish va o'limni) boshqarish keng tarqaldi.

Jamiyat taraqqiyotida ro'y bergan yirik ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, aholining demografik mayliga bevosita ta'sir etdi. Bir qator davlatlarda aholining farzandlar soniga bo'lgan munosabati o'zgardi. Ko'p bolalik o'rnini o'rtacha bolalik, kam bolalik egallay boshladi. Oilani ko'p farzandga bo'lgan talabi asta-sekin urbanizatsiya jarayoni, sanoatni rivojlanishi, ayollar bilim darajasini oshib borishi, ijtimoiy hayotdagi o'rnini o'zgarib borishi bilan bog'liq holda kamaya bordi. Shuningdek, tibbiyotning rivojlanishi aholiga tibbiy xizmatning keng tarqalishi aholi o'rtasida o'limni keskin kamayishiga, o'rtacha umr ko'rish davrini esa uzayishiga sabab bo'ldi. Xomiladorlikni oldini oluvchi vositalar xaqidagi bilimlar muntazam shakllanib bordi. Bu vositalardan foydalanish esa keng tarqala boshladi.

Bir qator davlatlarda tug'ilishni nisbati yukori darajada saqlanib turishi, o'limning esa keskin kamayishi, aholi sonini o'sib borishiga sabab bo'ldi. Bu jarayon dunyodagi rivojlanayotgan davlatlarda, keskin tus oldi.

Aholi sonini tez sur'atlar bilan ko'payib borishini aholishunos olimlar «Demografik portlash» deb atadilar. Aholining bunday tez sur'at bilan ko'payib borishi har bir davlat uchun ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yuzaga keltiradi. Natijada ko'pgina davlatlar o'sib borayotgan aholi sonini cheklashga harakat kildilar, «Tug'ilishni nazorat etish» dasturi qabul qilindi va tug'ilish jarayoni ekzogen (tashqi) omillar ta'sirida boshqarila boshlandi. Aholi takror barpo bo'lishini tashkil etgan ikki asosiy jarayon tug'ilish va o'limni boshqarilishi aholi takror barpo bo'lish sur'atini o'zgarishiga olib keldi. Aholi takror barpo bo'lishi bir turdan ikkinchi turga o'ta boshladi. Ushbu hol demografik o'tish deb ataldi. Demografik o'tish jarayoni bosqichma-bosqich sodir bo'ldi. Mutaxassislar tomonidan demografik o'tish to'rt bosqichga ajratilgan.

Birinchi bosqich. Bu bosqich rivojlangan mamlakatlarda XX asr o'rtalarida kuzatildi. Unda aholi orasida o'rtacha tug'ilish va o'lim hollari kamaya boshladi. Lekin o'lim tug'ilishga qaraganda juda tez sur'at bilan kamaydi. Ba'zi davlatlarda esa tug'ilish deyarli kamaymadi. Natijada aholining tabiiy o'sishi juda yuqori darajada bo'ldi.

Ikkinchi bosqich. O'limning kamayish jarayoni davom etib, u eng kulminatsion nuqtasiga yetadi. Tug'ilishning kamayish sur'ati esa jadallashdi. Natijada aholi tabiiy o'sishi sekinlasha boradi.

Uchinchi bosqich. Ushbu bosqichda yuqori bosqichlarda ro'y bergan tug'ilish va o'limni kamayishi, aholi o'rtacha umr ko'rish muddatini uzayishi natijasida aholi tarkibida qariyalar salmog'i ko'payib boradi. Bu xol o'lim xolatini ko'payib borishiga olib keladi. Tug'ilish yana ham kamayib boradi va oddiy aholi takror barpo bo'lishi sodir bo'ladi. Ya'ni netto koeffitsiyent 1 ga

tenglashadi. Boshqacha qilib aytganda xar bir ona o'z o'rniga faqat bittadan qizni - bo'lajak onani qoldiradi xolos. Bu bosqichda aholi yosh tarkibida stabillashuv to'liq kuzatilmaydi. Aholi tarkibida o'lim xollari kam bo'lgan guruh - yoshlar salmog'i nisbatan baland bo'ladi.

To'rtinchi bosqichda o'lim xollari yuqori darajada bo'ladi, O'lim va tug'ilish koeffitsiyentlari tenglashadi. Demografik stabillashuv jarayoni tugallanadi.

Xulosa qilib aytganda jamiyat o'lgan aholi o'rni yangi tug'ilganlar hisobiga tiklanib turadi va avlodlar almashuvi yuz beradi. Ana shu jarayon aholi takror barpo bo'lishining asosini tashkil etadi. Ma'lum davrdagi aholi tarkibi, o'tgan davrdagi aholi takror barpo bo'lishining natijasi, keyingi davrdagi aholi takror barpo bo'lishining esa zamini hisoblanadi. Demak, aholi takror barpo bo'lishi jamiyat taraqqiyoti davomidagi doimiy, murakkab jarayondir. Aholining takror barpo bo'lish jarayoni esa, o'z navbatida qator ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Shuning uchun ham aholining takror barpo bo'lish jarayoni jamiyat taraqqiyotining xar bir bosqichida o'ziga xos xususiyatlarga, qonuniyatlarga egadir.

XIX-asrgacha bo'lgandavrda demografik jarayonlarda sezilarli sifat o'zgarishlari bo'lib o'tmadi. Undan kengi davrda aholining tabiiy harakati ko'rsatkichlarida demografik o'tish jarayoni boshlandi. U oila bajaradigan vazifalarning keskin o'zgarishi, turmushning nisbatan yaxshilanishi, aholining yesh tarkibidagi siljishlar boshqa omillar bilan bog'langandir.

Demograf olimlar demografik o'lish jarayonini 4ta ketma-ket keluvchi fazani o'z ichiga olishini ilmiy asoslab berganlar.

Birinchi faza- uchun tug'ulishining yuqori darajada saqlanishi va o'limning keskin qisqarishi oqibatida vujudga keluvchi juda yuqori darajadagi tabiiy o'sishga xosdir.

Ikkinchi faza- ko'p bolali oiladan kam oilaga o'tish, o'limning qisqarilishi esa tug'ulishning undan ham ko'p miqyosida kamayishi natijasida tabiiy o'sishning pasayishi bilan ifodalanadi.

Uchinchi faza- avvalambor aholi ichida qariyalar soni va ularning o'sishi hamda tug'ulishning asta-sekin pasayishi natijasida o'lim birmuncha ko'tariladi. Mazkur bosqichda aholi soni juda kam miqdor suratlarda o'sadi yoki qisqaradi.

To'rtinchi faza- to'g'ilish va o'lim ko'rsatkichlari tenglashadi, aholining ulushi o'sishi barham topadi.

Demografik o'tish davri dastavval Yevropada XVIII asrda boshlanadi. SHunda tabiiy o'sish 20-30% ga teng bo'ldi, buni xaqiqatdan ham demografik inqilob deb atash mumkin. Chunki 10-20 yil oldin atigi 5-10% ga teng bo'lgan tabiiy o'sish qisqa vaqt ichida 2-3 martaga oshdi. Ushbu jarayon Yevropada 100-150 yil davom etdi. Undan kengi davrda Yevropa mamlakatlari demografik o'tishning ikkinchi fazosiga o'tdi. Hozir ushbu mamlakatlarning ko'pchiligi demografik o'tishning uchinchi fazosidadirlar. Binobarin, Germaniya, Avstriya,

Belgiya, Italiya, Daniya, Vengriya, Niderlandiya aholini oddiy takror barpo etilishi xam ayrim yillarda ta'minlanmaganligi ya'ni o'lganlarning soni tug'ilgan bolalar sonidan ko'p bo'lmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchilligi demografik o'tish jarayonining 1-fazasini o'tamoqda.

8-Mavzu:Tug'ilish jarayoni va uning hududiy xususiyatlari

Mavzu rejasi:

1. Tug'ilish- demografik jarayon sifatida.
2. Tug'ilish va reproduktiv faoliyat. Tug'ilishga ta'sir etuvchi omillar.
3. Tug'ilish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi.
4. Aholining reproduktiv mayli va uni o'rganish. Aholining reproduktiv mayli va uni o'rganish bo'yicha tadqiqotlar

Aholi takror barpo bo'lishida ya'ni yangi avlodlarning dunyoga kelib, insoniyat naslini davom etishida tug'ilish-muhim demografik jarayon hisoblanadi.

Demografik jarayonlarni mukammal o'rganishda, ularni turli aholi guruhlari, davlatlar, dunyo hududlari bo'ylab qiyoslashda, kelajak istiqbolini aniqlashda, demografik koeffisientlardan foydalaniladi. Ushbu koeffisientlar yordamida o'rganilayotgan demografik jarayonning kerakli jihatlari chuqur va qiyosiy darajada o'rganiladi. Ma'lum tarixiy davr yoki ikki hudud orasida demografik farqlarni statistik ma'lumotlar orqali bevosita aniqlab bo'lmaydi. Shuning uchun har bir demografik jarayonni mahsus ko'rsatkichlar, ya'ni koeffisient yordamida o'rganiladi. Buning uchun qayd etilgan demografik jarayonning 1000 kishiga nisbatan bo'lgan miqdori aniqlanadi. Demak, 1000 kishi demografik jarayonlarni o'rganishda mezon hisoblanadi. Bu ko'rsatkich yuqorida qayd etilganidek "promille" deb yuritiladi va quyidagicha- "%o" belgilanadi.

Demografik koeffisientlar alohida demografik jarayonlarni ifodalaydi. Demografik koeffisientlar umumiy, maxsus va xususiy jihatlarga egadir.

Tug'ilish va uning koeffisientlari. Tug'ilish-ma'lum avlodlarni tashkil etuvchi aholi guruhidagi bola ko'rish jarayonidir. Tug'ilish-biologik jarayon. Lekin u ijtimoiy-iqtisodiy muhit ta'sirida o'zgarib boradi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tarkibidagi o'zgarishlar tug'ilish darajasini belgilaydi. Tug'ilishning biologik asosi insonning pushtiligi, (plodovitos) nasl qoldirish, avlod qoldirish qobiliyatidir. Erkak bilan ayol, yo'ni nikoh juftlarining farzand ko'rishga bo'lgan biologik qobiliyati pushtlilik, deb ataladi va bu tushuncha demografiyada ko'proq ayollarga nisbatan qo'llanilib, har bir ayolning farzand ko'rish davridagi (o'rtacha 15-49 yosh) jami homiladorligi bilan belgilanadi. Pushtlilik erkak va ayolning biologik xususiyatlariga, salomatligiga bog'liqdir. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, sog'lom ayollar farzand ko'rish davrida eng ko'pi 35 tagacha homilador bo'lishi (egizaklar ham bitta homiladorlik hisoblanadi) mumkin ekan.

Lekin har bir ayol o'rtacha 10-12 ta tirik farzand ko'rish, 10-15 marta homilador bo'lishi (o'lik tug'ilishi, bola tashlash holatlari bilan birga) mumkin.

Tug'ilish-tirik tug'ilgan bolalarni ifodalovchi biologik jarayon bo'lib, u insonlarning reproduktiv mayli, ya'ni farzand ko'rishga bo'lgan munosabati bilan bog'liqdir. Reproktiv mayl esa inson yashayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muhit bilan bog'liq holda o'zgarib turadi. Natijada inson o'z pushtiligidan, ya'ni bola ko'rishga bo'lgan biologik imkoniyatidan to'la foydalanmaydi. O'zining bolani tarbiyalab voyaga yetkazish uchun zarur bo'lgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, farzand ko'rishga harakat qiladi, ya'ni farzandlar tug'ilishini cheklaydi, nazorat etadi.

Yuqorida qayd etilgandek, tug'ilishning umumiy, maxsus va hususiy koeffisientlari mavjud bo'lib, ular asosida tug'ilish darajasi aniqlanadi.

Tug'ilishning umumiy koeffisienti. Har 1000 aholiga nisbatan tug'ilgan bolalar sonini ifodalaydi va quyidagi formula yordamida hisoblanadi.

$$n = \frac{N}{TP} \cdot 1000$$

T-o'rganilayotgan davr (yil)

R-o'rganilayotgan davrdagi aholining o'rtacha soni

N-o'rganilavyotgan davrda tug'ilgan bolalar soni

Tug'ilishning umumiy koeffisienti yuqorida qayd etilganidek promilleda hisoblanadi. Bu koeffisientdan tug'ilish darajasini ifodalashda ko'proq foydalaniladi. Uning yordamida ma'lum hudud yoki avlodlardagi tug'ilishda ro'y berayotgan o'zgarishlar umumiy tarzda o'rganilishi mumkin. Lekin tug'ilishning umumiy koeffisienti tug'ilish darajasini ifodalashda biroz dag'alliklarga yo'l qo'yadi. Chunki bu ko'rsatkichga aholining yosh va jinsiy tarkibi bevosita ta'sir etadi. Agar o'rganilayotgan hudud aholi tarkibida farzand ko'rish yoshiga yetmagan bolalar (0-14) va farzand ko'rish yoshidan o'tgan keksalar (60 va undan yuqori yoshdagi aholi guruhi) salmog'i yuqori bo'lsa, tug'ilish umumiy koeffisientining biroz past darajada ifodalanishiga olib keladi.

Demograf olimlar B.S.Urlanis, V.A.Borisovlar tomonidan tug'ilish darajasini tug'ilish umumiy koeffisienti yordamida baholash mezonini aniqlangan. Umumiy mezon bo'yicha o'rganilayotgan hudud yoki aholi guruhida tug'ilishning umumiy koeffisienti 16-promilledan kam bo'lsa, tug'ilish darajasi past: 16-24 promille bo'lsa-o'rta, 25-29 promille bo'lsa o'rtadan yuqori, 30-39 promille bo'lsa yuqori va 40 promilledan baland bo'lsa tug'ilish darajasi juda yuqori hisoblanadi.

Tug'ilishning maxsus koeffisientlari tug'ilish darajasidagi o'zgarishlarni aniq ifodalaydi, tug'ilishni atroflicha o'rganishda qo'llaniladi. Ushbu koeffisient

alohida erkaklar va ayollar guruhiga nisbatan hisoblanishi mumkin. Demografik tadqiqotlarda asosan reproduktiv yoshdagi (15-49 yosh) ayollarga nisbatan qoʻllaniladi. Tugʻilishning maxsus koeffisientida har 1000 ta 15-49 yoshdagi ayollarga nisbatan tugʻilgan bolalar soni aniqlanadi va quyidagicha ifodalanadi:

$$F_{15-49} = \frac{N_{15-49}}{TW} * 1000$$

F_{15-49} -tugʻilishning maxsus koeffisienti

N_{15-49} -oʻrganilayotgan davrda 15-49 yoshni ayollarda tugʻilgan bolalar soni

T-oʻrganilayotgan davr (yil)

W-reproduktiv yoshdagi ayollarning oʻrtacha soni (15-49 yosh, tugʻilish darajasi past davlatlarda 15-44 yoshdagi ayollar olinadi).

Tugʻilishning maxsus koeffisienti erkaklarga nisbatan ham hisoblanadi. U holda har 1000 ta 15-49 (14-54 yoshlar uchun ham hisoblanadi) yoshdagi erkaklarga nisbatan tugʻilgan bolalar soni aniqlanadi.

Tugʻilishning xususiy koeffisientlari-tugʻilishning oʻrganishdagi eng aniq koeffisientlar boʻlib, maʼlum yosh guruhlarida tugʻilish darajasini ifodalaydi. Bu koeffisient odatda har 1000 ta 15-19, 20-24, 25-29, 30-34, 35-39, 40-44 va 45-49 yosh guruhidagi ayollarda tugʻilayotgan bolalar sonini aniqlashda qoʻllaniladi va quyidagicha ifodalanadi:

$$F_{x/y} = \frac{N_{x/x+y}}{TW_{x/x+y}} \bullet 1000$$

$F_{x/V}$ -tugʻilishning maxsus yosh guruhi boʻyicha koeffisienti.

$N_{x/x+V}$ -maʼlum yosh guruhidagi onalardan tugʻilgan bolalar soni.

T-oʻrganilayotgan davr (yil).

W-oʻrganilayotgan yosh guruhidagi ayollarning oʻrtacha soni.

Tugʻilishning yigʻindisi (summariniy) koeffisienti, tugʻilish darajasini eng aniq ifadolovchi koʻrsatkich boʻlib, unda dunyo hududlari, davlatlar va maʼlum aholi guruhlaridagi tugʻilish darajasini ifodalashda qoʻllaniladi. Hududlar boʻyicha tugʻilish darajasini taqqoslaganda ham asosan tugʻilishning yigʻindi koeffisienti ishlatiladi. Tugʻilishning yigʻindi koeffisienti maʼlum avlodga tegishli har bir ayolning hayoti davomida (oʻlim va yosh tarkibidagi oʻzgarishlardan qatʼi nazar, har bir yosh guruhidagi tugʻilish darajasi saqlangan holda) tuqqan bolalarining

o'rtacha soni. Tug'ilishning yig'indi koeffisienti tug'ilishning yosh guruhlarini koeffisientlari yig'indisiga teng.

$$F_{\text{uzundoi}} = \sum_{15}^{49} y \cdot F_{x/x} + y$$

U-yosh guruhlarini orasidagi davr (interval)

Tug'ilishning yig'indi koeffisienti 4,0 dan yuqori bo'lsa-tug'ilish darajasi yuqori 2,15 dan kam bo'lsa, tug'ilish darajasi past 2,15-4,0 bo'lsa o'rtacha hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyoti davomida tug'ilish tarixiy davrlar va hududlar bo'yicha muntazam o'zgarib kelgan. 18 asrning ikkinchi yarmiga qadar dunyodagi deyarli barcha davlatlarda tug'ilish yuqori bo'lgan. 20 asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa tug'ilish yer kurrasi bo'ylab kamaya boshladi.

Tug'ilish darajasi jamiyat taraqqiyotining hamma bosqichlarida ham bir xil bo'lavermagan. Kapitalistik formasiyagacha mavud bo'lgan davrlarda tug'ilish biologik xarakterga ega bo'lgan, ya'ni cheklanmagan. Ko'pbolalik jamiyat davlat tomonidan ham qo'llab-quvvatlangan. Bu holni hozirgi jamiyat taraqqiyot bosqichida turib tasavvur qilish mushkulroq albatta. Masalaning tub mohiyatiga nazar tashlashga to'g'ri keladi, qaysiki o'sha o'tmish zamonlardagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan bevosita bog'liqdir. Quldorlik davrida ham, feodalizm ham ko'pbolalikdan har bir oila va shu bilan birga jamiyat ham manfaatdor edi. Nega shunday?

Eng avval oilada bolaning iqtisodiy roli juda katta edi. Ko'pgina mamlakatlarda oila yumushlarida, hunarmandchilikda, dehqonchilikda va chorvachilikda bolalar mehnatidan foydalanilgan. Demak, bola mehnati milliy daromadning ma'lum ulushini tashkil etgani sababli, jamiyat tomonidan qo'llab quvvatlangan. Hatto ba'zi davlatlarda, masalan, Rossiyada dehqonlarga ishlash uchun beriladigan yer ham bolalar soniga qarab taqsimlanardi. Bunday sharoitda, o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, har bir oila bolalar sonini ko'paytirishdan manfaatdor bo'lgan.

Kapitalistik ishlab chiqarish usulining vujudga kelishi bilan sanoat tez rivojlana boshladi, yangi-yangi shaharlar paydo bo'ldi. Ko'pchilik aholi ish qidirib qishloqdan shaharga ko'chib kela boshladi. Shahar aholisining o'sib borishi natijasida bir tomondan shaharlarda turar joy, oziq-ovqat muammolari kelib chiqqan bo'lsa, ikkinchi tomondan fan texnika taraqqiy etib, ishsizlik vujudga keldi. Uchinchidan, kapitalistik ishlab chiqarishda ayollar va bolalar mehnatiga juda kam haq to'lanar edi. Jamiyatda bunday o'zgarishlar oilada bolalar sonini cheklashga, tug'ilishning qisqarishiga olib keldi. Aholisining asosiy qismi shaharlarja yashovchi Xorijdiy Yevropa mamlakatlarida tug'ilish ayniqsa kamayib ketdi. Masalan, Angliyada 1850 yillarda aholining 50 % shaharlarda yashagan va har ming kishi hisobiga tug'ilgan bolalar soni o'rtacha 32,6 ni

tashkil qilgan bo'lsa, hozirgi aholining 80 % ga yaqini shaharlarda yashaydi va har ming kishga nisbatan tug'ilgan bolalar soni 10 tani tashkil qiladi. Yoki Fransiyani olib qaraylik. Bu mamlakatda 1850 yildan to hozirgacha shahar aholisi 25,5 dan 74 % gacha ko'paydi. Har ming hisobiga tug'ilgan bolalar soni esa 26,2 dan, 13,7 gacha kamaydi. Germaniya respublikasida esa aholining 94 % shaharlarda istiqomat qilishadi. Tug'ilish ko'rsatkichi esa 9 %o ni tashkil etadi xolos, va dunyoda tug'ilish eng kam davlatlardan hisoblanadi.

Yer yuzida tug'ilishning kamayishi asosan 18 asrning ikkinchi yarmida G'arbiy Yevropa davlatlarida boshlanib, keyinchalik bu qit'aning boshqa mamlakatlariga, undan so'ng esa AQSh, Kanada, Avstraliya va Yaponiyaga tarqaldi. Ayniqsa, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan davlatlarda tug'ilish tez kamaya boshladi. Ushbu davlatlarda 1750-1800 yillarda har ming kishi hisobiga 38 ta bola tug'ilgan bo'lsa, 1970-1990 yillarda bu ko'rsatkich 16 ni, 2007 yili 12 ni tashkil qildi. Boshqacha qilib aytganda, tug'ilish 3 martadan ko'proq qisqargan. Endi xuddi ana shu davrlar uchun rivojlanayotgan mamlakatlardagi tug'ilishni qiyoslaydigan bo'lsak, boshqacha ahvolni guvohi bo'lamiz. Ularda 1750-1790 yillarda har ming kishi hisobiga 41 tadan bola tug'ilgan va 1970-1990 yillarda esa har 1000 kishi hisobiga tug'ilgan bola 34 ni, 2009 yili esa 22 ni tashkil qilgan. Demak, rivojlanayotgan davlatlarda tug'ilishning kamayishi, nisbatan olib qaralganda, ancha sekin borgan. Hozirgi davrda tug'ilish yer shari bo'yicha bir xil emas. Dunyo kontinentlari bo'ylab eng yuqori tug'ilish Afrikada, eng pasti esa Yevropa davlatlarida ekan.

Dunyo hududlari bo'yicha tug'ilishning umumiy va yig'indi koeffisientlari (2020 y.)

Dunyo hududlari	Tug'ilishning umumiy koeffisienti	Tug'ilishning yig'indi koeffisienti
Dunyo bo'yicha	20	2,6
Rivojlangan davlatlar	12	1,7
Rivojlanayotgan davlatlar	22	2,7
Afrika	36	4,8
Amerika	17	2,2
Osiyo	24	2,3
Evropa	8	1,5
Avstraliya va Okeaniya	18	2,5

Population Reference Bureau. 2020 Word Population Data Sheet.

Sayyoramizda tug'ilishning hududlar bo'ylab bunday farq qilishi, avvalo u davlat aholisining moddiy va madaniy turmush darajasiga, ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishda bandligiga, hamda shu davlat halqining asrlar davomida

shakllanib, saqlanib kelayotgan milliy urf-odatlariga, qolaversa, diniga bog'liqdir. Bulardan tashqari, tug'ilishga aholining jins va yosh bo'yicha taqsimlanishi, nikohdan o'tish va ajralish kabi qator demografik omillar, psixologik omillar, tibbiyot rivojlanishi, hamda har bir davlat tomonidan olib borilayotgan demografik siyosat ham ta'sir qiladi. Yuqorida qayd etilganidek, keyingi 20-30 yil ichida dunyoning deyarli hamma hududlarida tug'ilishning kamayib borish jarayoni kuzatilmoqda.

1970-2009 yillar davomida tug'ilishning eng tez kamayishi Shimoliy Amerikaga to'g'ri keladi (shu davr ichida 1,7 marta kamaygan). Uning asosiy sabablaridan biri shahar aholisining o'sishi bo'lgan. Masalan, AQSh va Kanadada shahar aholisining 1950-2009 yillarda 64 % dan 75-80 % gacha o'sgan. Bundan tashqari, tug'ilishning kamayishiga ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishda, yollanma ishlarda qatnashishi ham sabab bo'lgan. Masalan, Kanadada 1931 yil moddiy ishlab chiqarishda qatnashuvchi aholining 17 % ayollar bo'lgan bo'lsa, 1980-2009 yillarda esa bu ko'rsatkich 40 % dan oshib ketdi. Shimoliy Amerikada tug'ilishning kamayishiga olib kelgan muhim sabablardan yana biri ajralishning nikohdan ko'pligidir. Hozirgi davrda AQShda har yili qayd etilgan nikohlarning 50 % ga yaqini buzilganligi ma'lum. Tabiiy holki, nikohning qisqa vaqt davom etishi oilada bola sonining o'z-o'zidan kamayishiga olib keladi. Bundan tashqari, Shimoliy Amerikada ishsizlar sonining tobora ortib borishi, ertangi kunga ishonchsizlik bilan qarash kabi xususiyatlari ham tug'ilishni kamaytiradi.

Ba'zi joylarda davlat tomonidan olib borilayotgan tug'ilishni cheklashga qaratilgan demografik siyosat ham tug'ilishning kamayishiga olib kelmoqda. Buni Xorijiy Osiyoning eng yirik davlatlari-Xitoy va Hindiston misolida ko'rishimiz mumkin. Yuqorida qayd etilganidek, Xitoyda oiladagi bolalar sonini cheklash davlat dasturiga kiritilgan. 1970 yillardan boshlab aholi o'rtasida tug'ilishni kamaytirish uchun qator tadbirlar qo'llana boshladi. Natijada, Xitoyda tug'ilish keskin kamaydi.

Hindistonda ham tug'ilish davlat tomonidan nazorat qilinadi. Oilada bolalar sonini cheklash davlat dasturiga kiritilgan. Bu masala yuzasidan bir qancha tashkilotlar maxsus tadqiqot olib boradilar. Ular jumlasiga Oilani rejalashtirish asosiasiyasi, Hindiston tibbiyot asosiasiyasi, Hindiston Qizil yarim oy jamiyati kabi tashkilotlar kiradi.

Hindistonda tug'ilishning kamayishiga aholi savodxonlik darajasining oshishi ham ta'sir etmoqda. Masalan, 1971 yili Hindiston aholisining 29,4 % savodli edi. Hozirgi davrda 40 % dan yuqori aholi savodlidir.

Ma'lumki, Xorijiy Osiyo aholisining 70% dan ko'prog'ini Xitoy va Hindiston aholisi tashkil etadi. Shuning uchun Xitoy va Hindistonda tug'ilishning nisbatan kamayishi butun Xorijiy Osiyo bo'yicha tug'ilish ko'rsatkichiga ta'sir kildi. 1970-2009 yillarda tug'ilish Xorijiy Osiyoda deyarli 2 barobar kamaydi. Ana

shu davrda tug‘ilishning yig‘indi koeffisienti Yevropada 2,1dan 1,5 ga, Okeaniyada 3,1 da 2,5 ga, afrikada 6,5 dan 4,8 ga kamaygan.

Shunday qilib, biologik jarayon bo‘lgan tug‘ilish qator ijtimoiy (aholining savodlilik darajasi, ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy mavqei. Oilaning davlatda, jamiyatda tutgan o‘rni, urf-odatlar, qadriyatlar, din, etnik tarkibi, urbanizasiya jarayoni va h.k.) iqtisodiy (aholi bandligi, ayollar bandligi, oila daromadi, ijtimoiy muhofazalar va h.k.) tibbiy (homiladorlikdan saqlanuvichi vositalar, va ular va ular haqidagi bilimlar bilan ayollarni ta‘minlanganligi, onalar, bolalar salomatligi) va demografik (aholining yosh jinsiy tarkibi, reproduktiv yoshdagi ayollar salmog‘i, nikoh, ajralish o‘lim jarayonlari) omillar ta‘sirida sodir bo‘lar ekan. Agar dunyodagi davlatlarni tug‘ilishning bugungi holatiga qarab sharxlamog‘chi bo‘lsak, ularni shartli ravishda uch guruhga ajratmog‘imiz lozim. Ma‘lumki, tug‘ilishning yig‘indi koeffisienti 2,1 dan past bo‘lsa tug‘ilish darajasi ham past bo‘ladi: 2,1-4,0 bo‘lsa tug‘ilish darajasi -o‘rtacha va 4,1 va undan yuqori bo‘lsa tug‘ilish darajasi yuqori bo‘ladi. Ana shu demografik mezonga asosan dunyo davlatlarini guruhlarga ajratish mumkin. **Birinchi guruh** – tug‘ilish darajasi yuqori bo‘lgan davlatlar: Afrika davlatlari (Misr, Tunis, Moris va Seyshel orollaridan tashqari), Osiyo va Janubiy Amerikadagi qator davlatlar hamda Avstraliya va Okeaniyadagi ba‘zi mamlakatlar. Ulardagi oilalarda farzandlar soni o‘rtacha 4,1dan to 7,0gacha, ba‘zi hollarda esa, undan ham yuqori bo‘lgan. Tug‘ilishi eng yuqori sanalgan davlatlardan Afg‘oniston, Gvineya-Bisau va Niger bo‘lib, ularda tug‘ilishning yig‘indi koeffisienti 7,1-7,7ni va Yamanda – 6,7ni, Mali va Kongoda – 6,2ni tashkil etadi. Ushbu davlatlardagi oilalarda tug‘ilish darajasining bunday yuqori bo‘lishiga olib keluvchi qator omillar mavjuddir. Ulardan asosiylari quyidagilar: yuqorida zikr etilgan davlatlar, asosan, iqtisodiy jihatdan rivojlanayotgan davlatlar bo‘lib, ayniqsa ayollarning ma‘lumotlilik nisbatan past; ko‘p bolalikni qo‘llab-quvvatlovchi an‘analar ko‘proq saqlanib qolgan; ayollar ijtimoiy ishlab chiqarishda kam ishtirok etadi; shahar turmush tarzining shakllanishi sust; tug‘ilishni cheklash haqida tushunchalar va unga kerakli tibbiy vositalar keng tarqalmagan.

Ta‘kidlab o‘tish lozimki, tug‘ilish darajasining yuqoriligi ba‘zi demografik oqibatlarni keltirib chiqardi. Jumladan, aholining soni tez ko‘paya borib, ko‘plab yangi oilalar vujudga keladi, aholi tarkibida bolalar soni yuqori bo‘ladi. Bu demografik oqibatlar esa, o‘z o‘rnida qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga sabab bo‘ladi.

Tug‘ilishi yuqori bo‘lgan davlatlarda keyingi 15-20 yil ichida aholi soni yiliga 2,5–3,2 foizdan ko‘payib bormoqda. Bugungi kunda 40 dan oshiq davlatda tug‘ilishning yig‘indi koeffisienti 4,1–7,5 tashkil etmoqda. Shuni alohida qayd etish lozimki, keyingi 10 yil ichida dunyodagi tug‘ilish yuqori bo‘lgan davlatlar soni kamaydi. 1989 yili bunday davlatlar soni 79 ni tashkil etgan bo‘lsa, 2005 yili ularning soni 37 taga kamaydi va 42tani tashkil etdi. Agar 1989 yili ushbu

davlatlarda istiqomat etuvchi aholi salmog'i dunyo aholisining 23 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2005 yilga kelib, bu ko'rsatkich deyarli 14 foizni tashkil etdi.

Ikkinchi guruh – oilada tug'ilish darajasi o'rtacha bo'lgan davlatlar, ushbu davlatlarda tug'ilishning yig'indi koeffisienti 2,1–4,0ni tashkil etadi. 1989–2005 yillarda dunyoda tug'ilish darajasi o'rtacha bo'lgan davlatlar soni 44tadan 57taga yetdi, ya'ni 13taga ko'paydi. 1989 yili O'zbekiston davlati ham tug'ilish yuqori bo'lgan davlatlar guruhiga kirgan bo'lsa, 2005 yilga kelib u tug'ilish darajasi o'rtacha bo'lgan davlatlar guruhidan joy oldi. Tug'ilish darajasi o'rtacha bo'lgan guruhda istiqomat etuvchi aholi 2005 yilda dunyo aholisining 37,0 foizini tashkil etdi. Mazkur davlatlarda tug'ilishning bunday darajada bo'lishi ularning tarixan tarkib topib kelgan ijtimoiy-iqtisodiy omillari bilan bog'liqdir. Tug'ilish darajasi o'rtacha bo'lgan joylarda aholining o'sish sur'ati bir tekis saqlanib turadi. Ularda aholining keskin ko'payib ketishi yoki kamayib ketishi hollari kutilmaydi. Aholi taraqqiyotini boshqarish, iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi muammolarni hal etish bir muncha yengil kechadi.

Uchinchi guruh – tug'ilish darajasi past bo'lgan davlatlar. Bu davlatlarda aholi yiliga 0,7–0,9 foizga ko'payib boradi. Oilalarning aksariyat qismida 1 yoki 2tadan bola bor, xolos. Shuni ta'kidlash lozimki, 1989–2005 yillarda tug'ilish darajasi kam bo'lgan davlatlar soni 32tadan 71taga ko'paydi yoki 2 barobardan ziyod o'sdi. Hozirgi davrda ushbu davlatlarda dunyo aholisining deyarli yarmi istiqomat etmoqda. Demak XXI asr boshlariga kelib, dunyo aholisining deyarli yarmi kam bolali oilalarda istiqomat etmoqdalar. So'nggi guruh davlatlarida istiqomat etuvchi oilalarda tug'ilishning bunday kamayib ketishi, birinchi navbatda, kapitalistik munosabatlar keng tarqalishi bilan bog'liqdir. Ta'kidlab o'tganimizdek, kapitalistik ishlab chiqarish sharoitida sanoat rivojlanib, shaharlar sonining o'sishi va shahar turmush tarzining keng tarqalishi uchinchi guruhga mansub davlatlarda tug'ilishning qisqarishiga olib keldi. Ayniqsa aholining asosiy qismi shaharlarda yashovchi Yevropa mamlakatlarida tug'ilish juda kamayib ketgan.

Ushbu guruh davlatlarida hozirgi davrda tug'ilish darajasining kamayib ketishiga olib kelgan navbatdagi omil ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishda, yollanma ishlarda ko'proq qatnashishidir. Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda tug'ilishning kamayishiga olib kelgan omillardan yana biri, oilaning buzilishi, ya'ni nikohdan chiqish hollarining nihoyatda ko'pligidir. Yuqorida qayd etilganidek, nikohning qisqa vaqt davom etishi oilada bola sonining o'z-o'zidan kamayishiga olib keladi. Bundan tashqari, barcha iqtisodiy taraqqiy etgan davlatlar qatori, Shimoliy Amerikada ham fan-texnika rivojlanib, ishlab chiqarish sohalariga kirib borishi natijasida aholining tarkibida ishsizlik tobora ko'payib bormoqda. Ishsiz, boshpanasiz aholining oila qo'rish va farzand tarbiya qilishiga iqtisodiy imkoniyati bo'lmaydi. Shunday holatlar ham tug'ilishning kamayib ketishiga olib keladi. Umuman olganda, kapitalistik munosabatlarning keng tarqalishi va

rivojlanishi oilaning farzandlarga bo'lgan ham iqtisodiy, ham ma'naviy ehtiyojini pasaytirib yuboradi.

Fikrimizning dalili sifatida rivojlangan kapitalistik davlatlardan biri AQSh oilalaridagi tug'ilish ko'rsatkichlariga murojaat qilamiz. Agar 1950 yili har bir Amerika oilalarida o'rtacha 3-4tadan bola tug'ilgan bo'lsa, 1970 yili bu ko'rsatkich 2-3 taga kamaydi. Keyingi vaqtlarda AQShda farzandsiz oilalar ko'payib bormoqda. Bu davlatda o'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ko'pchilik oilalarda fatqat bittadan farzand bo'lib, ularning 44 %i kutilmaganda, 15%i esa, xohlamagan holda tug'ilgan ekan. Mutaxassislar bu ahvolni "Amerika oilasida inqiroz" deb atashmoqda. Bu inqiroz Amerika Qo'shma Shtatlari uchun muammomi, yo'qmi? Uni shu davlat aholisining taraqqiyot tarixidan kelib chiqib aniqlamoq lozim.

Shunday qilib, biz yuqorida jahon mamlakatlarining oilalarida tug'ilish jarayonidagi o'zgarishlar bilan tanishib chiqdik. Ma'lum bo'ldiki, hozirgi paytda yer yuzidagi xalqlarning tug'ilish jarayoni bir xil emas ekan. Bir toifa mamlakatlarda oilalarning tug'ilishi juda kamayib ketgan bo'lsa, ikkinchi bir xilida – juda yuqori. Bu hol, yuqorida aytilganidek, turli ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'liq.

9-Mavzu: Aholining o'limi va uning o'rtacha umr ko'rish davomiyligi

Mavzu rejası:

1. Aholi o'limi va uning o'rtacha umr ko'rish davomiyligi geografiyasi-aholi o'limi va tabiiy ko'payish.
2. Aholi o'limi va uning yashash sharoiti bilan bog'liqligi. Aholi o'limi demografik va geografik jarayon sifatida o'rganilishi.
3. Aholi o'limini keltirib chiqaruvchi omillar (endogen, ekzogen va kvaziendogen) va sabablar.
4. Aholi o'limi turlari. Aholining o'rtacha umr ko'rish va geografiyasi

Demografik vaziyatning shakllanishida o'lim ham asosiy jarayonlardandir. O'lim, aholi takror barpo bo'lishidagi asosiy jarayonlardan biri bo'lib, avlodlarni hayotdan ko'z yumishini ifodalaydi. O'lim jarayoni aholining turli yoshlarida juda ko'p omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Mutaxassislar o'limga ta'sir etuvchi omillarni ularning kelib chiqishiga bog'liq holda ikki guruhga: endogen va ekzogen omillarga ajratadilar. Endogen omillar ichki omillar bo'lib, inson organizmidagi o'zgarishlar (kasallanish, keksalik) bilan bog'liq omillardir. Ekzogen omillar esa tashqi omillar (urushlar, turli epidemiyalarning tarqalishi, baxtsiz hodisalar, tabiiy ofatlar va h.k.) bo'lib, ular tashqi muhit ta'sirida sodir bo'ladilar.

O'lim jarayoni ma'lum aholi guruhlarida, avlodlarda davlatlarda va jamiyat taraqqiyoti bosqichlarida ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga bog'liq holda,

inson hayotining turli davrlarida sodir bo‘ladi. O‘lim jarayonini ifodalashda quyidagi koeffisientlardan foydalaniladi. O‘limning umumiy koeffisienti:

$$m = \frac{M}{TP} \cdot 1000$$

m-o‘lim umumiy koeffisienti (promilleda ifodalandi).

M-o‘rganilayotgan davrdagi o‘lganlar soni.

T-davr

P-o‘rganilayotgan davrdagi aholining o‘rtacha soni

O‘limning umumiy koeffisientiga ham aholining yosh va jinsiy tarkibi bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Aholi tarkibida qariyalar salmog‘ining ko‘pligi o‘limning umumiy koeffisientini ko‘tarilishiga olib keladi.

O‘lim jarayonida bo‘layotgan o‘zgarishlarni aniq o‘rganishda uning maxsus koeffisientlari (yosh guruhlari va jinslar bo‘yicha alohida ifodalanadi) dan aniqlanadi.

O‘limning yosh guruhlari bo‘yicha koeffisienti-alohida yoshlar (1,2,3,4,5,...) yoki yosh guruhlari (1-4, 5-9, 10-14...) bo‘yicha hisoblanib, har 1000 ta o‘rganilayotgan yoshdagi aholiga nisbatan shu yoshdagi o‘lganlarning o‘rtacha sonini aniqlaydi va promilleda (%) ifodalanadi.

$$m_{x_1x+z} = \frac{M_{x,x+z}}{TP_{x,x+z}} * 1000$$

M_{x_1x+z} -o‘limning yosh guruhlari bo‘yicha koeffisienti ifodasi.

T-o‘rganilayotgan davr, yil.

M_{x_1x+z} -o‘rganilayotgan yosh guruhidagi jami o‘lganlar soni.

P_{x_1x+z} -o‘rganilayotgan yosh guruhidagi aholining o‘rtacha soni.

O‘limning yosh guruhlari bo‘yicha koeffisienti yordamida har bir yosh guruhida sodir bo‘layotgan o‘lim hollari va omillari o‘rganiladi, va o‘lim jadvali tuzishda foydalaniladi.

Aholi guruhidagi o‘lim jarayonini o‘rganishda go‘daklar o‘limi, ya‘ni bir yoshgacha (0-12 oy) bo‘lgan bolalar o‘limi ham juda ahamiyatlidir. Chunki, ko‘p hollarda go‘daklar o‘limi bir muncha ko‘proq bo‘lib, aholi o‘limining umumiy koeffisientining yuqori bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun ham go‘daklar o‘limi alohida hisoblanadi.

Go‘daklar o‘limi har 1000 ta tirik tug‘ilgan bolalarga nisbatan, shu yoshda o‘lgan go‘daklarning sonini bildiradi va promilleda ifodalanadi.

$$\frac{\text{бир ёшгача улган жами болалар сони}}{\text{ўрганилаётган даврдаги бир ёшгача булган тирик туғилган болалар сони}} \cdot 1000$$

Aholi o‘lim darajasini o‘rganishda onalar o‘limini mukammal o‘rganib borish zarurdir. Onalar o‘lim tug‘ilish darajasi yuqori, ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlanishi nisbatan sust, davlatlarda baland bo‘lib. Aholi o‘lim ko‘rsatkichlariga bevosita ta‘sir etdi. Onalar o‘limiga homiladorlikning oxirgi (28 haftadan keyin) hamda farzand tug‘ilgandan keyingi (6 hafta) davrida sodir bo‘lgan ayollar o‘limi kiritiladi. Onalar o‘limi har 1000 ta tuqqan ayollarga yoki har 1000 ta tirik tug‘ilgan bolalarga nisbatan hisoblanadi. Aholi o‘limi jamiyat rivojlanishi davomida qator ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta‘sirida sodir bo‘lib kelgan. Moddiy shart-sharoitlarning yaxshilanib borishi o‘lim hollarining kamayishiga, aksi esa – ko‘payishiga sabab bo‘lgan. Sog‘liqni saqlash tizimining rivojlanishi, aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish darajasining oshib borishi ham o‘limga bevosita ta‘sir etuvchi omillardandir. Shuningdek, tug‘ilish biologik imkoniyat darajasida bo‘lganda, ko‘pbolalik an‘analari rivojlangan davrlarda tug‘ilgan farzandlar orasidagi davr, muddat (protogenetik davr: nikohga kirgandan birinchi farzand tug‘ilguniga qadar o‘tgan vaqt; intergentik davr: birinchi va ikkinchi, ikkinchi va uchinchi, uchinchi va to‘rtinchi va h.k. farzandlar tug‘ilishi orasidagi davr, yil) qisqa (1,2-2 yil) bo‘lgan hollarda ham go‘daklar, onalar o‘limi yuqori bo‘ladi.

XX asr 50-yillariga qadar dunyoning barcha hududlarida ham o‘lim yuqori darajada edi. Ushbu davrga qadar aholi o‘limida ko‘proq ekzogen (tashqi muhit ta‘siridagi omillar: urushlar, epidemiyalar, baxtsiz hodisalar, tabiiy ofatlar) omillar sabab bo‘lgan. Aholining juda ko‘p qismi, ayniqsa Osiyo, Afrika hududlarida yuqumli infeksiyon kasalliklardan bolalik davrida ko‘z yumishgan. Qadimda yer sharida go‘daklar va ayollar o‘limi ayniqsa yuqori bo‘lgan. Ko‘pchilik ayollar farzand ko‘rish davrlarida turli kasalliklar ayniqsa qon yo‘qotish tufayli halok bo‘lganlar. Markaziy Osiyo davlatlarida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida har 1000ta tug‘ilgan chaqaloqlardan bir yoshgacha bo‘lgan davrda 300-400tasi, ba’zi davrlarda esa, 500-600tasi nobud bo‘lgan. Qadimda aholi o‘limining yuqoriligi, qayd etilganidek, aholining turmush darajasiga, tibbiy xizmatlarning yetishmasligiga, aholining ma‘lumotlik darajasining pastligiga, farzandlar tug‘ilishining yuqoriligi va farzandlar tug‘ilishi orasidagi davrning nisbatan qisqaligi kabi omillar bilan bog‘liq edi.

**Dunyo hududlarida aholi o‘limi
(1000 aholiga nisbatan o‘lganlar soni)***

Hududlar	1958-1962 yy.	2001 y.	2009 y.
Dunyo bo‘yicha	17	9	8
Evropa	10	11	11
Osiyo	20	8	7
Afrika	23	14	12
Shimoliy Amerika	13	8	8
Lontin Amerikasi	-	-	6
Avstraliya va Okeaniya	8	7	7

*Naselenie mira. M., 1965. S 12; Naselenie i obshestvo. (Inform byulleten RAN. M., 2001 № 56: Population Reference Bureau. 2009 Word Population Data Sheet.

Hozirgi davrda dunyo bo'yicha aholi o'lim ko'rsatkichlari Osiyo, Afrika, Amerika, Okeaniya hududlarida kamayib, Yevropa hududida esa, ortib borayotganligi kuzatiladi. Umuman, sayyoramiz aholisida o'lim jarayoni XX asr ikkinchi yarmi – XXI asr boshlarida 2-2,5 marta kamaygan. Hozirgi davrda o'limga enzogen omillar (organizmning qarishi va uning kasallanishi tufayli sodir bo'lgan ichki muhit omillari) sabab bo'lmoqda. Bu hol, albatta jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, turmush tarzining yaxshilanishi, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning oshib borishi bilan bog'liq. Lekin Yevropa davlatlarida aholi o'lim ko'rsatkichlarining bir muncha ko'tarilishiga demografik omil, ya'ni aholi tarkibida qariyalar (60-65 ysh va undan yuqori) salmog'ining ortib borishi ta'sir etgan. Ma'lumki, aholi o'limining umumiy koeffisienti aholining yosh tarkibiga bevosita bog'liq. Agar aholi tarkibida bolalar (0-14 yosh) va yoshlar (16-29 yosh) salmog'i yuqori bo'lsa, o'lim koeffisienti kamayadi. Dunyoning juda ko'p davlatlarda XX asr boshlarida aholi o'rtacha 35-40 yil umr ko'rgan bo'lsa, hozirgi vaqtda – o'rtacha 63-68 yosh umr ko'rish kuzatiladi. Yevropada esa, bu ko'rsatkich 70-79ga yetdi. Mazkur hududda tug'ilishning keskin kamayishi aholi tarkibida bolalar va yoshlar salmog'ining keskin kamayishiga olib kelgan bo'lsa, aholining umr ko'rish muddatini uzayganligi qariyalar salmog'ining oshib borishiga olib keldi. Natijada Yevropada o'lim ko'rsatkichlari ko'tarildi.

Ma'lumki, inson dunyoga kelib, ma'lum davr yashab, hayotdan ko'z yumadi. Inson dunyoga kelib yashagan davri hayot davomiyligi yoki umr ko'rish muddati deb, o'rganiladi. Insonning hayot davomiyligi birinchi navbatda o'lim jarayoni bilan bog'liq. O'lim esa yuqorida qayd etilganidek, turli omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Demak, o'limga ta'sir etuvchi omillar, o'lim jarayoni orqali hayot davomiyligiga ham ta'sir etadi. Hayot davomiyligi mutaxassislar tomonidan, dunyo va uning alohida hududlari, erkaklar va ayollar uchun maxsus demografik uslublarda hisoblanadi.

Odatda kutilayotgan umr ko'rish muddati aniqlanadi. Unda yangi tug'ilgan chaqaloqlar qancha umr ko'rish mumkinligi hisoblab chiqiladi.

Bu holda tug'ilgan bolalarni ulg'ayib borishida yoki bir yosh guruhidan ikkinchi yosh guruhiga o'tishda shu yosh guruhlarida o'rganilayotgan davrdagi o'lim holati hisobga olinadi. Olingan natija aholi o'rtacha umr ko'rish muddatini nazariy hisobi bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Rossiyada 1993 y. o'g'il bolalar uchun go'daklar o'limi 20,0 % edi. Demak, tug'ilgan 1000ta o'g'il boladan 20tasi 1 yoshgacha yashamaydi. Ikki yoshli o'g'il bolalarda esa, shu yili o'lim ehtimoli 6 kishini tashkil etgan. Ko'rinib turibdiki, 1000ta tug'ilgan boladan 1 yoshga 980tasi, 2 yoshga esa, 974tasi o'tdi. Ana shunday usul bilan avlodning oxirigacha umr ko'rish ehtimoli hisoblab chiqiladi. Yuqorida qayd etilganidek, oldingi asrda aholi o'rtacha 30-35 yil umr ko'rgan. Hozir esa bu ko'rsatkich ikki barobarga oshgan. 2009 yilda aholi umr ko'rish bo'yicha eng past ko'rsatkichlar Markaziy va Janubiy Afrika davlatlarida kuzatilmoqda (erkaklar 42-44, ayollar 45-46 yosh)

**Dunyo hududlarida aholining tug‘ilganda kutilayotgan umr ko‘rish yoshi
(2009 yil)***

Hududlar	Erkaklar	ayollar	ikkala jins
Dunyo bo‘yicha	67	71	69
Afrika	53	56	55
Amerika	72	78	75
Osiyo	68	71	69
Evropa	72	80	76
Avstraliya va Okeaniya	74	78	76

*Population Reference Bureau. 2009 World Population Data Sheet.

Aholining uzoq umr ko‘rishi mumkin bo‘lgan hudud Yevropa, Avstraliya va Okeaniya hamda Amerika hududlari ekan. Hozirgi davrda insonning eng uzoq umr ko‘rishi o‘rtacha 79-83 yoshni tashkil etmoqda. 2009 yil eng uzoq umr ko‘rsatkichi Yaponiya (83 yosh). Xitoy-Gonkong (82 yosh), Xitoy-Makao (82 yosh), Singapur (81 yosh), Islandiya (81 yosh), Finlyandiya (80 yosh), G‘arbiy Yevropa davlatlarida (79-82 yosh), Kosta-Rika, Gvadelupa davlatlarida (79 yosh) kuzatilmoqda. Eng qisqa umr ko‘rish esa Markaziy Afrika Respublikalari (45 yosh), Angola (46 yosh), Nigeriya (47 yosh), S‘erra-Leona (48 yosh) va Burundi (49 yosh) davlatlarida qayd etilmoqda.

Aholining o‘rtacha umr ko‘rish muddatini aniqlashda ayniqsa go‘daklar o‘limi alohida ahamiyatga egadir. Go‘daklar o‘limining yuqori bo‘lishi aholi o‘rtacha umr ko‘rish muddatini ko‘rsatkichlarini qisqarishiga olib keladi.

Go‘daklar o‘limi (har 1000ta tirik tug‘ilgan bolaga nisbatan 0 dan 1 yoshgacha bo‘lgan o‘lim soni). Manbalardan ma‘lumki, XIX asrda, ba‘zi rivojlanayotgan davlatlarda esa, XX asr birinchi yarmida ham go‘daklar o‘limi yuqori bo‘lgan. 1900 yilda G‘arbiy Yevropa davlatlarida har 1000ta tirik tug‘ilgan chaqaloqdan 140tasi, Markaziy Osiyo davlatlarida esa qayd etilganidek – 500-600tasi hayotdan ko‘z yumgan. 1950 yillarda go‘daklarning o‘lim hollari bir muncha kamaydi. Yevropa davlatlarida go‘daklar o‘limi 45%oni (eng yuqorisi 69 % – Gresiyada, eng pastsi – 22 %o Shvesiyada)⁸, sobiq SSSR tarkibiga kirgan davlatlarda esa – 80-83 %oni tashkil etgan⁹.

1960–1980 yillarda dunyodagi qator davlatlarda aholi salomatligi borasida ulkan ishlar qilindi. Sog‘likni saqlash tizimi rivojlanib, aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish yaxshilandi. Onalar va bolalar salomatligiga katta e‘tibor berildi. Dunyoda aholi salomatligini, onalar va bolalar, ayollar salomatligini muhofaza etuvchi nufuzli tashkilotlar tuzildi. Natijada aholi o‘limi, jumladan go‘daklar o‘limi ham keskin kamaydi

⁸ Narodonaseleniye stran mira. – M., 1974. – S.129.

⁹ Naseleniye mira. – M., 1989. – S.208.

1980–2000, 2001–2009 yillarda go‘daklar o‘limining pasayishi jarayoni davom etdi. 1980 yilda go‘daklar o‘limi iqtisodiy rivojlangan davlatlarda quyidagi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan: Avstriyada – 14,3 %, Belgiyada – 12,1%, Daniyada – 8,4 %, Italiyada – 14,6 %, Kanadada – 10,4 %, Niderlandiyada – 8,6 %, Norvegiyada – 8,1 %, AQShda – 12,6 %, Fransiyada –10,0 %, Shvesiyada – 6,9 %, Yaponiyada – 7,5 %. 2009 yilda bu ko‘rsatkichlar 3-6 %oni tashkil etgan. XXI asr boshida go‘daklar o‘limining eng past ko‘rsatkichlari Yaponiya, Singapur, Shvesiya davlatlarida qayd etilib, ularda har 1000 tirik tug‘ilgan bolalardan uchtasi halok bo‘lar ekan. 1980 yillarda go‘daklar o‘limining eng yuqori darajasi rivojlanayotgan davlatlardan Afg‘oniston – 194 %, Malavi – 163%, Somali – 155 %o kabilarda qayd etilgan. Hozirgi davrda ushbu davlatlarda go‘daklar o‘limi kamayib, mos ravishda 145, 107, 114 %oni tashkil etmoqda. Lekin Markaziy Afrika davlatlarida (113 %o), Markaziy Osiyoning janubida joylashgan davlatlarda (65 %o) hamon go‘daklar o‘limi yuqoridir. Bu holning asosiy sabablari, bir tomondan tug‘ilishning yuqori bo‘lishi va natijada ona va bola organizmini zaiflashuvi bo‘lsa, ikkinchi tomondan issiq iqlim sharoiti, iqtisodiy rivojlanishning pastligi, hamda tibbiy xizmatning nisbatan yetishmasligidir.

Qadimda go‘daklar asosan ekzogen sabablarga ko‘ra, yuqumli kasalliklardan vafot etgan bo‘lsalar, hozirgi davrga kelib, yuqumli kasalliklar kamayib ketdi. Go‘daklar o‘limiga endogen omillar (ko‘proq nafas olish organlari kasalligi, endokrin, yurak-qon tomir kasalliklari) sabab bo‘lmoqda.. Shunday bo‘lsada, dunyodagi qator davlatlarda go‘daklar o‘limi XXI asr boshida, oldingi asrga nisbatan, keskin kamaygan va bu hol aholi umr ko‘rishi ko‘rsatkichlarining ko‘tarilishiga ta’sir etgan.

10-Mavzu: Aholining tarkiblari: aholining yosh tarkibi

Mavzu rejasi:

1. Aholining tarkibi tushunchasi. Aholi tarkiblari turlari: yosh, jins, nikoh, iqtisodiy, oilaviy, ijtimoiy, diniy, irqiy v.h.
2. Aholining yosh tarkibi turlari va geografik xususiyatlari. Aholining yosh tarkibi, uning shakllanish omillari va yosh guruhleri bo‘yicha taqsimlanishi.
3. Aholi yosh guruhleri va aholi takror barpo bo‘lish o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi. Aholi yosh tarkibining demografik va hududiy jihatlari.

Aholi yosh tarkibi uch asosiy omil ta’sirida shakllanadi; 1) Yangi tug‘ilganlardagi jinsiy nisbat; 2) O‘limdagi jinsiy farq. 3) Aholi migratsiyasidagi jinsiy farq.

Aholining yosh tarkibi-ijtimoiy-iktisodiy va demografik jarayonlarni o‘rganish maqsadida aholining yosh guruhlarga bo‘tshnishidir. Aholi yosh

guruhlari va demografik jarayonlar o'zaro uzviy bog'liq holda shakllanadi. Aholi tarkibida yoshlar (0-9, 10-19, 20 - 29 yoshida) salmog'ining yuqoriligi nikoh va tug'ilish kabi demografik jarayonlarga ijobiy ta'sir etadi. Ayni paytda tug'ilish yuqori bo'lgan hududlarda bolalar, yoshlar salmog'i yuqori bo'ladi. Tug'ilish darajasi past bo'lgan hollarda esa aholi tarkibida qariyalar (60 yosh va undan yuqori) salmog'i yuqori va o'lim hollari ko'proq sodir bo'ladi. Demografik nuqtai nazardan yondashganda aholining bugungi yosh tarkibi kechagi aholi takror barpo bo'lishining natijasi va kelajakdagi demografik rivojlanishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Aholi yosh tarkibini o'rganganda aholining alohida har bir yoshlarga (0,1,2,3,4,5 . . .100 va undan yuqori) besh yillik yosh guruhlariga (10-14 , 15-19...) va uch yirik-yirik guruhlariga (0-14, 15-59, 60 va undan yuqori) ajratiladi.

Aholi yosh tarkibi demografiyada asosiy o'rganish ob'ekti sifatida o'z kelib chiqish va rivojlanishiga ega. Ushbu rivojlanishni quyidagi yo'nalishlarga ajratish mumkina) alohida yosh guruhlari va ularni nisbatlarini statistik tahlili: b) aholi yosh tarkibining shakllanish qonuniyatlari va ularning demografik rivojlanishning omili sifatidagi o'rni: v) aholi yosh tarkibi va ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarni o'zaro bog'liqligi.

Aholi sonining o'sib borishida uning yosh tarkibi asosiy omil hisoblanadi. XX asrning o'rtalarida iqtisodiy rivojlangan davlatlarda aholi takror barpo bo'lishi tug'ilish darajasini nisbatan pastligi va aholi umumiy tarkibida bolalar salmog'ining kamligi bilan harakterlanadi. Rivojlanayotgan davlatlarda esa ana shu davrda nisbatan yuqori tug'ilish va aholi tarkibida bolalar salmog'ining yuqoriligi harakterli edi. Tug'ilish yuqori va uni nazorat etish darajasi past bo'lgan sharoitda aholining yosh tarkibi, aholi soni o'sib borishiga bevosita ta'sir etadi.

XX asrning boshlarida shved olimi G.Sundberg tomonidan aholi yosh tarkibining uch turi ajratilgan 1) Progressiv yosh tarkibi-aholi tarkibida bolalar (0-14 yosh) salmog'i yuqori bo'ladi va aholi o'sishiga olib keladi.

2) Statsionar yosh tarkibi-aholi tarkibida bolalar va qariyalar (60 yosh va undan yuqori) salmog'i deyarli teng bo'ladi, bunday yosh tarkibi aholi o'sishida asosiy omil bo'la olmaydi. 3) Regressiv yosh tarkibi-aholi umumiy sonida qariyalar salmog'i bolalarga nisbatan yuqori bo'ladi, aholi takror barpo bo'lishi qisqarib aholining qarish jarayoni ro'y beradi.

Aholining qarish jarayoni-tug'ilishning kamayib ketishi va aholi o'rtacha umr ko'rishi muddatini uzayish hisobiga aholi tarkibida qariyalar (60 yosh va undan yuqori) salmog'ini oshib borishidir.

11-Mavzu: Aholining jinsiy va oilaviy tarkibi

Mavzu rejasi:

1. Aholining jins tarkibi tushunchasi. Aholi jinsiy tarkibini shakllanish omillari, biologik konstanata.

2. Aholi jinsiy tarkibini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi.
3. Aholining jinsiy tarkibi va tug'ilish, aholi jinsiy tarkibi va o'lim, aholi jinsiy tarkibi va migratsiya jarayonlari.
4. Aholi jinsiy tarkibining geografik xususiyatlari.
5. Oilaviy tarkib turlari, ma'zmun mohiyati. Aholining oilaviy tarkibi va takror barpo bo'lishi o'rtasidagi bog'liqlik.

Aholining jinsiy tarkibi. Aholining jinsiy tarkibi, asosan uch omil ta'sirida shakllanadi: yangi tug'ilganlardagi jinsiy nisbat, o'limdagi jinsiy farq, hamda aholi migratsiyasidagi jinsiy farq. Statistik ma'lumotlar va ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha dunyo bo'yicha qiz bolalarga nisbatan o'g'il bolalar ko'proq tug'ilar ekan. Ma'lumotlar ko'rsatishicha dunyoda har 100ta qiz bolaga tug'ilgan o'g'il bolalar soni 104–107ni tashkil etadi. O'g'il bolalar salmog'ining qiz bolalarga nisbatan yuqorilgi ko'p hollarda 15–20 yoshlarga qadar saqlanib boradi. Asosan 20–24 yoshlarda jinslar nisbatan tenglashadi. Undan keyin esa, asta-sekin jami aholi tarkibidagi erkaklarga qaraganda ayollar salmog'i ortib boradi. Bu hol qator omillar bilan bog'liqdir. Ularga bolalik davrida o'g'il bolalar qiz bolalarga nisbatan ko'proq xastalanishi, baxtsiz xodisalar va erkaklarning o'ziga xos turmush tarzi kabilarni kiritish mumkin. Shuningdek, erkaklarning ko'p qismi yoshlik va o'rta yoshlik davrida og'ir mehnat bilan mashg'ul bo'lib, inson salomatligi uchun zararli bo'lgan alkogolizm, chekish kabi odatlar bilan shug'ullanadilar. Yuqorida keltilgan turmush tarziga xos omillar, hamda xalqlar orasida, davlatlar orasida ro'y berib turadigan urushlar erkaklarning hayotdan barvaqt ko'z yumishiga olib keladi.¹⁰ Shunday bo'lsada aholi jinsiy tarkibining shakllanishi dunyo hududlarining har birida o'ziga xos xususiyatga egadir. Ushbu xususiyatlar, yuqorida qayd etilganidek, ana shu hududning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari bilan ifodalanadi

Hozirgi davrda (XXI asr boshlari) sayyoramiz aholisining jinsiy mutanosibligi yosh guruhleri bo'yicha keskin farq qiladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, dunyodagi barcha davlatlarda ham 0–14 yosh guruhlarida o'g'il bolalar qiz bolalarga nisbatan ko'proq ekan. Bu hol yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'g'il bolalarning ko'proq tug'ilishi bilan bog'liqdir. 15–64 yosh guruhlarida esa, ayollar va erkaklar salmog'i dunyo bo'yicha bir muncha tenglashadi va har ming ayolga 1020 erkak to'g'ri keladi. Lekin bu nisbiylik hamma qit'alarda ham bir xil emas. Yevropada – 1000, Osiyoda – 1049, Afrikada – 979, Amerikada – 990, Okeaniyada – 1039ta to'g'ri kelgan. O'zbekiston uchun mazkur ko'rsatkich 996tani tashkil etadi. 65 va undan yuqori yosh guruhlaridagi ayollarga yer yuzida 742, Yevropada 649, Osiyoda 879, Afrikada 889, Amerikada 741, okeaniyada 818,

¹⁰ Asanov G.R. Aholi geografiyasi. – T., 1978. – 75 b.; Bo'riyeva M.R. O'zbekistonda oila demografiyasi. – T., 1987. – 57 b.

MDH tarkibiga kirgan davlatlarda 444ta erkak to'g'ri keladi. O'zbekistonda bu ko'rsatkich 580tani tashkil etadi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, ikkinchi jahon urushida Yevropagi qator davlatlar, ayniqsa sobiq SSSRda juda ko'p erkaklar halok bo'lgan. Shuning uchun ham XX asrning oxiriga qadar aholi tarkibida ayollar nisbatan eng yuqori bo'lgan davlat sobiq SSSR hisoblanar edi. Chunonchi 1989 yilda bu davlatda har 1000 ayolga 891ta erkak to'g'ri kelgan.

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha dunyo aholisining umumiy tarkibida erkaklar ayollarga nisbatan bir muncha ko'proq bo'lib, ya'ni har 1000 ayolga nisbatan erkaklar soni 1009 ni tashkil etar ekan. Ayollarga nisbatan erkaklarning ko'pligi asosan Osiyo davlatlarida (1000 ayolga 1042 ta erkak) kuzatilsa. Yevropa davlatlarida esa aksincha – ayollar salmog'i yuqoriligi kuzatiladi. Ayollarning erkaklarga nisbatan ko'pligi ayniqsa Rossiya davlatida yuqoridir (1000 ayolga 890 erkak)¹¹.

O'zbekistonda ham aholining jinsiy tarkibi hududning ijtimoiy-iqtisodiy holati va demografik jarayonlari ta'sirida shakllanib, kelgan. Respublika hududida XIX asrning ikkinchi yarmi hamda XX asrning boshlarida ayollar salmog'i ancha past bo'lib, har 1000 erkakka 856-859 ni tashkil etgan. XX asrning 60 yillaridan boshlab ayollar salmog'i oshib borgan. Hozirgi davrda O'zbekistonda aholining jinsiy tarkibi deyarli tenlashib, qulay demografik rivojlanishga asos bo'lmoqda 2008 yil O'zbekistonda 1000 ayolga nisbatan erkaklar soni 999,8 ni tashkil etgan.

Aholining jinsiy tarkibida migratsiyaning o'rni ahamiyatlidir. Aholi migratsiyasida erkaklar ishtiroki yuqori bo'lganligi sababli migratsion oqim yuqori bo'lgan ba'zi yirik shaharlarda, o'zlashtirilayotgan hududlarda aholi tarkibida erkaklar salmog'i yuqori bo'ladi. Masalan Toshkent shahrida jami aholining 51 foizini erkaklar tashkil etadi.

O'lish jarayoni ham aholi jinsiy tarkibiga ma'lum darajada ta'sir etadi. Ayniqsa keksa aholi guruhida (65 va undan yuqori yoshlarda) ayollarga nisbatan erkaklar o'limining yuqori bo'lishi, ushbu yoshlarda erkaklar salmog'ining pasayib ketishiga sabab bo'lgan. Masalan O'zbekistonda 2008 yil 70 yosh va undan yuqori har 1000 ayolga nisbatan 704 erkak to'g'ri kelgan.

Aholining yosh tarkibi juda qadimdan shakllanib kelgan demografik holatning natijasi bo'lib, u ayni paytda demografik istiqbolning zamini hamdir. Ilmiy va statistik manbalarda aholini iqtisodiy-demografik nuqtai nazardan uch guruhga ajratadilar: bolalar – 0–14 yosh; mehnat yoshidagi aholi – 15–64 yosh; qariyalar – 65 va undan yuqori yoshdagilar.

Aholining yosh tarkibi esa, asosan, uning tabiiy ko'payishiga bog'liq. Tug'ilish yuqori bo'lgan hollarda aholi tarkibida bolalar salmog'i yuqori bo'ladi yoki, aksincha, tug'ilish past, aholining o'rtacha umr ko'rish muddati nisbatan

¹¹ V. A. Kopilov. Geografiya naseleniya. M., 1999, s. 34

uzoq bo'lgan hollarda aholi tarkibida qariyalar salmog'ining yuqori bo'lishi kuzatiladi.

XX asr boshlarida shved demografi G.Sundberg aholi yosh tarkibini uch xilga ajratgan: progressiv, stasionar, regressiv.

Progressiv yosh tarkibida aholi umumiy miqdorida bolalar (0–14 yoshdagi) salmog'i qariyalarga (65 yosh va undan yuqori) nisbatan yuqori bo'ladi. Bunday holat tug'ilish darajasi yuqori bo'lganda kuzatiladi va aholi muntazam ko'payib borishini ta'minlaydi.

Stasionar yosh tarkibida aholi umumiy miqdorida qariyalar salmog'i bilan bolalar salmog'i tengdir; aholi soni bir xil miqdorda turadi va aholining ko'payib yoki kamayib ketishi kuzatilmaydi.

Regressiv yosh tarkibida aholi umumiy sonida qariyalar salmog'i bolalarga qaraganda yuqori bo'ladi. Bunday holda esa aholi soni asta-sekin kamayib borib "depopulyasiya" holati yuz beradi. Aholi qarib boradi.

BMT tasnifiga ko'ra jami aholi tarkibida 65 va undan katta yoshdagilar salmog'i 7 foizdan yuqori bo'lsa aholi demografik nuqtai nazardan qari hisoblanadi. Xozirgi davrda 2009 yil dunyo aholisi tarkibida 65 va undan yuqori yoshdagilar salmog'i 8% ni, Afrikada – 3%, Amerikada – 9%, Osiyoda – 7%, Yevropada – 16%, Avstraliya va Okeaniyada esa 10% tashkil etmoqda. Dunyo bo'yicha aholisi eng qari davlatlarga Yaponiya (23%); Germaniya, Italiya (20%) va Monako (24%) davlatlarini kiritish mumkin. O'zbekistonda bu ko'rsatkich 5% tashkil etmoqda.

Demografik yosh davlatlarga esa aholi tarkibida 0-14 yoshdagi bolalar salmog'i yuqori bo'lgan davlatlar kiradi. 2009 yil ma'lumotlari ko'rsatishicha dunyo bo'yicha aholi tarkibida bolalar salmog'i 27%, (Afrikada – 41%, Amerikada – 26%, Osiyoda – 31%, Yevropada – 15%, Avstraliya va Okeaniyada – 24%) tashkil etgan. O'zbekiston dunyodagi yosh davlatlar tarkibiga kiradi va respublika aholisining 33% bolalar tashkil etmoqda.

Aholining yosh tarkibida mehnat yoshidagi¹² (15-64) aholi guruhi salmog'i alohida ahamiyatga egadir. Chunki ushbu guruh asosiy ishlab chiqarish kuchini tashkil etadi va iqtisodiy rivojlanishning omili bo'lib hizmat qiladi. Mehnat yoshidagi aholi guruhining shakllanishi asosan aholining takror barpo bo'lishi xususiyatlariga bog'liqdir. Alohida hollarda esa hududlarda immigratsiya va emigratsiya jarayonlari ham mehnat yoshidagi aholi salmog'iga ta'sir etadi.

Dunyodagi qator davlatlarda jami aholi tarkibida mehnat yoshidagi aholi salmog'i 50 – 65 foizni tashkil etadi. Xozirgi davrda (2009 yil) dunyo aholisining 65 foizi 15-64 yoshli aholi hissasiga to'g'ri kelmoqda. O'zbekiston aholisining 62,0% 15-64 yoshdagi kontingentlardir.

¹² Mehnat yoshi har bir davlatning ishlab chiqarish xususiyatlari va ijtimoiy-iqtisodiy holatiga bog'liq holda farq qilishi mumkin, qator Yevropa davlatlarida yoshi 18 yoshdan boshlanadi. O'zbekistonda mehnat yoshi ayollar uchun 16-54, erkaklar uchun esa 16-59 etib belgilangan.

Aholining oilaviy tarkibi. Oila-insonlarning tabiiy biologik, nikoh. qon-qarindoshlik, iqtisodiy, xuquqiy, ma'naviy munosabatlariga asoslangan, turmush birligi va o'zaro javobgarlik orqali bog'langan ijtimoiy guruhidir. Oilaning bugungi shaklida oila a'zolari bir-birlari bilan umumiy turmush, ma'naviy xuquqiy, psixologik munosabatlar va o'zaro javobgarlik his-tuyg'ulari bilan bog'lanib turadilar. Oilada har bir oila a'zosining o'z ijtimoiy o'rni boridir. Oila asosini er-xotin tashkil etadi. Lekin oilada er-xotin uning farzandlari, ota-onasi, aka-uka, opa-singil va boshqa qarindosh-urug'lar ham yashashlari mumkin.

Demak oila turli mezonlar asosida tashkil topar ekan, ushbu mezonlarni o'z mazmuniga ko'ra, shartli ravishda demografik, ijtimoiy va iqtisodiy mezonlarga ajratish mumkin.

Oilaning demografik mezonlarga ko'ra turlari:

1. Ma'lumki oila tashkil bo'lishiga avvalo erkak bilan ayol o'rtasidagi nikoh birligi asos bo'ladi. Ana shu nikoh birligiga asosan oila ikki turga bo'linadi.

Poligam-ko'p nikohli oilalar, bunday oilalar bir erkak, bir nechta ayol bilan nikohda turishi, oila ko'rishi mumkin.

Monogam-bir nikohli oilalar, ya'ni bir erkak bir ayol bilan nikohda turadi, oila quradi.

qayta tuzilgan –ikkinchi nikohli oilalar.

2. Oila unda istiqomat etuvchi oila a'zolarining tarkibiga qarab ham turlarga bo'linadi:

Oddiy (nuklear) oila, unda er-xotin nikohga kirmagan, ya'ni turmush qurmagan farzandlari bilan yashaydi. Bunday oilalar turlari eng ko'p tarqalgandir.

Murakkab (ko'p bo'g'inli) oilalar, bunday oilalarda ikki yoki undan ortiq, avlod vakillari istiqomat etishadi. Masalan, ota-ona oila qurgan farzandi va nabiralari bilan yoki bobo, buvi, ota-ona va farzand o'z bolalari bilan istiqomat etishadi.

3. Oila yadrosini tashkil etgan er-xotin hayotligiga, shu oilada birga yashash va yashamasligiga qarab ham oilalar turlicha bo'ladi.

– Tugal (to'liq) oilalar, er-xotin xayot bo'lgan va birga yashagan oilalar.

– Tugalmas (noto'liq) oila. Bunday oilalarda oila asosini tashkil etgan er xotinning biri hayot emas yoki shu oilada yashamaydi.

4. Oilada istiqomat etuvchi oila a'zolarining miqdoriga ko'ra:

Kichik oilalar (2-4 kishilik)

O'rta oilalar (5-6 kishilik)

Katta oilalar (7-8 va undan ko'p kishilik) mavjuddir.

5. Bolalar soniga ko'ra: farzandsiz, bir bolali, kam, o'rtacha va ko'p bolali oilalar (davlatlarda, turli davrlarda ushbu mezonlar turlichadir.) ga ajratish mumkin

Oila jamiyatda tutgan ijtimoiy o'rniga, ya'ni er-xotinning ijtimoiy sinfiga, guruhiga qarab ham turlarga bo'linadi. Oilaning bo'nday ijtimoiy turlari, turli ishlab chiqarish usuli hukmron jamiyatda turlicha bo'lgan. Masalan, sobiq sovet

hokimiyatida socialistik ishlab chiqarish usuli hukmron edi. Ushbu davrda jamiyatda asosan 3ta ijtimoiy sinf qayd etilar edi. Ular, ishchi xizmatchi va kolxozchi sinflar bo'lgan. Bunday sharoitda ba'zi oilalarda er-xotin bir xil ijtimoiy, sinfga, guruhga mansub bo'lsa (eri ham, hotini ham ishchi, ziyoli yoki kolxozchi), ba'zi oilalarda esa er-xotin turli ijtimoiy guruhga mansub (eri ishchi, xotini ziyoli, eri kolxozchi, xotini ishchi va x.k.) bo'lgan. Shu bois, oilalar ijtimoiy holatiga ko'ra 2 guruhga bo'lish mumkin:

1. Er-xotin bir xil ijtimoiy guruhga mansub oilalar (ishchi oilalar, xizmatchi oilalar, dehqon, tadbirkor, savdogar, olimlar, san'atkor, hunarmand va h.k. oilalar).

2. Er-xotin turli ijtimoiy guruhga mansub oilalar.

3. Er-xotinni ma'lumotlariga ko'ra turlari:

o'rta ma'lumotli, o'rta maxsus, yordamchi maktab ma'lumoti va oliy ma'lumotga ega bo'lgan oilalar, ma'lumotsiz (savodsiz) oilalar.

4. Oilaning «yoshiga» ko'ra yosh oila (1 yilgacha, 3-5 yillik, 6-10 yillik turmush tajribasiga ega bo'lgan oilalar), o'rta yoshdagi oila, yetuk oila.

5. Oilaning hududiy jihatlariga ko'ra; shahar, qishloq va aralash tipdagi oilalar.

6. Oiladagi er-xotin va boshqa oila a'zolarining tutgan o'rniga qarab;

Avtoritar oila (oiladagi hamma muammoni bir kishi er yoki xotin, qaynota yoki qaynona hal etadi).

Demokratik oila (oiladagi har qanday muammolarni ko'pchilik bilan kelishilgan holda hal etiladi)

Hamda aralash tipdagi oilalar.

7. Er xotinning millatiga ko'ra;

Bir millatli (er xotin bir bir xil millatga mansub) va baynalminal (er-xotin turli millatga mansub) oilalar.

Olaning yuridik xususiyatiga ko'ra turlari; Rasmiy oila (nikohdagi oila) va norasmiy oila (nikohga kirmagan, nikohdan tashqari)

Oila paydo bo'lgandan to hozirgi davrga qadar u bajarib kelgan vazifalar chuqur ilmiy tahlil etilsa, ularni asosan uch yo'nalishda ifodalash mumkin. Bu yo'nalishlar farzandlarning tug'ilishi, ularni tarbiyalash va moddiy ehtiyojini qondirishdir. Shuning uchun ham oila vazifalarini uch guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir.

❖ Oilaning demografik vazifasi.

❖ Oilaning ijtimoiy vazifasi.

❖ Oilaning iqtisodiy vazifasi.

Oilaning demografik vazifasiga–uning demografik faoliyati, ya'ni oilada farzandlarning tug'ilishi, inson naslini, jamiyatni davom ettiruvchi-avlod yaratish kiradi.

Oilaning ijtimoiy vazifasiga-oilada faorzandlarni tarbiyalash, inson sifatida kamolga yetkazish, ularning tabiatga, jamiyatga va o'zaro munosabatlarini shakllantirish, dam olish va salomatligini tiklash kabilar kiradi.

Oilaning iqtisodiy vazifasiga oila a'zolarini oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa yashash uchun zarur bo'lgan moddiy vositalar bilan ta'minlash kiradi. Oilaning mohiyati vazifalari dunyodagi barcha xalqlar uchun bir xildir. Lekin uning bajarilish darajasi ana shu xalqlar yashagan, yashab kelayotgan davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga, turmush tarziga, ularning urf odatlari, dini, qadriyatlariga bog'liqdir

Ilmiy manbalarda aholining oilaviy holati, degan tushuncha mavjud bo'lib, bu tushuncha ma'lum hudud, davlat aholisiga tegishlidir. Aholining oilaviy holati. Ma'lumki, jamiyatda insonlar oila muhitida oila a'zosi bo'lib, turli guruhlarda guruh a'zosi bo'lib yoki o'zlari alohida, yolg'iz holda yashaydilar. Aholining bunday guruhlarga bo'linib yashashi uning oilaviy holatini bildiradi.

Aholining oilaviy holati haqidagi ma'lumotlar aholi ro'yhati o'tkazish yo'li bilan to'planadi. Sobiq sovet statistikasida aholi oilaviy holati bo'yicha uch guruhga ajratilgan va aholi ro'yhati dasturiga kiritilgan: oila bilan birga oila a'zosi bo'lib yashovchilar; oiladan alohida, lekin oila bilan muntazam aloqani saqlab qolgan holda yashovchilar¹³; yolg'iz yashovchilar.

Aholining oilaviy tarkibini, demografiyaga oid ilmiy manbalarda oilada yashovchi aholining oila turlari (tugal, tugalmas, nuklear (oddiy) va murakkab, katta, kichik, o'rta va h.k.) bo'yicha taqsimlanishini e'tirob etadi. Masalan 1989 yilda O'zbekistonda o'tkazilgan aholi ro'yhati ma'lumotlari ko'rsatishicha oila muhitida yashovchi aholining 4,3% 2 kishilik oilada, 18,9% 3-4 kishilik kichik oilada; 27,9 foizi 5-6 kishilik o'rta oilada; qolgan 48,9 foizi 7-10 undan ko'p kishilik katta oilalarda istiqomat etishgan.

Shunday qilib aholining oilaviy holati ma'lum hudud yoki davlat aholisining oilada, oila azosi bo'lib, oiladan alohida (oilasi bilan munosabatlarini uzmagan holda) va yolg'iz yashovchilarga bo'linishini, aholining oilaviy tarkibi esa aholining oila turlari bo'yicha taqsimlanishini ifodalaydi.

Aholining oilaviy tarkibi aholining jinsiy va yosh tarkibiga bog'liq bo'lib, tug'ilishi, o'lim, nikoh, ajrim kabi demografik jarayonlar ta'sirida shakllanadi. Shuningdek aholining oilaviy tarkibiga katta farzandlarni oila qurib, o'zlari ajralib chiqish jarayoni hamda migratsiya xususiyatlari ham ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa nikoh va ajrim jarayonlari aholining oilaviy tarkibiga bevosita ta'sir etadi. Nikohning mustahkam bo'lishi to'liq oilalar va ularda yashovchi aholi salmog'iga ijobiy ta'sir etsa, ajrim aksincha tugalmas oilalar sonini ko'payishiga olib keladi. Bu holat o'z navbatida qator ijtimoiy-iqtisodiy va demografik muammolarga sabab bo'ladi.

¹³ Bu guruhga uzoq muddatga o'qishga, ishga va boshqa sabablar bilan oiladan vaqtincha ketgan kishilar kiradi.

Xozirgi davrda dunyo, davlatlari aholisining oilaviy tarkibi, nikoh va ajrim jarayonlari bo'yicha bir-birlaridan farq qiladilar. Ushbu farqlar alohida halqlarning urf-odatlarini, qadriyatlarini, diniy e'tiqodlarini, davlatni oila mustahkamligini qo'llab quvvatlash maqsadida olib borayotgan siyosiy, iqtisodiy chora tadbirlari bilan bog'liqdir.

Jahon statistikasida «Oila» tushunchasi bilan birga «uy xo'jaligi» tushunchasidan ham foydalaniladi. Unda aholining oilaviy holati haqidagi ma'lumotlar uy xo'jaliklari bo'yicha to'planadi. «Uy xo'jaligi» birga xo'jalik yurituvchi, birga yashovchi kishilarni biriktiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy yacheykadir¹. Uy xo'jaligi tushunchasi oiladan farq qilib, unda faqat qarindoshlik munosabatlari asosida birikkan kishilargina emas balki, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosida birga yashovchi begona kishilar ham, alohida mustaqil xo'jalik yurituvchi yolg'iz kishilar ham kiritiladi.

Uy xo'jaligi tushunchasi hamma davlatlarda ham bir xil emas. U har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitiga, unda isteqomat etuvchi xalqning turmush tarziga, urf-odatlariga bog'liqdir. Ba'zi davlatlarda uy xo'jaligi uchun kishilarning birga yashashi asos qilib olinsa, boshqa bir davlatda esa ularning birga ovqat tayyorlashi, birga ovqatlanishi asos qilib olingan.

Uy xo'jaligi ikki turga bo'linadi: shaxsiy va jamoa xo'jaligi. Shaxsiy uy xo'jaligida bir uyda yashovchi, birga xo'jalik yurituvchi va o'zlariga o'zlari ovqat tayyorlovchi kishilar guruhi kiradi. Bunday guruhlarda bir uyda, yoki bir nechta uyda yashovchi yoki uyi bo'lmagan kishilar ham yashashlari mumkin. Bunday uy xo'jaligida, bir uyda yashovchi ota-ona, bola, qarindoshlardan tashqari ikki yoki undan ortiq bir xo'jalikda yashovchi, lekin qarindosh bo'lmagan yolg'iz kishilar, xizmatkorlari bilan yashovchi yolg'iz ayol yoki erkaklar ham kiradi. qarindosh bo'lmagan ikki yoki undan ko'p kishilar yashovchi shaxsiy uy xo'jaligi 1980-1985 yillarda AqSh dagi uy xo'jaliklarning 10% yaqinini Kanadada-5,6, Yangi Zerlandiyada-7,5, Belgiyada-3,6, va Yaponiyada 0,2% ni tashkil etgan².

Jamoa xo'jaliklariga bolalar, qariyalar nogironlar uylari, qamoqxonalari, kazarmalar, surunkali kasallar yashovchi kasalxonalar va boshqa shunga o'xshash muassasalar kiradi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, juda ko'p davlatlarda uy xo'jaligining asosiy qismini nikoh va qon-qarindoshlik asosida tashkil topgan oilalar tashkil etadi. Bunday uy xo'jaligi fanda «Oilaviy uy xo'jaligi» deyiladi.

12-Mavzu: Aholining irqiy tarkibi

Mavzu rejasi:

1. «Irq» haqida tushuncha. Insoniyatning katta yevropoid, mongoloid, negroid, avstroloid va ko'p sonli mayda irqlardan tarkib topganligi.

¹ Demograficheskiy ensiklopedicheskiy slovar. M., 1985, S 127.

² Neseleniye mira. Demograficheskiy spovochnik. M., 1989., s. 160.

2. Sof va aralash irqalar, ularning antropologik farqlari.
3. Irqlar kelib chiqishining biologik asoslari.
4. Irqlararo munosabatlar. Irqiy va etnik birliklar nisbati.
5. Dunyo mintaqalari bo'yicha aholining irqiy tuzilishi

Irqlar – umumiy irsiy morfologik va fiziologik belgilarga ega bo'lgan, tarixiy shakllangan kishilar guruhidir. Ko'pchilik olimlar irqlarning kelib chiqishida hozirgi ko'rinishdagi inson bitta markazda, ya'ni, taxminan O'rta dengizning sharqi, unga qo'shni hududlar – Janubiy Yevropa, Shimoliy va Sharqiy Afrika va G'arbiy Osiyoda paydo bo'lgan, degan g'oyani ilgari suruvchi monosentristik ta'limotni yoqlaydilar. Paleolit oxirida irqlar ikkita hudud – g'arb (shimoli-sharqiy Afrika va janubi-g'arbiy Osiyo) va sharqda (janubi-sharqiy va sharqiy Osiyo) yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Keyinroq, insoniyat yer shari bo'ylab tarqalib va o'zaro qorishib, hozirgi qiyofadagi irqlar shakllangan.

Yaqin davrgacha antropologlar insoniyatni uchta, ya'ni yevropeoid, mongoloid va negro-avstraloid, yoki ekvatorial irqlarga ajratib kelganlar. So'nggi yillarda mutaxassislar ekvatorial irqni ikki mustaqil – negroid va avstraloid irqlarga bo'lishni taklif etmoqdalar.

Katta irqlar to'qnashgan hududlarda oraliq va aralash irqiy tiplar vujudga kelgan. Oraliq irqlar shu darajada uzoq o'tmishda shakllanganki, endilikda ular ikki irqning aralashishi natijasimi, yoki katta irqlarning ular bo'lingungacha bo'lgan xususiyatlarni o'zida saqlab qolganmi ekanligini aniqlash qiyin. Aralash irqiy tiplar esa nafaqat qadimda, shu bilan birga, o'rta asrlarda hamda yangi va eng yangi tarixda yuzaga kelgan. Oraliq irqlarning tipik vakillari – Janubiy Hindistonning dravid tipi hamda Sharqiy Afrikadagi Efiopiya tipi hisoblanadi; aralash tiplarga Amerika metislari va mulatlarini kiritish mumkin.

Negroidlar uchun qora, jingalak sochlar, qo'yko'z, tez-tez pigmentlashib turadigan teri, zaif yoki o'rtacha rivojlangan uchlamchi jun qoplami, o'rtacha chiqib turgan yonoq suyagi, oldinga kuchli chiqqan jag', zaif chiqib turgan keng burun, qalin lablar xarakterlidir. Negroid belgilar ko'proq Sahroi Kabir janubida yashaydigan xalqlar uchun xosdir. Shu bilan birga, negroidlarga past bo'lyli Markaziy Afrika pigmeylari, bo'yi nihoyatda past bo'lgan negrillilar hamda negroid (sochi nihoyatda jingalak) hamda mongoloid xususiyatlar (qurigan barg rangidagi sarg'aygan teri, keng yuz) qorishib ketgan janubiy Afrika bushmenlari va gottentotlari tegishlidir.

Yevropeoidlar turlicha tusdagi jingalak yoki to'g'ri yumshoq sochi, sariq yoki bug'doyrang terisi, kuchli rivojlangan uchlamchi jun qoplami, zaifroq chiqib turgan yonog'i va jag'i, kambar burni, ingichka yoki o'rtacha qalinlikdagi lablari bilan ajralib turadi. Yevropeoidlar asosan sochi va ko'zining rangi bo'yicha ikkita yirik – shimoliy va janubiy guruhlarga bo'linadi. Shimoliy guruhga terisi kam pigmentlashadigan Skandinaviya va unga qo'shni hududlardagi xalqlar,

bug'doyrang teri, qorasoch, qo'yko'z xarakterli bo'lgan janubiy guruhga – Janubiy Yevropa, Shimoliy Afrika, Old, Markaziy va Janubiy Osiyo xalqlari kiradi. Yevropaning katta qismi oraliq mintaqada bo'lib, undagi xalqlar Yevropeoid irqining na shimoliy, na janubiy guruhiga mansub emas. Shimoliy va janubiy yevropeoidlar hamda oraliq guruhlar kishilarning bo'yi, sochi va ko'zining rangi, bosh shakli bo'yicha ko'plab kichik irqlarga ajratiladi. Shimoliy guruh tarkibida – atlantika-boltiq va belomor-boltiq irqlari, oraliq formalar tarkibida – alp, o'rta yevropa, sharqiy yevropa irqlari, janubiy guruh tarkibida – o'rtaer dengizi, hind-afg'on, adriatika (dinar), old osiyo (armenoid), pomir-farg'ona irqlarini kiritish mumkin.

Mongoloidlar uchun to'g'ri qattiq qora sochlar, zaif rivojlangan uchlamchi jun qoplami, sariq tusli teri, qisq ko'z, keng yuz, kuchli chiqib turgan yonoq suyagi, past qansharli ingichka yoki o'rtacha kenglikdagi burun, ko'z qovog'ining yuqori qismini ajin qoplashi xarakterlidir. Kelib chiqishi va ko'pgina belgilari bo'yicha ularga amerika hindulari yaqin, biroq, hindularda umumiy mongoloid qiyofa yo'qolib ketgan, epikantus kam uchraydi, burni cho'zinchoq. Osiyo mongoloidlari ikki, ya'ni materik va tinch okeani guruhlariga ajratiladi. Materik mongoloidlari tinch okeani guruhidan pigmentasiyaning sustligi, skelet massasining kattaligi, keng yuzi va boshqa belgilar bilan ajralib turadi. Mongoloidlar orasida materik va tinch okeani guruhlari xususiyatlarini o'zida birlashtirgan hamda o'ziga xos belgilarga ega arktika guruhi (masalan, burnining juda torligi) alohida o'rin egallaydi.

Tinch okeani guruhidan janubda malayya irqi deb ataluvchi, biroq avstraloidlarning juda ko'p belgilari (to'liqinsimon sochlar, anchagina qora teri, qalin lab, nisbatan keng burun va h.k.) uchraydigan mongoloidlarning janubiy guruhiga mansub xalqlar yashaydi. Ular avstraloid irqining turli guruhlar bilan qorishishlari tufayli hozirda mongoloid irqi tarkibiga kiritilmay, mongoloid katta irqining Osiyo tarmog'i va avstraloid irqi o'rtasidagi oraliq va aralash irqiy formalar deb hisoblanmoqda. Ta'kidlash joizki, boshqa yirik irqlarga hamda ularning oraliq va aralash formalariga nisbatan tinch okean va janubiy mongoloidlar orasidagi chegara to'liq aniqlanmagan.

Avstraloidlar terisining to'q rangi, keng burni, ularni negroidlar bilan yaqinlashtiruvchi qalin lablari, biroq ulardan farqlantiruvchi to'liqinsimon sochlari (avstraliyaliklar, veddoidlar), kuchli rivojlangan uchlamchi jun qoplami (avstraliyaliklar), ba'zan biroz zaiflashadigan pigmentasiya bilan ajralib turadi. Boshqa barcha yirik irqlardan farqli o'laroq, avstraloidlarning alohida guruhlar (Avstraliya aboriginlari, papuaslar va melaneziyaliklar, veddoidlar, hamda negritoslar va aynlar) o'z irqiy belgilari bilan ajralib turadi. Avstraliya aboriginlari pigmentasiya bo'yicha negroidlarga, sochini shakli va uchlamchi jun qoplami rivojlanishi bo'yicha – yevropeoidlarga yaqin. Avstraloid irqiga mansub belgilar yaqqol namoyon bo'lgan papuaslar va melaneziyaliklarning sochlari negroidlarga

o'xshash jingalak. Avstraloidlarga o'xshash umumiy jihatlari ko'p bo'lgan veddoidlar o'zlarining past bo'yi, yuz terisining jun bilan kam qoplanganligi, qosh ustidagi suyaklari va keng burni bilan ajralib turadi. Nihoyatda past bo'yli va jingalak sochli negritoslar va aynlar genetik jihatdan boshqa avstraloidlarga bog'liq bo'lsalarda, o'zlarining tashqi ko'rinishi bo'yicha ulardan keskin farqlanadi. Ularda deyarli barcha katta irqlarning ma'lum xususiyatlari o'z aksini topgan (yevropeoidlardan – yorqin rangli teri va juda kuchli rivojlangan uchlamchi jun qoplami, avstraloidlardan – keng burun va nishab peshona hamda mongoloidlardan – epikantusning mavjudligi).

Odatda mongoloid, avstraloid va yevropeoid irqlariga mansub belgilari bo'lgan Madagaskar, Gavayi, Polineziya va Mikroneziya aholisining aralash irqiy tiplari (Madagaskar aholisi uchun – negroid ham) alohida ajratiladi.

Turli irqiy guruhlariga mansub yuqorida ko'rsatilgan tashqi farqlardan tashqari, ularda fiziologik va biokimyoviy jihatdan tafovutlar ham mavjud. Jumladan, turli irqlar qon guruhi, tishlarining joylashuvi, ta'm bilishi, oqsil zardobi, rang turlarini ajratishi (daltonizm) va h.k. xususiyatlar bilan ham bir-biridan farqlanadilar.

Etnoslar, tillar va dinlardan farqli o'laroq, irqlar orasida qandaydir aniq chegarani belgilash juda qiyin. Irqlarning aralashuvi ko'p ming yillar davom etib, tinimsiz va ayni paytda jadal sodir bo'ladigan jarayondir (dunyo aholisining 30 foizi aralash va oraliq irqlarga mansub kishilar). Shuning uchun irqiy farqlar odatda bir-biridan uzoqda joylashgan kishilar guruhlari orasida yaxshi seziladi, o'zaro yaqin yashaydigan kishilar orasida esa deyarli bilinmaydi.

Ta'kidlash joizki, asosiy morfologik, fiziologik va psixologik xususiyatlariga ko'ra, insoniyat bir xil. Irqiy tafovutlar inson tanasi tuzilishidagi eng muhim biologik xususiyatlarga taalluqli emas va kamsonli qiyosiy belgilarda namoyon bo'ladi. Har qanday irq vakillari o'rtasidagi nikohdan sog'lom farzand tug'ilishi mumkin.

Irqiy va etnik birliklar nisbati masalasi juda murakkab. U yoki bu birlikning tabiati o'zaro keskin farq qilishini ularni ajratishda qo'llaniladigan mezonlarning xilma-xilligidan ham bilish mumkin. Ayni paytda, qadimda odamlarning irqiy tiplari xuddi etnik birlikda bo'lgani kabi, kishilarning hududiy guruhlari asosida shakllangan. Qabilalar dastlab irqiy jihatdan ham bir xil bo'lgan. Asta-sekin, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonida va yer shari bo'ylab tarqalishi natijasida turli qabila guruhlari o'zaro qo'shib keta boshladilar. Agar kishilarning etnik guruhlari shakllanishi ko'proq ijtimoiy ahamiyat kasb etsa, irqiy belgilar esa asosan biologik jarayonlar hosilasidir.

Xalqlar katta irqlar darajasida bir xil bo'lishi mumkin, lekin deyarli doim bu irqlarning ayrim bo'linmalariga nisbatan har xil. Masalan, Yevropa xalqlarining mutloq ko'pchiligi yevropeoid irqiga mansub, biroq ulardan har biri ushbu irqning ikki, va hatto ba'zan har uchala (shimoliy, oraliq va janubiy) guruhi vakillarini o'z

ichiga oladi. Agar katta yevropeoid irqining mayda irqiy tiplari (belomor-baltika, alp, dinar va h.k.) haqida gapiradigan bo'lsak, ularning chegarasi etnik chegaralar bilan umuman mos kelmaydi.

Xuddi shu kabi irqlar va til bo'linmalari orasidagi chegaralar ham o'zaro mos kelmaydi. Masalan, turk guruhiga mansub tillar mongoloid irqi vakillari orasida ham (yoqutlar, tualiklar va h.k.), yevropeoidlar orasida (ozarbayjonlar, turklar va h.k.) ham keng tarqalgan; ko'pchilik turk tillarida so'zlashadigan xalqlar aralash irqiy formalarga mansub. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Ko'pchilik Amerika mamlakatlari etnoslar shakllanishida irqiy tiplar jadal qo'shilishining yorqin misoli bo'la oladi. Metisasiya asosan qadimda va o'rta asrlarda bo'lib o'tgan Eski Dunyodan farqli ravishda, bu yerda mazkur jarayonlar so'nggi uch-to'rt asrda ro'y berdi va hozir ham davom etmoqda.

Ko'pchilik zamonaviy Amerika xalqlari ikki, ba'zan uch irq vakillari qo'shilishidan paydo bo'lganlar. Bunda Afrikadan keltirilgan, turli qabilalarga mansub, yangi joylarda oqlar bilan ketma-ket o'rtnashgan negrlar tezda qabila tillarini unutib, o'zlari yashay boshlagan mamlakatning hukmron tillarini (ingliz, ispan, portugal, fransuz) o'zlashtirdilar. Atrofdagi aholi bilan qo'shib, ular ayrim mamlakatlarda millatni (braziliyaliklar, kubaliklar) tashkil etuvchi asosiy etnik komponentlarga aylandilar. Boshqa mamlakatlarda, ayniqsa AQShda, ularning oq aholi bilan qo'shilish jarayoniga irqiy kamsitish siyosati orqali sun'iy to'siqlar qo'yildi.

MDH va Boltiqbo'yi mamlakatlarida yevropeoid irqining har uchala guruhiga mansub kishilar ko'pchilikni (80%dan ortiq) tashkil etadi. Shimoliy guruh boltiq xalqlariga, shimoli-g'arb – ruslarga, janub esa asosan kavkaz xalqlariga tegishli. Oraliq formalarga ruslarning katta qismi, ukrainlar, beloruslar va boshqa xalqlar kiradi. Sharqiy Sibir va Uzoq Sharqning tubjoy xalqlari mongoloidlarning materiak guruhiga mansub, eskimoslar esa mazkur irqning arktika guruhini tashkil etadi. Volgabo'yida, Uralda, G'arbiy Sibirda va Qozog'istonda qadimdan yevropeoid va mongoloidlar o'rtasida oraliq zona shakllangan. Boz ustiga, mongoloid irqini namoyon qiluvchi belgilar sharqqa tomon kuchayib boradi. Mongoloid belgilari ustunlik qiluvchi G'arbiy Sibir tekisligi va Sayan-Oltoy zonasi xalqlari Ural irqiy guruhi tarkibiga kiradilar.

Volgabo'yi va Uralda yashovchi fin (mordva, mari, udmurt, saam) va turk (chuvash, boshqird va tatar) tillarida so'zlashuvchi xalqlarda mongoloid irqiga mansub belgilar ancha zaif rivojlangan; ushbu xalqlarni laponoid va uraliyoniy irqiy tiplari deb atash qabul qilingan.

Xalqlarning buyuk ko'chishi davrida Markaziy Osiyo mongoloidlarining ko'pchiligi, tubjoy aholisi asosan yevropeoidlardan iborat bo'lgan G'arbiy Sibirning cho'l mintaqasiga, Qozog'istonga, O'rta Osiyoga va Janubi-Sharqiy Yevropa cho'llariga kirib bordilar. Natijada bu yerda ikkita aralash irqiy tip: asosan zamonaviy qozoqlar orasida tarqalgan *janubiy sibir* (ularda mongoloid

irqining belgilari yaqqolroq namoyon bo'lgan) hamda turkmanlar, o'zbeklar va qisman tojiklar uchun xarakterli bo'lgan *o'rta osiyo* (ular da mongoloid irqiga mansub belgilar juda kam seziladi) tipi shakllandi. Sibirga dastlab ko'chib kelgan ruslar mahalliy aholi bilan aralashib, nafaqat etnomadaniyati, shu bilan birga irqiy jihatdan farqlanuvchi, o'ziga xos, kamsonli guruhni tashkil qildilar (kamchadallar, yasashlar va h.k.).

Yevropa aholisi deyarli to'liq (Afrika, Janubiy Osiyo va Hindistondan yaqin o'tmishda kelgan muhojirlar bundan mustasno) yevropeoid irqiga tegishli. Qit'aning chekka shimol va janub mintaqalari aholisi irqiy tiplari bo'yicha o'zaro keskin farqlanadilar; bir tomonda, baland bo'yli, sariq soch, ko'kko'z norveglar (shimoliy yevropeoidlar), va ikkinchi tomonda, nisbatan past bo'yli, qorasoch, qo'yko'z italyanlar (janubiy yevropeoidlar) o'rtasida o'xshash belgilar kamligini payqash mumkin. Shu bilan birga, Yevropada irqiy belgilar shu darajada sekin o'zgaradiki, kichik irqlar o'rtasidagi aniq chegarani belgilash mumkin emas. Shartli ravishda Skandinaviya mamlakatlari, Islandiya, Buyuk Britaniya, Irlandiya, Niderlandiya va Germaniyada shimoliy yevropeoidlarning atlantika-boltiqlik irqiy tipi tarqalgan, deb qabul qilingan. Pireney yarim oroli, janubi-g'arbiy Fransiya, janubiy va markaziy Italiya, janubiy Gresiya, O'rtaer dengizi orollari aholisi janubiy yevropeoidlarning o'rtaer dengizi irqiy tipiga, sobiq Yugoslaviya, shimoliy Gresiya, Bolgariya, shimoliy Italiya va janubiy Avstriya – dikar irqiy tipiga mansub. Yevropaning boshqa aholisini irqiy jihatdan ajratish murakkab bo'lib, "oraliq va o'rta yevropa formalari" deb ataluvchi mavhum tushuncha ostida birlashgan guruh tarkibiga kiritadilar. Umuman mintaqa aholisining 17 foizi shimoliy va 32 foizi janubiy yevropeoidlarga, yarmidan ko'prog'i oraliq va o'rta yevropa formalariga taalluqli.

Osiyo aholisi antropologik jihatdan nihoyatda murakkab bo'lib, bu yerda barcha katta 4 irqning ko'pchilik guruhlari tarqalgan. Janubiy yevropeoidlar jami aholining 29 foizini tashkil etib, ular Old Osiyo va shimoliy Hindistondagi old osiyo, hind-afg'on, pomir-farg'ona irqiy tiplari vakillaridan iborat. Mongoloidlar (taxminan 31% aholi) *shimoliy* yoki *materik* (mug'ullar, tungus-manchjuriya xalqlari) va *sharqiy* yoki *tinch okean* (koreyslar, shimoliy xitoylar) guruhlari ajratiladi. Mongoloidlarga mongoloid va avstraloid irqlari o'rtasidagi aralash va oraliq formalar uzqiy bog'liqdir. Ushbu formalarga quyidagilar tegishli: janubiy Osiyo tipi yoki janubiy mongoloidlar guruhi (25% aholi) – janubiy xitoylar, indoneziyaliklar, filippinliklar, Hindixitoy xalqlari; ayrim ayn elementlari uchraydigan yapon tipi (5% aholi), va sharqiy indoneziya tipi (Molukki orollari aholisi).

Osiyoda avstraloid irqi vakillari juda kam (0,4% aholi), biroq ular ko'plab hududlarda tarqalgan. Veddoid tipi Shri-Lankadagi veddlardan tashqari, dravid va munda xalqlarining ayrim guruhlari hamda hind ariy til guruhiga mansub baxillar; papuas-melaneziya tipi – sharqiy Indoneziya xalqlari orasida; negritoslar – Filippin

aetlari, Malayziya semanglari, Hindistondagi andamanliklar; ayn tipi – Yaponiyadagi ayn xalqlari orasida uchraydi. Yevropeoidlar janubiy tarmog‘i va veddoidlarning qadimiy aloqalari hududida Janubiy Hindiston tipi (10% aholi) shakllangan. Uning asosiy vakillari bo‘lib, dravid til oilasiga mansub Janubiy Hindiston xalqlari hisoblanadi.

Afrikaning 54,1% aholisi Sudan, materikning markaziy va janubiy qismlarini egallagan negroid katta irqiga mansub. Turli hududlardagi negrlar irqiy belgilar bo‘yicha o‘zaro katta tafovut qiladilar – terisining rangi to‘q qoradan jigarranggacha turlanadi, lab qalinligi, burun kengligi hamda bo‘y balandligi bo‘yicha o‘zaro farqlanadilar, biroq barchasining sochi bir xilda jingalak.

Agar negrilley va gotentotlarning bushmenlar bilan alohida ajralib turadigan morfologik jihatlari, sudanliklar va nilotlarning baland bo‘yi va terisining qoraligi, Kongo daryosi havzasi negrlarining uzun boshli va barvasta ekanligi hisobga olinmasa negroidlarni turli irqiy tiplarga ajratish masalasi hali oxiriga yetmagan. Kongo daryosi tropik o‘rmonlarida yashovchi negrilleylar uchun pakanalik (bo‘yi 150 sm dan past), yupqa lab, yuz va tananing jun bilan kuchli qoplanganligi, boshqa negroidlarga nisbatan tana rangining ochligi xosdir. Janubi-g‘arbiy Afrika cho‘llarida yashovchi bushmenlar va gottentotlar boshqa negroidlardan terisining och rangi, past bo‘ylari (150-160 sm), epikantusning mavjudligi bilan ajralib turadi va bu narsa ularni mongoloidlar bilan yaqinlashtiradi.

Afrika aholisining $\frac{1}{4}$ qismini tashkil etuvchi janubiy yevropeoidlar materik shimolidan to Sahroi Kabirgacha tarqalgan bo‘lib, tarkibi asosan arablar va barbarlardan iborat. Afrika janubida 10 mln. ga yaqin G‘arbiy Yevropadan chiqqan kishilar avlodlari yashaydilar va ular antropologik jihatdan yevropeoid irqining oraliq formalariga va uning shimoliy tarmog‘iga mansubdir.

Afrika aholisi irqiy aralashuvi asosan negroidlar va yevropeoidlar o‘rtasida yuzaga kelgan. Ular orasidagi qadimiy aloqalar zonasida efiop tipi shakllangan. Burun shakli va yuz tuzilishiga ko‘ra efioplar arablardan deyarli farq qilmaydilar, biroq ular terisining rangi xuddi negrlar kabi qora. Afrika g‘arbida fulbe xalqlaridan iborat, negroidlar va yevropeoidlar irqiy belgilarini o‘zida aks ettiruvchi G‘arbiy Sudan oraliq tipi tashkil topgan. Arablar bosqini va islom dinining tarqalishi natijasida janubiy yevropeoidlarning arab tilida so‘zlashuvchi ma‘lum aholisi Afrikaning ichki qismlariga kirib keldilar. Bu esa o‘z navbatida Sudan oraliq tipi shakllanishiga olib keldi. Madagaskarda Janubi-Sharqiy Osiyodan ko‘chib kelgan janubiy mongoloidlar bilan tubjoy aholisining qorishishi oqibatida mongoloid va negroid irqiy belgilarini namoyon etuvchi malagas oraliq tipi vujudga keldi.

Amerika xalqining irqiy tarkibi nihoyatda rang-barang bo‘lib, bu yerdagi aholi shakllanishida insoniyatning barcha uch irqi vakillari ishtirok etgan. Yerli aholi – hindular va eskimoslar – Meksika yassi tog‘larida, And tog‘larida, Janubiy Amerikaning ichki o‘lkalarida va arktikaning ayrim hududlarida jamoa-jamoa

bo'lib saqlanib qolganlar. Boshqa hamma joylarda yo irqiy jihatdan aralash aholi yoki keyin ko'chib kelganlar – yevropeoidlar va negroidlar – avlodlari ko'pchilikni tashkil etadi. Yerli aholi mongoloid irqining har xil tiplariga mansub.

Hozirgi paytda Amerikada yevropeoidlar boshqa irq vakillariga nisbatan keng tarqalgan. AQSh va Kanada aholisining 90 foizi, Lotin Amerikasi aholisining 25 foizi ularga mansub. Shimoliy Amerikaga, uning janubiy qismidan tashqari, asosan yevropeoidlarning shimoliy va oraliq guruhlari (Buyuk Britaniya, Skandinaviya, Germaniya aholisi) vakillari ko'chib keldilar. Biroq antropologik tip chegaralari o'rtasidagi aralashuv jarayonida bu farqlar Yevropadagidan ko'ra ham kamayib ketdi. Natijada oraliq irqiy formalar hozirda ko'pchilikni tashkil etadi. Lotin Amerikasida ispanlar, portugallar va italyanlarning avlodlaridan iborat asosan janubiy yevropeoidlar o'rtnashgan. Lotin Amerikasidagi ko'pchilik yevropeoidlarda ma'lum darajada hind yoki negr qoni alomatlari seziladi.

Hind va yevropa nikohlari aralashuvidan hosil bo'lgan avlodlar – metislar Amerika irqiy guruhlari orasida ikkinchi o'rinni egallaydi. Meksika, ko'pgina Markaziy Amerika davlatlari, Venesuela, Chili, Paragvay kabi Lotin Amerikasi mamlakatlarida ular aholining asosiy qismini tashkil etadi. Yevropa va Afrika aholisi qarishishi natijasida paydo bo'lgan mulatlar soni nisbatan kam bo'lib, ular tarkibiga AQShliklarning bir qismi, Braziliya, Kuba, Venesuela aholisi, Vest-Indiya xalqlari kiradi. Ba'zi hollarda metislar va mulatlarni o'zaro ajratish qiyin. Umuman aholi tarkibida aralash irqiy tiplar salmog'i tinimsiz oshib bormoqda.

Amerikada negroid irqiga aralashmagan (yoki kam aralashgan) Afrikadan keltirilgan negr-qullarning avlodlari kiradi. Yirik negroid guruhlari Braziliya va AQShda yashaydilar hamda Gaiti, Yamayka va boshqa Vest-Indiya mamlakatlarining asosiy aholisini tashkil etadi. Umuman Amerikada yevropeoidlar jami aholining 53 foizini, metis va mulatlar – 34 foizni, negrlar – 7 foizni va mongoloid hindular 6 foizni tashkil etadi.

Avstraliya va Okeaniyada yevropaliklar kelgunga qadar aholining asosiy qismi avstraloid katta irqining ikki – avstraliya va papuas-melaneziya tiplariga mansub bo'lgan. Okeaniyaning sharqi va shimolida – Polineziya va Mikroneziyada oraliq irqiy tiplar keng tarqalgan. XVII asrda, asosan yevropaliklar va qisman osiyoliklar orasida boshlangan yalpi immigratsiya ushbu mintaqa aholisi irqiy tarkibini keskin o'zgartirib yubordi. Avstraliya va Yangi Zelandiyada yevropeoid irqining asosan oraliq va qisman shimoliy tarmog'iga mansub vakillari ko'pchilikni tashkil etadi. Okeaniya aholisining yevropaliklar va osiyoliklar bilan qo'shilishi Polineziya va Mikroneziyada, hamda Fidji va Yangi Kaledoniyada metis guruhlari shakllanishiga olib keldi. Ko'pgina Melaneziya orollarida va Yangi Gvineyada metislar kam. Umuman Avstraliya va Okeaniyada yevropeoidlar (asosan ularning oraliq tiplari) aholining 76 foizini, melaneziyaliklar va papuaslar 16 foizini, polineziyaliklar va mikroneziyaliklar 4,5 foizini tashkil etadi.

13-Mavzu: Aholining etnik tarkibi

Mavzu rejasi:

1. «Etnos», «elat», «millat», «xalq» tushunchalari.
2. Xalqaro milliy munosabatlar.
3. Yirik va kichik tillar va millatlar. Ko‘p millatli, ikki millatli va bir millatli mamlakatlar, milliy-etnik jarayonlar: konsolidatsiya, assimilyatsiya, integratsiya, ularning jahon siyosiy-ijtimoiy hayotida tutgan o‘rni.
4. Til oilalari. Til oilalarining geografik tarqalishi.
5. Xalqlarning tili bo‘yicha guruhlanishi.

Yer sharida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishning turli bosqichlarida turgan ko‘plab etnoslar tarqalgan. Etnoslar bir qator umumiy belgilari (tili va yashaydigan hududining umumiyliigi, madaniyati va maishiy hayotidagi yaqinliklar, tarixidagi o‘xshashliklar, ba‘zan bitta davlatga mansubligi) mavjud bo‘lgan kishilar guruhidan shakllanadi.

Fanda qabul qilingan etnoslarning uch bosqichli tasnifiga muvofiq, ularning eng qadimiy tipiga ibtidoiy jamoa tuzumiga mansub bo‘lgan qabilalar va qabila guruhlari kiradi. Quldorlik va feodal formasionalari bilan yangi etnos tipi – elatlar bog‘liq. Iqtisodiy aloqalarning kuchayishi tufayli yuqori darajada rivojlanishgan etnos tipi – millat shakllandi.

Turli mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishidagi notengliklar oqibatida hozirgi paytda sayyoramizda etnoslarning yuqorida qayd etilgan barcha tiplari uchraydi. Biroq, ko‘pincha u yoki bu xalqni qanday etnik tipga mansubligini aniqlash qiyin kechadi. Chunki ularning ko‘pchiligida millatni elatdan, elatni qabila yoki qabilalar guruhidan ajratib turadigan belgilari yaqqol aks etmagan. Bu narsa avvalo ko‘pgina etnoslarning rivojlanish jarayoni hozir ham davom etayotganligi bilan bog‘liq. Ko‘plab kishilar guruhida milliy ong – u yoki bu xalqqa mansublik juda tez, ba‘zan bir avlod umri davomida o‘zgaradi.

Tarixiy jihatdan etnoslarning eng qadimiy tipi – qabila. Har bir qabila bir qancha urug‘lardan – qon-qarindoshlik rishtalari bilan bog‘langan kishilar guruhidan tarkib topgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida qabiladagi kishilar orasida ijtimoiy tabaqalashuv mavjud bo‘lmagan. Hozirda ba‘zi bir (eng qoloq va kam sonli) etnik guruhlarda, birinchi navbatda ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi xalqlar orasida qabilaviy xususiyatlar saqlanib qolgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumining parchalanish jarayonida ko‘pgina qabilalar manfaatlarining umumiyliigi ularni muayyan Ittifoqlarga birlashishga olib keldi (masalan, Shimoliy Amerikadagi irokezlar ligasi, Meksikada uchta astek qabilalar uyushmasi, Janubiy Afrikada zulus qabilalari Ittifoqi va h.k.). Bunday ittifoqlarning shakllanishi qabilalar orasida xo‘jalik va madaniy aloqalarning kuchayishiga, bu esa o‘z navbatida qabilalarning asta-sekin qo‘shilib ketishiga olib keldi hamda ilgari qon-qarindoshlik aloqalari o‘rnini hududiy aloqalar egallay

boshladi. Shu yo‘l bilan yangi etnos tipi – kishilarning tili, hududi, iqtisodiyoti va madaniyati o‘xshash bo‘lgan kishilar guruhi – elat shakllandi.

Dastlab quldorlik davrida qadimgi Misr, qadimgi Ellen va boshqa shu kabi elatlar shakllandi. Yevropada elatning shakllanish jarayoni asosan feodalizm davriga kelib tugallandi (qadimgi rus, polyak, nemis va h.k.). Odatda kelib chiqishi va tili yaqin bo‘lgan qabilalar o‘zaro birlashganlar (qadimgi rus – polyan, drevlyan, vyatich va boshqa sharqiy slavyan qabilalari, polyak – pomoryan, vislyan, mazovshan va boshqa slavyan qabilalari, nemis - saks, aleman va boshqa german qabilalari) yoki birining ikkinchisiga bosqin uyushtirishi natijasida turli tilda so‘zlashadigan qabilalar qo‘shilib ketganlar (shimoliy fransuz va provansal elatlari – gall qabilalari, rim kolonistlari, german qabilalari, franklar, vestgotlar va burgundlar va h.k.).

Elatlarning qo‘shilishi jarayonida hamda ularning ayrim qismlari orasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarning kuchayishi natijasida ulardan birining tili (odatda ko‘p sonli va nisbatan rivojlangani) umumiy tilga aylanadi, boshqa qabila tillarining ahamiyati pasayib, sheva darajasiga tushadi yoki butunlay yo‘qolib ketadi; muayyan hududiy, madaniy va xo‘jalik birligi shakllanadi. Biroq, bunday birlik hali ancha (ayniqsa, iqtisodiy jihatdan) beqaror va bo‘sh edi. Iqtisodiy va madaniy aloqalarning kuchayishi bilan elatlar asta-sekin millatlarga aylana bordi. Elatlar uchun xos belgilar yangi sifat darajasiga ko‘tariladi: millat barqaror hududiy, iqtisodiy va madaniy birlik bilan, umumiy til bilan ajralib turadi; va nihoyat, qayd etilgan xususiyatlar natijasida milliy xarakterning umumiy jihatlari hamda milliy ong shakllanadi.

Odatda millat – nomi saqlanib qolgan elatning etnik rivojlanish mahsulidir. Biroq, davlat chegaralaridagi o‘zgarishlar tufayli ayrim elatlar negizida bir qancha etnik birliklar yuzaga kelgan (masalan, portugallar va galisiyliklar, nemislar va avstriyaliklar va h.k.). Qadimgi rus elati rus, ukrain va belorus elatlarining umumiy ildizi bo‘lib xizmat qildi. Keyinchalik ularning har biri alohida millatga aylandilar. Shunday holatlar uchraydiki, bitta millatning shakllanishida bir qancha elatlar ishtirok etadi (masalan, indoneziya millati yavaliklar, sundlar, madurlar va boshqa elatlardan, filippinlar – tagallar, visayyalar, iloklar va boshqalardan shakllangan).

Ko‘pgina mayda elatlar millatga aylanmasligi mumkin. Ular kamsonli bo‘lganliklari tufayli ayrim zamonaviy yo‘nalishlarni mahalliy kadrlar bilan ta‘minlay olmasdan, taraqqiyotdan orqada qoldilar. Vaqt o‘tgach, bunday elatlar boshqa ancha rivojlangan elat yoki millat bilan aloqaga kirishadilar, ularning madaniyati va tilini o‘zlashtiradilar va asta-sekin ular bilan qo‘shilib ketadilar.

Ta‘kidlash joizki, etnoslarning uch bosqichli bo‘linishi (qabila – elat – millat) Yer sharidagi mavjud etnik umumiylik shakllarining barchasini o‘zida aks ettirmaydi. Bunda ayniqsa ko‘pchilik mamlakatlardagi mavjud oraliq guruhlar – muhojirlarning birinchi, ikkinchi va undan keyingi avlodi, qisman asosiy millatga assimilyasiyalashgan aholi vaziyatni murakkablashtiradi. Ular o‘z vatani va xalqi

bilan butunlay aloqasini uzmagan, ayni paytda ularni qabul qilgan mamlakat etnosiga yaxlit qo‘shilib ketmagan (masalan, AQSh va Kanadadagi nemislar, shvedlar, italyanlar va boshqalar). Oraliq guruhlar ikki va undan ortiq xalq aloqa qiladigan etnik chegaralar zonasida ham shakllanadi. Bunday guruhlarining o‘ziga xos xususiyati – ikki xil milliy ongning yuzaga kelganligidir.

Kishilarning bir jamoasi bir vaqtning o‘zida bir necha etnik umumiyliklar tarkibiga kirishi mumkin, va bu narsa ularning o‘ziga xos ierarxiasini yuzaga keltiradi.

Har qanday, hatto eng jips va konsolidasiyalashgan xalqlarda ham asosiy etnik tarkibdan farqlanuvchi xususiyatlarni o‘zida saqlab qolgan ayrim guruhlar uchraydi. Etnografik deb nomlanuvchi bunday guruhlar hududiy jihatdan millat yoki elatning alohida qismini tashkil etadi, madaniyati va maishiy hayotida alohida xususiyatlarni saqlab qoladi (ular o‘ziga xos shevada gaplashadilar, dini, kiyim-kechak, urf-odatlar bo‘yicha boshqalardan farq qilishi mumkin). Etnografik guruhlar odatda bir elat yoki millatning boshqa milliy guruhlar bilan assimilyasiyalashuvi yoxud qabilaning elatga qo‘shilishi bilan, biroq ushbu qabila o‘zining ayrim xususiyatlarini saqlab qolgan holda yuzaga keladi. Ko‘p hollarda asosiy etnik guruhdan uzoq vaqt ajralib qolishi (migratsion jarayonlar tufayli, davlat chegaralarining o‘zgarishi va h.k.) natijasida etnografik guruhlar yuzaga keladi. Konfessional munosabatlar bilan farqlanadigan guruhlar ayniqsa ajralib turadilar (masalan, Hindistondagi panjoblik sikxlarni alohida xalq sifatida ham e’tirof etadilar).

Metaetnik umumiylik deb nomlanadigan, bir necha xalqlar guruhlarini qamrab oladigan birliklar ham mavjud. Ular etnogenetik jihatdan yaqin, o‘zini anglash unsurlari o‘xshash, uzoq vaqt iqtisodiy, madaniy va siyosiy aloqalarda bo‘lgan bir necha xalqlarni birlashtiradi. Bunday birliklarga nafaqat tili, balki madaniyati va maishiy hayotida o‘xshashliklar bo‘lgan xalqlar, masalan, slavyanlar, romanlar, mug‘ullar, turklar va boshqalarni kiritish mumkin.

Etnodiniy metaetnik birliklar ham uchraydi. Masalan, induizm Janubiy Osiyoda juda ko‘p xalqlarning ijtimoiy va madaniy hayotiga katta ta’sir ko‘rsatgan, hozirda esa ushbu mintaqada hind xalqlari yagona birlik sifatida shakllanmoqdalar. Filippin janubida islomning tarqalishi Moro xalqlari deb nomlangan alohida etnodiniy guruh shakllanishiga olib keldi. Filippindagi boshqa yirik xalqlarning birlashuvi esa nasroniylik dini ta’siri ostida ro‘y berdi.

Bir necha kichik etnoslar bitta kattasiga qo‘shilganligi yoki kichik etnik birliklarning yirik xalq ichida yo‘q bo‘lib ketganligi haqida tarix guvohlik beradi, ya’ni turli hududlarda va turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda etnik birlashish jarayonlari sodir bo‘lgan. Biroq, unga teskari jarayon, ya’ni etnik bo‘linish sinfiy jamiyatgacha bo‘lgan davrda ko‘proq sodir bo‘lgan. Bu davrda aholining o‘sishi qabilalarning parchalanishiga va kishilarning yer shari bo‘ylab tarqalishiga olib kelgan. Dunyoning ayrim qismlarida etnik bo‘linish jarayoni hozir ham davom

etmoqda. Xususan, yevropaliklarning Amerika, Avstraliya va qisman Afrikaga ko'chishi oqibatida bu yerlarda yangi etnoslar shakllandi. Ba'zan davlat chegaralaridagi o'zgarish tufayli etnoslarning bo'linishi ham yangi xalqlarni vujudga keltiradi.

Etnik birlashuv jarayonlari bir necha xil bo'ladi: konsolidasiya, assimilyasiya va etnik integrasiya. Ba'zan etnik rivojlanish ancha murakkab bo'lib, bu jarayonlarning barchasi bir vaqtda sodir bo'ladi.

Konsolidasiya – bu o'zaro yaqin bir necha etnoslarning (qabila, elat) bitta yirik xalqqa qo'shilishi yoki mavjud xalqning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishi bo'yicha yanada jipslashuvidir. Xalqlarning tili va madaniyati o'zaro yaqin bo'lsa konsolidasiya jadal ro'y beradi. Etnoslar rivojlanishning quyi pog'onalarida qolib, millat sifatida shakllana olmagan hududlarda bu jarayon sodir bo'ladi (masalan, Dog'iston va Oltoydagi kichik elatlar va h.k.).

Konsolidasiya jarayoni ayniqsa ikkinchi jahon urushidan keyin, mustamlaka tizimi parchalanishi bilan keng quloq yoydi. Milliy ozodlik harakati natijasida ularning siyosiy mustaqillikka erishishlari, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, xo'jalik tuzilmasidagi o'zgarishlar, jumladan ko'chmanchilik o'rniga o'troq turmush tarzining yuzaga kelishi – bularning barchasi etnik konsolidasiyani, milliy o'zlikni anglashni jadallashtirdi. Yaqin o'tmishda ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xos bo'lgan etnik xilma-xillik hozirda susayib bormoqda. Qabilalar va lokal etnik guruhlardan elatlar va millatlar shakllanmoqda. Masalan, Afrikadagi bir necha qabila uyushmalaridan xausa, yoruba, ibo kabi taniqli elat va millatlar vujudga keldi. Hindiston, Filippin va boshqa Osiyo mamlakatlarida konsolidasiya jadal ro'y bermoqda.

Ayrim millatlar shakllanishiga siyosiy vaziyatlar, birinchi navbatda, alohida davlatlarning paydo bo'lishi katta ta'sir ko'rsatadi. Bu narsa, masalan, flamandlardan ajralib chiqqan gollandlarga tegishli. Ikkita mustaqil davlat – Germaniya va Avstriyaning paydo bo'lishi bir tilda gaplashadigan alohida millatlarni vujudga keltirdi. Deyarli barcha Lotin Amerikasi millatlari mustaqil davlatlar doirasida shakllandilar, shuning uchun ulardagi siyosiy chegara etnik chegara bo'lib ham xizmat qilmoqda.

Assimilyasiya mohiyati shundaki, biron-bir xalqning alohida guruhi yoki butun bir xalq uzoq vaqt davomida boshqa xalq orasida yashab, uning tili va madaniyatini o'zlashtiradi hamda o'zini avvalgi etnik birlikka mansub ekanini inkor qiladi. Milliy o'zlikni anglashdagi o'zgarishlar bu jarayonning oxirgi bosqichi hisoblanadi.

Assimilyasiya asosan iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlar uchun xos bo'lib, undagi aholi millat sifatida allaqachon shakllangan. Ushbu kishilar orasida yashaydigan kamsonli milliy guruhlar esa ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish bo'yicha ancha orqada. Bu jarayon kamsonli millatlarga ham, muhojirlarga ham tegishli. Muhojirlarning assimilyasiyalashuvi ko'pgina omillarga bog'liq: ularning

tubjoy aholisi bilan tili va madaniyatidagi o'xshashliklar, ko'chib kelganlarning milliy jipslik darajasi, ularning o'z vatanlari bilan siyosiy va madaniy aloqalarini saqlanib qolganligi, qabul qilgan mamlakat hududidagi joylashuvi (aralash yoki kompakt, shahar yoki qishloq), irqiy tafovutlar, mamlakatdagi boshqaruvchi kuchlarning u yoki bu muhojir guruhlariga munosabati va h.k.

Assimilyasiyaning tabiiy va majburiy turlari mavjud. Tabiiy assimilyasiya ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalarining rivojlanishi jarayonida o'z oqimi bilan sodir bo'ladi. Majburiy assimilyasiya esa milliy notenglik mavjud bo'lgan davlatlarda kamsonli millatlarning tili va madaniyatiga butunlay barham berishga yo'naltirilgan reaksiyon assimilyasiya siyosati natijasidir.

Etnik integrasiyalashuv, ya'ni turli etnoslarning yaqinlashuvi asosan ko'pmillatli davlatlarda sodir bo'ladi. Bunday mamlakatlarda milliy muammolarni hal etishning muhim sharti – xalqlarni madaniy va xo'jalik jihatdan yaqinlashtirish hisoblanadi. Bunday integrasiyalashuv etnik birliklar soni hamda ularning tiplari bo'yicha o'zgarishlarga olib keladi. U yoki bu mamlakat aholisi milliy tarkibiga tavsif berishda umumiy hududga, til va madaniyatga ega, tarixiy shakllangan kishilar guruhini anglatuvchi "xalq" tushunchasi keng qo'llaniladi. Ba'zi hollarda bu tushuncha (Yevropa, Shimoliy Amerika mamlakatlari) millat va elatni, boshqa holatlarda elat, o'zaro yaqin qabilalar guruhi, hatto alohida qabilani (Afrika, Osiyo va Okeaniyaning ayrim mamlakatlari) anglatadi.

Dunyo aholisining etnik tarkibi tinimsiz o'zarib turibdi; ba'zan yangi etnik birliklar paydo bo'lmoqda. Biroq, umuman konsolidasiya va assimilyasiya jahon xalqlari umumiy sonining qisqarishiga olib keladi. Hatto, bir necha asr ilgari millatlarning shakllanishi boshlangan Yevropada bir qancha etnoslar (gellar, frizlar va boshqalar) asta-sekin yo'q bo'lib ketdilar. Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasidagi rivojlanayotgan mamlakatlarda esa bu jarayon jadal davom etmoqda.

Xalqlarning joylashuvida ham o'zgarishlar kuzatilmoqda. Yer shari bo'ylab ko'pchilik xalqlar kompakt bo'lib yashaydilar. Milliy aralash aholi, avvalo etnik chegaralar yoqasida joylashgan hududlar uchun xos bo'lib, bunday aralashuv o'xshash tillarda so'zlashadigan va madaniy-maishiy munosabati yaqin bo'lgan qo'shni xalqlarda ayniqsa kuchli bo'ladi. Mintaqalarning iqtisodiy rivojlanish darajasi yuksalib borgan sari, shunga mos holda, ularning milliy tarkibi ham murakkablashib boradi. Jumladan, qishloq joylarga nisbatan shaharlar aholisining milliy tarkibi xilma-xildir. Shahar qancha katta bo'lsa, aholining milliy tarkibi shuncha rang-barang bo'ladi. Shahar aholisining milliy xilma-xilligi muhojirlarni ko'p qabul qiladigan mamlakatlar uchun xosdir. Chunki yangi ko'chib kelganlarning asosiy qismi shaharlarda o'rnashadilar.

AQSh shahar aholisi milliy tarkibining tahlili bu holatni to'la-to'kis tasdiqlaydi. Ushbu mamlakat shaharlarida assimilyasiyalashmagan muhojirlar salmog'i o'rtacha mamlakat ko'rsatkichiga nisbatan 2,5 barobar yuqori. Janubi-

Sharqiy Osiyo shaharlarida tubjoy millatlarga mansub kishilardan tashqari, aholining anchagina qismini xitoylar va hindlar tashkil qiladi; ular bu yerda savdo, hunarmandchilik va sanoat ishlab chiqarishida band. Arab davlatlari va Afg'onistonda ham hindlar asosan shaharlarda yashab, savdo va hunarmandchilik bilan shug'ullanadilar.

Tojiklar, o'zbeklar, turkmanlar va afg'onlar keng tarqalgan shimoliy Afg'oniston shaharlarida tojiklar ko'pchilikni tashkil etadi. Afg'onlar ko'p yashaydigan hududlardagi shaharlarda, jumladan Qobulda ham ular ulushi yuqori. Xitoyning ko'pchilik shaharlarida (kamsonli millatlar yashaydigan hududlarda ham) xitoylar, qisman xuey va manchjurlar, faqat Sinszyan okrugi shaharlarida uyg'urlar, Tibet shaharlarida esa tibetliklar ko'pchilikni tashkil qiladi. Umuman, ko'pmillatli davlatlarda nisbatan yirik yoki iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan millatlarning vakillari shahar aholisining asosiy qismini tashkil etadi.

Qishloq joylardagi milliy aralashuv ikki yoqlama tavsif kasb etishi mumkin. Faqat ikki va undan ortiq xalq bitta aholi punktida yashaydigan bo'lsagina, ularni milliy jihatdan xaqiqiy aralash hudud deb hisoblash mumkin (bu sohadagi eng yaqqol misol – Malayziya bo'lib, ularda eng kichik qishloqlargina bir millatlidir). Odatda muayyan hududda ko'plab xalqlar joylashgan bo'lib, ularning har biri o'z qishloqlariga ega bo'ladi.

Siyosiy chegaralar ko'pincha milliy chegaralarga mos kelmaydi. Ehtimol, millat shakllanishi bilan davlatning paydo bo'lishi bilan bir vaqtda ro'y bergan G'arbiy Yevropa hamda Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun bu hodisa odatiy holdir. Boshqa mintaqalardagi juda ko'p xalqlar ikki va undan ortiq davlatlar hududida yashaydilar hamda ularning orasi davlat chegaralari bilan ajratilgan. Bir millatli davlatlar juda kam uchraydi (ayrim G'arbiy Yevropa va Arabiston yarim oroli mamlakatlari, Yaponiya, Koreya, Bangladesh). Ko'pchilik dunyo mamlakatlari ko'pmillatli bo'lib, ularning ba'zilarida (Rossiya, Hindiston, Indoneziya, Xitoy, Eron, Nigeriya va b.) o'nlab va hatto yuzlab xalqlar yashaydilar. Hozirgi paytda migratsion jarayonlarning keng quloq yoyishi bois bir millatli mamlakatlarda ham hech bo'lmas kamsonli millatlarning kichikroq guruhi uchraydi. Masalan, Yaponiyada XX asrning 20-40 yillarida ko'chib borgan koreyslarning avlodlari yashaydi va ularning soni taxminan 500-600 ming kishini tashkil etadi.

Ta'kidlash joizki, "kamsonli millat" tushunchasi bir xil ma'noni anglatmaydi. Ko'p hollarda ushbu tushuncha ostida yirik xalqning asosiy qismidan ajralib qolgan kichikroq guruhi tushuniladi. Masalan, Turkiyadagi greklar, Italiyadagi albanlar, Qirg'izistondagi o'zbeklar va h.k. Ba'zi holatlarda ushbu tushuncha o'z davlatiga ega bo'lmagan millatlarga nisbatan qo'llaniladi (masalan, Ispaniya va Fransiyada basklar, Fransiyada bretonliklar, Turkiya, Iroq va Suriyada kurdlar, Xitoyda uyg'urlar, Eron, Pokiston, Afg'onistonda beludjilar va h.k.). Boz ustiga, mazkur xalqlar o'z etnik hududlarida ko'pchilikni tashkil qiladi.

Aholi milliy tarkibini aniqlash murakkab jarayon bo'lib, unga ko'plab omillar xalaqit beradi. Jumladan, hatto milliy tarkib bo'yicha to'liq statistik ma'lumotlar bo'lgan taqdirda ham ko'pchilik mamlakatlarda assimilyasiya va konsolidasiya jarayonlarining oxiriga yetmaganligi tufayli milliy o'zlikni anglash darajasi oraliq bosqichda bo'lgan kishilar guruhi aholining katta qismini tashkil qiladi.

Ta'kidlash joizki, ko'pchilik mamlakatlarda aholi ro'yxatlari va uni hisobga olishning boshqa shakllari bir taraflama bo'ladi. Ayniqsa, Osiyo, Afrika va qisman Lotin Amerikasining ichki hududlarida saqlanib qolgan mayda etnik birliklarni (qabilalarni) ajratishda katta muammolar kelib chiqadi. Bunday qabila birliklari orasida aniq chegaraning o'zi yo'q.

Aholi ro'yxatlarida ikkita muhim etnik ko'rsatkich – til va milliy o'zlikni anglash (qaysi millatga mansubligi haqidagi savolga bergan javobi orqali aniqlanadi) ko'p uchraydi. Til umumiyliigi – etnos shakllanishining muhim shartidir; zotan, ko'pincha til va xalq nomi o'zaro mos keladi. U yoki bu aholi guruhida ona tilining o'zgarishi assimilyasiya jarayonlarining chuqurlashib ketganini ko'rsatadi; odatda til o'zgargandan keyin milliy o'zlikni anglashda ham o'zgarishlar yuz beradi. Masalan, Fransiya sharqida yashaydigan deyarli barcha elzasliklar nemis va fransuz tillarida so'zlashadilar. Belgiya va Shveysariya kabi ko'pmillatli davlatlar aholisining asosiy qismi ikki yoki uch tillidirlar. Umuman ikkitillilik – ko'pmillatli mamlakatlar uchun xos xususiyat bo'lib, kamsonli millatlar vakillari o'z ona tillaridan tashqari, rasmiy davlat tilidan ham foydalanadilar (Hindistonda – hindi, Pokistonda – urdu, Indoneziyada – baxasa indonesia, Filippinda – tagalog, bir qator Afrika davlatlarida – ingliz yoki fransuz tillari). Ikki tilli guruhlar asosan etnik chegaralar yoqasida hududlarda keng tarqalgan. Bundan tashqari, ikkitillilik muhojirlarni ko'p qabul qilgan mamlakatlar uchun xosdir. Keyingi paytlarda ikkitillilikka shahar aholisining jadal o'sishi, qishloq aholisining turli guruhlari o'rtasidagi aloqalarning kuchayishi, ta'lim va madaniyat darajasining yuksalishi kabi omillar katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Bir necha xalqlarning bir tilda so'zlashishi tez-tez uchraydigan holdir. Masalan, ingliz tilida inglizlar, avstraliyaliklar, yangi zelandiyaliklar, kanadaliklar, AQSh amerikaliklari va boshqa xalqlar gaplashadilar. Ispan tili nafaqat ispanlar uchun, balki Lotin Amerikasidagi juda ko'p xalqlar uchun ona tili bo'lib hisoblanadi. Bitta tilda nemislar, avstriyaliklar va shveysariyaliklar so'zlashadilar.

Muayyan tilda so'zlashadigan kishilar soni o'sha xalqqa mansub aholi soniga mos kelmaydi. Ayniqsa bu narsa millatlararo muloqot vazifasni bajaruvchi yirik xalqlarning tillariga tegishlidir. Bunday tillarning eng ko'p tarqalganlari (taxminan mln. kishi): xitoy (1500), ingliz (500), hindi va unga yaqin urdu (540), ispan (300), rus (270), arab, bengal va indonez (har birida 250 dan), portugal (200), nemis (140), fransuz (125) va h.k. Shunday qilib, mazkur 12 tilda jahon aholisining 2/3 qismi so'zlashadi.

Milliy o'zlikni anglash eng muhim etnik aniqlovchi bo'lib xizmat qiladi. Uzoq tarixiy davrlar mobaynida shakllangan milliy o'zlikni anglash, garchi etnik birlikni tashkil qiluvchi juda ko'p unsurlardan iborat bo'lsada, o'ziga xos mustaqillikka ega. Shuning uchun u asosiy xalqdan hududiy jihatdan ajralib qolgan kishilar guruhida, hattoki tili o'zgarib ketgan holatda ham saqlanib qolishi mumkin. Milliy o'zlikni anglash ta'sirida ba'zan etnik guruhlar o'z milliy hududiga qayta qo'shilishga, o'z ona tilini qayta tiklashga intiladilar.

O'zlikni anglash yuqori darajada milliy konsolidasiyalashgan xalqlar uchun xosdir. Biroq, qabila tuzumi uchun xos xususiyatlarni saqlab qolgan elatlarda milliy ongi hali aniq shakllanmagan bo'ladi. Bunday elatlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning past darajasi va milliy konsolidasiyalashuv markazlarining yo'qligi turli shevalarda so'zlashuvchi guruhlar o'rtasida muloqot va madaniy aloqalar rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Aniq milliy ong shakllanmaganligi oraliq guruhlar (muhojirlar, ikkitilli aholi, etnik chegaralar yoqasida yashovchi kishilar va h.k.) uchun ham xosdir. Ko'pincha boshqa mamlakatlarga ko'chib ketgan muhojirlarda o'z xalqiga mansublik hissi susayib, uning o'rnini ilgari yashagan mamlakatga yoki o'zining sobiq qo'shnisiga mansublik hissi egallaydi. Jumladan, kataloniyaliklar, galisiyaliklar va hatto basklar o'zlarini ispanlar deb, tamillar – hindlar deb, yavaliklar – indonezlar deb atay boshladilar.

Assimilyasiya jarayonlarining borishi, muhojirlar orasida milliy ong o'zgarishidagi sur'atlar ular kirib kelgan mamlakatining tili, urf-odatlar va turli madaniy unsurlarini qay darajada o'zlashtirishlariga hamda aralash nikohlarning tarqalishiga bog'liq. Ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda (AQSh, Avstraliya, Kanadaning ingliz tili provinsiyalari) Buyuk Britaniyadan ko'chib kelganlar farzandlarini boshqalardan ajratish qiyin. Markaziy Yevropa, Italiya, slavyan davlatlari emigrantlarining assimilyasiyalashuvi qiyin kechmoqda; irqiy jihatdan ham farq qiluvchi – yaponlar, indonezlar, filippinliklarda esa yanada qiyinroq. Osiyo millatiga mansub kishilar, odatda uchinchi va undan keyingi avlodlarda ham o'z milliy xususiyatlarini saqlab qoladilar.

Hozirgi paytda dunyoda taxminan 2000-3000 xalq mavjud bo'lib, ular bir necha o'n kishidan iborat mayda qabilalardan (Hindistonda andamanlik minkoplar, Indoneziyada toalar, Braziliyada botokudlar, Argentinada alakalufar va yamanlar va h.k.) to bir necha yuz million aholini o'z ichiga oluvchi yirik (ruslar, AQSh amerikaliklari, xitoylar, yaponlar, braziliyaliklar va h.k.) millatlarga bo'lgan guruhlarni o'z ichiga oladi.

Biroq mazkur raqamlar juda shartli bo'lib, u yoki bu xalqning alohida millat, elat, qabila yoki qaysidir etnos tarkibidagi etnografik guruh ekanligi haqida mutaxassislar orasida tinimsiz bahslar bormoqda. Masalan, milliy jihatdan eng konsolidasiyalashgan mintaqa – Yevropada olimlar 60 ta xalqni tubjoy millatlar sifatida ajratganlar. Ayrim etnograflar bretonlar, uelsliklar, frizlarni mustaqil xalqlar deb hisoblasalar, boshqalari bretonlar – fransuzlar, uelsliklar – inglizlar,

frizlar esa gollandlar tarkibiga mansub etnografik guruh deb ataydilar. Shuning uchun, bunday holatlarda muayyan xalqqa mansub aholi sonini aniqlashda ona tili, tugʻilgan yurti, fuqaroligi, irqi, dini, qabilaviy mansubligi kabi maʼlumotlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bir qator Osiyo va Afrika mamlakatlarida oʻzaro yaqin til va shevalarda soʻzlashadigan kishilar guruhlari orasida milliy konsolidasiyalashuvning kuchayishi kuzatilmoqda. Qondosh etnos guruhlari uchun yagona adabiy tilning yaratilishi, maʼmuriy chegaralar aholining milliy tarkibiga mos holda oʻrnatilishi bu jarayonlarga ijobiy taʼsir koʻrsatmoqda. Bu narsa hindistonliklar, bixarlar, rajastxanliklar, visayya kabi yirik etnik guruhlarga tegishlidir. Jumladan, bixarlar tarkibiga uchta koʻpmillionli xalq – bxodjuri, magaxi i maytxili xalqlari hamda oʻndan ortiq mayda etnik guruhlari, rajastxanliklar tarkibiga – marvarilar, jaypurilar, mevarilar va boshqalar kiradi. Visayya xalqi esa sebua, panay-xiligaynon, samar-leyte va boshqa etnik guruhlarni oʻzida birlashtiradi. Kelgusida, muayyan tarixiy sharoit taʼsirida nomlari qayd etilgan barcha etnik guruhlari yo yagona xalqqa birlashishi, yoki oʻzaro qondosh xalqlar negizida bir necha mustaqil millatlar shakllanishi kutiladi.

Hozirgi paytda xalqlarni muayyan tilda soʻzlashuviga koʻra (lingvistik) tasniflash ancha keng tarqalgan. Toʻgʻri, birgina til xalqlar orasidagi barcha belgilarni oʻzida aks ettirish imkoniga ega emas, bunday holatlarda boshqa etnik koʻrsatkichlardan foydalaniladi. Xalqlarni guruhlashda mazkur tizim qondoshlik belgilari boʻyicha birlashtirilgan tillarni, ularning lugʻat fondi va grammatikasini taqqoslash yoʻli bilan oʻrnatilgan genealogik tasnifidan foydalanadi.

Ushbu tizimdagi oliy taksonomik birlik – til oilalari boʻlib, hozirgi paytda dunyoda 15 ta til oilasi va biron bir oila tarkibiga kirmaydigan, oʻziga xos tilda soʻzlashadigan alohida xalqlar (koreyslar, yaponlar, basklar, ketlar va h.k.) mavjud. Baʼzi hollarda u yoki bu xalq tillararo oʻxshashligiga qarab emas, balki geografik va tarixiy-madaniy belgilari boʻyicha muayyan til oilasi tarkibiga kiritilgan (tillarning genetik qondoshligi ilmiy isbotlangan chogʻdagina “til oilasi” tushunchasi qoʻllaniladi). Bunday guruhlarga papuaslar va hind xalqlari mansub boʻlib, aslida ularning har biri bir necha oilani oʻzida birlashtirgan. Uch afrika «oilasi» (niger-kordofan, nil-sahroi kabir va koysan) ham bir necha oiladan iborat.

Oila ichidagi oʻzaro yaqin til guruhlari – dunyoda ularning soni 45 ta – hamda (oila tarkibida, biroq bironta til guruhiga kirmaydigan) alohida tilda soʻzlashadigan xalqlar ikkinchi taksonomik birlikni tashkil etadi. Masalan, hind-evropa oilasiga slavyan, boltiq, german, roman, eron va boshqa til guruhlari bilan bir qatorda, hech bir guruhga qoʻshilmaydigan albanlar va armanlar ham kiradi.

Eng quyi taksonomik birlik alohida til emas, balki xalq boʻlib hisoblanadi.

Til oilalarining shakllanish jarayoni insoniyatning yer shari boʻylab joylanishi bilan uzviy bogʻliq. Eng yaqin tillar odatda uzoq vaqt davomida bitta mintaqada yashagan va kelib chiqishi umumiy boʻlgan qoʻshni xalqlarda uchraydi. Baʼzi

hollarda bir-biridan uzoqda yashaydigan xalqlarning tillarida ham o'xshashlik kuzatiladi (masalan, yavaliklar va malagaslar, vengrlar va mansilar, yoqutlar va ozarbayjonlar). Buning sababi shuki, o'xshash tilda so'zlashadigan xalqlarning yo kelib chiqishi umumiy, yoki uzoq o'tmishda ular o'zaro qo'shni bo'lib yashaganlar.

Yer shari aholisining 40 foizdan ko'prog'i 11 ta til guruhini o'zida jamlagan hind-evropa til oilasiga mansub. Mazkur tillar dunyoning deyarli barcha mintaqalarida, ayniqsa Yevropa, Osiyo va Amerikada keng tarqalgan. Jahon aholisining taxminan 20 foizi xitoy-tibet oilasi (uning tarkibiga eng ko'psonli xalq – xitoylar kiradi) tillarida so'zlashadi. Aholining 8 foizi Afrikada keng tarqalgan niger-kordofen, 5-7 foizi esa semit-xamit oilasi (Osiyo va Afrika mamlakatlaridagi arablar) tillaridan foydalanadi. Shunday qilib, mazkur 4 ta til oilasida insoniyatning 4/5 qismi gaplashadi.

Til oilalari va guruhlarining geografik tarqalishi juda notekis. Masalan, arab tili Janubi-G'arbiy Osiyo va Shimoliy Afrikaning juda katta hududlarini egallagan. Turk guruhiga mansub tillar Bolqon yarim orolidan to shimoli-sharqiy Sibirgacha yetib borgan. Dunyoning barcha qit'alarida ingliz tilida so'zlashadilar. Ispan tili Lotin Amerikasining katta qismida tarqalgan. Yevropada inglizcha va ispancha gaplashadigan kishilar dunyodagi jami shu tillarda so'zlashuvchilarning 20 foizidan kamrog'ini tashkil etadi. Bu jarayonlar ta'sirida bitta tilda mazkur xalqqa umuman aloqasi bo'lmagan, ko'pincha butunlay boshqa irqqa mansub kishilar ham so'zlashmoqdalar.

Keyingi yillarda turli xalqlar o'sish sur'atidagi xilma-xilliklar tufayli turli til oilalari va guruhlariga mansub aholining yer yuzidagi jami aholi soniga nisbatan salmog'i tez o'zgardi. Niger-kordofan, semit-xamit va avstroneziya til oilalari aholisi orasida o'sish juda yuqori. Ayni paytda, hind-evropa va ural oilalariga mansub xalqlar hamda yaponlarning salmog'i sezilarli darajada kamaygan.

14-Mavzu:Dinlar geografiyasi

Mavzu rejasi:

1. Aholining diniy tarkibi. Dunyo dinlari shakllanishi. Arxaik, milliy va dunyoviy dinlar.
2. Xristian: katolik, pravoslav, protestan, islom: shiya, sunniylar, budda dinlari geografiyasi va ularning jahon siyosiy-ijtimoiy munosabatlaridagi o'rni.
3. Xinyanlar, maxayanlar va ularning geografiyasi.
4. Dinlarning aholi demografik rivojlanishiga ta'siri.
5. Yirik diniy ziyoratgohlar va ularning xalqaro aholi migratsiyasidagi roli.
6. Dunyodagi boshqa dinlar

1. Dinni ijtimoiy xodisa sifatida geografik jixatdan o'rganishning axamiyati.

Din insoniyat ma'naviy hayotining tarkibiy qismidir. O'zbekiston Respublikasida ziyolilar oldiga ma'naviy barkamol insonni shakllantirish vazifasi qo'yilgan bir paytda din masalasini chetlab o'tish mumkin emas. Mazkur masalani hal etishda ilgari dinga agressiv hujum etish uslubining salohiyatsizligi hammaga ochiq-oydin. Lekin keyingi paytda paydo bo'lgan diniy bo'lmagan masalalarni diniy deb atash, har qanday, hatto bir-biriga zid bo'lgan, fikrlarni tahlil qilmasdan turib maqtash uslubi ham o'zini oqlamaydi. Demak, ushbu masalaga printsiptial, professional, ilmiy yondashuv darkor.

Din e'tiqod hamdir, bu esa har bir kishining shaxsiy ishi. Lekin shaxsni har qanday missioner tashkilotlar ixtiyoriga ham tashlab qo'yib bo'lmaydi. Ozod jamiyatda har bir inson o'z shaxsiy pozitsiyasini belgilab olishi uchun unga har tomonlama, boy, ob'ektiv-ilmiy ma'lumot zarur. Bunday ma'lumot entsiklopedik xarakterda bo'lmog'i, birovning g'arazli sharhisiz asl matnlar shaklida bo'lsa, maqsadga muvofiqdir.

Din ta'rifi. Din so'zi arab tilidan olingan bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi «ishonch, e'tiqod»dir. Istilohiy ma'nosi lotin tilidagi «religion» so'zi bilan mos keladi.

Din tabiat, jamiyat, inson va uning ongi, yashashdan maqsadi hamda taqdiri insoniyatning bevosita qurshab olgan atrof-muhitdan tashqarida bo'lgan, uni yaratgan, ayni zamonda insonlarga to'g'ri, haqiqiy, odil hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash, ta'limotdir.

Din muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo'ladi. U olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tariqasi, uni idrok etish usuli, olamda insoniyat paydo bo'lgandan to bizgacha o'tgan davrlarni ilohiy tasavvurda aks etishidir. Din komil insonni tarbiyalashda asosiy tarbiyalovchi qudratga ega bo'lgan ma'naviy-axloqiy kuchdir.

Din asli nima ekanligi turlicha izohlansa-da, umumiy nuqtai nazar shuki, din ishonmoq tuyg'usidir. Ishonmoq tuyg'usi insoniyatning eng teran va ruhiy-ma'naviy ehtiyojlaridandir.

Hozirgi kunda din tipologiyasida dinlarning quyidagicha tasniflari mavjud:

- tarixiy-geografik jihatga ko'ra;
- etnik jihatga ko'ra;
- e'tiqod qiluvchilarining soniga ko'ra;
- hozirgi davrda mavjudligi jihatidan (tirik va o'lik diniy tizimlar) va

h.k.

I. Tarixiy-geografik tasnif.

1) O'rta yer dengizi havzasi dinlari:

a) grek;

b) Rim;

v) ellinistik;

2) Qadimiy Yaqin va O'rta SHarq dinlari:

a) Misr;

b) Shumer;

v) Akkad;

g) g'arbiy-somiy;

d) islomgacha arablar dinlari;

3) Yaqin va O'rta Sharqning payg'ambarli dinlari:

a) zardushtiylik;

b) yahudiylik;

v) xristianlik;

g) manixeizm;

d) islom;

4) Hindiston dinlari:

a) vedalar dinlari;

b) hinduizm;

v) hind buddizmi (teravada, maxayana);

g) jayнизм;

5) Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo dinlari:

a) SHri-Lanka, Tibet, Janubi-Sharqiy Osiyo havzasi buddizmi;

b) Xitoy dinlari (daosizm, konfutsiychilik, buddizm maktablari);

v) Koreya va Yaponiya dinlari;

6) Amerika hindulari dinlari:

a) toltak va atsteklar dinlari;

b) inklar dinlari;

v) mayyalar dinlari.

II. Etnik tasnif.

1) **urug'-qabila dinlari** – totemistik, animistik tasavvurlarga asoslangan, o'z urug'idan chiqqan sehrigar, shaman yoki qabila boshliqlariga sig'inuvchi dinlar. Ular millat dinlari va jahon dinlari ichiga singib ketgan bo'lib, hozirda Avstraliya, Janubiy Amerika va Afrikadagi ba'zi qabilalarda saqlanib qolgan;

2) **millat dinlari** – ma'lum millatga xos bo'lib, boshqa millat vakillari o'ziga qabul qilmaydigan dinlar. Ularga yahudiylik (yahudiy millatiga xos), hinduizm (hindlarga xos), konfutsiychilik (xitoy millatiga xos), sintoizm (yaponlarga xos) kiradi;

3) **jahon dinlari** – dunyoda eng ko'p tarqalgan, kishilarning millati va irqidan qat'inazar unga e'tiqod qilishlari mumkin bo'lgan dinlar. Ular safiga odatda buddizm, xristianlik va islom dinlarini kiritadilar.

Bundan tashqari dinlar ta'limotiga ko'ra monoteistik – yakkaxudolik (yahudiylik, islom) va politeistik – ko'pxudolik (hinduizm, konfutsiychilik) dinlari va h.k.ga bo'linadi.

2. Urug'-qabila dinlar va ularning mazmuni.

Totemizm. «Totem» so'zi Shimoliy Amerikada yashaydigan Ojibva qabilasi tilida «uning urug'i» ma'nosini anglatadi va mohiyatan «odamning hayvonot yoki o'simlikning muayyan turlariga qarindoshlik aloqasi bor», deb e'tiqod qilishlik ehtimol, ma'lum bir jamoaning avvalda asosiy oзуqa manbaini tashkil qilgan hayvon yoki o'simlikka nisbatan e'tibor keyinchalik vujudga kelgan qabilaning diniy tasavvurlarining asosiy shakllaridan biriga aylangan bo'lishi mumkin. Urug'dosh guruhlar o'zlarini umumiy belgilari va totemlari bo'lgan hayvon yoki o'simlikdan kelib chiqqan deb bilar edilar. Totemlarga bunday e'tiqod uzoq o'tmishga tegishlidir, ularning mavjud bo'lganligini faqat qadimgi rivoyatlargina tasdiqlaydi. Masalan, hozirgacha Avstraliya aborigenlari orasidan bu xususda afsonalar saqlanib qolgan.

Animizm (lotin tilida «anima» – «ruh», «jon» ma'nolarini anglatadi). Animizm – ruhlar mavjudligiga ishonch, tabiat kuchlarini ilohiylashtirish, hayvonot, o'simlik va jonsiz jismlarda ruh, ong va tabiiy qudrat borligi haqidagi ta'limotni ilgari suruvchi ilk diniy shakllardan biri. Ilk animistik tasavvurlar qadim o'tmishda, ehtimol, totemistik qarashlar paydo bo'lgunicha, oilaviy jamoalarning shakllanishiga vujudga kelgandir.

SHamanizm («shaman» so'zining tungus tilidagi ma'nosi – «sehrgar»). Sehrgarlik (afsun, magiya) real natijalar olish uchun ilohiy kuchlarga ta'sir etish maqsadida amalga oshiriladigan rituallar – urf-odatlar majmuasidir. U totemizm va animizm bilan bir vaqtda paydo bo'lib, unga ko'ra uning vositasida kishilar o'z *totemlari*, ota-bobolarining ruhlari bilan xayolan bog'lanishni amalga oshirib kelganlar. SHamanizm qadim o'tmishda paydo bo'lib, minglab yillar davomida saqlanib kelgan va tabiiyki, muntazam rivojlanib borgan. Odatda, afsungarlik urf-odatlar bilan maxsus odamlar – shamanlar, afsungarlar shug'ullanganlar. Ular orasida, ayniqsa, ayollar ko'p o'rinni egallaganlar. Bu shamanlar, afsungarlar jazavali va asabiy kishilar bo'lib, odamlar ularning ruhlar bilan muloqotda bo'la olishlariga, ularga jamoaning orzu niyatlarini ruhlarga yetkazish, ularning irodasini talqin qilish qobiliyatiga ega ekanligiga chuqur ishonganlar. SHamanlar, odatda, ma'lum harakatlar: ovoz chiqarish, ashula aytish, raqsga tushish, sakrash yo'li bilan nog'oralar va qo'ng'iroqlar ovozlari ostida jazavaga tushib, o'zini yo'qotish, jazavaning yuqori nuqtasiga yetish bilan afsungarlik qilishgan. Tomoshabinlar ham ba'zan o'zlarini yo'qotar darajaga yetib, marosim ishtirokchisiga aylanib qolishar edi. Marosim oxirida shaman hech narsani eshitmay, ko'rmay qolar, uning ruhlar dunyosi bilan muloqoti xuddi shu holatda amalga oshadi deb hisoblanardi.

Fetishizm («fetish» so'zi fr. *fétiche* – «but», «sanam», «tumor» ma'nosidagi so'zni anglatadi). Mohiyati tabiatdagi jonsiz predmetlarga sig'inishdir. Unga ko'ra alohida buyumlar kishini o'z maqsadiga erishtirish, ma'lum voqea-hodisalarni o'zgartirish kuchiga ega. Fetish ham ijobiy, ham salbiy ta'sir etish kuchiga ega.

Fetishizm yog'och, loy va boshqa materiallardan yasalgan buyumlarning paydo bo'lishi bilan bir paytda shakllangan. Bu butlarda va tumorlarda jamoalar g'ayritabiiy dunyodan keladigan ilohiy qudratning timsolini ko'rdilar.

Hinduizm juda murakkab dindir. U bir tomondan yirik ijtimoiy tashkilot, ikkinchi tomondan turli dinlar qorishmasidir. Ijtimoiy tashkilot sifatida kastachilik asosiga qurilgan. Ma'lumki, mil. av. VI asrda Hindistonda buddizm dini vujudga keldi. U braxmanizmdagi bir necha jihatlarni qabul qilgan bo'lsada, kasta ta'limotini inkor etdi. O'sha davrda Hindistondagi kasta tuzumini saqlab qolishga, braxmanizm dinini isloh qilib, qayta tiklashga harakat boshlandi. Bu harakat braxmanizm bilan buddizm o'rtasidagi kurashni ifodalovchi hinduizm edi.

Bu din, asosan, Hindistonda tarqalgan bo'lib, mamlakat aholisining 83%, ya'ni 650 mln. kishi shu dinga e'tiqod qiladi. Hinduizm e'tiqod qiluvchilar soni jihatidan jahonda uchinchi o'rinda turadi. Barcha hinduistlarning soni 700 mln.ni tashkil etadi. Yirik jamoalar Bangladeshda (12 mln.), Indoneziyada (3,6 mln.), Shri Lankada (3 mln.), Pokistonda (1,5 mln.), Malayziyada (1 mln.), AQSHda (0,5 mln.), Butanda (0,3 mln.) mavjud. Hinduizm uni qabul qilmoqchi bo'lganlarga qo'yadigan birinchi va asosiy shart Hindistondagi kasta tuzumini qabul qilishdir.

Diniy qorishma sifatida hinduizm *oriylargacha* bo'lgan dinlar, hind-skif jamoalarining ibtidoiy diniy tasavvurlarini va qadimgi braxmanlarning buddizm bilan aralashgan qadimiy urf-odatlarini o'zida mujassam qilgan.

Shunisi qiziqki, hinduizm o'zining asosi hisoblanadigan vedizm va braxmanizmdan tashqi ko'rinishda farqlanadi. Unda yangi braxmanizm dinlari, to'g'rirog'i, oqimlari mujassamdir. Ularning barchasini umumiy jihatlari qarang bir guruhga jamlash mumkin: tushuncha va qonunlarning asl manbai bo'lgan vedalarning muqaddasligi; *guru* (pir, ustoz)ning tan olinishi; muqaddas joylarga ziyoratga borish; sanskritning muqaddas til ekanligi; va nihoyat, sigirning muqaddas ekanligi. Bu besh qoida yoki aqida umum tomonidan tan olingan bo'lsada, ko'p sonli e'tiqod qiluvchilar orasida o'ziga yarasha farq va o'ziga xoslik kasb etgan.

Hinduizmda keyingi davrda vedalardan tashqari xalq og'zaki ijodi namunalari, jumladan, «Maxabxarata» ham muqaddas yozuvlar qatoriga qo'shilgan. Hinduizm ham braxmanlar asosiy o'rinni egallaydi. SHuning uchun ham mazkur adabiyotlarning ko'pchiligi braxmanlar tomonidan yaratilgan. Ular eski aqidalarning zamon talabiga javob bermasligini ko'rib, yangi qonun qoidalarga mos ravishda turli oqimlarni yuzaga keltirdilar. Ular shu yo'l bilan o'z raqiblari hisoblangan buddistlarga qarshi kurash olib bordilar.

Hinduizm braxmanizmdan katta farq qiladi. Unda Maxabxarata va boshqa she'riy matnlar qadimgi sanskrit tilidan zamonaviy hind tiliga tarjima qilinib, muqaddasligi jihatidan asl matni bilan bir xil hisoblanadi. Hinduizm ta'limotiga ko'ra, braxmanlar nafaqat oliy tabaqa vakillaridan, balki oddiy xalq ichidan, hatto ayollardan bo'lishi ham mumkin.

Hinduizmda *trimurti* (uchlik) – Braxma, Vishnu, Shiva xudolari asosiy xudolar sanalib, Braxma ularning eng kattasi – dunyoni yaratgan xudo hisoblanadi. Biroq, hinduizm faqatgina Vishnu va SHivagagina sig'inadilar. SHunga binoan, hinduizm ikki asosiy oqimga bo'linadi: SHivaga sig'inuvchilar va Vishnuga sig'inuvchilar.

SHiva oddiy xalq ommasi – kambag'allarning ilohiyati hisoblanadi. U Rigvedaning birinchi nusxalarida Rudra nomi bilan zikr etilgan. Atxarvavedada Rudraning roli oshib boradi. Yajurvedada Rudra Agni timsolida berilgan. U Ishana, Ishvara, Maxadeva (buyuk xudo) nomlari bilan ham ataladi.

Hindistonda shivaizmning o'n uchga yaqin asosiy oqimlari mavjud. SHivachilar orasida asosiy oqim sifatida *tridandinalar* (uch tayoqlilar) va *smartlar* (*smriti* so'zidan – *haqqoniy rivoyatlar*)ni aytib o'tish mumkin. *Tridandinalarning* markazi Varanasi bo'lib, unda tarkidunyochilikda hayot kechiradilar. *Smartlarning* bir qismi rohiblikda, yana bir qismi – dunyoviylik holatida yashaydilar. Ushbu oqimlarning har ikkalasi ham faqat braxmanlarnigina o'z saflariga qabul qiladilar. *Dandilar*, ya'ni zohidlar oriylarga xos bo'lmagan ba'zi marosimlarni o'tkazadilar. Jumladan, shu oqimga kirayotgan paytda oyoqlarining pastki qismidan qon chiqaradilar. O'lganlarni yerga dafn qiladilar yoki muqaddas daryolardan biriga topshiradilar. SHivaizmning katta oqimlaridan yana biri *lingachilar* bo'lib, ular bo'yinlariga *linga* osib yuradilar. Kimdir uni oltin, kumush qutida olib yuradi. Ibodat vaqtida uni chap qo'llarida tutib turadilar. *Lingachilar* bir necha urug'larga bo'linib, o'zaro qudachilik qilmaydilar.

Yoglar o'zlarini tarkidunyo qilgan odam sifatida turli ko'yga soladilar. Uzoq vaqt nafas olmay o'zlaridan ketadilar, bu vaqtda ular SHiva bilan yolg'iz qoladilar; omma oldida havoga ko'tariladilar; yana gipnoz usulida o'rgatilgan echki yoki ilon yordamida sadaqa yig'adilar.

SHivaizmning mayda oqimlari *oriylarga* tegishli bo'lmagan an'analar bilan sug'orilgan. Deylik, Shaktra yoki SHakta oqimi hayvon yoki odamlarni qurbon qilishi bilan ajralib turadi. Hozir turli balo-ofatlar paytida qilinadigan bunday qurbonliklar yo yo'q bo'lib ketgan, yoki maxfiy ravishda amalga oshiriladi. Xalq orasida SHivaning 1008 ta nomi bor.

Vishnu – hozirgi Hindiston panteonida birinchilik uchun kurashayotgan ikkinchi ilohiyatdir. Rigvedada tabiatga jon ato etuvchi quyosh xudosi Vishnu birinchi darajali ilohiyatdir. Unda Vishnu juda saxiy qilib tasvirlangan. Ibodat paytida uni Savitar, Roxita, Surya, Adita nomlari bilan ham ataydilar. U butun koinotni uch qadamda bosib o'tishi va havoda muallaq yura olishi xususiyati bilan

tavsiflanadi. Yarim inson, yarim xudo shaklidagi qahramon Krishna Vishnuga qo'shilib ketgan deb tasavvur qilinadi.

Maxabxarata va Ramayana dostonlarida *Avatara*, ya'ni insonning Vishnuga qo'shilib ketishi haqida so'z yuritiladi. Vishnu gohida to'rt qo'lli qilib tasvirlanadi. Vishnuning ommaviy ibodat marosimlari ba'zan juda murakkablashib uzoq vaqt davom etadi. U hech qachon inson yoki hayvonning qurbonlik qilishni talab qilmagan.

Krishna («qora») o'zining tabiiy kelib chiqishiga ko'ra juda murakkab obrazdir. U haqda olov, chaqmoq, momoqaldir, osmon, quyosh bilan bog'liq afsonalar mavjud. Krishna jangovor, yengilmas qahramon sifatida ta'riflanadi. U urushda ham, sevgida ham yengilmas bahodir, ammo juda ayyor tabiatga ega. Xalq orasida u erotik ilohiyat hisoblanadi. Krishnaga sig'inuvchilar, asosan, Mattra shahri va uning atroflarida yashaydilar, shuningdek, u Bengaliya va Orissada ham katta shuhratga ega.

Vishnuizm bayramlari turli-tuman: ba'zilari umumiy, ba'zilari esa tabaqalarga ajratilgan holda o'tkaziladi. Ular asnosida duolar o'qish, ta'zim bajo keltiriladi, ommaviy diniy marosimlarda qatnashiladi, turli hadiya va qurbonliklar ataladi, shuningdek, ibodatxona yaqinidagi yoki ichidagi muqaddas hovuzda cho'milish majburiydir. Bu marosimlar ba'zi paytda bir necha kunga ham cho'zilib ketadi. Ularda faqatgina ruhoni rahbarligida hadiyalar (pul, qimmatbaho buyum yoki qimmatli toshlar) xudolarga hamda ruhoniylarga ataladi. Qurbonliklar turli gullar, xushbo'yliklar, ovqatlardan, xudolar nomiga atab ozod qilinadigan yoki so'yiladigan hayvonlardan bo'ladi. Sigir qadimdan hindlar e'tiqodida muqaddas hayvon hisoblangan. SHuning uchun uni qurbonlik qilish yoki boshqa maqsadlarda o'ldirish katta gunoh hisoblangan. Sigirning besh mahsuloti (sut, suzma-tvorog, sariyog', siydik va tezak)dan tayyorlangan *panchagavyam* hinduiylar e'tiqodida odamlarni va uylarni poklashda alohida kuchga ega. Sigir muqaddas hayvon hisoblanganligi uchun u xudolar bilan bir qatorda ehtirom qilinadi. U keyinchalik «tirik but»ga aylanib, SHivaning ma'budlik o'rnini to'ldirdi.

Vishnuizm ham o'zining muqaddas hayvoni bor. U maymundir. Rigvedada Vrishakani (erkak maymun) timsolida Xanumanning ajdodini ko'rish mumkin, degan rivoyat keltiriladi. SHuning uchun maymun Ram («Ramayana» dostonidagi odam-xudo)ning ittifoqchisi maymun-xudo Xanumanning vakili sifatida ulug'lanadi.

3. Dunyo, mamlakat va maxalliy dinlar.

Jaxon dinlari- Buddizm – dunyodagi eng yirik dinlar ichida qadimiylaridan biri hisoblanib, mil. av. VI-V asrlarda Hindistonda vujudga kelgan. Bu dinga e'tiqod qiluvchilar, asosan, Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlari: Shri Lanka, Hindiston, Nepal, Butan, Xitoy, Singapur, Malayziya, Indoneziya, Mongoliya, Koreya, Vyetnam, Yaponiya, Kombodja, Birma, Tailand,

Laosda va qisman Yevropa va Amerika qit'alarida, Rossiya Federatsiyasining Tuva, Buryatiya, Kalmikiya respublikalarida istiqomat qiladilar.

Hozirgi kunda e'tiqod qiluvchilar soni jihatidan buddizm xristianlik, islom va hinduizmdan so'ng to'rtinchi o'rinni egallaydi. Buddistlarning soni taxminan 700 mln. atrofida bo'lib, ulardan 1 mln. ga yaqini rohiblardir.

Buddizm bundan 2500 yildan avvalroq Hindistonda diniy-falsafiy ta'limot sifatida vujudga kelib, unda ko'plab diniy manbalar va diniy yo'nalishlar mavjud.

Buddizm turli milliy va diniy an'analar bilan kelishuvchanligi sababli ko'p millatlar tomonidan keng qabul qilindi. Buddizm hayotning barcha sohalari: diniy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy qatlamlariga kirib bordi.

Buddizmni din yoki falsafa, ideologiya yoki madaniyat qoidalari to'plami yoxud hayot tarzi deb baholash mumkin.

Ayni kunda bu dinga e'tiqod qilib kelayotgan SHarq mamlakatlaridagi buddizm ta'limotini o'rganish u yerdagi siyosiy-iqtisodiy, ma'naviy madaniyatni tushunishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Bu davlatlarda ushbu dinga e'tiqod qiluvchilar nazarida buddizmning qoida va an'analari markaziy hukumat qonunlaridan ko'ra ustunroqdir, tabiiyki, buning zamirida uning potentsial kuchi yotadi.

Buddizm asoschisining shaxsi. Buddizm tarixi tadqiqotchilar mavjud manbalar asosida bu oqim asoschisi real tarixiy shaxs ekanligini ta'kidlaydilar. Bu ta'limot to'g'risida xabar beruvchi adabiyotlarda u Siddxartxa, Gautama (Gotama), SHakyamuni, Budda, Tadxagata, Djina, Bxagavan kabi ismlar bilan zikr etiladi. Bu ismlar ma'nolari quyidagicha: Siddxartxa – shaxsiy ism, Gautama – urug' nomi, Shakyamuni – «Shakya qabilasidan chiqqan donishmand», Budda – «nurlangan», Tadxagata – «shunday qilib, shunday ketgan», Djina – «g'olib», Bxagavan – «tantana qiluvchi». Ular ichida eng mashhuri «Budda» bo'lib, shundan ushbu dinga buddizm nomi berilgan.

Bizgacha Buddaning bir necha biografiyalari yetib kelgan: «Maxavostu» – milodning II asrida yozilgan, «Lalitavistara» – milodning II-III asrlarida yuzaga kelgan, «Buddxacharita» – buddist faylasuflardan biri Ashvagxosha tomonidan milodning I-II asrlarida yaratilgan, «Nidanakatxa» – milodning I asrida yozilgan va «Abnixishkramansutra».

Mazkur biografiyalarda Buddaning qaysi yillarda yashaganligi turlicha berilgan. Ularda mil. av. IX-III asrlar oralig'idagi har xil muddatlar ko'rsatiladi. Rasmiy hisobga ko'ra, Butama-Budda mil. av. 623 yilda tug'ilib, 544 yilda vafot etgan. Biroq ko'pchilik tadqiqotchilar uning tug'ilishi mil. av. 564 yilda, o'limi esa 483 yilda deb hisoblaydilar. Ba'zan 560 va 480 deb yaxlit sonlar bilan ko'rsatadilar. Aytish joizki, yuqorida zikr qilingan biografiyalarda Buddaning haqiqiy hayoti bilan uning haqidagi afsonalar o'zaro qorishib ketgan.

Siddxartxa Shakya qabilasining podshohlaridan biri SHuddxodananing o'g'li edi. Uning saroyi Ximolay tog'lari etagida Kapilavasti degan shaharda bo'lgan

(hozirgi Nepal hududida). Onasi – malika Mayya. Podshoh o'g'lini orzu-havaslar og'ushida tarbiyalab, uni hech bir kamchiliksiz katta qiladi. Siddxartxa ulg'ayib qo'shni hukmdorlardan birining qizi Yashadxaraga uylanadi va o'g'il ko'rib, unga Raxula deb ism qo'yadi.

Hech bir qiyinchilik va kamchilik ko'rmay o'sgan bola Siddxartxa bir kuni ittifoqo bir kekxa chol, bir bemor hamda og'ir mashaqqat tortayotgan rohibni uchratadi, bir kishining esa vafotiga guvoh bo'ladi. Bundan qattiq ta'sirlagan shahzoda insoniyatni qiyinchilik va azobdan qutqarish yo'llarini izlash uchun saroyni tashlab ketadi. Bu vaqtda u 30 yoshda edi. U beshta rohib bilan qishloqma-qishloq kezib yuradi. SHu asnoda Siddxartxa bir narsaga amin bo'ldi: bu yo'l uni o'z oldiga qo'ygan maqsad, ya'ni insoniyatni azob-uqubatdan qutqarish sari olib bormaydi va u rohiblar jamoasidan ajraladi.

Birmuncha vaqt changalzor o'rmonlarda kezib, xorib charchagach, bir daraxtning tagida dam olish uchun o'tiradi, va o'zicha, to haqiqatni topmaguncha shu yerdan turmaslikka qaror qiladi.

Bu o'tirishning 49 kuni uning qalbidan «Sen haqiqatni topding» degan sado keladi. SHu paytda uning ko'z oldida butun borliq namoyon bo'ladi. U hamma joyda shoshilish, qayoqqadir intilishni ko'radi: hech bir joyda osudalik yo'q edi. Hayot nihoyasiz uzoqlikni ko'zlab o'tib ketayotgan edi. Inson aqli yetmas bir kuch. *Trishna* – yashash, mavjud bo'lish umidi barchaning tinchini buzar, halok qilar va yana qayta yaratar edi. Mana endi Buddha kimga qarshi kurashish kerakligini angladi. SHu ondan u Buddha – *nurlangan* deb ataldi. U tagida o'tirgan daraxt esa – nurlangan daraxt (*botxa*) deb atala boshladi.

Budda o'zining birinchi da'vatini Varanasi yaqinidagi Rishipatana bog'ida, o'zining besh rohib do'stlariga qildi va ular Buddaning birinchi shogirdlari bo'ldilar.

Shu kundan boshlab Buddha o'z shogirdlari bilan qishloqma-qishloq yurib, o'ziga yangi izdoshlar orttiradi. Buddha 40 yil mobaynida Hindistonning turli joylarida bo'ladi, odamlarga o'z g'oyalarini yetkazadi, singdiradi va 80 yoshida Kushtnagara degan joyda dunyodan o'tadi. Uning jasad, hind udumiga ko'ra, kuydirilib, xoki 8 ta buddist jamoalariga bo'lib yuborildi va har bir jamoa uni dafn etgan joyida ibodatxona (*stupa*) barpo etdi.

Buddaning hayoti haqida turli asotirlar paydo bo'ldi. Ularda aytilishicha, Buddha ko'p yillar davomida yer yuzidagi turli mavjudotlar qiyofasida qayta tug'ilgan: 84 marta ruhoni, 58 marta shoh, 24 marta rohib, 13 marta savdogar, 18 marta maymun, 12 marta tovuq, 8 marta g'oz, 6 marta fil, shuningdek, baliq, qurbaqa, kalamush, quyon qiyofalarida qayta tug'ilgan. Jami 550 marta qayta tug'ilgan. U doimo qaerda, qay qiyofada tug'ilishini o'ziga o'zi belgilagan.

So'nggi marta uni xudolar insoniyatni to'g'ri yo'lga boshlashi uchun inson qiyofasida yaratganlar. Bu afsonalarning ba'zilariga ko'ra, yer yuzida Gautamaga qadar 6 ta budda o'tgan. SHuning uchun buddizmning ba'zi muqaddas joylarida 7

ta ibodatxona barpo etilgan. 7 ta Bodxa daraxti o'tkazilgan. Ba'zi afsonalar 24 ta Budda avlodi o'tgan desa, ba'zilari minglab buddalar o'tgan deb da'vo qiladi.

Lamaizm buddizmning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u tibet tilida «*lama*» – «eng ulug'» degan ma'noni anglatadi. Mazkur diniy yo'nalish rahbari shu nom bilan – *lama* deb ataladi.

Lamaizm Tibetda VII-XIV asrlarda tibetliklarning qadimiy dini Bon-Po (shamanizmning bir turi) unsurlarini qabul qilgan Maxayana va Tantrizm asosida vujudga kelgan bo'lib, hozirda tibetliklarning asosiy dini hisoblanadi. U bir necha firqa va mazhablarga bo'linadi. Lamaizm XVI asr oxiridan mo'g'ullar, XVI asr boshlaridan Rossiya hududida yashovchi buriyatlar, tuvaliklar va qalmiqlar orasida ham tarqaldi.

Konfutsiyning falsafiy qarashlari. Konfutsiy komil inson (*tszyunb-tszi*) haqidagi g'oyani yaratdi. Tszyunb-tszi, ya'ni yuksak ma'naviyatli inson ikki asosiy xususiyatga ega bo'lishi kerak: insoniylik va mas'uliyat (ajdodlar oldidagi qarz)ni his qilish. Komil inson, eng avvalo, ishonchli va fidoiy bo'lishi lozim. U buning uchun tinimsiz, o'zini ayamadan o'z ishonchi, hukmdori, o'z otasi va o'zidan katta barchaga birday xizmat qilishi va doimo kamolot sari intilishi zarur.

Sintoizm dini Qadimgi Yaponiyada vujudga kelgan (*sinto* – «xudolar yo'li»). Bu dinning vujudga kelishiga oid aniq ma'lumotlar yo'q. Biroq, u Yaponiyada Xitoy ta'siridan xoli bir sharoitda paydo bo'lgan va rivojlangan. Yaponlar sintoizmning mohiyati va kelib chiqishini bir-biri bilan aralastirmaslikka harakat qiladilar. Sintoizm ular uchun ham tarix, ham an'ana, ham butun hayot demakdir.

Sintoizm ta'limotiga ko'ra, *mikado* (imperator) – osmon ruhlarining davomchisidir. Har bir yapon kishisi ikkinchi darajali ruhlar(*kama*)ning vorisidir. Yaponlar *kamani* ajdodlar va qahramonlarning ruhlari deb e'tiqod qiladilar. Xudojo'y yapon o'lgandan keyin o'zining ham o'sha *kamalardan* biri bo'lishiga ishonadi.

Yahudiylik dunyoda keng tarqalgan dinlardan biridir. Shu kunda Isroilda 4,7 mln. (aholining 80 %), AQSHda 6 mln. (40 % Nyu Yorkda), Rossiyada 1,5 mln., G'arbiy Yevropa davlatlaridan Frantsiyada 0,6 mln., Buyuk Britaniyada 0,4 mln. va boshqa mamlakatlarda yashaydilar.

Paydo bo'lishi. Yahudiylik miloddan avvalgi 2000 yillarning oxirlarida Falastinda vujudga kelgan, yakkaxudolik g'oyasini targ'ib qilgan dindir. Yahudiylik millat dini bo'lib, faqatgina yahudiy xalqiga xos. *Yahudiy* so'zining kelib chiqishi haqida turli fikrlar mavjud. Abu Rayhon Beruniy o'zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» kitobida yozishicha, yahudiylar bu so'zni somiy tillaridagi *hoda* – «tavba qilmoq, tavba qilganlar» so'zidan kelib chiqqan deb da'vo qilsalar-da, aslida bu fikr noto'g'ri, «yahudiy» so'zi Banu Isroil xalqi ustidan hukmronlik qilgan Ya'qub Payg'ambarning o'g'li Yahudo nomiga nisbat berilgan.

Yahudiy xalqining yana bir nomi Banu Isroil bo'lib, *Isroil* – Ya'qub payg'ambarning ikkinchi ismi, *banu* – «bolalar» ma'nosini beradi, ya'ni – «Isroil avlodlari».

Yahudiy xalqiga nisbatan ishlatiladigan yana bir atama *yevrey* so'zi zamonaviy adabiyotlarda «yahudiy» so'zining aynan tarjimasini sifatida ishlatiladi. Ammo bu ikki so'zning etimologiyasi turlicha: *yevrey* qadimiy somiy tillardagi *ibriy* so'zining o'zgargan shaklidir. *Ibriy* so'zi (arab. 'abara-ya'buru – «kechib o'tmoq» fe'lidan) «kechib o'tganlar» ma'nosini beradi. Tarixdan ma'lumki, yahudiy qabilalari Urdun (Jordan) daryosini kechib, hozirgi Falastin hududiga kelganlar. Shuning uchun ularga *ibriylar* yoki *ibroniylar* («kechib o'tuvchilar») nomi berilgan.

Yahudiylik ta'limoti. Yahudiylik ta'limoti to'rt asosga tayanadi:

1. **Olamlarni yaratuvchi yagona xudo** – Yahvega imon keltirish. Yahve so'zi «rabb, parvardigor» ma'nosini bildiradi. Tavrotning «Chiqish» kitobida Xudoning Musoga aytgan ushbu so'zi keltiriladi: «Yahve – ota-bobolaringiz Ibrohim, Ishoq, Ya'qublarning parvardigori, u meni sizga yubordi» (Chiqish: 3). Mil. av. VI asr oxirlarida yahudiy ruhoniylari oddiy xalq hurmatini pasaytirib qo'ymasliklari uchun Yahve so'zini ishlatishni man etib, uning o'rniga murojaat uchun «Adonay» («Rabb, Xoja») so'zini qo'llashni buyurganlar. SHundan so'ng faqat ruhoniylargagina ibodat vaqtida Yahve nomini tilga olishlariga ijozat berilgan.

Yahudiylik ta'limotiga ko'ra, Yahve olamlarni yaratishni yakshanbada boshlab, juma kuni tugatdi, shanba kuni esa dam oldi va yahudiylarga ham shu kuni dam olishni buyurdi. SHu sabab yahudiylik dinida shanba kuni ulug' kun hisoblanib, hech bir ishga qo'l urilmaydi.

2. **Yahudiylar yer yuzidagi xalqlarning «eng mumtozi»** va u «dunyoda berilajak in'omlarning eng haqlisi» ekanligi. Ular o'zlarini Xudo tomonidan saylangan, muqaddas xalq ekanini, yahudiyning ruhi Xudoning bir qismi hisoblanishini da'vo qiladilar.

3. **Messiya – xaloskorning kelishi haqida.** Unga ko'ra, oxirzamonda Yahve yahudiylar orasidan bir xaloskorni chiqaradi va u quyidagi vazifalarni bajaradi: 1) dunyoni isloh qilgan holda qaytadan quradi; 2) butun yahudiylarni *Sinion* atrofida to'playdi; 3) ularning barcha dushmanlarini jazolaydi.

4. **Oxirat kuniga ishonish.** Yahudiylikda oxirat haqidagi tasavvurlar, asosan Talmudda bayon etilgan. Unga ko'ra, Yahvega chin e'tiqod qilganlar oxiratda mukofotlanadilar. Aksincha, uning qonunlarini buzganlar shafqatsiz jazo oladilar.

Yahudiylik ta'limoti bo'yicha Muso payg'ambar Tur tog'ida Yahve bilan uchrashganda Yagona Xudo tomonidan 10 ta lavha tushirilgan. Ushbu lavhalarda mazkur din asosini tashkil etgan 10 ta nasihat bor edi. Bu nasihatlar Tavrotning

«Ikkinchi qonun» kitobidan o'rin olgan bo'lib, yahudiylar ularga qat'iy rioya qilishlari shart. Ular quyidagilardir:

1. Yahvedan boshqani iloh deb bilmaslik;
2. But, sanam va rasmlarga sig'inmaslik;
3. Bekordan-bekorga Xudo nomi bilan qasam ichmaslik;
4. Shanba kunini hurmat qilish va uni Xudo uchun bag'ishlash;
5. Ota-onani hurmat qilish;
6. Nohaq odam o'ldirmaslik;
7. Zino qilmaslik;
8. O'g'rilik qilmaslik;
9. Yolg'on guvohlik bermaslik;
10. Yaqinlarning narsalariga ko'z olaytirmaslik

Tavrot manbalari. Yahudiy dini boshqa dinlar kabi o'zining muqaddas yozuvlariga ega. Uning asosan ikkita manbasi bo'lib, biri – mil. av. XIII asrda yashagan va Isroil xalqini Misrdan olib chiqib ketilishiga boshchilik qilgan Muso payg'ambarga Tur tog'ida berilgan Tora (Tavrot; Torah of Moses; Totah shebikhtav), ikkinchisi Tavrotdan keyinroq paydo bo'lgan yozma manba Talmuddir. Yahudiylikdagi bu ikki muqaddas sanaladigan manba xristian Bibliyasining tarkibiy qismlarini (aynan emas) tashkil etadi. Xristianlar va yahudiylar *Bibliya* so'zini turli tushunadilar. Yahudiylar uchun *Ibriy Bibliyasi* (Hebrew Bible) xristianlarning *Qadimiy Ahd* (Old Testament). Yahudiylar *Bibliya* so'zi ostida ko'pincha o'zlarining *Tanaxlarini* (Tanakh) tushunadilar. Musoga tegishli bo'lgan besh kitob «Tavrot» deb ataladi va quyidagi kitoblarga bo'linadi: 1) «Borliq» yoki «Ibtido»; 2) «Chiqish»; 3) «Levit»; 4) «Sonlar»; 5) «Ikkinchi qonun».

*Qadimiy Ahd*ning ichidagi diniy ta'limot va aqidaga bag'ishlangan eng asosiy va obro'li qismi Tavrotidir. U xristianlik an'anasiga ko'ra «Besh kitob», yahudiylar an'anasiga ko'ra «Tora» (ta'limot) hisoblanadi.

*Qadimiy Ahd*dagi «ahd» so'zi xudoning insonlar bilan maxsus aloqasini bildiradi. *Qadimiy Ahd* matni ibriy (eski yahudiy) va oromiy tillarida yozilgan. U qadimgi payg'ambarlarning kitoblari (Ketuvim), Sulaymon payg'ambarning matallari (Nevi'im) va (Torah) nomli kitoblardan iborat. Unda «Xudo yarlaqagan» Isroil xalqining tarixi haqida hikoyalar beriladi.

«Ibtido» mil. av. 1400 yillarda Xudoning buyrug'iga ko'ra, Muso payg'ambar tomonidan yozib olingan. Unda Xudo olamni qay yo'sinda yaratgani, odamzotning gunohga botgani, buning natijasida olamga azob va o'lim kelishi haqida xabar beriladi. SHuningdek, unda dunyodagi xalqlarning vujudga kelishi va jahonga tarqalishi tarixi bayon qilingan. Odam Ato va Momo Havvo, Hobil va Qobil, Nuh, Lut, Ibrohim, Ishoq, Ismoil, Ya'qub, Yusuf, Fir'avn va boshqa shaxslar, To'fon, Bobil minorasi va tillar chatishuvi, Sadom va Hamoraning xarob bo'lishi singari eng qadimiy hodisalar ham *Ibtidodan* o'rin olgan.

«Chiqish» kitobida Muso payg'ambarning tug'ilishi, hayoti, Misr Fir'avni tomonidan qattiq zulmga tortilgan yahudiylarni Yahve amri bilan xalos qilgani, unga Tur tog'ida Yahve tomonidan o'nta "vasiyat" (zapovedy)ning berilishi haqidagi rivoyatlar keladi. Bundan tashqari yahudiylarning ibodatlari, rasmlariga taalluqli ko'rsatmalar berilgan.

«Levit» kitobi turli tuman urf-odat va diniy marosimlarga oid ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan. Unda, asosan, qurbonlik haqida so'z yuritilib, Xudo yo'lga qanday hayvonni qurbonlik qilish yoxud, qay tarzda amalga oshirish lozimligi bayon qilingan. Shuningdek, yahudiy xalqiga hayvon va parrandalardan qaysilarining go'shtini yeyish mumkin va qaysilarini yeyish ta'qiqlangani hamda boshqa turli hayotiy masalalar yuzasidan ko'rsatmalar berilgan.

Xristianlik. Paydo bo'lishi. Xristianlik dini buddizm va islom dinlari qatorida jahonda eng keng tarqalgan dinlardan biri hisoblanadi. Ularning miqdori boshqa dinlarga qaraganda eng ko'p bo'lib, bu ko'rsatkich dunyo aholisining deyarli uchdan birini (taqriban 28 %) tashkil etadi.

Xristianlik, asosan, Yevropa, Amerika, Avstraliya qit'alarida hamda qisman Afrika va Osiyo qit'alarida tarqalgan.

Xristianlik milodning boshida Rim imperiyasining sharqiy qismida joylashgan Falastin yerlarida vujudga keldi. Iso Masih (Iisus Xristos), Bibliyaning xabar berishiga ko'ra, xristianlik ta'limotining asoschisi bo'lib, u Rim imperiyasi tashkil topganining 747 yili Falastinning Nazaret qishlog'ida bokira qiz Maryamdan Xudoning amri bilan dunyoga keldi. Yangi eraning boshlanishi ham Iso Masihning dunyoga kelishi bilan bog'liq.

Milodning boshlarida yahudiylar hokimiyatning uch tabaqasi bilan bog'liq og'ir tushkunlikni boshdan kechirar edilar. Bir tomondan Rim imperatori va uning joylardagi noiblari, ikkinchi tomondan Falastin podshohi Irod Antipa, uchinchi tomondan esa ruhoniylar xalqni turli soliqlar va majburiyatlar bilan ko'mib tashlagan edilar. Xuddi shu davrda yahudiylar o'rtasida kutilayotgan xaloskorning kelishi yaqinlashib qolganligi haqida xabar tarqatuvchilar paydo bo'ldi. Ular xalqni kutilayotgan xaloskor kelishiga tayyorlash uchun chiqqan edilar. SHunda Iso Masih yahudiylarni isloh qilish va uni turli xurofotlardan tozalash g'oyasi bilan chiqib, xristian diniga asos soldi. Yahudiylar uni va uning izdoshlarini Falastindan quvg'in qildilar. Isoning 33 yoshida fitnachilikda ayblab, qatl etishga hukm qildilar.

Isoning tarixiy xususida diniy va diniy bo'lmagan manbalar orasida ixtilof mavjud: xristian manbalarida Isoning o'zi xudo bo'la turib, insoniyatning gunohlarini o'ziga olish uchun odam qiyofasida tug'ilgani, uning hayot tarzi, insonlar bilan muloqoti haqidagi ma'lumotlar qayd etilsa-da, diniy bo'lmagan manbalarda Iso nomi uchramaganligini nazarda tutib, u tarixiy emas, balki afsonaviy shaxs deb hisoblovchilar ham bor.

Iso nomiga qo'shiluvchi "Masih" so'zi qadimiy yahudiy tili – *ivrit*dagi *meshiax* so'zidan olingan bo'lib, «silangan» yoki «siylangan» ma'nolarini beradi. Yunon tilida bu so'z «xristos» shakliga ega. Bu dinning «xristianlik» yoki «masihiylik» deb atalishi ham shu so'zlar bilan bog'liq. Bundan tashqari xristianlikni Iso Masihning tug'ilgan qishlog'i – «Nazaret» bilan bog'lab, *nazroniya* deb ham ataganlar. Keyinchalik bu nom *nasroniya* shaklini olgan.

Iso Masih o'z ta'limotini o'zining 12 o'quvchisi apostollar – havoriylarga o'rgatdi. Ular esa Isoning vafotidan keyin ustozlarining ta'limotlarini har birlari alohida-alohida tarzda kitob shakliga keltirdilar. Bu kitoblar Bibliyaning «Yangi Ahd» qismini tashkil etadi.

Pravoslav (Ortodoks) oqimi. Pravoslav oqimi xristianlikning uch asosiy yo'nalishidan biri o'laroq, tarixan uning sharqiy shohobchasi sifatida shakllandi. Bu oqim, asosan, Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq va Bolqon mamlakatlarida tarqalgan. Pravoslav atamasi yunoncha ortodoksiya so'zidan olingan bo'lib, ilk davr xristian yozuvchilari asarlarida uchraydi. Pravoslaviyaning kitobiy asoslari Vizantiyada shakllandi, chunki bu yo'nalish u yerdagi hukmron din edi.

Muqaddas kitob bo'lmish Injil va muqaddas o'gitlar IV-VIII asrlardagi yetti butxona soborlarining qarorlari, shuningdek, Afanasiy Aleksandriyskiy, Vasiliy Velikiy, Grigoriy Bogoslov, Ioann Damaskin, Ioann Zlatoust kabi yirik cherkov xodimlarining asarlari ushbu oqim ta'limotining asosi deb tan olingan.

Xristianlikning Sharqiy tarmog'i bo'lmish pravoslaviyaning rivojlanishi jarayonida 15 mustaqil (avtokefal) cherkov: Konstantinopol, Aleksandriya, Antioxiya, Quddus, Gruzin, Serb, Rumin, Bolgar, Kipr, Ellada, Alban, Polyak, Chexiya, Slovakiya, Rus va Amerika cherkovlari vujudga keldi. Bu cherkovlardan eng kattasi Rus pravoslav cherkovi (RPCH, boshqa rasmiy nomi Moskva patriarxati) bo'lib, unga 19 ming cherkov va 127 yeparxiya birlashgan. Bulardan 150 dan ortiq cherkov va 5 yeparxiya chet elda faoliyat olib boradi. Pravoslav oqimida sirli rasm-rusumlar muhim o'rin egallaydi. Cherkov ta'limotiga ko'ra, bunday paytlarda Xudo tomonidan dindorlarga alohida savoblar nozil bo'ladi.

Katolik oqimi Xristianlikning yirik yo'nalishlaridan biri katolik oqimidir. U Yevropa, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida tarqalgan bo'lib, muxlislari taxminan 800 mln. kishini tashkil etadi.

Katolitsizm "umumiy, dunyoviy" degan ma'nolarni ifodalaydi. Uning manbai – uncha katta bo'lmagan Rim Xristian jamoasi bo'lib, rivoyatlarga ko'ra uning birinchi Yepiskopi apostol Petr bo'lgan. Katolik diniy ta'limotning asosini Muqaddas kitob va Muqaddas yozuvlar tashkil qiladi. Biroq pravoslav cherkovidan farqli o'laroq katolik cherkovi Muqaddas yozuvlar deb nafaqat avvalgi yetti Butun Olam Xristian Soborlarining qarorlarini, balki hozirgacha bo'lib o'tgan barcha Soborlar qarorlarini, bundan tashqari Papaning maktublari va qarorlarini ham hisoblaydi.

Katolitsizm da Bibliyani sharhlash huquqi faqatgina ruhoniylarga beriladi, chunki ular uylanmaslik – *tselibat* haqidagi diniy talabga amal qiladilar. Diniy ibodatlar dabdabali va soxtalashtirilgan ko'rinishga ega, diniy o'qish, duo, iltijolar lotin tilida olib boriladi. Pravoslaviyadagi kabi katolitsizm da ham farishta, ikona, ilohiy kuch, chirimaydigan marhum jasadlariga sig'inish odatlari mavjuddir.

Katolitsizm xristianlikning yo'nalishlaridan biri sifatida uning asosiy aqida va qoidalarini tan oladi, biroq diniy ta'limot, sig'inish va tashkiliy masalalarda bir qator xususiyatlar bilan ajralib turadi.

Katolik cherkovi tashkiloti qat'iy markazlashuv bilan ajralib turadi. Rim papasi bu cherkovning boshlig'i bo'lib, u diniy axloq masalalariga oid qonun-qoidalarni belgilaydi. Uning hokimiyati dunyoviy soborlar hokimiyatidan yuqori turadi.

Katolik cherkovining markazlashuvi, jumladan, diniy ta'limotni noan'anaviy tahlil qilish (sharhlash) huquqida aks etgan dogmatik taraqqiyot tamoyilini keltirib chiqaradi. Masalan, pravoslav cherkovi tomonidan tan olingan diniy ramzda ta'kidlanishicha, Muqaddas Ruh Ota Xudodan kelib chiqadi. Katolik aqidasiga ko'ra esa, Muqaddas Ruh Ota Xudodan va O'g'il Xudodan kelib chiqadi. Cherkovning najot borasidagi roli haqida ham o'ziga xos alohida ta'limot shakllangan. Najotning asosi iymon va xayrli ishlar hisoblanadi. Cherkov, katolik ta'limotiga ko'ra, xayrli zaruriy ishlar xazinasiga – Iso tomonidan yaratilgan «Xayrli ishlar zahirasiga» ega.

Cherkov Iso, Bibi Maryam, Muqaddas Ruh nomidan bu xazinani tasarruf qilish, undan muhtojlarga ulashish, ya'ni gunohlarni avf etish, nadomat chekuvchilarga kechirim tufha qilish huquqiga ega. Pul yoki tufha evaziga avf qilish huquqiga ega. Pul evaziga yoki cherkov oldidagi xizmatlari uchun gunohlarini kechirish – *indulgentiya* haqidagi ta'limot mana shundan kelib chiqqan.

A'rof haqidagi (do'zax va jannat oraliq'idagi mavze) aqida faqat katolik ta'limotida mavjud. Gunohi katta bo'lmagan gunohkorlarning ruhi u yerda o'tda kuyadi (ehtimol, bu vijdon va nadomat azobining ramziy in'ikosidir), keyin jannatga yo'l topadi. Ruhning a'rofda bo'lish muddati xayrli ishlar tufayli qisqartirilishi (ibodat va cherkov foydasiga xayr-ehson qilish bilan) mumkin. Bu ibodat va xayr-ehsonlar o'lganlar xotirasiga yaqinlar tomonidan qilinadi.

A'rof haqidagi ta'limot I asrdayoq paydo bo'lgan edi. Pravoslav va protestant cherkovlari a'rof haqidagi ta'limotni rad etadi.

Bundan tashqari pravoslav dini ta'limotidan farqli o'laroq, katolik yo'nalishida papaning begunohligi haqidagi aqida ham bor. Bu aqida 1870 yildagi birinchi Vatikan soborida qabul qilingan. G'arb cherkovining Bogoroditsaga nisbatan alohida e'tibori 1950 yilda papa Piy XII tomonidan kiritilgan Bibi Maryamning me'roji haqidagi aqidada o'z aksini topdi. Katolik ta'limoti pravoslav ta'limoti kabi yetti asrorni tan oladi, biroq bu asrnlarning talqin qilinishida

qarashlar mos kelmaydi. Masalan, *pricheshenie* (tamaddi) qilish qattiq non bilan (pravoslaviyada bo'ktirilgan non bilan) dunyoviy(*miryane*)larga non va vino bilan, shuningdek, faqat non bilan amalga oshiriladi. Cho'qintirish sirini o'tash paytida suv sepiladi (cho'qintiriluvchiga), muz ostidagi suvga cho'ktirilmaydi.

Protestantizm. Protestantizm tarixi Martin Lyuterdan (1483-1546) boshlanadi. U XVI asrda Yevropada katoliklarga qarshi qaratilgan reformatsiya harakati bilan bog'liq juda ko'p mustaqil cherkovlar va sektalarni o'z ichiga oladi.

Protestantizm atamasi «protest» (norozilik) so'zidan kelib chiqqan. Bunday nomni olishiga sabab 1526 yilda SHpeyer reyxstagi nemis lyuterchi knyazlari talabi bilan har bir nemis knyazi o'zi va fuqarosi uchun xohlagan dinni tanlash huquqiga ega ekanligi to'g'risida qaror qabul qildi. Ammo 1529 yilda ikkinchi Shpeyer reyxstagi bu qarorni bekor qildi. Bunga qarshi imperiyaning barcha shaharlari va besh knyazlik norozilik (protest) e'lon qildi.

Protestantizmning ilk shakllari: lyuterchilik, tsvinglichilik, kalvinizm, unitarizm va sotsinchilik, anabaptizm, mennochilik va anglikanchilik edi. Keyinroq, «so'nggi protestantizm» shakllari: baptistlar, metodistlar, kvakerlar, adventistlar, Iegova shohidlari, mormonlar yoki «*Oxirat avliyolari*», «*Najot armiyasi*», «*Xristian fani*», pyatidesyatniklar va boshqa diniy oqimlar paydo bo'ldi. Bu oqimlarning ko'pchiligi «diniy uyg'onish», ilk xristianlik va Reformatsiya ideallariga qaytish shiori ostida tashkil topdi. Hozirgi vaqtda protestantizm dunyoning barcha qit'alarida keng tarqalgan. Protestantizmning jahon markazi AQSHda, bu yerda baptist, adventist, Iegova shohidlari va boshqalarning qarorgohlari joylashgan. Hozirgi protestantizm integratsiya (birlashish)ga intilmoqda, bu 1948 yilda Jahon cherkovlari kengashining tuzilishida o'z ifodasini topdi.

Protestantizm ilohiyoti xristian mafkurasining bir ko'rinishi sifatida o'z taraqqiyotida muayyan bosqichlardan o'tdi. XVI acp ortodoks ilohiyoti (M. Lyuter, J. Kalvin), XVIII-XIX acplardagi yangi protestantizm yoki liberalizm ilohiyoti (F. Shleyermaxer, E. Tryolch, A. Garnak), birinchi jahon urushidan keyin paydo bo'lgan dialektik ilohiyot (K. Bart, P. Tillix, R. Bultman), Ikkinchi jahon urushidan so'ng tarqalgan radikal yoki «yangi» ilohiyot (D. Bonxeffer va boshqalar) shular jumlasidandir.

Protestantizm xudoning borligi, uning uch qiyofada namoyon bo'lishi, jonning o'lmasligi, jannat va do'zax (katolitsizmdagi a'rofdan tashqari) haqidagi, vahiy va boshqalar to'g'picidagi umumxristian tasavvurlarini e'tirof etadi. Biroq Lyuter katolik cherkovi bilan aloqani uzib, protestant cherkovining asosiy qoidalarini ishlab chiqdi va uni himoya qildi. Bu nizomga ko'ra inson Xudo bilan bevosita muloqot qilishi mumkin. Papaning diniy va dunyoviy hokimiyat, katolik dindorlarining imonni va vijdonni inson bilan Xudo o'rtasidagi vositachi sifatida nazorat qilish haqidagi mulohazalariga Lyuterning qarshi chiqishi jamoatchilik tomonidan favqulodda diqqat bilan tinglandi.

Protestantizmning mohiyatiga ko'ra ilohiy lutfu marhamat insonlarga cherkovning ishtirokisiz in'om etiladi. Inson najot topishi uning shaxsiy e'tiqodi va Isoning vositasi orqali ro'y beradi. Avom ruhoniylardan farqlanmaydi, ruhoniylilik hamma dindorlarga bir xilda joriy etiladi.

Protestantlik diniy marosimlarning ko'pchiligini bekor qildi, faqatgina lyuteranlikda non va vino bilan cho'qintirish saqlanib qoldi.

O'lganlarga bag'ishlangan duo o'qish, aziz-avliyolarga sig'inish, muqaddas murdalarga, sanamlarga topinish bekor qilindi. Ibodat uylari ortiqcha hashamlardan, mehroblardan, sanamlar, haykallardan tozalandi, ruhoniylarning uylanmaslik shartlari bekor qilindi. Ibodatlar faqatgina lotin tilida olib borilishi, Bibliyaning faqatgina ruhoniylar tomonidan sharhlanishi zarurligi shartlari inkor etildi. Bibliya milliy tillarga tarjima qilindi, uni sharhlash har bir xudojo'ying eng muhim burchi bo'lib qoldi. *Asror* (tainstva)lardan faqat cho'qinish va mansublik (cherkovga) e'tirof etiladi. Ibodat va'z-nasihatlar, birgalikdagi ibodat va suralarni kuylashdan iborat bo'ldi.

Lyuter tomonidan tuzilgan Reformatsiya bosh taomillari 95 tezis shaklida yozib berilgan. Ular Vittenberg nasroniy cherkovining shimoliy eshiklariga yozib qo'yilgan. Tezislarning bir nusxasida Iso payg'ambar: «Tavba qiling, chunki samoviy shohlik yaqinlashib qoldi», deb jar solganida shuni ta'kidlaydiki, imon keltirganlar hayoti boshdan-oyoq to'xtovsiz tavba-tazarrudan iborat bo'lmog'i darkor.

Tavba-tazarru ruhoniy (avliyo) oldidagi birgina tazarrudan iborat emas. Birinchi to'rt tezisda Lyuter ta'kidlaydiki, haqiqiy tavba uzoq muddatli jarayondir, birgina xatti-harakat bilan ro'yobga chiqmaydi. Bu bilan u katolitsizmdagi «a'rof» va u bilan bog'liq indulgentsiya masalasini rad etadi. Aytadiki, Papa faqat o'zi belgilagan jazoni olib tashlashi mumkin. Cherkov hech qaysi samoviy jazodan insonni ozod qila olmaydi. Tavba-tazarru qonunlari tiriklar uchun joriy qilinadi (belgilanadi). «Ruhlar uchun indultgentsiya olgan shaxslarga tavba-tazarru qilish talab qilinmaydi», degan ta'limot Iso ta'limoti emas. Chindan tavba qilgan kishilarning gunohlarini Xudo kechadi va abadiy azobdan ozod qiladi. Gunohkor papa yorlig'isiz ham bunday mag'firatdan umid qilishi mumkin. Bu yerda va keyingi bir qancha tezislarda papaning a'rof ustidan hukmronligi rad etiladi.

Lyuter bir necha tezislarda ta'kidlaydiki, chindan tavba qilgan, nadomat chekkan xristian «samoviy jazoga shoshilmaydi, ya'ni unga samoviy jazo joriy etilmaydi».

Lyuterning ta'kidlashicha, cherkovning haqiqiy xazinasini muqaddas Injil va Xudoning marhamatidir. «Xayrli amallar xazinasini»ning mavjudligi kambag'allar uchun emas, boylar uchun foydalidir, bu xazinalarga papa marhamati bilan emas, o'z amallari bilan erishuvi mumkin. Bu xil vositalar bilan Xudoning mehrini qozonmoqni Lyuter sarob deb ataydi.

Haqiqiy xristian Isoga ergashish istagi bilan yonmog'i zarur. Najot yo'li ruxsatnoma yorlig'ida emas, balki chin yurakdan nadomat chekmoq va tavba qilmoqdadir.

1517 yili 31 oktyabrda jamoatchilik hukmiga havola qilingan tezislar shundan iborat. Keyinchalik bu kun protestantlar bayrami bo'lib qoldi.

Kalvinizm. Diniy islohotning boshqa bir yirik arbobi Jan Kalvin (1509-1564) edi. Uning 1536 yilda nashr etilgan «Xristian dinidagi ko'rsatmalar» degan bosh asari, protestantizm ta'limot sifatida shakllanganidan keyin yangi bir diniy yo'nalish – kalvinizmning asosi bo'lib qoldi.

Daslabki islohot arboblardan farqli o'laroq Kalvin uchun diqqat markazi Injil emas, Tavrot bo'lib qoladi. Kalvin absolyut taqdir haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi. Bu ta'limotga ko'ra, barcha odamlar xudoning biz uchun noma'lum bo'lgan irodasiga asosan mag'firat qilinganlar va mahkum etilganlar toifasiga bo'linadi. Inson na imon, na «xayrli ishlar» bilan taqdirga yozilganini o'zgartira olmaydi: mag'firat qilinganlar najotga mahkum, mag'firatdan mahrum bo'lganlar esa abadiy azobga mahkum. Taqdir haqidagi ta'lim shunday asosga qurilganki, Iso ham bizning gunohlarimiz uchun azobu uqubatlarga giriftor qilingan edi.

Protestant cherkovining kalvinistik yo'nalishdagi davomchilari (kalvinistlar yoki reformatorlar) Shotlandiya, Gollandiya, Shimoliy Germaniya, Frantsiya, Angliyada katta obro' va ta'sirga ega edilar.

Baptizm. Protestant ta'limotining eng ko'p sonli davomchilari baptistlardir. Baptizm (yunoncha «suvga cho'ktirish») XVII asr boshlarida vujudga kelgan bo'lib, hozirgi kunda dunyoning 130 mamlakatida o'z tarafdorlariga ega. Bu ta'limot tarafdorlari faqat o'spirinlarnigina cho'qintirishga olib boradilar. «Hech kim, jumladan, ota-onalar ham kishi uchun biror dinni tanlay olmaydi. Kishi dinni ongli ravishda o'zi ixtiyor qilmog'i zarur» degan qoida baptistlar va zabur xristianlarining asosiy qoidasidir. Ularda ibodat o'ta soddalashtirilgan bo'lib, diniy qo'shiq, ibodat va mav'izadan iborat. Zabur xristianlari to'rtta rusumni saqlab qolishgan: cho'qintirish, (o'spirinlar uchun) tanovul, nikoh, qo'l bilan silab qo'yish. Bu xristianlar uchun but ehtirom ramzi emas.

Adventistlar harakati. Adventistlar harakati (lot. – “kelish”) Amerikada XIX asrning 30-yillari og'ir iqtisodiy buhron (krizis), umumiy ishsizlik davrida vujudga keldi. Asoschisi Vilbyam Miller (1782-1849). Adventistlar bir necha mustaqil cherkovlarga bo'lingan bo'lib, ularning eng kattasi «Ettinchi kun adventistlari» sanaladi. Ularning asosiy g'oyasi Isoning ikkinchi bor yerga tushishi va insoniyatni shayton va uning tarafdorlaridan mutlaq xalos etishidir. Ular odamlarni Isoni kutib olish uchun xush axloq bo'lishga chaqiradilar. Dindorlardan mablag'larining o'ndan birini cherkov hisobiga o'tkazishlarini va targ'ibot ishlarini uzluksiz olib borishlarini talab qiladi. Iso payg'ambarning ikkinchi marta yerga qaytishi haqidagi bashorat " najot yo'li" deb hisoblanadi.

Islom dini tarafdorlari jahon aholisining 20 % ga yaqin qismini tashkil etadi. Eng katta musulmon jamoalari Indoneziyada (165 mln.), Pokiston (125 mln.), Bangladesh (120 mln.), Hindiston (93 mln.), Eronda (63 mln.), Turkiya (61 mln.), arab mamlakatlaridan eng yirigi Misrda (48 mln.), Nigeriyada (43 mln.) mavjuddir. Darvoqe, arablar barcha musulmonlarning 20 % ni tashkil etadilar.

Islom ta'limoti. *Islom* so'zi arabcha – *Allohga o'zni topshirish, itoat etish, taslim bo'lish, bo'ysunish* ma'nolarini beradi. Islom dini ta'limoti bo'yicha, Muhammad payg'ambar avvalgi payg'ambarlar (O'rta Yer havzasi tsivilizatsiyasi ichida ma'lum bo'lgan) ishini davom ettirgan, ular dinini qayta tiklagan, *qiyomat* oldidan yuborilgan oxirgi payg'ambar (Xotam al-anbiyo') – nabiy va rasul deb tan olinadi.

Islom dini ichidagi uch asosiy oqimlardan biri bo'lgan sunniylikda IX asrga kelib *besh arkon* (rukn – arabcha «ustun» ma'nosini anglatadi) haqidagi ta'limot shakllanadi. Ko'pchilik ulamolar fikricha, ular quyidagilar:

- 1) imon;
- 2) namoz (arabcha – salot);
- 3) zakot;
- 4) ro'za (arabcha – savm);
- 5) hajj;

Qur'oni karim – Alloh tarafidan 23 yilga yaqin muddat mobaynida Muhammad payg'ambarga oyatma-oyat, sura-sura tarzida nozil qilingan ilohiy (sakral) kitobdir. Bu kitob islom dinining muqaddas manbasi hisoblanadi. Islom ilohiyot maktablaridan biri *ahl as-sunna va-l-jamoa* ta'limotiga ko'ra, Qur'on Alloh taoloning so'zi va uning azaliy ilmidir.

Muqaddas Yozuv ko'p nomlaridan biri bo'lgan «Qur'on» so'zi – arabcha «qara'a» (o'qimoq) fe'lidani olingan. Boshqa fikrga binoan, u suryoniy tilidagi «kerain» – «muqaddas yozuv» ma'nosini bildiruvchi so'zdan olingan. Qur'on suralardan iborat. Sura Qur'ondan bir bo'lak bo'lib, eng kami uchta yoki undan ortiq oyatlarni o'z ichiga oladi. Qur'onda jami 114 ta sura mavjud. Oyatlar soni esa, Qur'on mantlarini taqsimlashning turli yo'llariga ko'ra, 6204 ta, 6232 ta, hatto 6666 tagacha belgilangan. Bu har xillik Qur'on nusxalarining bir-biridan farqli ekanligini emas, balki undagi oyatlarning turli qiro'at maktablarining (ularning soni 14 dan ortiq) an'analari bo'yicha turlicha taqsimlanganligini bildiradi.

Ibodiya. Ibodiya boshqa xavorij guruhlarida orasida eng mo'tadili hisoblanib, bizning davrimizgacha saqlanib qolgan yagona xavorij firqasidir. Bu mazhabning asoschisi umaviy xalifa Abdulmalik ibn Marvon (685-705) davrida vafot etgan Abdulloh ibn Ibod (yoki Abod)dir. Mazkur mazhabning ta'limoti mo'tadil bo'lib, u qolgan musulmonlar bilan qiz olib-qiz berishdan, ular bilan meros ulashishdan qaytarmaydi. SHuningdek, ularning ta'limoti hujjat va isbot keltirib e'lon qilgandan so'nggina boshqa musulmonlarga qarshi urush ochishga ijozat beradi. Buning aksi o'laroq boshqa xavorijlar esa o'zlaridan boshqa oqimdagi

musulmonlardan uylanishni, ular so'yg'an hayvon go'shtini yeyishni, ular bilan o'zaro meros ulashishni man etib, e'lonsiz ularga qarshi urush ochishni joiz deb bilishadi. Gunohi *kabira* (katta gunoh) qilgan odamni kofir deb, tovon (*jizya*) to'lab yurgan boshqa din vakillarini (*ahl az-zimma*) o'ldirishni va mol-mulkini tortib olishni mumkin deb bilishadi.

Al-Ibodiya fiqhiy mazhabi ahl as-sunna mazhabi bilan ko'plab amaliy diniy masalalarda (*furu'*) o'zaro kelishadi. Bu mazhabning ta'limoti ko'plab qo'lyozma va bosma kitoblarda jamlangan. Eng muhim chop etilgan kitobi Muhammad ibn Yusuf ibn Utfoishning o'n jildda chop etilgan «SHarh an-nil» asaridir. Mazkur mazhab vakillari Marokash, Umonda istiqomat qilishadi.

Shialik. SHialik islomdagi uch yirik oqimdan biri bo'lib, hokimiyat masalasida islom jamoasida paydo bo'lgan ixtilof natijasida vujudga kelgan.

Shia so'zining to'liq shakli «*ash-shi'a*» («tarafdorlar, guruh, partiya»), aniqrog'i «*Shi'at Ali*» («Ali tarafdorlari partiyasi») bo'lib, bu nom xalifa Ali (656-661) va uning avlodlariga ergashganlarga nisbatan berilgan.

Shialikda imomat masalasi asosiy diniy *ruknlardan* hisoblanadi. Imomat jamiyat manfaatlaridan emas, balki din *ruklaridan* kelib chiqadi, deb e'tiqod qilinadi. Ularning ta'limotiga ko'ra, rahbar jamoa tomonidan saylanmay, balki u meros sifatida o'tadi. Mazkur ta'limotga binoan, Muhammad payg'ambar Alini xalifa etib tayinlagan, undan keyin esa xalifalik uning avlodlarida qonuniy meros sifatida vasiyat yo'li bilan uzatiladi. Imomlik (xalifalik) payg'ambarlik kabi ilohiy mansab hisoblanib, Alloh bandalari orasidan payg'ambarlarini tanlab, ularni gunohlardan saqlagani va ularga *ilmi ladun* (Alloh huzuridan berilgan ilm) bergani kabi xalifalarni ham shunday tanlaydi, deyiladi. Abu Bakr, Umar va Usmonlar esa, bu huquqni Alidan zo'rlik bilan tortib olishgan. Alining xalifaligi Payg'ambar vafotining birinchi kunidan boshlangan, deb hisoblaydilar.

Ash-Shahrastoni (v. 1153 y.) iborasi bilan aytganda: «SHialarning e'tiqodiga ko'ra, Alining imomligi va xalifaligiga oshkora va maxfiy dalillar kelgan hamda undan keyingi imomlik uning avlodlaridan tashqariga chiqmaydi, agarda chiqsa ham, bu ularga zulm qilish yo'li bilan oshirilishi mumkin».

Milliy va diniy asosga ega bo'lgan majoralar uzoq yillardan beri Xindiston, Shri-Lanka, Indoneziya, Sudan, Somali, Malaziya, Xitoy va boshqalarda davom etmoqda. Diniy va hududiy manbadagi milliy ixtiloflar yarim asrdan ortiq vaqt davomida Isroil ikkinchi tomondan Misr, Livan, Suriya, hamda Iordaniya o'rtasidagi muzokaralarning tashkil qilinganligi bu dunyo miqyosidagi katta ijobiy siljishdir. Ma'luki din jamiyat xayotida turmushida juda katta rolb o'yniydi. Bunda davlatning iqtisodiy rivojlanganligi dramasi aholining ta'limiy darajasi katta axamiyat kasb etmaydi. Aholining diniy tarkibini bilish va uni to'g'ri baholash dunyoda bo'lib o'tayotgan miqiyosini voqea va xodisalarning ko'pchiligini to'g'ri tushunish va anglashga imkon beradi.

Yevropa xristianlik dinini barcha shakllari keng tarqalgan katoliklik asosan qit'a janubi qisman g'arbi va markazida protestantlik Shimolida, qisman g'arbi va markazida, provasiavlik sharqi va janubiy sharqida Sobiq ittifoq mamlakatlari provasiavlik va islom dinlari keng tarqalgan. Osiyoda barcha dunyoviy dinlar va yirik milliy dinlar keng tarqalgan. Ayniqsa Islom dini katta rol o'ynaydi. Islomning suniylik yo'nalishi Indoneziya dunyoda eng yirik musulmon mamlakatlaridir. Malaziya, Xindiston, Bangladesh, Pokiston, Afg'oniston, Janubiy G'arbiy Osiyodagi barcha arab mamlakatlari asosiy o'rin egallaydi. Islomning shialik yo'nalishi Eron, Ozorbayjon, qiman Iroq va Yamanda asosiy din sifatida tan olgan islom diniga e'tiqot qiluvchilarning katta-katta guruhlari Filipin, Kombodja, Tailand, Kipr, Shri- Lanka mamlakatlarida mavjud. Sharqiy va Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlari buddizm va lomanizm keng tarqalgan. Ilduizmga xindiston va Nepal aholisining ko'pchiligi e'tiqod qiladi. Konfutsiyalik va daosizm dinlari Xitoyning asosiy dinlari xisoblanadi. Sintaizm Yaponiyada mavjud xristianlik dini mamlakatda ulialik tarqalgan. Xitoy, Yaponiya, Koreya, Indoneziya, Malaziya va boshqa mamlakatlar ham xristian diniga e'tiqod qiluvchilarning ancha miqdori mavjud. Afrikaning shimoliy g'arbiy sharqida joylashgan ko'pchilik mamlakatlarda islomning suniylik yo'nalishi hukumron. Efiopiya, JAR vaboshqa qator mamlakatlarda xristian dini muhim rol o'ynaydi. Markaziy va Janubiy Afrika aholisining asosiy qismi mahalliy dinlari e'tiqod qiladilar.

Shimoliy Amerikada xristianlikning ikki shakli katolik va protitanchlik hukumron. AQSHda protant, Kanadada katoliklar ko'proq Markaziy Amerikada aholining aksaryati katolikka e'tiqod qiladi. Xuddi shunday Janubiy Amerikada ham katolik dini hukumronlik qiladi. Umuman olganda Amerika qit'asiga barcha katoliklarning yarmidan ko'pi to'g'ri keladi. Amerikada islom diniga e'tiqod qiluvchilar AQSH aholisining hamda Karib dengizi havzasidagi ba'zi bir orollar aholisining ichida mavjud. Avstraliya va Okeaniyada katolik keng tarqalgan. Keyingi yillarda halqaro munosabat siyosat, iqtisodiyot, madaniyat va mafkurada islom dinining o'rni kengaymoqda va ahamiyati oshmoqda.

15-Mavzu: Aholining ijtimoiy tarkibi

Mavzu rejasi:

1. Aholining ijtimoiy tarkibi va ijtimoiy funksiyasi.
2. Ijtimoiy-iqtisodiy muhit. Aholining tabaqalanishi, uning dunyo mintaqalari miqyosida turlanishi.
3. Aholi ijtimoiy tarkibi bilan ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik

Har bir mamlakat aholisining ijtimoiy – sotsial tarkibi avvalo o'sha mamlakatda xukmron bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi esa, aholining ijtimoiy – sotsial tarkibini ham keskin o'zgartiradi.

Aholining ijtimoiy – sotsial tarkibini xarakterlovchi belgi ishlab chiqarish munosabatlaridir.

Mamlakatlarda aholining ijtimoiy – sotsial tarkibining o'zgarishi esa aholi tarkibida intellektual salohiyatga ega bo'lgan kishilarning (ko'payishiga olib keladi) miqdoriga bog'liq.

- Bundan buyon aqliy mehnat sohasida band bo'lgan kishilar ko'payib boradi. Bu sohaga o'rta maktab ham, oily ta'lim tizimi ham bilimlarni ommalashtirishgan, nashriyot faoliyati ham, radio, televidinya ham kiradi.

Aholining ijtimoiy – sotsial tarkibiga kiruvchi ishchilar guruhidan malakali mutahassislar, xizmatchilarga talab doimiy ravishda ortib bormoqda, bu talabning oshishi XX asrning II – yarmida migratsiyaning yana bir shakli “oqillar ketishi” deb nomlangan migratsiya boshlanishi davriga to'g'ri keladi.

Aholining ijtimoiy – sotsial tarkibini belgilovchi yana bir ko'rsatkich – aholining bilim darajasidir.

Bilim darajasi - aholinining sifat ko'rsatkichlaridan biri. Aholining sifat tushunchasi turmush va ovqatlanish sharoiti, sog'ligi, yangilanishlarni qabul qilib olishi, malakasini o'z ichiga oladi. BMTning bolalar fondi plakatida tasvirlangan afrikalik qiz “Sen katta bo'lganingda qanday bo'lishni hohlaysan?” – degan savolga eng qisqa qilib “Tirik bo'lishni”, - deb javob qiladi. “XX asr o'lati” nomini olgan SPID yuqumli kasalligi ham global muammoga aylandi.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda aholining ijtimoiy – sotsial tarkiblaridan yana biri aholining savodhonlik darajasidir. BMT ma'lumotiga ko'ra hozirda dunyoda 900 mingga yaqin kishi o'qishni ham yozishni ham bilmaydi. Jarayondagi ilmiy hodimlar soni 5,5 millionga yaqin.

Industrial mamlakatlar qatoriga g'arbiy, shimoliy va janubiy Yevropa mamlakatlari, AQSH, Kanada, Avstraliya, Yaponiya hamda Argentina, Liviya va boshqa davlatlar kiradi. Ularda noishlab chiqarish sohasiga jami band aholining 50 – 70% I to'g'ri keladi. Butun dunyo aholisining 45% i yoki 2 milliarddan ortiqroq qismi iqtisodiy faol aholi hisoblanadi. Shundan 350 milliondan ziyod aholi sanoatda: 1,7 mird kishi yoki iqtisodiy faol aholining 70% dan ko'prog'I qishloq xo'jaligida banddir. Sanoat va qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholi, aholining ijtimoiy – sotsial tarkibidagi eng katta guruhlar hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda talabalarni ham alohida sotsial tarkib qilib ajratiladi. Aholining ijtimoiy – sotsial tarkibidan kelib chiqadigan yana bir xolat mamlakatlarning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan IYAM dir.

Hozir Respublikamiz xalq xo'jaligining barcha sohalari, shuningdek fan va madaniyat uchun zarur kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim o'rta maxsus o'quv yurti tayyorlab beradi.

Yildan yilga Respublikamiz xalq xo'jaligida ishlaydigan malakali mutaxassislar soni ko'payib bordi. O'zbekiston keyingi vaqtlarda industrial taraqqiyotning jadallashuvi bilan hunar – texnika bilim yurtlari (hozirgi kunda kollejlari) orqali malakali ishchilar tayyorlashga alohida e'tibor berila boshladi.

Shu yillarda O'zbekiston xotin – qizlar xayotida ham sifat o'zgarishlari sodir bo'ldi.

Ma'lumki xotin – qizlarning jamiyatdagi tutgan o'rni va huquqlari turli davrlarda turlicha bo'lgan. Inqilobdan avval o'zbek xotin qizlari ishlab chiqarishda kamdan – kam qatnashganlar, asosan uy – ro'zg'or ishlari, bola tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lganlar. Hozirgi vaqtda o'zbek xotin qizlari xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida faol mehnat qilmoqdalar.

O'zbekiston endilikda barcha fan sohalari bo'yicha ilmiy muassasalarni birlashtirgan 2 ta fanlar akademiyasiga ega.

16-Mavzu:Mehnat resurslari

Mavzu rejasi:

1. Mehnat resurslari, “Iqtisodiy faol aholi”, “Iqtisodiy nafaol aholi” tushunchalari va ularning tarkibi.
2. Mehnat resurslari balansi.
3. Mehnat resurslari shakllanishi va ulardan foydalanishning hududiy xususiyatlari.
4. Mehnat resurslarining shakllanishi va ulardan foydalanish holatlari.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi ayrim nazariy tushunchalar mazmunini tubdan o‘zgartirib yubordi. «Mehnat resurslari», «ish kuchi» kabilarni shunday tushunchalar jumlasiga kiritish mumkin. «Mehnat resurslari» atamasini dastlab akademik S.G. Strimulin o‘zining 1922 yili chop etilgan maqolalaridan birida qo‘llagan. Uzoq yillar mobaynida undan mamlakat inson resurslarini boshqarish va foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida foydalanildi. Sobiq ittifoq davrida har bir mehnatga layoqatli fuqaroning uzrsiz sabab bilan uzoq muddat ishlamay yurishi qonuniy ta‘qib ostiga olingan. Mehnatga layoqatli aholi – mehnat resurslarini tashkil etib, u tabiiy, moddiy va moliyaviy resurslar bilan bir qatorda qat‘iy statistik hisobga olinishi iqtisodiyotni markazlashgan usulda rejalashtirishning muhim elementlaridan biri edi.

Mustaqillik yillari O‘zbekiston Respublikasida ham Xalqaro Mehnat Tashkiloti tavsiya etgan aholini tasniflash tizimiga o‘tildi, unga ko‘ra aholini tizimiy taqsimlashda mamlakat mehnat resurslari iqtisodiy faol va iqtisodiy nafaol qismlarga ajratiladigan bo‘ldi.

Mehnat resurslari aholining o‘z ruhiy fiziologik va aqliy sifatleri bilan moddiy ne‘matlar ishlab chiqarishga yoki xizmatlar ko‘rsatishga qodir bo‘lgan mehnatga layoqatli qismidir. Ular tarkibiga faqat iqtisodiy faol aholigina emas, shu bilan birga hozirda ishlamayotgan va ish qidirmayotgan mehnatga qobiliyatli shaxslar, jumladan ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta‘lim olayotganlar ham kiritiladi. Demak, mehnat resurslari *haqiqiy (real)* va *potensial* xodimlardir.

Mehnat resurslarining tarkibi quyidagicha:

- *mehnat yoshidagi mehnatga qobiliyatli aholi*. O‘zbekistonda mehnat yoshining quyi chegarasi 16 yosh bo‘lib, yuqori chegara yosh bo‘yicha pensiya olish huquqi bilan belgilangan. Bu erkaklar uchun 60 yoshni va ayollar uchun 55 yoshni tashkil etadi. Biroq, unga I va II guruh ishlamayotgan nogironlar, yoshi bo‘yicha imtiyozli shartlar asosida pensiya olayotgan fuqarolar kirmaydi.

- *mehnat yoshidan o‘tgan bo‘lsa-da ishlayotgan shaxslar va yosh bo‘lsa ham ishlayotgan o‘smirlar*.

Mehnat resurslari balansini tuzishda ish bilan band aholining barcha toifalarini to‘liq qamrab olish muhim ahamiyatga ega. Yollanib ishlaydiganlar

ham, yollanmasdan ishlaydiganlar ham ishning doimiyliги, vaqtinchaligi, mavsumiyliги, tasodifiyligi yoki bir martalik bo‘lishidan qat’i nazar, iqtisodiyotda ish bilan band deb hisoblanadi.

Yollanib ishlaydiganlar – band aholining eng ko‘p sonli guruhi bo‘lib, mulkchilikning har qanday shaklidagi korxonа (tashkilot, muassasa) rahbari yoki alohida shaxs bilan pul yoki natura holda haq oladigan mehnat faoliyati shartlari haqida yozma mehnat shartnomasi, kontrakt yoki og‘zaki bitim tuzgan shaxslarni o‘z ichiga oladi.

Yollanmasdan ishlaydiganlar – 1) individual asosda, doimiy yollanma xodimlardan foydalanmasdan mustaqil ishlaydigan shaxslarni; 2) ish beruvchilarni, shu jumladan fermer va dehqon xo‘jaliklari boshliqlarini; 3) oilaviy korxonalarining haq olmaydigan xodimlarini; 4) jamoa mulkdorlar (kooperativlar, shirkatlar kabi) a‘zolarini birlashtiradi.

Tarixdan ma‘lumki, mehnatga layoqatli yosh chegarasi ijtimoiy-iqtisodiy sabablarga ko‘ra huquqiy asosda o‘zgarib turgan. Chunonchi, 1929-1933 yillarda 14 yosh – mehnatga layoqatli yoshning quyi chegarasi bo‘lgan, 1937 yilga kelib, u 15 yoshgacha ko‘tarildi. Urush yillarida ushbu yosh chegarasi yana 14 yoshga tushdi, urushdan keyin u 16 yoshga ko‘tarildi va hozirgacha amal qilib kelmoqda. Hozirgi vaqtda «mehnatga layoqatli yosh»ning yuqori chegarasi erkaklar uchun 59 yosh va ayollar uchun 54 yosh hisoblanadi.

Erkaklar 60 yoshga, ayollar 55 yoshga yetgandan so‘ng ular pensiya olish huquqiga ega. Biroq bu qoidada ham istisno bor. Organizmga yuksak ruhiy fiziologik bosimlar bilan bog‘liq kasb faoliyatining ayrim turlari uchun pensiya chizig‘i 5-10 yilga, ba‘zan undan ham ko‘proq qisqaradi. Bunda imtiyozli shartlarda qarilik pensiyasi tizimi amal qiladi. Ayollar uchun pensiya yosh chegarasi erkaklarnikidan pastroq bo‘lsa-da, erkaklarning o‘rtacha umr ko‘rishi ayollarga nisbatan sezilarli ravishda kamroqdir.

Iqtisodiyotda hozirgi paytda “mehnat resurslari” tushunchasi bilan bir qatorda «ishchi kuchi» atamasi ham ko‘p qo‘llanilmoqda. Ishchi kuchi – mehnat jarayonida inson foydalanadigan uning jismoniy va ma‘naviy qobiliyatlar majmuasi bo‘lib, xorijiy adabiyotlarda u ko‘pincha «iqtisodiy faol aholi» tushunchasining sinonimi sifatida qo‘llaniladi. «Ishchi kuchi» atamasi ko‘p hollarda uch ma‘noni anglatadi:

- organizm, tirik inson shaxsi ega bo‘lgan va har safar u qandaydir iste‘mol qiymatini yaratish chog‘ida ishga soladigan jismoniy va ma‘naviy qobiliyatlar majmui sifatida;
- aholining ish bilan band bo‘lgan yoki ish izlayotgan qismi – iqtisodiy faol aholining sinonimi sifatida;
- umuman ishlovchilar yoki muayyan bir korxonа ishchilari (kundalik turmushda odatda shunday foydalaniladigan tushuncha) sifatida.

Shunday qilib, mehnat resurslari tushunchasiga iqtisodiyotda ish bilan band bo'lgan xodimlar; band bo'lmasa-da, mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan odamlar, ya'ni haqiqiy hamda potensial xodimlar kiritiladi. Boshqacha aytganda, mehnat resurslari mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga qobiliyatli fuqarolar hamda mehnatga layoqatli yoshdan kichikroq fuqarolar (ishlaydigan o'smirlar) va mehnatga layoqatli yoshdan kattaroq yoshdagi fuqarolar (ishlaydigan pensionerlar) dan iborat bo'ladi.

Ish bilan band aholini va ish izlayotgan ishsizlarni anglatadigan «iqtisodiy faol aholi» – mehnat resurslari haqidagi tasavvurlarni aks ettiradigan yana bir boshqa tushunchadir. Bu tushuncha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda anchadan buyon ishlatilib kelinmoqda. Xalqaro andozalarga muvofiq, «iqtisodiy faol aholi» tushunchasi BMT milliy hisob varaqalar va balanslar tizimlariga kiritilgan tovarlar va xizmatlar, ishlab chiqarish uchun muayyan vaqt mobaynida o'z mehnatini taklif etadigan har ikki jinsga mansub shaxslarni o'z ichiga oladi. Bu tushunchani aniqlaydigan ikkita ko'rsatkich mavjud: odatda «faol aholi» deb uzoq davom etadigan vaqtga, masalan, yilga tatbiqan; «hozirgi paytda faol aholi» deb qisqa vaqt bo'lagiga, masalan, hafta yoki kunga nisbatan aytiladi.

Iqtisodiy faol bo'lmagan aholi toifasiga o'quv yurtlarida kunduzi o'qiydigan o'quvchilar, talabalar, kursantlar; pensiya oluvchi shaxslar; uy xo'jaligi bilan shug'ullanuvchilar; ish qidirmay qo'ygan shaxslar; ishlashga zaruriyati bo'lmagan shaxslar kiritiladi. Ko'rinib turibdiki, «mehnat resurslari» va «iqtisodiy faol aholi» atamalari bir-biridan farq qiladi. «Iqtisodiy faol aholi» tushunchasi «mehnat resurslari» tushunchasidan o'z mazmuni bo'yicha torroqdir.

Aholisi 35 mln kishiga yaqinlashgan O'zbekiston qudratli mehnat salohiyatiga ega. Mehnat resurslari mamlakat barcha aholisining 60 foizdan ko'prog'ini tashkil etadi.

Mehnat resurslari balansini tuzish hamda ishga joylashishga muhtoj shaxslarni aniqlash chog'ida asosiy axborot manbalari davlat statistikasi (mehnat va aholi bo'yicha) ma'lumotlari, ma'muriy hisobga olish (masalan, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari, uy-xo'jaliklari, personal ro'yaxatlar) ning har xil turlari, shuningdek, ish bilan bandlik masalalari yuzasidan ishchi kuchini tanlab tekshirishdan iborat bo'ladi. Ushbu xilma-xil manbalar ulardagi axborotning xususiyati va mazmuni, ma'lumotlarni to'plash shakllari va usullari bo'yicha bir-biridan farq qilishi mumkin.

**Mehnat resurslarining hisobot balansi har qaysi yil yakunlariga qarab
O‘zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va
Toshkent shahri bo‘yicha tuziladi, shahar va qishloq aholisiga bo‘linadi (**

Mehnat resurslari balansi

<i>Ko‘rsatkichlar</i>	Jami	Shahar	Qishloq
I. Hamma mehnat resurslari			
Shu jumladan:			
Mehnat yoshidagi mehnatga qobiliyatli aholi			
Ishlayotgan o‘smirlar va pensionerlar			
II. Mehnat resurslarining taqsimlanishi			
II.1. Iqtisodiy faol aholi			
Shu jumladan:			
1. Ish bilan bandlar			
Shulardan:			
Rasmiy sektorda			
Norasmiy sektorda			
2. Ish bilan band bo‘lmagan, ishga joylashishga muhtoj shaxslar			
Shulardan:			
Rasman ro‘yxatdan o‘tgan ishchilar			
Mehnat organlarida ish izlayotgan sifatida hisobda turuvchilar			
Mehnat organlarida ro‘yxatdan o‘tmasdan mustaqil ravishda ish qidirayotganlar			
II.2. Iqtisodiy nafaol aholi			
shu jumladan:			
Ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olayotgan shaxslar			
Yoshi bo‘yicha imtiyozli shartlarda pensiya olayotgan shaxslar, nogironlar			
Ko‘p bolali onalar, bolasi 3 yoshga to‘lgunga qadar parvarish qilib ishlamayotgan ayollar			
Ixtiyoriy ravishda ishlamayotgan va ishlashni hohlamaydigan boshqa shaxslar, shu jumladan uy mehnati			
Izoh: 1 va 2 guruh nogironlar			

Mehnat resurslarining miqdori mehnat yoshidagi mehnatga qobiliyatli aholi soni bilan mehnat yoshidan kichik va katta bo‘lib, ishlayotgan shaxslar sonining yig‘indisi sifatida aniqlanadi:

$$MR = MYoM + IO'P$$

bunda: MR – mehnat resurslari;

MYoM – mehnat yoshidagi mehnatga qobiliyatli aholi;

IO'P – ishlayotgan o‘smirlar va pensionerlar.

MYoM soni mehnat yoshidagi aholi sonidan (16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan ayollar sonidan) har ikki jinsga mansub mehnat yoshidagi ishlamayotgan I va II guruh nogironlari hamda imtiyozli shartlar asosida pensiya olayotgan ishlama yotgan pensionerlar sonini chegirib tashlash yo‘li bilan aniqlanadi:

$$MYoM = E_{(16-60)} + A_{(16-55)} - Nog,$$

bunda: $E_{(16-60)}$ – 16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar;

$A_{(16-55)}$ – 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan ayollar;

Nog – mehnat yoshida bo‘lib, ishlamayotgan I va II guruh nogironlari hamda imtiyozli shartlar asosida pensiya olayotgan ishlamaydigan pensionerlar

Axborot olish manbai:

$E_{(16-60)}$, $A_{(16-55)}$ – aholining jins va yosh tarkibi bo‘yicha statistika ma’lumotlari;

Nog – Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining mehnat yoshidagi nogironlar soni hamda imtiyozli shartlar asosida pensiya olayotgan pensionerlar to‘g‘risidagi ma’lumotlari;

IO'P – korxonalarining 16 yoshga to‘lmagan ishlayotgan o‘smirlar va pensionerlar haqidagi statistika hisobotlari.

Iqtisodiy faol aholi soni quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$IF = IB + II,$$

bunda: IF – iqtisodiy faol aholi qismi;

IB – ish bilan bandlar;

II – ish bilan band bo‘lmagan, ishga joylashishga muhtoj shaxslar.

Hisobot davrida ish bilan bandlar soni quyidagi formula bo‘yicha hisoblab chiqariladi:

$$IB = Ir + I_{dx} + I_{nr}$$

bunda: I_r – iqtisodiyot rasmiy sektorida (korxonalar, tashkilotlar, muassasalarda) ish bilan band bo‘lganlar.

I_{dx} – dehqon xo‘jaliklarida ish bilan band bo‘lganlar.

I_{nr} – iqtisodiyotning norasmiy sektorida ish bilan band bo‘lganlar.

Axborot olish manbai:

I_r – korxonalar va tashkilotlarning mehnat bo‘yicha statistika hisobotlari, soliq organlarining ma’lumotlari;

I_{dx} – statistika organlarining hisob-kitoblari va ishchi kuchini tekshirib chiqish ma’lumotlari;

I_{nr} – ishchi kuchini tekshirib chiqish ma’lumotlari.

Iqtisodiyotning norasmiy sektorida ish bilan band bo‘lganlarni aniqlash.

Iqtisodiyot norasmiy sektorida ish bilan band bo‘lganlar jumlasiga rasmiy statistikada hisobga olinmagan, doimiy, vaqtinchalik, bir martalik va mavsumiy ishlarni yollanib bajaradigan, shu jumladan, mazkur ishlarni amalga oshirish uchun respublikadan tashqariga chiqib ketadigan shaxslar, o‘z biznesini yuritadigan, sheriklar bilan yollanmasdan ishlayotgan shaxslar, ta’qiqlanmagan, lekin ro‘yxatga olinmagan faoliyatdan daromad topadigan (masalan, chorva mol boqish, savdo-sotiq ishlari bilan shug‘ullanish, xususiy tarzda odam tashish va boshqa faoliyat turlari bilan band bo‘lgan) shaxslar kiradi.

Iqtisodiyotning norasmiy sektorida ish bilan band bo‘lgan shaxslar soni O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan maxsus ishlab chiqilgan dastur bo‘yicha yilning har choragida ishchi kuchini tekshirib chiqish asosida aniqlanadi.

Iqtisodiyotning norasmiy sektorida ish bilan band bo‘lgan aholi sonini ishchi kuchini tanlab tekshirish ma’lumotlari asosida aniqlash uchun:

A) Iqtisodiyotning norasmiy sektorida tegishli faoliyat turlari bilan shug‘ullanayotgan shaxslar sonining so‘rab chiqilgan mehnat yoshidagilar sonidagi salmog‘i quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$SS_i \text{ q } SM_i : SM \cdot 100,$$

bunda: SS_i – iqtisodiyotning norasmiy sektorida faoliyatning konkret (i) turi bilan shug‘ullanuvchi so‘rab chiqilganlarning salmog‘i;

SM_i – iqtisodiyotning norasmiy sektorida konkret (i) faoliyat turi bilan shug‘ullanuvchi so‘rab chiqilganlar miqdori;

SM – mehnat yoshidagi so‘rab chiqilganlar miqdori, jami.

B) Olingan salmoqlar bo‘yicha iqtisodiyotning norasmiy sektorida konkret faoliyat turi bilan band bo‘lgan aholi soni quyidagi formula asosida hisoblab chiqiladi:

$$NRB_i = MYoT \cdot SS_i : 100,$$

bunda: NRB_i – iqtisodiyotning norasmiy sektorida faoliyatning konkret (i) turi bilan band bo‘lganlar soni;

$MYoT$ – mehnat yoshidagi aholi soni;

$MYoT$ bo‘yicha axborot manbai – aholining jins va yosh tarkibi to‘g‘risidagi statistika ma‘lumotlari.

V) Iqtisodiyotning norasmiy sektorida ish bilan band bo‘lganlar umumiy sonini aniqlash uchun faoliyatning har bir konkret turi bo‘yicha NRB haqidagi ma‘lumotlar qo‘shiladi:

$$NRB = \sum NRB_i,$$

bunda: NRB – norasmiy sektorda ish bilan band bo‘lganlar soni.

Mehnat resurslari balansida ish bilan band aholi soni amaldagi milliy tasniflagichlarga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlari (iqtisodiy faoliyat turlari) bo‘yicha taqsimlanadi va bunda quyidagilar ajratib ko‘rsatiladi:

- Sanoat.
- Qishloq xo‘jaligi.
- Qurilish.
- Transport va aloqa.
- Savdo va umumiy ovqatlanish.
- Moddiy-texnikaviy ta‘minot, sotish va tayyorlash.
- Moddiy ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlari.
- Uy-joy-kommunal xo‘jaligi va maishiy xizmat ko‘rsatish.
- Ta‘lim, fan, madaniyat, san‘at.
- Noishlab chiqarish sohasining boshqa tarmoqlari.

Bunday qilish aholining iqtisodiy faollik darajalarini, mehnat resurslarining faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishini tahlil qilish va baholash imkonini beradi. Bu esa ish bilan bandlikni davlat tomonidan tartibga solish choralarini ko‘rish uchun zarurdir.

Ish bilan band bo‘lmagan, ishga joylashishga muhtoj shaxslar sonini aniqlash. Bunday shaxslar soni mehnat yoshida ish bilan band bo‘lmagan, mehnat organlari tomonidan ishsiz (OI) maqomi berilgan shaxslarni; mehnat organlarida ish qidirayotganlar (IQ) sifatida ro‘yxatga olinganlar; mehnat organlariga murojaat qilmasdan mustaqil ravishda ish qidirayotganlar (IQm)ni o‘z ichiga oladi.

Axborot olish manbai:

OI va IQ bo'yicha – mehnat organlarining hisobot ma'lumotlari;

IQm bo'yicha – ishchi kuchini tekshirib chiqish ma'lumotlari;

IQ sonini aniqlash uchun balans tuzilgan paytda mehnat organlarida hisobda turgan shaxslar sonidan shu paytda rasman ishsizlar maqomi berilgan shaxslar, shu jumladan, ishsizlik bo'yicha nafaqa olayotgan, jamoat ishlarida band bo'lgan hamda mehnat organlari yo'llanmasi bo'yicha kasb-hunar tayyorgarligidan o'tayotgan, qayta ta'lim olayotgan va malakasini oshirayotgan shaxslar chegirib tashlanadi.

Mustaqil ish qidirayotgan shaxslar (IQm) sonini hisoblash uchun:

1) ishchi kuchini tekshirib chiqish natijalariga ko'ra ish bilan band bo'lmagan, ishga joylashishga muhtoj aholining salmog'i aniqlanadi:

$$IBJS = (IBt - INAt) : SS \cdot 100,$$

bunda: IBJS – ish bilan band bo'lmagan, ishga joylashishga muhtojlar salmog'i;

IBt – ishchi kuchini tekshirib chiqish natijasida aniqlangan ish bilan band bo'lmaganlar soni, jami;

INAt – ishchi kuchini tekshirib chiqish natijasida aniqlangan iqtisodiy nafaol aholi, jami;

SS – mehnat yoshidagi so'rab chiqilganlar soni.

2) ish bilan band bo'lmagan, ishga joylashishga muhtoj shaxslarning umumiy soni quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$IBJ = MAT \cdot IBJS : 100,$$

bunda: IBJ – ish bilan band bo'lmagan, ishga joylashishga muhtoj shaxslar soni;

MAT – mehnat yoshidagi aholi soni;

IBJS – tekshirish natijasida aniqlangan ish bilan band bo'lmagan, ishga joylashishga muhtoj shaxslar salmog'i.

3) mustaqil ravishda ish izlayotgan shaxslar soni ish bilan band bo'lmagan, ishga joylashishga muhtoj shaxslar soni bilan mehnat organlarida ish izlayotganlar sifatida ro'yxatdan o'tgan va rasman ishsiz maqomini olgan shaxslar o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi:

$$IQm = IJM - IQ - RI,$$

bunda: IQm – mustaqil ish qidirayotganlar;

IJM – ishga joylashishga muhtojlar;

IQ – mehnat organlarida ish qidirayotganlar sifatida ro'yxatga olinganlar;

RI – rasman ishsizlar.

Iqtisodiy nafaol aholi. Mehnat resurslarining balansini tuzish vaqtida iqtisodiy nafaol aholining soni hamma vaqt mehnat resurslari soni bilan iqtisodiy faol aholi soni o'rtasidagi farqdan iborat bo'ladi:

$$INA = MR - IF,$$

bunda: INA – iqtisodiy nafaol aholi;

MR – mehnat resurslari soni;

IF – mehnat resurslarining iqtisodiy faol qismi.

Mehnat resurslari balansi ma'lumotlari turli tahliliy maqsadlar uchun, masalan, mehnat resurslarining shakllanish omillarini, ularning ish bilan bandligini va ishsizlikni aniqlash, shuningdek, mehnat bozorining ahvoli va ish bilan bandlik sohasidagi vaziyat, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va joylashishi haqida jamoatchilikka axborot berish uchun xizmat qilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligidan farqli o'laroq, xalqaro statistikada mehnatga laqayotli aholining yosh chegarasi 16-65 yosh qilib belgilangan. Bu yoshdagi kishilar guruhi Yer shari aholisining 2/3 qismiga yaqinini tashkil etadi. Biroq, dunyoning turli mintaqalarida ushbu ko'rsatkich o'zaro farq qiladi.

Aksincha, Sharqiy Osiyo (71%) aholi tarkibida mehnat resurslari ulushini yuqoriligi bilan ajralib turadi. Mazkur mintaqada aholi soniga ko'ra dunyoda birinchi o'rinni egallovchi Xitoyning joylashganligi va unda tug'ilishni cheklash yuzasidan olib borilayotgan faol demografik siyosat natijalari buning sababidir. Bundan tashqari, Fors ko'rfazida joylashgan davlatlar – Baxrayn (76%), Quvayt (75%), Katar (82%), BAA (80%) da ham mehnat resurslari salmog'i katta. Hozirgi paytda jahon bozorida uglevodorod resurslariga bo'lgan talabning ortishi iqtisodiyoti neft qazib chiqarishga ixtisoslashgan ushbu mamlakatlarning gullab-yashnashiga olib keldi. Iqtisodiy va demografik rivojlanish teskari mutanosiblikda ekanligi bizlarga yaxshi ma'lum. Shunga ko'ra, mazkur davlatlarda tug'ilish darajasi yil sayin pasayib bormoqda.

Iqtisodiy o'sish jarayonlari jamiyatdagi bir qator miqdor va sifat o'zgarishlar orqali ro'y beradi. Bular orasida aholi bandligi bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlari tarkibidagi o'zgarish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyoti tez yuksalayotgan mamlakatlar uchun bandlik va yalpi mahsulot ishlab chiqarish tarkibida qishloq xo'jaligi salmog'ining pasayishi xosdir. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, AQShda 1920 yilda 70 foiz ishchi kuchi qishloq xo'jaligida faoliyat yuritgan, 1940 yilda 20 foizga tushib qolgan, 2000 yildan u 3 foiz atrofida. Yaponiyada qishloq xo'jaligida band bo'lgan ishchi kuchi salmog'i 1879 yildagi 72 foiz o'rniga, 1930 yilda 30 foizga, 1990-yillarda 8 foizga tushdi. Belgiyada 1846 yilda qishloq xo'jaligida 51 foiz ishchi kuchi band bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1947 yilda 12,5 foizni, 1970 yilda 7 foizni tashkil etdi. Bu raqamlar shuni ko'rsatadiki, mamlakat iqtisodiy rivojlanish darajasi u yerdagi aholi bandligining tarmoq tarkibi bilan uzviy bog'liq.

Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha aholi bandligi tarkibida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi salmog'i eng past bo'lgan mamlakatlar jumlasiga Belarus (10,2%) va Rossiya Federasiyasi (10,4%) kiradi. Bu esa MDH tarkibidagi mazkur mamlakatlarning iqtisodiy salohiyati boshqalarga nisbatan yuqori ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Buning sababi shundaki, agrar sohada mehnat unumdorligini oshirish uchun juda katta imkoniyatlar yashiringan. Fan-texnikaning yuksalib borishi bilan muayyan miqdordagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish

uchun kam sonli xodimlar mehnati ham kifoya qiladi. Boshqa tomondan, oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli bo'yicha to'yish chegarasi mavjud bo'lib, bu narsa qishloq xo'jalik ishlab chiqarish hajmini ham cheklaydi.

17-Mavzu: Aholi bandligi

Mavzu rejasi:

1. Aholi bandligi muammolari.
2. Mehnat bozori tushunchasi, uning hozirgi holati va rivojlanish xususiyatlari.
3. Aholi bandligi, ishsizlik va uning turlari. Aholi bandligi va uning geografik xususiyatlari.

Mehnatga yaroqli aholi, o'z navbatida, ikki guruhga bo'linadi: iqtisodiy aktiv aholi va iqtisodiy aktiv bo'lmagan aholi.

Iqtisodiy aktiv aholi deganda mehnatga yaroqli aholining ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etayotgan, o'z mehnati tufayli daromad oladigan qismi va ishlashni hohlaydigan, ammo ish yo'qligidan vaqtincha ishlamayotgan qismi tushuniladi.

Iqtisodiy aktiv bo'lmagan aholi tushunchasi hamma mamlakatda bir xil ma'no bermaydi. Ba'zi bir davlatlarda ishsizlar va yarim ishsizlar ham iqtisodiy aktiv aholi hisoblanadi. Bu esa, iqtisodiy aktiv aholi tushunchasining haqiqiy ma'nosiga to'g'ri kelmaydi.

Mehnatga yaroqli aholining o'z yordamchi xo'jaligida band bo'lgan, vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotgan va o'qishda va armiya xizmatida bo'lishi tufayli ishlamayotgan hamda ish qidirmayotgan qismi **iqtisodiy aktiv bo'lmagan aholi** hisoblanadi. Har bir mamlakatda yoki mamalakatlar guruhida mehnat resurslarining soni, tarkibi va o'sish sur'atlari aholining takror barpo qilinish jarayonining xususiyatlariga va aholining yosh tarkibiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Chunki, mehnat resurslari sonining o'sishi, asosan, aholining tabiiy o'sish hisobiga bo'ladi. Dunyoning ayrim mamlakatlarida mehnat resurslarining soni mexanik harakat (migrasiya) hisobiga ham o'zgaradi. Masalan, ayrim mamlakatlardan (ko'proq rivojlanayotgan qoloq mamlakatlardan) mehnatga yaroqli bo'lgan aholi ish qidirib, boshqa mamlakatlarga boradilar. Jumladan, G'arbiy yevropa mamalkatlarida (G.F.R, Angliya va boshqalar) xorijiy mamlakatlardan kelgan ishchi kuchidan foydalanish ayniqsa keng tarqalgan. Chunki, boshqa mamlakatlardan kelgan ishchilar bu davlatlar uchun eng arzon ishchi kuchi hisoblanadi. Shunday qilib, ayrim mamlakatlar mehnat resurslarining soni migrasiya hisobiga ham ko'payishi yoki kamayishi mumkin.

Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy aktiv aholining xalq xo'jaligi tarmoqlarida taqsimlanishi bir xil emas, ayrim mamlakatlarda bir-biridan keskin farq qiladi.

Yuksak tarqqiy etgan mamalkatlarda iqtisodiy aktiv aholining ko'pchilik qismi moddiy bo'lmagan ishlab chiqarish sohaslarida (savdo, moliya, maishiy xizmat doirasida) ishlaydi. Masalan, AQSH, Kanadada. Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda sanoatda ishlovchilarning salmog'i keyingi yillarda deyarli stabillashib qoldi, ba'zi mamlakatlarda (AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Belgiya, Avstriya) xatto kamaya boshladi, aksincha ba'zi bir mamalkatlarda sanoat va qurilishda band bo'lgan ishchilarning soni va salmog'i oshib bormoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy aktiv aholining xalq xo'jaligi tarmoqlarida taqsimlanishi boshqa rivojlanayotgan mamlakatlardan farq qiladi.

Avvalo shuni aytish kerakki osiyo, Afrika, Lotin Amerikasining rivojlanayotgan mamlakatlarida tug'ilishning ham yuqoriligi, o'ratacha umr muddatini pastligi tufayli aholi tarkibida mehnat resurslarining salmog'i kam.

Masalan butun dunyo bo'yicha 63%, yevropada 67%, Amerikada 63%, Osiyoda 63%, Avstraliyada 68%, Okeaniyada 65% tashkil etadi.

Mehnat resurslaridan foydalanishda aholining to'la ish bilan mavsumiy ish bilan taminlash mumkin.

Ishsizlik sabablari – ish o'rinlarining yetishmasligi “texnologik ishsizlik”, “agrar aholini ortiqchaligi”.

Respublikamiz mehnat resurslarini (yoki iqtisodiy faol aholini) soni ko'p biroq ularning jami aholi tarkibidagi ulushi oz. Buning sababi tug'ilish va tabiiy ko'payishning yuqoriligidir. Natijada “demografik yuk” yoki mehnatga layoqatsizlar nisbati o'ziga xos. Masalan, agar Baltika davlatlarida oilada 3 kishidan 2 kishi ishlasa, bizda aksincha 6 kishidan 2 yoki 3 kishi ishlashi mumkin.

Shu bois, mehnat resurslarining haqiqiy bandlik darajasi ancha past. Bundan tashqari, bizning sharoitimizda «Yashirin ishsizlar» bilan birga mavjud mehnat resurslaridan foydalanish holati iqtisodiy jihatdan yuqori emas, qishloq joylarda mehnat resurslari yil davomida ish bilan ta'minlanmagan.

O'zbekistonda aholining bandlik darajasi juda murakkabdir. Mamlakatimizda qadimdan qishloq xo'jaligi rivojlanganligi va tabiiy sharoitning qulayligi tufayli aholining 36%dan ortiqrog'i qishloq xo'jaligi sohasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek sanoat ham mamlakatimizda istiqbolli sohalardan biri bo'lib unda aholining 12,6% qismi faoliyat ko'rsatadi.

Xozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarda xo'jalik yuritishning reindustrial shakli ommalashib boryapti. (Ya'ni nomoddiy sohaning rivojlanishi). O'zbekistonda esa xo'jalik yuritishning bu shakli hozirgi kunda ast – sekin rivojlanib bormoqda.

O'zbekistonda 1926 yilda nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan aholining bor yo'g'i 6 % i ishlagan bo'lsa, 90 – yilga kelib bu ko'rsatkich 26% ga yetadi ya'ni 4 % ga oshadi.

Mustaqillikdan so'ng O'zbekistonda moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari yuqori sur'at bilan rivojlanmoqda. Shu bilan birga aholi moddiy va madaniy turmush darajasini yuqori bo'lishi hilma – xil xizmat ko'rsatish sohalariga bo'lgan talabni oshiradi.

Nomoddiy tarmoqlar ichidan sog'liqni saqlashda aholi tezroq o'sib boryapti. Moddiy tarmoqlar ichida bu jarayon qurilish va transportda ko'proq kuzatilyapti.

Ayniqsa o'zbekistonda ilm fanga alohida e'tiborni qaratish o'zbek xalqining jahonshumul yutuqlari ifodasisir. Lekin shuni alohida ta'kidlab o'tish zarurki respublika aholisining ijtimoiy tarkibi va bilish darajasinini xozirgi talablar doirasiga ko'tarish uchun ham ancha ish qilinish kerak. Iqtisodning bundan buyon bozor munosabatlari asosida rivojlanib borishi o'zbekistonda zamonaviy sanoat ishlab chiqarish malakasiga ega bo'lgan kadrlarni ko'plab tayyorlashni talab etadi.

O'zbekiston mehnat resurslarining holatiga ko'ra 3 ta region ajratiladi:

1. Farg'ona, Zarafshon vodiysi, Xorazm viloyati. Bu yerda ortiqcha mehnat resurslari mavjud, ish o'rinlari ham.
2. Mirzacho'l, Buxoro Navoiy regioni. Bu yerda ishchi kuchi kam, ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun esa tabiiy resurs omili yetarli.
3. Toshkent regioni. Bu yerda ishchi kuchi ham, ish o'rinlari ham ko'p.

18-Mavzu: Aholining mexanik harakati. Migratsiya geografiyasi

Mavzu rejasi:

1. Migratsiya haqida tushuncha.
2. Migratsiya turlari: ichki, tashqi, ixtiyoriy, majburiy doimiy, vaqtinchalik va mayatniksimon (mökkisimon), ularning shakllari va xususiyatlari.
3. Migratsiyani hisobga olish.
4. Migratsiyaning alohida hududlar va davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.
5. Migratsiya omillari: siyosiy, milliy-etnik, diniy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqalar.
6. Xalqaro migratsion harakatlar tarixi, ularning alohida materiklar, o'lkalar yoki hududlarning iqtisodiy o'zlashtirishdagi roli.
7. Tashqi migratsiya. Emigratsiya, immigratsiya, reemigratsiya, deportatsiya tushunchalari va ularning xususiyatlari.
8. Dunyo aholisi mexanik harakati muammolari va siyosat. Immigratsiya siyosati.

Aholining yashash joyini o'zgartirish maqsadida bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi (xarakati) aholi migratsiyasidir. Bazan adbiyotlarda aholining qishloqdan shaharga yoki aksincha shahardan qishloqqa borib ishlab qaytishini mayantiksimon migarassiya deb ataladi. Bu to'g'ri emas albatta. Chunki qishloqdan shxarga yoki

shxardan qishloqqa ishga kelib kechqurun uyga qaytishda, migratsiyaning eng muxim sharti bajarilmaydi- aholi yashash joyi o'zgartirilmaydi. Shuning uchun bu jarayonning aholining mayantiksion xarakati deb atash muvofiqdir.

Migratsiya ichki (yani bir mamlakatning ichida ayrim rayonlar o'rtasida, qishloqdan shaharga) yoki tashqi (bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga, bir qit'dan ikkinchi qit'aga) bo'lish mumkin. Migratsiya, shuningdek, doimiy hamda vaqtincha (shu jumladan mavsumiy bo'ladi.) Aholi migratsion harakatining sabablari xilma-hil bo'lishi mumkin. Aholini bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishga majbur qiluvchi sabablardan eng muhimlari ikkita: iqtisodiy sabablar (masalan, ish qidirib yoki moddiy axvolini yaxshilash maqsadida bir rayondan ikkinchi rayonga yoki boshqa mamlakatga ko'chish xamda siyosiy sabablar (siyosiy, milliy yoki diniy etiqodga ko'ra quvg'in ostiga olinishi natijasida, davlatlar o'rtasidagi chegaralarning o'zgarishi yoki xarbiy harakatlar davom etgan rayonlardan boshqa joylarga ko'chib o'tish, davlatlar o'rtasidagi millatlar vakillarini ayirbosh qilish kabilar). Ichki migratsiyalar mamlakatlar aholisining ko'payishi va kamayishiga ta'sir ko'rsatmaydib balki aholining mamlakat xududi bo'ylab shahar qishloq o'rtasida qayta taqsimlanishga olib keladi holos. Tashqi migratsiyalar esa, aksincha bir mamlakat, xatto aholisining ko'payishiga sababchi bo'ladigan muhim omil hisoblanadi. Xalqaro migratsiyasi 6 guruhga ajratiladi:

1. Oilaviy va boshqa sabablarga ko'ra doimiy yashahs maqsadida bir davlatdan boshqa davlatga ketgan emigratlar.
2. Migrant mexnatkashlar.
3. Nolegal immigrantlar.
4. Qochoqlar.
5. Talabalar ilmiy hodimlar, tadqiqotchialr.
6. Turli maqsadda ko'chib yuruvchilar –turistlar, dam oluvchilar, anjuman qatnashchilari.

1. Migratsiya markazkarining tarixiy tarqqiyoti davomidagi o'xgarishi.

Aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chib joylashishi juda qadim zamonlardayoq mavjud bo'lgan. Biroq xar bir davrning migratsiyasiga o'ziga xos xususiyatlarga ega va turli xil oqibatlarga olib keladi. Antik davrning oxiri va o'rta asrlarining boshlarida ro'y bergan hamda adabiyotlarda "xalqlarning buyuk ko'chish davri" deb nomlangan migratsion harakatlar Yevropa va Osiyodagi ko'p xalqlarning etnik tarkibiga katta tasir ko'rsatadi. Markaziy va Shimoliy Yevropaga German xalqlarining joylashuvi, ularning Britaniya opollariga kirib borishi xuddi ana hsu davrga to'g'ri keladi. Shu davrda slavyan xalqlari Sharqiy Yevropa xamda bokon yarimorolini egalladi xamda O'rta Osiyoda turkiy xaqlar paydo bo'ldi. Arablarning istelolari (ayniqsa Yaqin sharq va shimoliy Afrika hududlarida), mug'ullarning yurishlari va boshqalar xam uzoq o'tmishda xalqlarning bir joydan ikkinchi joyga ko'chib ketishga xamda ularning etnik sostaviga ta'sir qilgan

muxim voqealardandir. XV-XVI asrlardagi buyuk geografik kashfiyotlar aholi migrasiyasining avj olishiga sabab bo'ldi. Bu davrda yangi dunyo (Amerika)ning kashf qilinishi natijasida yevropadan juda ko'plab odamlar bu yerga ko'chib kela boshladilar, keyinchlik esa, asosan shimoliy Amerikaga inglizlar, gollandlar fransuzlar va boshqa yevropaliklar ko'chib borib u yerlarni egalladilar. Shimoliy Amerikaning janubiy qismlari xamda markaziy Amerikaning o'zlashtirilishida Afrikadan qul olib borilgan negrlar katta ro'l o'ynadi.

Aholi migratsiyasi kapitalizmning rivojlanishi bilan ayniqsa, kuchayib boradi. Bu esa kapitalistik ishlab chiqarishning tub mohiyatidan, uning aholi qonunlaridan kelib chiqadigan bevosita natija edi. Yevropada kapitalizmning rivojlanishi natijasida bu yerda nisbiy ortiqcha aholining, ishsizlik va yersiz dexqonlar sonining ko'payishiga sababchi bo'ldi. Monopolistik kapitalizmga bo'lgan davrlarda yevropadan Amerikagacha, Avstraliyaga va boshqa qit'larga ko'chib boruvchilar uchun ma'lum imtiyozlar va yetarli miqdorda yerlar bo'lib berilar edi. Bu xol yevropadan boshqa qit'alarga, ayniqsa Amerika, Avstraliya, Yangi Zellandiyaga ko'chib ketishni kuchaytirdi. XVI asr o'rtalaridsan to ikkinchi jaxon urushi boshlangunga qadar Yvropadan boshqa qit'alar 70 milliondan ortiqroq aholi ko'chib ketgan. Boshqa rayonlarga xan Yevropadan, ayniqsa, ko'p aholi ko'chib ketgan. Agar 1870 –yillargacha emigrantlar ko'proq G'arbiy va shimoliy Yevropa mamlakatlari (Buyuk Britaniya, Irlandiya, Germaniya, Skandinaviya mamlakatlari va boshqalar)dan ketgan bo'lsa XIX asrning oxirlaridan boshlab, emigrantlar soni bo'yicha Janubiy va sharqiy Yevropa mamlakatlari (Italiya, Avstriya-Vengriya, rossiya kabilar) birinchi o'ringa chiqib oldi. Buning nasosiy sabablari ana shu mamlakatlar qishloq xo'jaligida kapitalizmning rivojlaninshi va dexqonlarning qishloqlashuvida edi. Bu davrga kelganda transport aloqalarnining rivojanishi xam ko'chib ketishni ancha osonlashtirdi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida AQSHda arzon ishchi kuchiga talab oshib bordi. Janubiy va sharqiy yevropa mamlakatlari esa ana shunday arzon ishchi kuchi yetkazib beruvchi rayonga aylanib qoldi.

XVIII asr va XIX asrlardagi emigratlar ko'proq Amerika (AQSH, Kanada)ga ko'chib borgan bo'lsalar, XIX asrdan boshlab yana janubiy Amerika mamlakatlari (ayniqsa Argentina, Braziliya)ga ko'plab ko'chib bordilar. Chunki shimoliy mamlakatlarda kapitalizm umumiy krizisning kuchyishi natijasida ishsizlar ko'paya boshladi, yerlarning narxi qimmaqlashib ketdi, keyinchalik AQSH Kanada mamlakatlariga ko'chib kelish to'xtatildi. Bu davrlarda asosan Inglizlar va Britaniya orollarida yashovchi boshqa millat vakillari Avstrliya yangi Zellandiya, Janubiy Afrikaga ko'plab ko'chib bordilar. Shimoliy Afrika mamlakatlariga Jazoirga – fransuzlar va ispanlar xam ko'plab yevropaliklar ko'chib bordilar. Shunday qilib, XV va XIX asrlardagi eng yirik migratsiya yevropadan boshqa joylarga ko'chib ketish bilan bog'liq qit'aning o'z ichida yoki ayrim mamlaktlarning ichidagi migrassion xarakatlar uncha katta emas edi.

Maslan XIX asrning ikkinchi yarmida ya'ni Rossiyada kapitalistik ishlab chiqarishning rivojlanib borishi va krepostniklik xuquqining bekor qilinishi munosabati bilan mamlakatning Yevropa qismidan Osiyo qismi (Sibir, Qozog'iston, O'rta Osiyo) ga ko'chib o'tish ancha kuchaydi. 1861-1914 yillar davomida rossiyaning g'arbidan 5 millionga yaqin aholi (asosan Ruslar, Ukrainlar, Beloruslar, Tatarlar, Mordvalar) kuchib o'tdi. XIX asr XX asrning boshlarida Xitoydan Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari Malayziya, Tayland, Indoneziya va boshqalar)ga Yaponiyadan Gavayi orollariga, AQSH ga va ayniqsa, Shimoliy-Sharqiy Xitoy (manchjuniya) xamda Koreyaga, Xindistondan, Shrilankaga, Janubiy va Sharqiy Afrika mamlakatlariga, Janubiy Sharqiy Osiyo (Birma, malaziya)ga va boshqa joylarga aholi ko'chib o'tdi. Aholining mamlakatlararo va qit'alararo migratsion xarakatlari natijasida juda ko'p davlatlarda (aynisa Amerika qiasida) etnik tartibi xilma-xillanib ketdi. Xozir AQSH, Kanada, Braziliya, Argentina, Avstraliya, Yangi Zelandiya kabi mamlakatlarda yashayotgan 300 milliondan ortiq aholining oltidan besh qismi yevropaliklar avlodlaridir. Faqat AQSH ning o'zidagina barcha aholining 90 foizi yevropadan yoki ularning avlodlari xisoblanadi. Yevropaning ayrim davlatlaridan ko'chib borgan xalqlar xozir xam aloxida yashahsga harakat qiladilar. Masalan, Aqshning Shimoli-Sharqida asosan buyuk britaniya va Irlandiyadan ko'chib kelganlar edi. Nyuyorkda ko'pchilikni italyanlar va yaxudiyalar tashkil etadi. Braziliyaning sharqiy rayonlarida asosan portugaliyadan ko'chib kelganlar, Argentinaning sharqida esa Ispaniyadan kelganlar yashaydi va hokazo.

Birinchi va ikkinchi jahon urushlari juda katta migratsion harakatlarga sabab buldi. Urush davom etib turgan paytdagi migratsion harakatlar vaqtincha migratsiyadir. Chunki aholining xarbiy harakatlar zonasidan qochib xavf – xavfsizroq rayonlarga ko'chishi urush paytidagi qonuniy bir xoldir. Urush tugagandan so'ng chegaralarning o'zgarishi yangi davlatlarning tuzulishi va boshqalar doimiy migratsion harakatlarga sabab bo'ladi. Ikkinchi jahon urushi boshlanmasdan avval sharqiy va janubiy Sharqiy Yevropa mamlakatlari xududida Yevropa mamlakatlar (asosan Polsha, Chexoslovakiya, Vengriya, Ruminiya, Sobiq Yugoslaviya) 12 millionga yaqin nemislar yashar edi. Urushning Germaniyaning mag'lubiyati bilan tugashi va yevropada yangi konferensiyaning qaroriga muvofiq nemislarning deyarli xammasi Germaniya, va qisman Avstriya hududiga ko'chib o'tdi. Xozirgi paytda sharqiy yevropa mamlakatlarida (asosan ruminiya va vengriyada 800 mingga yaqin nemislar yashaydi). Urush davrida va undan so'ng Sharqiy yevropa mamlakatlari o'rtasida qaysi millatga mansubligiga qarab aholi ayirboshlash ham bo'ldi. Bu chegaralarni aniqlash va o'zgartirish yoki o'z aholisi milliy tarkibining mumkin qadar bir xil bo'lishini ta'minlash maqsadida ko'rilgan chora edi. Ana shunday aholi ayirboshlash Bolgariya bilan Ruminiya, Polsha va Rossiya, Chexoslovakiya va hokozalar o'rtasida bo'ldi. Ikkinchi jahon urushining siyosiy va harbiy yakunlari bilan bog'liq bo'lgan migratsion harakatlar Osiyoda

ham kuzatildi. Bu esa imperialistik Yaponiyatining urushda taslim bo'lishi va u ilgari bosib olgan rayonlardan yaponlarning o'z yurtiga qaytishi bilan bog'liq edi.

1956 yilgacha Yaponiyaga milliondan ortiqroq yaponlar ko'chib keldi (asosan xitoy va Koreya xududidan). Ammo ikkinchi jahon urushidan keyingi Osiyoda eng kata migratsion harakatlar Hindiston va Pokiston davlatlarining tashkil topishi bilan bog'liqdir. Ma'lumki, bu ikkita davlatga ajralish u yerda yashovchi aholining diniy e'tiqodiga qarab amalga oshirildi. Natijada Hindiston ko'chib o'tdi. Ikkinchi jahon urushidan keyin qit'alararo migratsiya yanada kuchaydi. 1946-1961 yillarda yevropadan 6,9 millionga yaqin aholi boshqa qit'alarga ko'chib ketdi. Italiyadan 1,1 million kishi – asosan Argentina, AQSh va Venesuelaga. Buyuk Britaniyadan (950 ming kishi – ko'proq Kanada, Avtraliya va AQSh ga), Ispaniyadan (500 mingdan ortiqroq kishi Argentina va Venesuelaga) ko'plab kishilar ko'chib ketdi.

Shunday qilib ikkinchi jahon urushidan keyin 60-yillarning boshlarigacha yevropa boshqa mamlakatlariga muxojirlar beruvchi qit'a bo'lib keldi. Faqat keyingi yillardagina yevropada emigratsiya birmuncha susaydi. Ayrim hollarda esa, yevropa boshqa qit'alar bilan migratsion aloqalarda xatto ijobiy migratsion balansga ega bo'la boshladi. Chet davlatlardagi aholining migratsion harakati haqidagi qisqacha obzorni tugatar ekanmiz, migratsiya oqibatlariga qisqacha to'xtalib o'tish zarur. Migratsiya oqibatida Biron davlat aholisi ko'payadi yoki kamayadi, bundan tashqari, aholining yosh, jinsiy tarkibi o'zgaradi. Bu esa bir qancha oqibatlarga olib keladi. Ma'lumki, migratsion harakatlarda ko'pincha yosh va o'rta yosh aholi (eng sifatli mehnat resurslari) ishtirok etadi. Bu esa, emigrantlar ketgan mamlakat mehnat resurslari soning kamayishi, tarkibining yomonlashuviga sabab bo'lsa, immigrantlar qabul qilgan davlat mehnat resurslari tarkibini har tomonlama yaxshilaydi. Migratsion harakatlarda mehnatga yaroqli yoki o'rta yashar kishilar orasida ko'proq erkaklar ishtirok etadi. Shuning uchun ham olimlar emigratsiyaning oqibatini urushlar oqibati bilan tenglashtiradilar. Chunki ko'p emigrantlar yo'qotgan mamlakatlar urushlardagi singari, o'zining yo shva o'rta yoshdagi, asosan erkak mehnat resurslaridan judo bo'ladi. Bu esa shu mamlakatda aholining bundan keyingi takror barpo qilinishi hamda iqtisodiyotga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi.

3.Migratsiya ko`rsatkichlari.

Immigratsiya koeffitsienti- immigrantlar sonini ifodalab, o`rganilayotgan davrda muayyan davlat yoki hududga kelgan aholi soni hisoblanadi. Bu hisob o`sha davlat yoki hudud aholi sonida har 1000 kishi hisobiga belgilanadi.

$$K = \frac{I}{P} \cdot 1000;$$

K- immigratsiya koeffitsienti

I- immigrant (ko`chib kelganlar) soni

P- kelgan davlatni aholi soni

Emigratsiya koeffitsienti- emigrantlar sonini ifodalab, muayyan hududda aholining ko`chib ketish jarayonini bildiradi va shu hudud aholisiga nisbatan 1000 kishi hisobiga aniqlanadi:

$$K_s = \frac{V}{P} \cdot 1000;$$

K_s - emigratsiya koeffitsienti

V- emigrantlar (ketganlar) soni

P- ketgan davlatning umumiy aholi soni

Migratsiya saldosini- bir yil davomida ko`chib kelgan aholi bilan, ko`chib ketgan aholining ayirmasiga teng. Bu jarayon aholida immigratsiya va emigratsiya ta'sirining natijasidir. Migratsiya saldosini manfiy yoki musbat bo`ladi va u absolyut (masalan yiliga 3000 kishi) hamda nisbiy ko`rsatkichlarda (100 va 1000 kishi hisobiga) ifodalanadi.

Migratsiya saldosini koeffitsienti- muayyan hudud aholisi tarkibida kelish va ketish natijalarini ifodalab, 1000 kishiga nisbatan ko`payish yoki qisqarish shaklida belgilanadi:

$$R = \frac{I_n - V}{P} \cdot 1000;$$

R- migratsiya saldosini koeffitsienti

I_n -immigrantlar soni

V- emigrantlar soni

P- aholining umumiy soni

Migrantlar oqimi yo`nalgan hududlarda, migratsiya saldosini ijobiy, ya'ni ko`chib kelganlar soni ko`chib ketganlar sonidan ortiq bo`ladi. Natijada bunday hududlarda aholi soni o`shib boradi, yoki aksincha.

N

AZORAT SAVOLLARI:

1. Aholi migratsiyasi nima?
2. Aholi moyatniksion harakati nima?
3. Ichki migratsiya deganda nimani tushunasiz?
4. Migratsiyaning iqtisodiy sabablari nimalar?
5. Tashqi migratsiya deganda nimani tushunasiz?
6. «Xalqlarning buyuk ko`chish davri» qaerda ro'y bergan?
7. Migratsiyaning siyosiy sababi nimalarda namoyon bo`ladi?
8. Tashqi migratsiyada qanday hodisalar kuzatiladi?
9. Emigrantlar va immigratlar kimlar?
10. Qaysi davrlarda Yevropa migratsiya markaziga aylandi?

19-Mavzu: Aholi va aholi manzilgohlari joylanishi

Mavzu rejasi:

1. Aholining joylanishi va unga ta'sir etuvchi geografik omillar.
2. Aholining joylashishi va manzilgohlari haqida umumiy tushuncha. Aholi joylashishining asosiy shakllari.
3. Aholining joylashishi va xo'jalikni hududiy tashkil etish. Aholi joylanishining shakllari, aholi manzilgohlari, turlari, o'lchami, vazifalari.
4. Aholi punktlari geografiyasi, uning geografik shakllari, turlari. Aholining joylanishi va punktlari haqida umumiy tushuncha.
5. Aholi joylanishining asosiy shakllari. Aholi zichligi haqida tushuncha, uning mohiyati, hisoblash yo'llari.
6. Aholi zichligi va hududning o'zlashtirilishi darajasi. Aholi zichligi bilan bog'liq iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik muammolar.
7. Hududning demografik, mutloq va nisbiy sig'imlari haqida tushuncha.

Aholining hududiy joylanishi – yer yuzining kishilar tomonidan o'zlashtirilishi bilan bog'liq bo'lgan juda uzoq tarixiy jarayonning natijasidir. Yer sharinig turli qisimlarida, turli mamlakatlarda aholining hududiy joylashishi va zichligi tarixiy, ijtimoiy – iqtisodiy va tabiiy omillar ta'sirida vujudga keladi. Bu asosiy omillar dunyoning turli qisimlarida ham hududiy va xech vaqt nuqtai nazardan bir xil emasligi va xech qachon bunday bo'lmasligi o'z – o'zidan ma'lum. Shuning uchun ham turli kontinentlarda, uning zichligida katta farqlar mavjud. Odatda aholining hududiy joylashuvini har bir kvadrat kilometr ga to'g'ri keladigan aholi soni bilan ko'rsatiladi. Yer sharida aholining o'rtacha zichligi har kv km ga 47 kishi to'g'ri keladi. Ammo dunyoning turli qisimlarida aholining zichligi turlichadir. Dunyoning ayrim hududlarida zichlik juda yuqori Germaniyaning Rur havzasida, angliyaning Midlend rayonida o'rtacha zichlik 1000 kishiga etadi. AQShning Atlantika sohilidagi katta hududda (Bostondan Voshingtongacha) o'rtacha zichlik 300 kishidan ortiq. Bu hududlarda yuqori zichlik asosan industrial taraqqiyot va yirik shaharlarinig keng rivojlanganligi hisobiga bo'lsa, dunyoning ayrim rayonlarida ko'p mehnat talab qiladigan qishloq xo'jaligi ham yuqori zichlikka sababchi bo'lmoqda. Masalan, Bangladesh davlatida o'rtacha zichlik 400 kishi, Indoneziyaning Yava orolida 500, Xindistonning ayrim hududlarida 300 kishidan ortiqdir.

Misr Arab Respublikasining Nil daryosi delvtasida zichlik 800 kishiga etadi. O'zbekistonning ayrim qishloq xo'jalik rayonlarida ham aholi zich (Moldaviya, G'arbiy Ukraina va O'zbekistonning yirik qishloq xo'jalik rayonlarida zichlik 300 – 400 kishiga etadi) Professor Yu. G. Saushkin obikor dehqonchlik, tronik dehqonilgi va ayniqsa sholikorlik rivojlangan rayonlarda aholining juda zich yashashligi xaqida ko'plab misollar keltirib hulosa chqargan:

1. Keyinroq o'zlashtirilgan va yangidan sug'orila boshlangan yerlardagiga nisbatan qadimdan sug'orib kelinayotgan yerlarda aholi doimo zichroq bo'ladi:

2. Sug'oriladigan hududlar orasida sholi ekiladigan rayonlarda aholi ayniqsa zich bo'ladi. Boshqa g'alla ekinlari va texnika ekinlari ekiladigan rayonlarda zichlik sholikorlik rayonlaridagiga nisbatan past bo'ladi. Agar dunyo aholisining joylashuvi va zichligi kartasiga nazar tashlasak aholi eng ko'p va zich yashaydigan areallarni ajratish qiyin emas. Birinchi navbatda eng yirik to'rtta ana shunday areal yaqqol ko'zga tashlanadi.

1) Eng yirik birinchi areal o'z ichiga Xindiston yarimorolini, janubiy – sharqiy Osiyoni, Xitoyning sharqiy qisimini, Koreya yarim orolini va Yaponiyani oladi. Bu arealning ko'pchilik qismida (Masalan, Gang daryosi vodiysi, Yava oroli, Yanszi havzasi va boshqa) zichlik 200 kishiga etadi va undan ham ortadi. Faqat tog'li o'lkalarda zichlik birmuncha past. Bu arealda qator yirik millioner shaharlar (Tokiyo, Shanxay, Kolkutta, Bombay, Osaka, Kioto va boshqa) joylashgan.

2) Aholi zich joylashgan ikkinchi yirik areal Evropadir. Skandinaviya yarimorolini va Rossiya Evropa qismining shimoliy – sharqiy hududlarini hisobga olmaganda Yevropaning qolgan barcha qismini shu arealga kiritish mumkin. Bu yerda zichlik 50 ko'p hududlarda 100 kishidan ortiq.

3) Aholi ko'p zich joylashgan AQShning Atlantika sohili.

4) Nil daryosi quyi oqimi hamda deltasini o'z ichiga oladi. Dunyo aholisi zichligi kartasida aholi eng ko'p va zich joylashgan areallar bilan birqatorda deyarli o'zlashtirilmagan hududlarni ham ko'rish mumkin. Bunday areallardan ham bir nechta xarakterlisini ajratsa bo'ladi. Jumladan, Artika atrofidagi rayonlar kam o'zlashtirilgan eng yirik arealdir. Bu arealga Grendlandiya, Shimoliy Amerika materigining qisimlari, Kanada, Artika arxipelagi, Rossiya hududida Sibir va Uzoq sharqning shimoliy qismlarini kiritish mumkin. Bu hududda aholi kamligi asosan Artika va Subartika iqlimining sovuqliligi oqibatidir. Aholi kam yashaydigan ikkinchi yirik areal Sahroi Kabr, uchinchi Avstraliya cho'llari, to'rtinchisi Gobi, Taklamakan cho'llari, Tibet yassi tog'ligi va uni janubdan o'rab turgan qudratli tog'lari, beshinchi Janubiy Amerika materiginig ichki qisimlaridagi ayrim hududlar Amazoniya, Braziliya yassi tog'ligining g'arbiy qismi va boshqalardir. Shuningdek kam o'zlashtirilgan areallarni Arabiston yarimorolida Kalaharia cho'lida va boshqa joylarda ham ko'rish mumkin. Yer sharidagi aholining hududiy joylashishi va zichligida bir qancha katta farqlar bo'lib ular uzoq tarixiy davirda va hilma – hil omillar ta'sirida vujudga kelgan. Bulardan eng asosiylari tarixiy, ijtimoiy – iqtisodiy, tabiiy va boshqa omillardir.

O'zbekiston hududining tabiiy sharoiti ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishi imkoniyatlarining turli tumanligi aholi joylashuviga ham ta'sir qiladi. Mamlakar bo'yicha aholi joylashuvining o'rtacha zichligi 1 km² ga 70 kishidan iborat bo'lgan

xolda, Navoiy viloyatida 7,1 kishidan, Andijon viloyatida 700 kishigacha farq qiladi. (Bu borada ichki tafovut 70 marttadan iborat).

Qadimdan sug'oriladigan voxalarda aholi zich, Masalan; Farg'ona, Namangan, Xorazm viloyatlari. Qoraqalpog'iston respublikasi va Navoiy viloyati respublira maydonining 61,9 % ini egallasada bu hududda respublika aholisining atiga 9,3 % yashaydi. Toshkent aglomeratsiyasida aholi zichligi 600 – 700 kishga etadi.

1. Aholi manzilgohlari

Ma'lum bir formaga ega bo'lgan, aholining hududiy joylanishi aholi manzilgohlari deyiladi. Aholi manzilgohlari aholi geografiyasi fanining muhim kotegoriyasi bo'lib, aholining yashayotgan joylarigina bo'lib qolmay, balki moddiy va ma'naviy boyliklari ishlab chiqariladigan va iste'mol etiladigan butun ijtimoiy hayotning asosiy markazlari hisoblanadi. Aholi punktlarini geografik jihatdan o'rganishda va xarakterlashda har bir aholi manzilgohlarida yashaydigan aholining sonini bilish muhim ahamiyatga ega. Chunki aholi manzilgohlari, birinchi navbatda, aholining soniga qarab (bir necha kishi yashaydigan mayday qishloqlarda tortib, to bir necha million kishilik aholi bo'lgan eng yirik shaharlargacha) klassifikatsiyaga ajratiladi.

Aholi manzilgohlarini geografik jihatdan o'rganishda unda yashaydigan aholining umumiy soniga emas, balki uning tartibini, xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishini, shuningdek har bir aholi manzilgohining bajaradigan funktsiyasini, mamlakat iqtisodiy va madaniy hayotida tutgan o'rni va ahamiyati, uning boshqa aholi manzilgohlari bilan aloqasi, tabiiy geografik o'rnini analiz qilish muhimdir. Shunday qilib, aholi punktlari aholi yashaydigan joy sifatidagina qiziqtirmasdan, balki ishlab chiqarish, markazlari, xo'jalik markazlari, madaniy – siyosiy markazlar, iqtisodiy aloqalarning asosiy tugunlari sifatida ham qiziqtiradi.

Aholi manzilgohlari birinchi navbatda 2 ta katta tipga ajraladi.

1. Shaharlar
2. Qishloqlar.

Shahar va qishloq tushunchalarining vujudga kelishi, shaharlarning qishloqlarda ajralib chiqishi jamiyat tarixida ijtimoiy mehnat taqsimotining paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Ijtimoiy mehnat taqsimoti jarayonida xunarmandchilik va savdoning qishloq xo'jaligidan ajralib chiqishi munosabati bilan shahar va qishloq tumanlari bilan shahar va qishloq tushunchalari vujudga kelgan. Hunarmandlar va savdo bilan shug'ullanuvchilar yashaydigan aholi manzilgohlari shaharlar deb ataladi.

Qishloq ho'jalik mehnati bilan shug'ullanuvchilar yashaydigan joylar qishloqlar deb ataladi. Shahar va qishloq tushunchalarining vujudga kelishi dunyoning turli qisimlarida bir vaqtda bo'lgan emas, albatta. Ko'pchilik hollarda shaharlar, asosan, ibtidoiy jamoa tuzumidan quldorlik tuzimiga o'tish davrida vujudga kela boshladi.

Aholi manzilgohlari turli mamlakatlar hududida, ularning ayrim rayonlari bo'yicha taqsimlanishi va to'planishi asosan o'sha mamlakatning xo'jalik geografiyasi bilan belgilanadi. Xo'jalikning hududiy joylashuvi, uning o'ziga xos xususiyatlari har bir rayon uchun aholi manzilgohlari muayyan formalarini vujudga keltiradi.

Professor V.V.Pokshishevskiy aholi manzilgohlarini qo'yidagi 6 ta formasini dunyo bo'yicha keng tarqalgan formalar deb hisoblaydi.

1. Qishloq aholi manzilgohlari yoyilgan (tarqoq) formasi.

Bunda odatda qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi aholi o'z hovlisi mehnat qilib yashaydi.

Qishloq aholisining tarqoq formasida, odatda, bir yoki bir necha ommadan iborat bo'gan aholi manzilgohlari yashashga hozirgi paytda AQSh ning ayrim rayonlarida keng tarqalgan formalari misol bo'la oladi.

2. Qishloqlar.

Bu formalar qishloq aholisi guruh – guruh bo'lib yashaydi. Ammo bu formada ham qishloqlar qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar bo'ylab tarqoq joylashgan bo'ladi. Bu forma dunyoning deyarli barcha qisimlarida tarqalgan bo'ib, qishloq aholisining asosiy yashah formasidir. Qishloqlarning katta kichikligi ekin ekiladigan massivlarning katta kichikligiga, taraqqiy etgan qishloq xo'jalik tarmog'ining ko'p yoki kam mehnat talab qilishga bog'liq.

3. Shaharlar.

Aholi manzilgohlari ijtimoiy mehnat taqsimotining mahsuli sifatida vujudga kelgan asosiy tipi, hozirgi zamonda aholining eng keng tarqalgan yashash formasidir.

Shahar bilan qishloqni bir – biridan ajratib tutadigan asosiy belgi – ularning qishloq xo'jaligida bajaradigan funktsiyasidir.

Qishloq doimo qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi aholi yashaydigan manzilgohlar. Shahar esa, mehnat faoliyatining qishloq xo'jaligidan boshqa tarmoqlari bilan shug'ullanuvchi aholi yashaydigan, odatda qishloqlarga nisbatan katta bo'lgan aholi manzilgohlari.

Bizda aholi manzilgohlari shaharlarga aylantirish yoki qishloq holiday saqlab qolishning qonun – qoidalari bor, masalan Rossiyada 1957 yilgacha aholining soni 1000 kishidan kam bo'lmagan, qishloq xo'jaligida ishlovchilarning salmog'I 25 foizdan ortiq bo'lmagan aholi manzilgohlari shaharga aylantirilishi mumkin edi. Shuningdek, aholi manzilgohlari iqtisodiy va madaniy ahamiyati ham e'tiborga olingan. Hozir aholi manzilgohini shaharga aylantirish uchun undagi aholi soni 12 ming kishidan kam bo'lmashligi, barcha aholining 85 foizi ishchi, xizmatch va ularning oila a'zolaridan iborat bo'lishi kerak.

O'zbekiston aholi manzilgohini shaharga aylantirish uchun undagi aholining soni 7 mingdan bo'lmashligi, aholining 2/3 qismi, ishchi, xizmatchi va ularning oila a'zolaridan iborat bo'lishi kerak. Turli respublikalarda aholi manzilgohlari

shaharlarga aylantirish shartlari xilma – xildir. Bu xilma – xillik mahalliy sharoitlar bilan bog'liqdir. Umuman dunyoning turli mamlakatlarida aholi manzilgohlari shahar deb atash va shaharga aylantirish shartlari turlichadri.

AQSh da aholisining soni 2500 kishidan ortiq barcha aholi manzilgohlari shahar qatoriga kiritiladi. Frasiyada aholi soni 2000 kishi, Islandiyada atiga 200 kishi bo'lsa kifoya, shaharga aylantiriladi. Gollandiyada esa aksincha aholi manzilgohlari shaharga aylantirish uchun u yerda 20000 kishidan ortiq aholi yashashi kerak, Koreyada 40000 kishi va bundan tashqari.

4. Shahar darajasiga etmagan sanoat manzilgohi posyolkalar.

Bunday aholi manzilgohlari ko'proq tog' – kon sanoati bilan bog'liq xolda vujudga keladi. Bunday shaharchalar G. F. Rning Rur sanoati rayonida, yuqori sileziyada (Polshada) Janubiy Afrika Respublikasining oltin va olmos konlari rayonlarida keng tarqalgan. Yog'och tayyorlanadigan yirik rayonlarda ham shunday ishchi shaharchalari bo'ladi. (Konada, Shvetsiya, Finlandiya va boshqa). Ayrim mahsulotlarini qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bilan bog'liq shunday posyolkalar vujudga keladi. Kuba, Braziliya qand zavodlari, Xindiston, Xitoy va Shirilankada choy fabrikalari va boshqa.

5. Ko'makchi xarakterga ega bo'lgan aholi punktlari.

Bunday aholi manzilgohlari aholisining soni kam bo'lib, shaharlarga ham, qishloqlarga ham kiritilmaydi. Vaqt nuqtaiy nazaridan bunday aholi manzilgohlari ijtimoiy va territorial mehnat taqsimoti kuchli taraqqiy etgan keyingi davrlarda vujudga kela boshlagan.

Masalan: sanatoriya, kasalxona, turizim rivojlangan, ilmiy muassaslar joylashga va shahar hamda qishloqlardan tashqarida bo'lgan alohida aholi manzilgohlari yana shunday ko'makchi punktlardir.

6. Ko'chmanchi halqlarning yashash formalari.

Ko'chmanchi halqlarda odatda, doimiy aholi manzilgohlari bo'lmaydi, ular vaqtincha turish uchun alohida joylarda yashaydilar. Ko'chmanchlik qadim davrlarda keng tarqalgan edi. Hozir esa juda kam uchraydi. Turli – xil aholi manzilgohlaribir – biri bilan aloqada bo'lib, turli hududiy tuzilmalarni vujudga keltiradi.

Shuning uchun ham aholi manzilgohlarini geografik jihatdan o'rganganda ularni doimiy aloqada bo'lgan bir butun tizim deb qarash, ularning hududiy mehnat taqsimotidagi o'ninish taxlil qilish maqsadga muvofiqdir.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Aholi zichilgi deganda nimani tushinasiz?
2. Dunyo aholisining o'rtacha zichligi qancha?
3. Aholining hududiy joylashuviga qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi?
4. Dunyoda aholi zich joylashgan qanday regionlarni bilasiz?
5. Sanoat ta'sirida ahohlning hududiy joylashuvini aniqlang?

6. Dunyoning qaysi qismlarida aholi siyrak?
7. Saushkin fikricha aholi qaysi hududlarda zich bo'ladi?
8. O'zbekistonda aholining zichligi o'rtacha qancha?
9. O'zbekistonning qaysi hududlarini aholi zich hudud hisoblanadi?
10. Nima uchun Respublikamizning Qizilqum, Mirzacho'l, Ustyurt qisimlarida aholi siyrak?
11. Aholi manzilgohlari nima?
12. Pokshishevskiy aholi manzilgohlarini necha guruhga ajratgan?
13. Qishloq aholi manzilgohlariga ta'rif bering?
14. Shahar tushunchasini izoxlang.
15. Posyolkalar hosil bo'lishida qanday omil rol o'ynaydi?
16. O'zbekistonda shahar maqomi qanday holda beriladi?
17. Aholi manzilgohlarining tarqoq formalarini izoxlang.
18. Aholi manzilgohlarini aholi geografiasining muxim kategoriyasi ekanini izoxlang

20-Mavzu: Shahar aholisi geografiasini va urbanizatsiya jarayoni
Mavzu rejasini:

1. Urbanizatsiya to'g'risida tushuncha.
 2. Urbanizatsiya xususiyatlari va darajalari.
 3. Shahar aglomeratsiyalari va megapolislari.
- 1. Urbanizatsiya to'g'risida tushuncha.**

Aholining shahar bilan qishloq o'rtasida taqsimlanishi, shahar aholisining salmog'I har bir mamlakat yoki uning ayrim rayonlarining rivojlanish darajasini shu hudud ho'jaligining industrial yoki agrar harakterga ekanligini nihoyat urbanizatsiya darajasini ko'rsatuvchi muxim ko'rsatkichidir.

Shahar aholisi soni va salmog'ining tez o'sa borishi asosan kapitalizimning rivojlanishi yirik mashina indusrtiasining taraqqiyatishi bilan bog'liq. XIX asrdan boshlab yaqqol ko'zga tashlana boshladi. Shahar aholisining salmog'I dunyoning turli qisimlarida turlicha. Shahar aholisining salmog'i eng yuqori bo'lgan kontinent Shimoliy Amerika hisoblanadi. 75 % Avstraliyada (Okeaniya bilan birgalikda)

71 % Yevropada, 73 % Lotin Amerikasida, 74 % Osiyoda, 35 % Afrikada, 34 % aholi shaharlarda yashaydi. Odatda shahar aholisining salmog'i urbanizatsiyaning asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Shuningdek hozirgi zamon urbanizatsiasining muhim ko'rsatkichi umuman shahar aholisining soni va salmog'igina emas, balki qayta va yirik shaharlarning soni va salmog'i haqidagi ko'rsatkichidir.

Urbanizatsiya – shaharlashish demakdir. Shaharlashish jarayonini qo'yidagi xususiyatlarda ko'rishimiz mumkin.

- 1) Shahar aholisi sonining o'sib borishida.
- 2) Ishlab chiqarishning shaharlarda to'planishida.
- 3) Shaharlar maydonining kengayib borishida jamiyat rivojlanishi tarixda shaharlarning ma'muriy markaz, madaniy markaz hamda iqtisodiy aloqalar qilinadigan markazlar sifatida roli ortib bordi. 1808 yilda dunyo aholisining 2,4 % ining shaharlarda yashagan bo'lsa, hozirgi kunda bu ko'rsatkich 47 % ga ortib ketdi.

1900 yilda 1,4 %, 1950 yilda 29 %, 1990 yilda 45 % bo'ldi. Davlatning urbanizatsiyalashgan darajasi quyidagi ko'rsatkichlar asosida belgilanadi.

- 1) 50 % dan yuqori bo'sa, yuqori darajada urbanizatsiyalashgan .
- 2) 20 – 50 % o'rtacha urbanizatsiyalashgan .
- 3) 20dan kam bo'lsa, past urbanizatsiyalashgan .

Hozirgi kunda urbanizatsiyalashgan hudud jami dunyo hududini 1 % maydoninigina egallagan holda dunyo sanoat maqsulotining 80 % ini ishlab chiqarmoqda. Tabiatga ciqarilayotgan ciqindining 80 %i ham urbanizatsiyalashgan hududlar massasiga to'g'ri kelmoqda.

Shahar aglomeratsiyalari konurbanizatsiya ham deyiladi. Shaharlar hududining kengayib borib, qo'shib ketishidan yirik shahar mlgapolislari vujjolg keladi.

Masalan: Bosvash, Chipits, Sansan, Tokaydo yirik shaharlar atrofidagi qishloqlardagi aholining asosan qismi sanoat, savdo bilan band bo'ladi. Bunday qishloqlarda hududning kengayishi, ijtimoiy hayotning rivojlanishi – Rururbanizatsiyaga misol bo'ladi.

Shaharlar aglomeratsiyasi shaharlarning guruh bo'lib rivojlanishiga, shahar aholisi manzilgoxlarining hududiy jihatdan diyarli bir – biri bilan qo'shib ketishi yoki bir – biriga juda yaqin joylashishiga, yirik shaharlarning o'z atrofi bilan birgalikda tez rivojlanib asosiy yirik haharlar bilan uning shahar atrofi zonasi o'rtasida aholining qayta taqsimlanishi jarayoni adabiyotlarda Suburbanizatsiya deb ataladi. Yirik shaharlar va shahar aglomeratsiyalarining rivojlanishi ular atrofida va orasida joylashgan ko'plab qishloq aholisi manzilgohlari ham shaharlarga hos hayot obrazining keng tarqalishiga sababchi bo'ladi. Bunday zonalarda joylashgan qishloq aholisi manzilgohlarida odatda, qishloq ho'jaligi bilan vojiq bo'lmagan mehnat faoliyati asosiy o'rin tutadi, aholi qishloi joylarda yashab, shaharlarga borib ishlaydi, aholining har kuni bajaradigan ishlari harakati ko'rinadigan darajada keng tus oladi.

Ma'daniy – maishiy talablarni qondirish maqsadlarida ham amalga oshiriladi. Bu rururbanizatsiya jarayoni deyiladi. (ingilizcha “rural” – “qishloq”) rururbanizatsiya “qishloq joylar urbanizatsiyasi” demakdir. Juda yirik

urbanizatsiyalashgan rayonlar AQShda keng rivojlangan. Uning shimoliy – sharqiy qismida, Atlantika sohilida aglomeratsiya jarayoni ayniqsa kuchli.

Ayrim mamlakatlarda urbanizatsiyaga xos katta va yirik shaharlar, shahar aglomeratsiyalar tez rivojlanmoqda. Maʼlumki odatda yirik shaharlar katta yoki kichik aglomeratsiyalarning markazi hisoblanadi. Bular mamlakatning eng yirik sanoat hududidir. Hozirgi zamon urbanizatsiyasi va ayniqsa yirik shaharlar aglomeratsiyalari geografik muhitga ham katta taʼsir koʻrsatadi. Baʼzan shaharlar va aglomeratsiyalar geografik shu hayotga faqat salbiy taʼsir koʻrsatadi deb oʻylaydilar. Urbanizatsiya jarayonida geografik muhitga koʻrsatiladigan taʼsir uni yaxshilash, aholi hayoti uchun yanada qulayroq qilish maqsadida amalgam oshirish mumkin. Yerlar melioratsiyasi, suv mashqini va amallarda saqlanish maqsadidagi tadbirlar, dengiz, daryo, koʻl va suv omborlari qirgʻoqlarining mustahkamlanishi, gidrografik tarmoqlarning rekonstruksiyasi, himoya zonalarini barpo etish va boshqalar shaharlar va shahar atrofi tabiatni yanada qulaylashtirish maqsadida amalgam oshiriladigan tadbirlar jumlasidandir.

Shaharlarning rivojlanish jarayonida tabiatga uzviy taʼsir etishishi oqibatida uning turli komponentlari oʻrtasidagi muvozanat buzilishi, oqar suvlar va atmosfera xaddan tashqari ifloslanib ketishi, eryoziya jarayoni kuchayishi, flora va fauna kambagʻaylashib kamayib ketishi mumkin.

Bunday jarayonlarni maishiy sanoatlarning yirik shaharlari va aglomeratsiyalarida koʻrsa boʻladi. Sanoat korxonalarini va avtomobil transporti atmosfera va oqar suvlarni ifloslantiruvchi asosiy manbalardir. Dunyoning eng yirik shaharlari boʻlgan Nyu-York, Tokio, Parij, London osmonida sanoat va avtotransport iflosliklaridan iborat sunʼiy bulutni har doim koʻrish mumkin. Birgina Nyu-York shahrida ham kuni atmosferaga 3200 t, oltingugut birikmalari 280 t, sanoat changi 4200 t, uglirod koʻtariladi. Sotsialistik mamlakatlarda geografik muhitning bunday buzilishi va ifloslanishiga yoʻl qoʻyilmaydi. Eng yirik shaharlarimizda ham atmosfera ancha toza.

Hozirgi zamon urbanizatsiyasi jarayoni global harakterga egaboʻlib deyarli butun dunyoni qamrab olgan.

Urbanizatsiya oʻziga xos shahar hayot tarzini vujudga keltiradi. Buning esa kishilarning oʻzaro aloqalari uchun qulay vaziyat yaratadi, aholining professional tarkibini, sotsial harakatchanligi tamoman oʻzgartiradi.

Urbanizatsiya jarayoni yirik shaharlar va shahar aglomeratsiyalarida urbanizatsiyalashgan muhitni vujudga keltiradi. Yoqori darajada urbanizatsiyalashgan muhit aholining hayoti, mehnat va dam olishi jarayonida vujudga keladigan deyarli barcha talablarni qondira oladi.

Hozirgi zamon urbanizatsiyasi fan – texnika inqilobi bilan chambarschas bogʻliq holda rivojlanmoqda. Fan – texnika inqilobi sanoatning hududiy konsentratsiyasiga sanoatning ayrim qisimlarida emas, balki katta areallarda joylashuviga aglomeratsion jarayonini kingaytirishga sababchi boʻlmoqda.

Urbanizatsiyaning yanada kuchayishiga ta'sir etayotgan muhim omillardan biri – hozirgi zamonning juda tez taraqqiy etayotgan ishlab chiqarish va sotsial infrastrukturasidir.

2. Urbanizatsiya xususiyatlari va darajalari.

Hozirgi zamon urbanizatsiya jarayonining ko'p qirraligi, turli sotsial – iqtisodiy tuzumga ega bo'lgan mamlakatlarda bir – biridan farq qilish urbanizatsiyani tiplarcha ajratishni taqozo qiladi.

- 1) Industrial tip.
- 2) Kompleks tip.
- 3) "Soxta" Urbanizatsiya tip.
- 4) Xizmat darajasining haddan tashqari rivojlanishi.

Dunyo urbanizatsiya jarayoni, asosan 1 chi va 2 chi tiplarga to'g'ri keladi. Urbanizatsiyaning 3 chi tipi soxta urbanizatsiya rivojlanayotgan mamlakatlarga xos. Urbanizatsiyaning 1 chi tipi ayrim rivojlangan kapitalistik mamlakatlarga xosdir.

Urbanizatsiyani mamlakat xo'jaligining hududiy strukturasi bilan bog'lab geografik jihatdan o'rganish yaxshi natijalarni beradi.

Urbanistik struktura aholining soni turlicha bo'lgan shaharlarning nisbatan yirik shaharlar aholisining barcha shahar aholisidagi salmog'i kasbi ko'rsatkichlardan iborat.

Hududiy urbanistik struktura mamlakat turmush qisimlarining yirik shaharlar bilan ta'minlanganlik darajasi turli xil urbanizatsiya darajasiga ega bo'lgan hududlarning bir – biriga nisbatan joylashuvi bu yerda muhim ahamiyatga ega.

Shaharlar juda qadimgi zamonda ma'muriy hokimiyat, savdo va hunarmandchilik markazi, harbiy qo'rg'onlar sifatida Nil, Dajla, Furot daryolari deltalarida paydo bo'lgan. Kapitalizmni rivojlanishi va yirik mashinasozlik sanoati, transport va jahon bozorining o'sishi bilan shaharlarda sanoat to'plandi. Ko'p shaharlar transport tugunlariga, savdo taqsimot tugunlariga aylanib bordi. Shaharlarning ma'muriy va madaniy markazlar sifatidagi mavqelari kuchaydi. 20-asr o'rtalarida nomoddiy sohalarning o'sishi bilan shaharlarning vazifalari yanada kuchaydi. Hozirgi zamon shahari bir qancha vazifani bajaradi. Lekin bir xil vazifani bajaruvchi shaharlar ham mavjud. Masalan, tog'-kon sanoti shahari ilmiy shahar, kurort shahari va xatto poytaxt shaharlari ham qurilgan. Ba'zi shaharlar poytaxt qilish uchun maxsus qurilgan.

Urbanizatsiya hozirgi zamondagi eng muhim ijtimoiy iqtisodiy jarayonlardan biri hisoblanadi. Urbanizatsiya deb mamlakatda, hudud va jahonda shaharlarning o'sishi va shahar aholisini salmog'i ortishi, murakkab shaharchalar shaxobchalari, tizimlarinin paydo bo'lishi va rivojlanishiga aytiladi. Binobarin, urbanizatsiya. Jamiyat hayotida shaharlar ahamiyatining tarixiy o'sish

jarayongidan, jamiyatning aholi mehnati, turmush tarzi va madaniyatining ko'proq shaharlarga xos bo'lib o'zgarib borishidan iboratdir.

Hozirgi zamon urbanizatsiyasi butun jahonga tegishli jarayon bo'lib ko'pchilik mamlakatlarga xos bo'lgan uchta umumiy xususiyatga ega.

Birinchi xususiyat - shahar aholisi sonining xususan rivojlanayotgan mamlakatlarda tez sur'atlar bilan o'sib borishi. Masalan, 1900 yilda jahon axosilining 14 % ga yaqini shaharlarda yashagan bo'lsa 1950 yilda 29 % ga, 1990 yilda 45 % ga hisobda olganda shaharlar aholisi har yili 50 mln. kishiga ko'payib bormoqda.

Aholishunoslarning fikriga ko'ra, 2020 yilga kelib, shahar aholisi jahon aholisining yarmidan oshib ketdi.

Ikkinchi xususiyat - aholi va xo'jalikning asosan yirik shaharlarda to'planishi. Bunga ishlab chiqarish xususiyati, uning ilm-fan, ta'lim bilan aloqasining murakkablashib borayotgani sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari katta shaharlar kishilarning ma'naviy ehtiyojlarining odatda to'liqroq qondiradi.

Hozir jahonning eng yirik shaharlari Mexiko, Tokio, Nyu-York, Pekin, Shanxay kabilardir. Bu shaharlardan Mexikoda 20 mln. kishidan ortiq kishi, qolganlarida 10-20 mln. kishi yashaydi.

1950-2000 yillarda shahar aholisi sonining o'sishi.

Uchinchi xususiyat - shaharlar maydonini kengayib ketishi. Hozirgi zamon shaharlashishi uchun shaharlarning oddiy bir o'zakli shaklidan shaharlar va qishloqlar tutashib ketib, shaharlar guruhi, shaharlar «uyumi» shakliga, ya'ni shaharlar agromeratsiyasi shakliga o'tish xosdir.

Urbanizatsiya butun jahon jarayoni sifatida umumiy xususiyatlarga ega bo'lish bilan birg turli mamlakatlar va hududlarda o'ziga xos xususiyatga ega. Bu xususiyatlar urbanizatsiyaning har xil darajada ekanligida va sur'atida aks etadi.

Urbanizatsiya darajasi ancha past bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda shaharlashish eniga o'smoqda, shahar aholisi tez ko'payib bormoqda. Shaharlar aholisining yillik o'sishi 4/5 qismi rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi. Shaharliklarning mutloq soni esa iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardagidan anchagina oshib ketdi. Ilm fanda shahar portlashi deb nom olgan bu hodisa rivojlanayotgan mamlakatlarning butun sotsial - iqtisodiy taraqqiyotida muhim omillaridan biri bo'ldi.

Shaharlarning tez o'sayotganligiga qaramay jahon aholisining yarmidan ortig'i qishloqlarda yashaydi. Qishloqlarning umumiy soni esa 15-20 mln. ga yetadi. Qishloq aholisini joylanishida asosan ikki usul mavjud: g'uj va tarqoq joylashish.

Qishloqlarning mavjudligi tarixiy, iqtisodiy rivojlanishga tabiiy sharoitning xususiyatlariga bog'liq. Hozirgi vaqtda urbanizatsiya atrof muhitning o'zgarishiga katta ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Katta shaharlar va aglomeratsiyalar ifloslikning

deyarli asosiy manbai bo'lib, atrof-muhitga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Birinchi o'rinda atmosfera havosini ifloslanishi kuzatiladi.

Urbanizatsiyalashgan hudud quriklikni 1% egallaydi jaxon aholisini 47 % yashaydi. Yalpi ichki maxsulotni 80% zararli chiqindilar va gazlar 80 % urbanizatsiyaga to'g'ri keladi.

Urbanizatsiya 1800 yilda 2,4 % , 1900 yilda 14 % , 1950 yilda 29 % , 1990 yilda 45 % 2001 yilda 47 % tashkil etdi.

3. Shahar aglomeratsiyalari va megapolislari.

Singapur 100 %

Belgiya, Quvayt 97 %

Venesuella 93 %

Isroil 92 %

Buyuk Britaniya, Urigvay 90 %

Germaniya 87 %

Braziliya 80 %

AQSh 75 %

Yaponiya 76 %

Hindiston 26 %

Xitoy 24 %

Oman, Efiopiya, Malavi 13 %

Uganda 12 %

Butan 10 %

Ruanda, Brundi 8 %

SHAHAR TUSHUNCHASI

Daniya, Shvetsiya, Finlandiyada 200 kishidan ortiq

Kanada Avstraliya 1000 kishi

Germaniya, Frantsiya, Kuba 2000 kishi

AQSh, Meksika 2500 kishi

Avstriya, Hindiston, Eron, Madagaskar 5000 kishi

Shvetsariya, Malayziya 10000 kishi

Nigeriya 20000 kishi

Yaponiya 30000 kishi

Janubiy Koreya 40000 kishi

O'zbekiston 7000 kishi

URBANIZATSIYA

Konurbanizatsiya – shahar aglomeratsiyalari

Suburbanizatsiya – shahar atrof urbanizatsiyasi

Rurbanizatsiya – “qishloq” urbanizatsiyasi

“Shahar portlashi”

“Soxta” urbanizatsiya

AQSH

“Bosvash”: tarkibidagi aglomeratsiyalar: Boston, Nhyu-York, Filadelfiya, Baltimor, Vashington, Xartford, Brijport, Pravideks.

Uzunligi – 1000 km, eni – 200 km, aholisi – 50 mln.ga yaqin.

Oltita shtatni o’z xududi ichiga oladi: Massachuseti, Rod Aylend, Konnektikut, Nhyu-Jersi, Delaver, Merilend va Kolumbiya federal okrugi.

Bosvash – “aglomeratsiyalar aglomeratsiyasi” ya’ni bu “Shahar-rayon” deyiladi.

“Chipite” – Chikago, Detroit, Pittsburg

“San-San” – San-Frano’isko, San Diego

BUYUK BRITANIYA

Birmengem, Manchester, Liverpool, Glazgo

GYERMANIYA

Rur rayoni

GOLLANDIYA

“Randshtat Xolland” aglomeratsiyasi: Amsterdam, Rotterdam, Gaag, Garlem, Utrext, Leyden va boshqalar.

YAPONIYA

Tokaydo aglomeratsiyasi: Tokio, Nagaya, Osaka – 600 km.

Tokio – Kavasaki, Iokagama

Osaka – Kobe, Kioto aglomeratsiyalari qo’shilib ketgan

Urbanizatsiyaning 4 tipi:

1. Industrial tip.
2. Kompleks tip.
3. “Soxta” urbanizatsiya tipi.
4. Urbanizatsiya “servis” tipi.

Shaharlarning mikro, mezo, makro o’rni.

Shaharlarning funksional tiplari:

1. Ko’p funktsiyali shaharlar.
2. Iqtisodiy funktsiya asosiy bo’lgan shaharlar.
3. Madaniy-ma’muriy markaz vazifasini bajaruvchi shaharlar.
4. Fan shaharlari.
5. Kurort shaharlar.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Shaharlashishning o’ziga xos xususiyatlari qaysilar?
2. Xozirgi kunda dunyo aholisining necha % shaharda yashamoqda?
3. Shahar aholisi salmog’i yuqori bo’lgan davlatlarga misollar keltiring.

4. Urbanizatsiyaga ta'sir etuvchi omillar qaysilar?
5. Fururbanizatsiya jarayoni deb nimaga aytiladi?
6. Qaysi paytda suburbanizatsiya jarayoni yuzaga keladi?
7. Eng yirik shahar aglomeratsiyalari qaysilar?
8. Urbanistik struktura nima?
9. Urbanizatsiyaning qanday tiplari mavjud?
10. Yirik megapolislarga misollar keltiring.

21-Mavzu: Qishloq aholisi va qishloq aholi manzilgohlari geografiyasi

Mavzu rejasi:

1. Qishloq aholisi
2. Qishloq aholi manzilgohlari geografiyasi

Qishloq joylar shahar va shaharchalardan tashqaridagi hududlar bo`lib, ularda qishloq xo`jaligida muntazam foydalanadigan erlar hamda doimiy aholi manzilgohlari (punktlari) mavjud bo`lishi kerak. Demak, qishloq joylar geografik kartada areal, maydon ko`rinishida, qishloq aholi punktlari esa ular ichidagi nuqtasimon shakldagi jamiyatning ijtimoiy-hududiy tashkil etish birligi hisoblanadi.

Qishloqlar shaharlarga qaraganda aholi yashash joyining qadimiyroq shaklidir. To`g`ri, qadimda dastlabki aholi manzilgohlari shahar yoki qishloq deb atalmagan. qishloqlarning vujudga kelishi ijtimoiy mehnat taqsimotida sug`orma dehqonchilik madaniyati rivojlanishi bilan bog`liq bo`lgan. Sug`orma dehqonchilik avvallari tabiiy suv oqimidan foydalangan holda olib borilgan, keyinchalik sug`orish inshootlari (to`g`on, kanal va b.) va vositalari (Chig`iriq) asosida rivojlangan. Albatta, bunday inshootlar yoki hozirgi zamon tili bilan aytganda, irrigatsiya infratuzilmalarini yaratish, qo`riqlash va ulardan foydalanish keng jamoatchilik mehnatini, aholini bir joyda va birgalikda yashashini taqozo etgan. Shunday qilib, jamoa (sotsium), kishilarning hududiy birligi, turg`un aholi manzilgohlari paydo bo`lgan. Sug`orma dehqonchilikning chorvachilikdan ajralib chiqishi, shu asosda hunarmandchilik va savdoning rivojlanib borishi natijasida ijtimoiy va hududiy mehnat taqsimotining navbatdagi muhim bosqichi boshlangan. Jamiyat hayotdagi bunday o`zgarishlar qishloqlardan shaharlarning ajralib chiqishiga va rivojlanib borishiga sabab bo`lgan. Aynan shu davrdan boshlab ijtimoiy hayotni hududiy tashkil etilishining ikki shakli, ya'ni qishloqlar va shaharlar vujudga kelgan.

E'tirof etish joizki, shaharlar qishloqlardan ajralib chiqqan, aksincha emas. Binobarin, aytish mumkinki, dastlabki shaharlarning kelib chiqishi qishloqlar bilan bog`liq bo`lgan. Shu bois, Yer yuzasining eng qadimiy shaharlari ham aynan Yaqin Sharq, hozirgi Isroil, Iordaniya, Suriya mamlakatlari hududida shakllangan.

Qishloqlarning bunday evolyutsion tarzda paydo bo`lishi va rivojlanishi L.I.Mechnikovning daryo (sug`orma dehqonchilik) sivilizatsiyasi yoki madaniyati kontseptsiyasiga muvofiq yuz bergan. Shu nuqtai nazardan Sharq tarixi, madaniyatini qishloq va shaharlarning ajralmas birligi deb ta'riflashgan. Boshqa hududlarda esa, qishloqlarning vujudga kelishi makon va zamon jihatidan farq qilib, o`zgacha amalga oshgan.

Bizning sharoitimizda qishloqlar "qishlov" ma'nosini anglatga ajab emas. Chunki, yaqin o`tmishda ham mahalliy xalq yozgi va kuzgi dala ishlarini (bog`dorchilik, chorvachilik, dehqonchilikni) tugatgach, qishni yig`ilgan don, meva, o`tin va boshqa zaruriy mahsulotlar bilan o`tkazish uchun qishloqlarga qaytishgan (Rossiyaning dasht mintaqalarida dehqonchilik rivojlangan hududlarida ham qishloqlar "selo", "stan", "stanitsa", ya'ni turg`un aholi punktlari ma'nosini bildiradi).

Qishloq va shaharlar o`ziga xos "geojuftlik" bo`lib, birining rivojlanishi ikkinchisiga bog`liq. qolaversa, qishloq borki, shahar bor, shahar borki qishloq bor. Demak, ularni bugungi kunda bir-birisiz tasavvur qilib bo`lmaydi va aholi ijtimoiy hayotini bunday hududiy tashkil etish shakllari doimiydir. qishloqlik, qishloqning asl mohiyati, qishloq hayot tarzi va sharoitini to`liq his qilishi uchun, biroz bo`lsada, shaharda yashab ko`rishi kerak. Binobarin, shaharga doimiy yashash uchun ko`chib kelgan qishloqlik butun umr davomida shahar hayot tarziga moslashib (adaptatsiya qilib) boradi. Ayni paytda shahar qadri va mohiyatini, vaqtincha bo`lsada, qishloqda yashab ko`rgan shaharlik ko`proq biladi va to`g`ri baholaydi. Xullas, qishloq ham, shahar ham go`zal. Biroq, ularning har biri o`zgacha chiroyga ega, agar qishloq joylar ko`proq tabiati bilan dilkash bo`lsa, shaharlar hashamatli binolariyu, zamonaviy xiyobonlari bilan go`zal.

Qishloq joylar yoki qishloqlar asosan qishloq xo`jaligi bilan shug`ullanuvchi aholining hududiy tashkil etish shakli ekan, u mohiyatan geografiya, xususan iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning muhim tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Ammo e'tirof etish zarurki, qishloqlar bu fan doirasida "omadi kelmagan" yo`nalish bo`lib, ular shaharlarga qaraganda juda oz o`rganilgan. Hatto bunday holat milliy iqtisodiyoti qishloq xo`jaligi bilan bog`liq, aholining deyarli yarmi qishloqlarda yashovchi O`zbekiston Respublikasiga ham taalluqlidir. Buning sababi bir nechta bo`lishi mumkin. Jumladan, shaharlarning jamiyat hayotida etakchi o`rin tutishi, yaqin o`tmishda qishloqlarga ikkinchi darajali munosabat, qishloqlarni asta-sekin shaharlarga aylantirish siyosati, qishloqlarning ko`p sonliligi va ular bo`yicha statistik ma'lumotlarning kamligi kabilar qishloq geografiyasiga nisbatan e'tiborsizlikni keltirib chiqargan.

Qishloq joylar qator funktsiyalarni (vazifalarni) bajaradi. Masalan, ularning iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, ekologik va boshqa funktsiyalari mavjud. O`z navbatida, qishloq xo`jaligi yoki iqtisodiyoti ham turlicha. Odatda, qishloq xo`jaligini qishloq xo`jaligi mahsulotlarini etishtiruvchi tarmoq sifatida qarashadi. Aslida esa, u ham ancha murakkab tizim bo`lib, bevosita “tor” ma`nodagi qishloq xo`jaligidan tashqari qator sohalarni qamrab oladi. Shu nuqtai nazardan qishloq xo`jaligini jahon xo`jaligi, xalq (milliy) xo`jaligi, shahar xo`jaligi kabi umuman xo`jalikning (iqtisodiyotning) hududiy tashkil etilishini alohida taksonomik birligi yoki bo`g`ini sifatida, keng ma`noda talqin qilish ham zarur.

Qishloq joylarni geografik o`rganishda ularga o`ziga xos agrolandshaft, hududiy majmua yoki hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizim ko`rinishida metodologik yondashuv maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda qishloq joylarni o`rganishda kompleks va sistemali yondashuv, hududiylik, tarixiylik (ba`zi olimlar uni davriylik deb atashadi) tamoyillar qo`llaniladi. Ular statistik, tarixiy va geografik taqqoslash, kartografik, tizim-tarkib, guruhlash, rayonlashtirish va boshqa metodlar asosida amalga oshiriladi.

Qishloq joylarni o`rganishda ular joylashgan hududning tabiiy geografik sharoitiga alohida e`tibor bermoq lozim. Xususan, joyning iqlim sharoiti, reliefi, suv va tuproq resurslari, o`simlik dunyosi kabilar muhim ahamiyatga ega. O`zbekistonda aksariyat qishloqlar gidrologik shahobchalar bo`yida yoki ularning quyi qismida tarixan shakllangan. Soylar, daryolar, suv omborlari va irrigatsiya kanallari qishloqlar geografiyasini ko`p jihatdan belgilab beradi. Soylar yoymasi va ulardan tarqalgan kanallar (ariqlar), ko`p qo`l mehnati talab qiluvchi sug`orma dehqonchilikning rivojlanishi asosida yirik qishloqlar vujudga kelgan. Bunga Farg`ona vodiysi soylari, ayniqsa, So`x va Isfara daryolari quyi qismida tashkil topgan qishloqlar misol bo`la oladi.

Qishloqlar ko`pincha tepaliklarda, tog` etaklarida joylashgan. Bunday mikrogeografik o`rin strategik jihatdan hamda er osti suvlari sathining ko`tarilishi natijasida zahllashning oldini olish uchun ham qulaydir.

Tabiiy geografik omil qishloqlarning cho`l, voha va vodiylar, tog` va tog` oldi hududlarda joylanishi, uy-joy qurilish shakli ularning mintaqaviy xususiyatlarini tavsiflab beradi. Shuningdek, turli tabiiy ofatlar ehtimoli mavjud bo`lgan (surilma, o`pirilish, sel kelish holatlari, zilzila, kuchli shamol va h.k.) hududlarda o`rnashgan qishloqlar qulay geografik o`ringa ega emas.

Shunday qilib, qishloqlar shaharlarga nisbatan tabiiy sharoit bilan chambarchas bog`liq bo`ladi. Modomiki, qishloq xo`jaligi bevosita tabiiy geografik sharoit ta`sirida rivojlanar ekan, uning qishloqlar geografiyasiga ta`siri ham hech qanday shubha qoldirmaydi. qolaversa, mahalliy qurilish materiallari-qum, shag`al, ohak, tosh va boshqalar ham qishloqlar qiyofasining shakllanishida muhim rol o`ynaydi. Soy va boshqa gidrologik shahobchalar, tor tog` vodiylarida joylashgan qishloqlar uylari terrasimon, aholi manzilgohlari esa cho`zinchoq,

tasmasimon hududiy shaklga ega bo`ladi. Soylarning suv miqdori va oqim rejimi, vodiyni tor yoki kengligi, dehqonchilik uchun yaroqli erlarning mavjudligi ham bu joylarning demografik sig`imiga, qishloqlarning katta-kichikligi va bajaradigan vazifalariga ta'sir ko`rsatadi. Odatda, yer tanqis bo`lgan maydonlardagi qishloqlar “Zarkent”, “Zarhok”, “Zarmitan” deb ataladi, ya'ni ekin ekish uchun qulay kichik yer zarga, oltinga tenglashtiriladi.

Qishloqlar shakllanishi va rivojlanishining asosini iqtisodiyot tarmoqlari tashkil qiladi. Bu jihatdan qishloqlar uch toifaga bo`linadi: qishloq xo`jaligiga ixtisoslashgan, qishloq xo`jaligiga ixtisoslashmagan va aralash qishloqlar. O`z navbatida, qishloq xo`jaligiga ixtisoslashgan qishloqlar bog`dorchilik va uzumchilik, sug`orma dehqonchilik, chorvachilik bilan shug`ullanadigan qishloqlardan tashkil topadi. Bu qishloq xo`jalik tarmoqlarining “qishloq hosil qilish” qobiliyati ham har xil. Nisbatan katta qishloqlar sug`orma dehqonchilik rivojlangan rayonlarda vujudga keladi, chorvachilik bilan shug`ullangan aholining yashash manzillari uncha katta bo`lmaydi.

Qishloq xo`jaligiga ixtisoslashmagan qishloqlar temir yo`l bekatlari, meteorologik stantsiya, rekreatsiya va turistik sohalar, qazilma boyliklar, suv omborlari va kanallar asosida shakllangan. Bu qishloqlarning aholisi ham uncha ko`p bo`lmaydi. Ishlab chiqarish salohiyati katta bo`lmasligi sababli bunday qishloqlarning aksariyati shahar yoki shaharcha maqomiga ega emas.

Aralash tipdagi qishloqlar yuqoridagi ikki sohalarning rivojlanishi yoki, odatda, qishloq xo`jaligi va u bilan bog`liq sanoat korxonalar negizida vujudga kelgan. Bunday qishloqlarning demografik salohiyati nisbatan katta bo`lishi mumkin. Demak, qishloqlarning katta-kichikligini ularning bajaradigan funksiyasi belgilab beradi. Bu aholi punktlari geografiasining eng muhim qonuniyatlaridan biridir.

Sobiq Ittifoq davrida qishloqlar shaharlashuv (urbanizatsiya) nuqtai nazaridan ikkiga, ya'ni istiqbolli va istiqbolsiz qishloqlarga ajratilib, go`yoki ularning taqdiri oldindan aytilib berilar edi. Aslida esa, har qanday qishloq, u katta yoki kichik bo`lmasin mavjud ekan, uning albatta iqtisodiy (hayotiy) zamini bor; chunki, bunday moddiy asosga ega bo`lmagan qishloq asta-sekin o`z-o`zidan yo`qolib ketadi.

Qishloqlarning katta-kichikligi ularning funksiyasiga bog`liq bo`lishi bilan birga bunday aholi manzilgohlarida aholiga xizmat ko`rsatish va servis sohasini rivojlantirish sharoiti turlicha bo`ladi. qishloq aholi punktlari zich joylashgan hududlarda o`ziga xos “qishloq aglomeratsiyasi” shakllanib, ular doirasida ham mayatniksimon migratsiya kuzatiladi.

Aholiga xizmat ko`rsatish sohalari, masalan, ta'lim, sog`liqni saqlash tizimi qishloq joylarda pog`onasimon, ierarxiyali tashkil etiladi. Bu V.Kristallerning “markaziy o`rinlar” g`oyasiga binoan, mayda qishloqlarda ta'lim yoki sog`liqni saqlash tizimlarining eng qo`yi bosqichi joylashadi, qishloqlar kattalashib borgan

sari ularda tashkil etilgan bu sohalarga tegishli ob'ektlar ham kattalashib boradi. Masalan, eng katta qishloqlarning ba'zilarida kollej yoki akademik litsey, yirik kutubxona, kasalxona, ixtisoslashgan savdo do'konlari, bank, supermarketlar tashkil etiladi.

Qishloqlar dam olish maskanlari (rekreatsiya) va turizmni rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega. So'lim va soya-salqin, go'zal manzarali joylar respublikamizda ko'plab topiladi. Xususan, soy va buloqlar bo'yidagi qishloqlarda turli oromgoh va sihatgohlar tashkil etilgan. Ayni vaqtda qishloq joylarda mahalliy, diniy, agroturizm va ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari ham katta. Turli xil qadamjolar, baliqmozor yoki chinorlar, g'or va shar-shararalar, ajoyib tog` yoki voha landshaftlari, milliy xalq o'yinlari, marosim va to'ylari, taomlari va liboslari ham muhim turistik ahamiyatga ega. Jumladan, agroturizm mahalliy va mintaqaviy iqtisodiyotning "qadam-baqadam" rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. Shuningdek, turli xil arxeologik topilmalar, qo'rg'on va tepalar, qadimgi irrigatsiya inshootlari ilmiy va xalqaro turizmni hududiy tashkil etishda omil bo'lib xizmat qiladi. Masalan, bunday yodgorliklar quyi Amudaryo va Surxon vodiysida ko'p. qishloq joylarni geografik o'rganishda ularning ana shu jihatlariga ham e'tibor bermoq zarur.

Qishloq joylar geografiyasini tadqiq qilishda markaziy o'rinni, albatta aholi egallaydi. Chunki, qishloq, eng avvalo, aholi yashaydigan joy, manzil hisoblanadi. Aholi esa o'z-o'zini takror barpo qilish xususiyatiga ega bo'lishi barobarida u moddiy va ma'naviy boyliklarning yaratuvchisi va ayni vaqtda bu boyliklarning iste'molchisi hamdir.

Qishloq joylar aholisini geografik o'rganishda ikki xil yondashuv mavjud. Birinchisi bu joylar aholisini "yoppasiga", ya'ni qishloq tumanlari, viloyat yoki respublika qishloq aholisining joylashuvi, zichligi kabi umumiy xususiyatlarini tahlil qilish bo'lsa, ikkinchi yo'nalish qishloq aholisini qishloq aholi punktlari darajasida tadqiq etishdan iboratdir. Ammo bu ikki yo'nalish, tizim-tarkib tamoyiliga o'xshash, bir-biridan keskin farq qilmaydi, aksincha, ularni o'zaro muvofiqlashtirgan holda o'rganish yaxshi natijalar beradi, binobarin, bu ikki yo'nalish bir-birini to'ldiradi va tadqiqot chuqurligi, mukammalligini ta'minlaydi. qishloq aholi punktlari o'rganilganda ular, eng avvalo, klassifikatsiyalashtiriladi. Bu jihatdan qishloqlar uch asosiy sinfga bo'linadi: kichik qishloqlar (aholi soni 1000 kishigacha), o'rta (1000-3000 kishi) va katta (3000 kishi va undan ortiq) qishloqlar.

Maxsus tadqiqotlarda bu guruhlashtirish yanada aniqroq darajada bajariladi. Bunda, masalan, qishloqlarning katta-kichikligi bo'yicha quyidagi sinflarga ajratish mumkin:

- Mayda qishloqlar-aholi soni 500 kishigacha;
- Kichik qishloqlar-500-1000 kishi;
- O'rta qishloqlar-1000-3000 kishi;

- Katta qishloqlar-3000-5000 kishi;
- Yirik qishloqlar-5000 kishidan ziyod.

Qishloq aholi punktlarining yuqoridagi guruhlarga ajratilishi tasodifiy emas, albatta. Turli bosqichdagi qishloqlar xo`jaligining ixtisoslashuvi va mujassamlashuvi, ularda ta'lim, savdo, sog`liqni saqlash, moliya tizimiga tegishli muassasalar, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma shahobchalari har xil bo`ladi.

Qishloqlarning katta-kichikligi, avval ta'kidlanganidek, ularning qaysi sohaga ixtisoslashuviga bog`liq. O`z navbatida, qishloqlarda aholi sonining ko`p yoki kamligi xizmat ko`rsatish va servis sohasini joylashtirishga ta'sir ko`rsatadi. qishloq aholi punktlarini o`rganish ularni kartalashtirish va rayonlashtirishni taqozo etadi. Relifi murakkab bo`lgan hududlarda qishloqlarni balandlik mintaqalari bo`yicha o`rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ularni daryo havzalari, cho`l, voha va vodiya, shahar atrofi darajasida tadqiq qilish ham katta geografik ma'noga ega.

Geografik tahlil qishloqlar va qishloq aholisi zichligi, qishloqlar o`rtasidagi o`rtacha masofa va boshqa ko`rsatkichlarni aniqlashni ham talab qiladi. Shu o`rinda ta'kidlash joizki, qishloq tumanlari miqyosida aholi zichligini hisoblash katta aniqlikka ega emas. Bu "brutto" ko`rsatkich ma'muriy tumanning barcha hududlariga taalluqli (aholi yashash yoki yashamasligidan qat'iy nazar, cho`l yoki tog` hududlarni ham qamrab oladi). Binobarin, aholi zichligini qishloq fuqarolar yig`inlari darajasida aniqlash yaxshi natijalar beradi. Bunda zichlik, ayniqsa, qishloq xo`jaligida foydalanadigan erlarga nisbatan hisoblansa, tahlil yanada chuqurroq va to`g`riroq bo`ladi.

Qishloq aholi punktlarini geografik o`rganish katta-kichikligiga ko`ra guruhlardan tashqari ularni bajaradigan vazifasiga (funktsiyasi) bo`yicha alohida tiplarga ajratishni nazarda tutadi. qishloqlarning uch asosiy funktsiyaga bo`linishi haqida avvalroq aytilgan edi. Shu bilan birga qishloqlarni oddiy va qishloq fuqarolari yig`inlari, ba'zan qishloq tumanlari markazi vazifasini bajaruvchi guruhlarga ajratish ham mumkin. Ularni rayonlashtirish esa tabiiy-xo`jalik rayonlari doirasida amalga oshiriladi. Chunki, tabiiy sharoit, agroiqlimiy resurslar (namlik, harorat, tuproq) qishloq xo`jaligi tarmoqlarining joylashuvi va ixtisoslashuviga ta'sir ko`rsatadi, ular esa, o`z navbatida, qishloqlar geografiyasini, katta-kichikligi va funktsional tiplarini belgilab beradi. Bunda shahar atrofi hamda urbanizatsiyalashgan hududlarni alohida ajratish zarur.

Qishloq aholi punktlarini genetik jihatdan o`rganish, xususan qadimdan va yangi o`zlashtirilgan hududlarda ularni vujudga kelish omillari va xususiyatlarini aniqlash ahamiyatdan xoli emas. Shuningdek, qishloqlarni uy-joy qurilishi, obodonlashtirilganligi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma bilan ta'minlanganligi, tashqi qiyofasi (konfiguratsiyasi) kabi jihatlarini ham tadqiq qilish katta geografik mazmun kasb etadi.

Qishloq joylar demografiyasi tahlili ham bu boradagi geografik bilimlarni to'ldiradi. U ayni vaqtda qishloqlar aholisi geografiyasini o'rganish bilan bog'liq. Agar asosiy maqsad qishloq joylar demografik jarayonlarini hududiy jihatdan tadqiq etish bo'lsa, bunday yondashuv demogeografik tavsifga ega bo'ladi va, aksincha, birinchi o'ringa hududlar (viloyatlar, qishloq tumanlari, qishloq fuqarolar yig'ini va qishloqlar) ob'ekt sifatida qo'yilsa, ularning ustuvorlik darajasi yuqori bo'lsa, u holda geodemografik yondoshuv nazarda tutiladi.

Biroq ta'kidlash lozimki, mintaqaviy demografiya va demografik vaziyatga bunday hududiy yondashuvlar orasida katta farq yo'q; farq faqat qaysinisi tadqiqot ob'ekti darajasida qabul qilinishida. Umuman olganda, har qanday hodisa yoki voqelik albatta qaerdadir, qaysi bir makonda sodir bo'ladi. Shu nuqtai nazardan hududiylik tamoyili bu yerda umummetodologik xususiyatga ega. Haqiqiy geografik tadqiqot esa bu hududga alohida tizim sifatida yondashadi (hududiy iqtisodiy tizim, hududiy ijtimoiy tizim, hududiy siyosiy tizim, hududiy ekologik tizim va h.k.) va uni ichki tahlili tizim-tarkib doirasida amalga oshiriladi. Har qanday hududiy yoki tarmoqlar tarkibi ham, o'z navbatida, ichkaridan (pastdan, quyidan) qaraganda, tizim, "tizimcha" ko'rinishida gavdalanadi.

Shunday qilib, qishloq joylar demografiyasida quyidagilar tahlil qilinishi kerak:

- aholi soni, uning o'sishi va joylanishi;
- aholining takror barpo etilishi (tug'ilish, o'lim, tabiiy ko'payish);
- aholi tabiiy va mehanik harakatining demografik vaziyatga ta'siri;
- aholining yosh-jins tarkibi;
- aholining milliy tarkibi;
- mehnat resursi shakllanishining demografik asoslari va b.

Yuqoridagi ko'rsatkichlar tadrijiy jihatdan, ya'ni ularning dinamikasi tahlil qilinib, tegishli qonuniyat yoki xususiyatlar aniqlanishi kerak. Shu bilan birga geografik tadqiqot bu jarayonlarning hududiy farqlari, tafovutlari va ularning sabablarini ochib berishni taqozo etadi. Bunda geografik taqqoslash, guruhlash, geodemografik to'lqinlarni belgilash kabi usullar qo'llaniladi.

Geodemografik to'lqinlar, yangiliklarning diffuzion tarqalish qonuniga binoan, u yoki bu demografik jarayonlardagi o'zgarishlarning hududiy "harakati" bilan bog'liq. Ularni aniqlash hududlar demografik vaziyatini prognoz qilishda muhim ham ahamiyat kasb etadi. Masalan, "tug'ilish ko'rsatkichlarining so'nggi 15-20 yildagi pasayib borishi ma'lum geografik qonuniyatlarni aks ettiradi, jumladan, markaziy mintaqalarda tug'ilish (tabiiy ko'payish) umumiy koeffitsientining pasayish jarayoni viloyatlar darajasida to'lqinsimon davom etadi va chekka hududlarda "to'xtaydi". Boshqacha qilib aytganda, markazda kuzatilgan bugungi holat, ma'lum vaqt (yil) o'tgandan so'ng, chekka hududlarda, qishloq joylarda qayd etiladi yoki, hozirgi qishloqlardagi demografik vaziyat bundan ma'lum vaqt oldin markazda yuz bergan bo'lishi

mumkin. Bunday geodemografik jarayonlar markaz-chekka hududlar (“tsentr-periferiya”) g`oyasiga ham o`xshab ketadi.

Qishloq joylar geografiyasini o`rganishda ijtimoiy masalalar muhim o`rin tutadi va ular ham demografik jarayonlar kabi aholi geografiyasi bilan bevosita bog`liq bo`ladi. Bunda qishloq aholisining yashash sharoiti va tarzi, ijtimoiy infratuzilma, geokrimenogen, nozogeografik va geoeologik holatlar tahlil qilinadi.

Qishloq aholisi tabiatga “yaqin”, shahar joylarda esa tabiiy sharoit kuchli deformatsiyalashgan, o`zgargan; bu erda o`ta zich joylashgan va o`ziga xos hayot tarziga ega bo`lgan aholi, ayniqsa, u avval qishloqda yashagan bo`lsa, hududiy tanglik va tanqislik mavjudligi sababli, bo`shliqqa, yakkalikka intiladi, uning tabiati ham o`ziga xos. Odatda, qishloq aholisida qarindosh-urug`, qo`shnichilik munosabatlari ko`proq rivojlangan bo`ladi.

Qishloq joylar va qishloqliklar shaharliklarga qaraganda yangiliklarni sekinroq qabul qiladi va bu yangilik nisbatan turg`un holatda ancha saqlanib turadi. Shahar joylarda esa mavjud holat tez-tez o`zgarib, yangilanib boradi. Demak, shu o`rinda, geografik ma'noda shahar joylarni Yer yuzining quruqlik qismiga, qishloqlarni dengiz-okeanlarga qiyoslash mumkin.

Shaharlarning o`ta harakatchanligi ularning hududlarni urbanizatsiyalashtirish hususiyatlarini keltirib chiqaradi. Ammo shahar joylarga nisbatan urbanizatsiya tushunchasini qo`llash nodurust, chunki, shaharning o`zi urbanizatsiyalashgan hudud hisoblanadi. Binobarin, urbanizatsiya shaharlarning atrof-muhit ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatini o`gartirishida o`z aksini topadi. Urbanizatsiya – hududlarda “shaharchasiga” yashash, ishlash tarzining tarqalishi bo`lib, bu jarayon, eng avvalo, qishloq joylarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bog`liq.

Hozirgi vaqtda respublikamizda, xususan qishloq joylar infratuzilmasini yaxshilashga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada ta'lim va sog`liqni saqlash tizimini to`g`ri hududiy tashkil etish va rivojlantirish, qishloq aholisini toza ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash kabilar geografik jihatdan o`rganilishi lozim.

Shuningdek, chakana savdo va pullik xizmat qishloq tumanlari va qishloq fuqarolar yig`ini (QFY) darajasida tadqiq qilinishi lozim. Bunda mutlaq ko`rsatkichlar bilan kifoyalanish to`liq xulosalar bera olmaydi. Shu bois, bu borada nisbiy ko`rsatkichlardan, masalan, aholi jon boshiga qancha savdo yoki pullik xizmat bajarilishi to`g`risidagi ma'lumotlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Sog`liqni saqlash tizimida ham qishloq vrachlik punktlari (QVP), ularning zichligi, qancha aholiga xizmat ko`rsatishi, ta'sir doirasi-radiusi kabi hududiy xususiyatlari o`rganiladi. Shu bilan birga qishloq aholisining salomatligi, kasallanish darajasi, kasallik turlari va ularning sabablari, umumiy nozogeografik

vaziyat, nozogeografik o`choq va areallarni aniqlash qishloq joylarni ijtimoiy geografik nuqtai nazardan o`rganishda katta ahamiyatga ega.

Ijtimoiy geografik holat ko`p jihatdan joylarning ekologik xususiyatlariga bog`liq. Geoekologik vaziyat esa aholi salomatligiga ta'sir etuvchi muhim omillardan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ichimlik suvi, uning fizik-kimyoviy tarkibi, sifati, atmosfera havosi, shamol, ovqatlanish rejimi va ratsioni, joylarning sanitar-gigienik holatlari ham tahlil va tadqiq qilinadi.

Qishloq hududlari ekologiyasi turli ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanadi. Ichki omil asosan, qishloq xo`jaligida har xil ximikatlar, gerbitsid va pestitsidlardan foydalanish, tuproq erroziyasi va sho`rlanishi, chiqindilar, chorva fermalari, tovuq fabrikalari va boshqa mahalliy xususiyatlar bilan bog`liq. Tashqi omil esa chetdan keluvchi iflos havo, suv, transchegaraviy holatlar negizida yuzaga keladi.

Qishloq, odatda, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda shaharga nisbatan passiv, zaifroq aholi punkti hisoblanadi. Shaharlarning ko`p funktsiyaligi, kattaligi, innovatsiya, investitsiya va infratuzilma salohiyatining kuchliligi, iqtisodiyotining ko`p tarmoqliligi va yuqori darajada rivojlanganligi, aholi yashashi, o`qishi, davolanishi, ishlashi uchun imkoniyatlarning keng ekanligi, ularning ta'sirchanlagi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizim yoki majmualarda etakchi rol o`ynashini ta'minlab beradi.

Qishloq shaharga ma'lum darajada bo`ysinadi, uni qishloq xo`jaligi xom ashyosi bilan, aholisini toza havo, suv, iqtisodiyotini ishchi kuchi bilan ta'minlab turadi. Shahar esa qishloqqa malakali kadrlar, qishloq xo`jaligiga mashina, asbob-uskunalar, mineral o`g`itlar, qurilish materiallari, zamonaviy servis xizmatini etkazib beradi.

Biroq, shu bilan birga, shahar ayrim ob'ekt yoki sohalarni chetga, qishloq joylarga chiqaradi. Masalan, yirik shaharlar atroflarida mol bozorlari, chiqindixonalar, qabristonlar, omborxonalar, yonilg`i terminallari, transformator podstantsiyalari, avtobazalar joylashgan. Ularning ko`pchiligi qishloq landshaftini buzadi, ekologik vaziyatiga salbiy ta'sir ko`rsatadi. Binobarin, qishloq joylar geografiasini o`rganishda ana shunday "shahar-qishloq" munosabatlarining hududiy jihatlariga ham ahamiyat bermoq zarur.

Qishloq joylar geografik xususiyatlarini qishloq aholi punktlari nomlari ham ifodalab beradi. Shu o`rinda toponimika, ya'ni joy nomlar qishloqlarning tarixi, etnografiyasi, xo`jaligi kabi jihatlarini aks ettirishini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Bu maqsadda mamlakatimiz olimlari H.Hasanov, S.Qoraev, P.G`ulomov, T.Nafasov, S.Tursunov, N.Oxunov, M.Mirakmalov, Yu.Ahmadaliev va boshqalarning asarlaridan foydalanish katta samara beradi.

Shunday qilib, qishloq joylarni geografik o`rganish keng qamrovli, kompleks yo`nalishda olib boriladi. Bunday tadqiqotlar qishloqlar ijtimoiy-

iqtisodiy muammolarini aniqlash va ularning ilmiy asosda echimini topishda muhim ahamiyat kasb etadi.

22-Mavzu: O'zbekistonda aholi geografiyasi va demografiya asoslari

Mavzu rejasi:

1. O'zbekiston aholi geografiasining asosiy xususiyatlari.
2. O'zbekiston aholisi soni dinamikasi, tarkibi, aholi takror barpo bo'lishi va uning mintaqaviy jihatlari.
3. Tug'ilish, o'lim va aholining tabiiy harakati. Respublika aholisining demografik tarkibi.
4. Mamlakatda aholining bandligi va mehnat resurslari muammosi. O'zbekiston aholisi migratsiyasi.
5. Aholining joylanishi geografiyasi. Aholi punktlari, respublika qishloqlari, shaharlari geografiyasi.

Amerikalik mashhur olim U.Ayzard fikricha, u yoki bu hududning xo'jaligi murakkab jumboq bo'lib, uni echishni aynan aholi bo'g'inidan boshlamoq kerak. Darhaqiqat, aholi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tushunchadir, u bilan ishlab chiqarish "boshdan oyoq", chambarcham bog'liq. Chunki, mehnat resurslarisiz ishlab chiqarish bo'lmaydi, ishlab chiqarish esa aholi uchun kerak; moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchisi ham, ularni iste'molchisi ham aynan ana shu aholi, ya'ni kishilarning ma'lum hududdagi birligidir.

Aholini iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanida o'rganishda uning uch asosiy xususiyati e'tiborga olinishi zarur:

aholi – ishlab chiqaruvchi kuch (aholining iqtisodiy funktsiyasi);

aholi – asosiy iste'molchi (ijtimoiy, sotsial funktsiyasi);

aholining o'z-o'zini takror barpo qilishi (demografik jihati).

Albatta, ushbu fan nuqtai nazaridan eng avvalo aholining birinchi va ikkinchi xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular aholini ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya ekanligini o'zida uyg'unlashtiradi. qolaversa an'anaviy iqtisodiy geografiya fanining evolyutsion tarzda "iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" maqomini rasmiy olishi ham aynan Inson omili, aholi va uning ijtimoiy rivojlanishining hududiy jihatlari tadqiq qilish natijasidan kelib chiqqan. Aholining uchinchi xususiyati, ya'ni uning takror barpo bo'lishi esa bevosita demografiya fanining tadqiqot ob'ekti bo'lib, ushbu jarayonning hududiy tafovutlarini o'rganish demogeografiya yoki geodemografiya yo'nalishiga mos tushadi.

O'zbekiston Respublikasi aholi soni bo'yicha dunyo miqyosida o'rtacha demografik salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Uning aholisi, 1 yanvar

2011 yil ma'lumotlariga binoan 28,5 mln. kishidan ziyodrog`ni tashkil etadi. Bu borada, u MDH mamlakatlari orasida Rossiya va Ukrainadan keyingi uchinchi va Markaziy Osiyo davlatlari orasida esa birinchi o`rinni egallaydi.

Mamlakatimizning demografik tarixi uning aholisini turli davrlarda har xil sur'atlarda o`sib borganligi bilan tavsiflanadi. Masalan, 1897 yilda o`tkazilgan Umumrossiya aholi ro`yhati ma'lumotlari bo`yicha hozirgi O`zbekiston hududida 3948 ming kishi istiqomat qilgan. 1913 yilga kelib, ya'ni 15 yildan so`ng bu raqam 4331 mingga etgan. 1926 yil aholi ro`yhai natijalari esa bu erda 4629 ming kishini qayd etgan va o`tgan davr mobaynida aholi soni yiliga o`rtacha 2,1 ming kishidan ortib borgan.

Keyingi davrlarda respublika aholi sonining o`shishiga sobiq Ittifoqda yuz bergan siyosiy va iqtisodiy voqealar jiddiy ta'sir ko`rsatgan. Jumladan, Ikkinchi jahon urushi arafasida (1939 y.). O`zbekiston aholisi 6347 ming kishini tashkil etgan holda, u 20 yildan so`ng, ya'ni 1959 yilda 8119 ming kishidan iborat bo`lgan. Bu davr oralig`ida umumiy ko`payish 1772 ming kishi, o`rtacha yillik ko`payish esa 88,6 ming kishiga teng bo`lgan. Ushbu qiyosiy raqamlar respublika aholi soni o`shishining birmuncha jadallashganidan dalolat beradi (nisbiy ko`rsatkichlarda yillik o`rtacha ko`payish 1,25 %). Tabiiyki, urush jarayonida front va front orqasida aholi o`limi ko`p bo`lmaganda respublika aholisi bundan ham tezroq o`sib borgan bo`lar edi.

Navbatdagi ikki aholi ro`yhati oralig`ida (1970-1979 yy.) O`zbekiston aholisi 11774 ming kishidan 15389 ming kishiga etgan; mutloq ko`payish 3615 ming, o`rtacha bir yillik ko`payish 402 ming, nisbiy o`shish 130,7 %, o`rtacha yillik ko`payish esa 3,00 foizga barobar bo`lgan. Shu o`rinda ta'kidlash lozimki, O`zbekiston aholisining eng tez (intensiv) ortib borishi aynan shu davrda qayd etiladi.

Sobiq Ittifoqda o`tkazilgan so`nggi aholi ro`yhati (1989 y.) O`zbekiston hududida 19780 ming kishini ko`rsatgan. 1979-1989 yillar mobaynida respublika aholisi 4391 ming kishiga ortgan va yillik o`rtacha ko`payish 2,55 foizni tashkil qilgan. Bu esa oldingi davrga qaraganda 0,45 foizga kam demakdir.

O`zbekistonda demografik jarayonlarning rivojlanishi yoki o`zgarib borishi keyingi yillarda ikki asosiy siyosiy-iqtisodiy omillar tufali yuz bergan. Bu ham bo`lsa O`zbekiston Respublikasining 1991 yilda siyosiy mustaqillikka erishishi va uning milliy iqtisodiyotini bosqichma-bosqich bozor munosabatlariga o`tishidir.

1989-2000 yillarda mamlakat aholisi 123,8 foizga o`sgan, bir yillik ko`payish pasayib borish jarayonida davom etib, 1,95 foizga barobar bo`lgan. Shu davrda demografik rivojlanish bo`yicha respublikamizning janubiy mintaqalari – Surxondaryo va qashqadaryo viloyatlari etakchilik qilgan. Ularda umumiy o`shish, mos ravishda, 139, 2 va 136,0 foiz bo`lgan. Ushbu hududlarda aholi sonining tez ko`payib borishi (boshqa viloyatlarga qaraganda) keyingi yillarda ham davom etib,

mamlakat aholisi hududiy tarkibida uning janubiy yo`nalishda birmuncha “surilishiga” olib kelgan.

Ko`rilayotgan davrda Namangan, Xorazm, Jizzax, Andijon hamda Samarqand viloyatlarida ham aholi sonining o`sb borishi respublika o`rtacha ko`rsatkichlaridan yuqoriroq darajada kechgan. Ayni vaqtda Navoiy, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida bu ko`rsatkich pastroq bo`lgan; poytaxt – Toshkent shahrida esa o`shish juda sust bo`lib, bu erda bir yillik ko`payish atigi 0,10 foizga teng bo`lgan, xolos.

2001-2012 yillar davomida respublika aholi o`shish sur'atining pasayishi yanada intensivlashgan. Ba'zi yillarda bir yillik ko`payish hatto 1,10-1,15 foizga ham tushib qolgan, eng so`nggi yillarda esa bu ko`rsatkich birmuncha ko`tarilib, 1,40-1,50 foizga etgan. Biroq, shunga qaramasdan umumiy xulosa qilish mumkinki, respublikamiz aholisining ko`payish sur'ati o`tgan asrning 70 yillariga qaraganda 2,0-2,2 marta qisqargan.

2001-2011 yillarda aholi soni mutloq o`shishda davom etgan bo`lsada, uning sur'atlari yanada pasayib borgan. Shu o`rinda ta'kidlash lozimki, bunday jarayon butun jahon aholisida ham kuzatilmoqda; qator Evropa mamlakatlari esa aholi sonining qisqarishi, ya'ni depopulyatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Bunday vaziyat MDH mamlakatlarida ham, xususan Rossiya, Belarus va Ukrainada keskin tus olgan. Tahlillar ko`rsatishicha, o`ziga xos “geodemografik to`lqinlar” hatto qo`shni Qozog`iston Respublikasining deyarli barcha viloyatlarida ham kuzatilmoqda va bu mamlakatda asosan uning O`zbekistonga tutash hududlari, ya'ni Janubiy Qozog`istonda aholi sonini mutloq ko`payishi yoki uning turg`unlashuvi kuzatilmoqda, xolos.

Respublikamizda ham bunday geodemografik to`lqinlar kuzatiladi. Bu erda aholi soni o`shish sur'atining pasayishi avvalo Toshkent shahri va Toshkent viloyatida qayd etilib, mamlakatning boshqa hududlarida bu jarayonning asta-sekin so`nib borishi yoki tezligining qisqarishi qayd etiladi. Boshqacha qilib aytganda, O`zbekistondagi yangi demografik o`zgarishlar (tug`ilish va tabiiy ko`payishning pasayib borishi) markazda boshlanib, ma'lum vaqt davomida u bosqichma-bosqich boshqa viloyatlarga tarqaladi; Toshkent shahri va poytaxt viloyatida kuzatilgan vaziyat respublikaning janubiy viloyatlari – Surxondaryo va qashqadaryoda birmuncha vaqt o`tgandan so`ng kuzatiladi yoki takrorlanadi. Qayd etish joizki, bu ikki “demografik qutb” o`rtasida jarayon o`zgarishining tezlik muddati tobora qisqarib bormoqda.

Aholi salmog`i ko`ra Samarqand viloyati birinchi, Farg`ona – ikkinchi, Toshkent viloyati uchinchi o`rinda turadi. Demografik salohiyatning eng past miqdori Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida kuzatiladi. Umuman olganda, respublikaning 5 ta viloyatiga (Samarqand, Farg`ona, Toshkent, Qashqadaryo va Andijon) jami aholining deyarli 40 foizi to`G`ri keladi.

So`ngi 10 yil mobaynida Qoraqalpog`iston Respublikasi hamda Buxoro, Sirdaryo, Toshkent viloyati va Toshkent shahri aholisining o`shishi mamlakat o`rtacha darajasidan past bo`lgan va ularning jami respublika aholisidan ulushi qisqargan. Aholining nisbatan jadal o`shishi Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand kabi viloyatlarda kuzatiladi. Natijada, bu hududlarning demografik salohiyati yanada ko`tarilgan.

Respublika hududining tabiiy sharoiti, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarining turli-tumanligi aholi joylashuviga ham ta'sir qiladi. Mamlakat bo`yicha aholi joylashuvining o`rtacha zichligi 1 km² va 65,8 kishidan iborat bo`lgan holda, u Navoiy viloyatidagi 7,9 kishidan Andijon viloyatida 631,2 kishiga farq qiladi. Bu boradagi ichki tafovut yoki geografik koeffitsient 79,9 martaga teng.

Tarixan aholi mamlakatimizning sug`oriladigan voha va vodiylarida zich joylashgan. Chunonchi, bu ko`rsatkich Farg`ona, Namangan, Xorazm viloyatlarida ham ancha yuqori. Qoraqalpog`iston Respublikasi hamda Navoiy viloyati O`zbekiston hududining 61,9 foizini tashkil qilsada, bu erda mamlakat aholisining atigi 8,9 foizi yashaydi; shu bois, aynan ana shu ikki ma'muriy birlik respublika aholisi joylashuvining o`rtacha ko`rsatkichiga jiddiy ta'sir ko`rsatadi.

Buxoro va Jizzax viloyatlarida ham aholi zichligi uncha yuqori emas, Surxondaryo va Qashqadaryoda esa u o`rtacha ko`rsatkichdan birmuncha yuqori. Biroq shunga qaramasdan, hatto bu hududlarning ham ichki, qadimdan sug`orildaigan rayonlarida (masalan, Vobkent, Shofirkon, G`ijduvon, Shahrisabz, Kitob, Qarshi, Yakkabog` tumanlarida) aholi ancha zich joylashgan. Umumiy tarzda respublika aholi joylashuvi ko`p jihatdan gidrografik shahobchalar-sug`oriladigan daryo va irrigatsiya inshootlari bilan belgilanadi. Shu bilan birga, yirik shaharlar, ayniqsa Toshkent aglomeratsiyasi doirasidagi qishloq tumanlarida ham aholi joylashuvi juda zich (1 km² ga 700-750 kishini tashkil etadi).

2012 yil ma'lumotlariga binoan O`zbekiston Respublikasining 51,0 foiz aholisi shahar joylariga to`g`ri keladi. Mutloq raqamda u 14625 ming kishi. Shahar aholisining oldingi yillardagi miqdori quyidagicha bo`lgan (ming kishi hisobida): 1926 y. -1002; 1939 y. – 1470; 1959 y. – 2729; 1970 y.-4327; 1979 y. – 6348, 1989 y. – 8059 va 2000 yilda 9166 ming kishi. Shahar aholisining o`shish sur'ati ayniqsa 70-80 yillarda yuqori bo`lgan. Bunga sabab – 1972 yilda aholi manzilgohlarining shahar maqomiga o`tkazish uchun talab etiladigan eng kam aholi miqdorini 10 mingdan 7 mingtagacha tushirilishi va buning oqibatida shaharlar sonining nihoyatda tez ko`payishidir (agar 1970 yilda respublikada 42 shahar mavjud bo`lgan bo`lsa, 1979 yilda ularning soni 90 taga etgan).

1989-2009 yillarda shaharliklar sonining o`shishi ancha susaygan. Natijada umumiy urbanizatsiya ko`rsatkichi 40,7 foizdan 35,8 foizga tushib qolgan. Viloyatlar darajasida mazkur jarayon ayniqsa Toshkent, Fargona, Buxoro,

Xorazmda sezilarli boʻlgan va u faqat Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Jizzax hamda Namangan viloyatlarida birmuncha koʻtarilgan.

2009 yilni respublikamizda “qishloq taraqqiyoti va farovonliga yili” deb eʼlon qilinishi munosabati bilan urbanistik vaziyatda keskin oʻzgarish yuz berdi. Yangi urbanistik siyosat tufayli Oʻzbekistonda birdaniga 966 qishloq aholi punktiga shaharcha shaharcha maqomi berildi. Ularning hozirgi real holatini hisobga olib, “agrosaharlar” yoki “qishloq shaharlari” deb atash mumkin.

Eng koʻp yangi shaharchalar Fargʻona viloyatida tashkil etilgan – 196 ta. Shuningdek, bunday manzilgohlar Qashqadaryo, Surxondaryo, Namangan viloyatlarida ham ancha koʻp – har birida yuztadan ortiq. Birmuncha kamroq yangi shaharchalar Sirdaryo viloyati va Qoraqalpogʻiston Respublikasida qayd etiladi. Umumiy urbanizatsiya darajasining eng yuqori koʻrsatkichi Namangan viloyatida – 64,3 %. Bu koʻrsatkich Fargʻona va Andijon viloyatlarida ham oʻrtachadan yuqori. Nisbatan urbanizatsiyalashmagan mintaqalar Xorazm, Surxondaryo, Samarqand va Buxoro viloyatlari hisoblanadi.

Urbanizatsiya jarayoni va uning yakuniy koʻrsatkichi, odatda, hududlar iqtisodiyotining ixtisoslashuvi, shahar hosil qiluvchi omillarning mavjudligiga bogʻliq. Shu nuqtai nazardan Qoraqalpogʻiston va qisman Navoiy viloyatida mazkur koʻrsatkichning birmuncha yuqoriligi koʻrilayotgan hududlar sanoat salohiyatidan emas, balki bu joylarda intensiv qishloq xoʻjaligini rivojlantirish sharoitlarining cheklanganligidan darak beradi. Faqat poytaxt – Toshkent viloyatida u haqiqiy real voqelikni aks ettiradi, chunki bu erda, boshqa viloyatlarga qaraganda, sanoat tarmoqlari nisbatan yaxshiroq rivojlangan. Ammo bunday xulosani Namangan va Fargʻona viloyatlari uchun qoʻllash uncha toʻgʻri boʻlmaydi.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini shaharlar toʻri va tizimi ham yaqqol ifodalab beradi. Aksariyat hollarda shaharlar sonining koʻpligi, yirik shahar va shahar aglomeratsiyalarining mavjudligi hudud ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining yuqoriligini koʻrsatadi. 2011 yil maʼlumotlariga koʻra, respublikada 119 shahar va 1063 shaharcha mavjud. Shaharlar soni boʻyicha Qoraqalpogʻiston Respublikasi (12), Qashqadaryo (12) va Toshkent (16) viloyatlari ajralib turadi. Ayni vaqtda hududiy urbanistik tarkib Jizzax, Xorazm va Sirdaryo viloyat ularning toʻri Jizzax, Xorazm va Sirdaryo viloyatlarida yaxshi rivojlanmagan.

Iqtisodiyotning asosan qishloq xoʻjaligi hamda qayta ishlash sanoatiga ixtisoslashganligi sababli bu erda kichik shaharlar toʻri juda keng tarqalgan. Jumladan, respublikada katta shaharlar (100 ming aholi va undan ortiq) 17 ta, oʻrta shaharlar (50-100 ming kishi) 19 ta, “yarim oʻrta” shaharlar (20-50 ming) 67 ta. qolgan 1063 ta shahar va shaharchalarning har birida 20 ming kishidan kam aholi istiqomat qiladi.

Oʻzbekistonda jami 17 ta katta shahar mavjud boʻlib, ularga respublika shahar aholisining 40,4 foizi toʻgʻri keladi. Aholi soniga koʻra Toshkentdan

keyingi o`rinlarda Namangan, Andijon, Samarqand, Buxoro, Nukus, Qarshi shaharlari turadi. Shuningdek, Chirchiq, Olmaliq, Angren, Qo`qon, Marg`ilon shaharlarining ham har birida 100 mingdan ziyod aholi bor. Ayni vaqtda Sirdaryo viloyatining ma'muriy markazi – Gulistonda atigi 58,8 ming kishi yashaydi. Shu bilan birga, yirik markazlar negizida shaharlar hududiy tizimining murakkab shakllari ham vujudga kelgan. Chunonchi, Toshkent Samarqand, Farg`ona-Marg`ilon aglomeratsiyalari shular jumlasidandir.

Boy tarixga ega bo`lgan, urbanizatsiya jarayonining “osiyocha” yoki sharqona shakli qishloq xo`jaligining sug`orma dehqonchiligi va u bilan boG`liq shaharlar to`riga asoslanadi. Binobarin, sharq tarixi va sharq madaniyatini sug`orma dehqonchilik hamda qishloq va shaharlarning ajralmas birligi, urbanizatsiyaning o`ziga xos yo`nalishsiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Shu bois ham respublikamiz iqtisodiyoti va demografik salohiyati asosan qishloq xo`jaligi va qishloq aholisidan tashkil topgan.

Joriy ma'lumotlarga qaraganda, O`zbekistonda 11831 ta qishloq aholi manzilgohlari bor. Qoraqalpog`iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Samarqand va Farg`ona viloyatlarining har birida mingdan ortiq qishloqlar mavjud, ularning eng kam miqdori esa Sirdaryo viloyatida – 284 ta. Respublikamizda o`rtacha har bir qishloqqa 1300 kishi to`g`ri keladi. Bu jihatdan Namangan va Andijon viloyatlari oldinda turadi. Hududi qishloq xo`jaligini rivojlantirish uchun uncha qulay bo`lmagan Qoraqalpog`iston Respublikasi hamda Buxoro va Navoiy viloyatlarida esa qishloqlar ancha kichik (o`rtacha 640-700 kishi).

2009 yil – “Qishloq farovonligi va taraqqiyoti” yili deb e'lon qilinishi munosabati bilan qishloq joylar ijtimoiy-iqtisodiy muammolariga katta e'tibor berilmoqda. Ayniqsa qishloq aholisini elektr energiya, ichimlik suvi hamda tabiiy gaz bilan muntazam ta'minlash, aholi bandligi masalalarini hal etish “qishloqlar rivojlanishi” Davlat dasturida ustuvor vazifalar qilib belgilangan. Shu bilar birga aholisi ko`p, sanoat va qurilish inshootlari mavjud bo`lgan, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma shahobchalari yaxshi rivojlangan yirik qishloqlarning ba'zilariga shahar yoki shaharcha maqomi berilmoqda.

Hozirgi kunda respublikamizda yirik qishloqlar xususan Samarqand, Namangan, Andijon, Farg`ona viloyatlarida ko`p. Tabiiy sharoiti xo`jalik yuritish va aholi joylashuvi uchun nisbatan noqulay bo`lgan hududlarda esa ularning soni ozroq. Masalan, respublikamizning “eng tog`li” va “eng qishloqli” viloyati – Surxondaryoda bunday aholi manzilgohlari ancha kam.

Yuqoridagilarga mos ravishda qishloq joylarda mehnat resurslari ham ko`p va hatto ular keragidan ham ortiqcha. Ish o`rinlarining etishmasligi, ishsizlik, mehnat bozorining faol emasligi aholisi zich joylashgan voha va vodiylarda ijtimoiy muammolarning kelib chiqishiga sabab bo`ladi. Aynan shuning uchun ham respublikada qishloq xo`jaligidagi islohotlarni chuqurlashtirishga, qishloq

sanoati va infratuzilmasini, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng miqyosda rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu dalzarb masala davlatning mintaqaviy siyosatida o'z echimini topmog'i lozim.

O'zbekiston aholisi asosan tabiiy ko'payish natijasida oshib boradi. Bu omilning roli hammavaqt ham yuqori bo'lgan. Eng so'nggi yillarda esa u aholi soni o'sishining birdan bir manbai bo'lib kelmoqda. Biroq ta'kidlash joizki, 90-yillarda aholining takror barpo bo'lish jarayonida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi; endi respublikamizni an'anaviy holatda tug'ilish yoki tabiiy ko'payish yuqori mamlakat sifatida ta'riflash uncha to'g'ri emas.

Tug'ilish koeffitsientining keskin qisqarishi eng so'nggi yillarga to'g'ri keladi. Masalan, tug'ilish 1990 yilda 33,7 promillega teng bo'lgan holda, 1999 yilda u birdaniga 22,3 promillega tushib qolgan, ya'ni bu qisqa davrda mazkur ko'rsatkich 11,4 punktga yoki 1,5 martaga kamaygan. 2011 yilda har ming kishiga nisbatan tug'ilish 21,4, o'lim 4,9 va tabiiy ko'payish 16,5 kishini tashkil etadi. O'lim darajasida keskin o'zgarishlar bo'lmaganligi sababli aholining tabiiy ko'payishi asosan uning tug'ilish ko'rsatkichlariga bog'liq.

O'zbekiston sharoitida kichik shaharchalarning ko'pchiligida real demografik vaziyat oddiy qishloqlardagi holatga o'xshab ketadi. Ammo, shu bilan birga ta'kidlash lozimki, ba'zi bir yuqori darajada sanoatlashgan shaharlarda tug'ilish darajasi ancha past. Chunonchi, mavjud ma'lumotlarga ko'ra, tug'ilish har 1000 aholiga Chirchiq, Yangiobod, Kogon kabi shaharlarda 12-13 kishi atrofida. Hatto tipik sharqona shaharlarimizda ham (Samarqand, Buxoro, Qo'qon va b.) mazkur ko'rsatkich 14-15 promellega teng. Natijada, aholining tabiiy ko'payishi ancha kam – Chirchiq yoki Yangiobodda u 5 promellega ham etmaydi. Albatta, bunday demografik vaziyat respublikamiz uchun uncha an'anaviy emas. Bu, o'z navbatida, demografik jarayonlarda ham o'ziga xos o'tish davri kechishidan dalolat beradi. Tabiiyki, bu jarayonlar yaqin kelajakda mehnat resurslarining shakllanishiga, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin.

Viloyatlar bo'yicha tug'ilish va tabiiy ko'payishning nisbatan katta ko'rsatkichlari Qashqadaryo va Surxondaryoda, ularning past darajasi esa Toshkent va Navoiy viloyatlarida kuzatiladi. Poytaxt viloyatida tabiiy ko'payish 14,3 promelleni tashkil etadi. O'lim ko'rsatkichlarida uncha katta tafovut yo'q; uning eng kam miqdori tug'ilish ancha yuqori bo'lgan Qashqadaryo viloyatida bo'lib, bunday nisbat mazkur hududda aholi sonining tezroq ortib borishiga olib keladi.

Respublika aholisining ko'payishida tashqi migratsiyaning ham roli bor. Ammo bu omilning ijobiy ta'siri ko'proq avvalgi yillarga to'g'ri kelgan. 70- va, xususan, 80-yillar oxiridan boshlab ushbu jarayon O'zbekiston uchun manfiy natijaga ega bo'lgan. Bu asosan bir vaqtlar O'zbekistonga ko'chib kelganlarning yana o'z vatanlariga qaytib ketishlari natijasida yuz bergan.

Shuningdek, keluvchilar soni muntazam ravishda kamayib borgan, ketuvchilar miqdorida esa aniq, bir yo`nalishdagi jarayon uncha sezilmaydi. Masalan, respublikamizdan tashqariga ketganlarning eng ko`p miqdori 1990 yilda kuzatiladi. Biroq, shu yili kelganlar soni ham nisbatan ko`p bo`lgan. Buning natijasida migratsiya qoldig`i (saldosi) minus 121 ming kishini tashkil qilgan. 1994 yilda ketganlar soni avvalgi yillarga qaraganda uncha ko`p bo`lmasada, ammo kelganlar juda ozchilikni tashkil qilgan (mos ravishda 179 va 38 ming kishi), oqibatda migratsiya qoldig`i ko`rilayotgan davrda eng yuqori bo`lgan (minus 141 ming kishi). 2010 yilda kelganlar 139,8 ming, ketganlar 183,9 ming, migratsiya qoldig`i minus 44,1 ming kishi. 2012 yilda esa bu ko`rsatkichlar 135,9; 182,4 va minus 46,5 ming kishi.

L.P.Maksakova va O.B.Ota-Mirzaev ma'lumotlariga qaraganda, 1991-1997 yillarda respublika shahar joylari bo'yicha netto-migratsiya, ya'ni sof salbiy migratsiya qoldig`i rus millatiga mansub bo`lganlarda 302 ming, tatarlarda 95, yahudiylarda 50, ukrainlarda 28, nemislarda 20 ming kishini tashkil etadi. Ketuvchilarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasiga to`g`ri keladi. Shuningdek, O`zbekiston Ukraina va Qozog`iston davlatlari bilan ham bo`lgan aholi aloqalarida ancha ko`p manfiy migratsiya qoldig`iga ega, uning musbat natijasi esa ko`proq Tojikiston hisobidan yuzaga kelgan.

Qayd etish lozimki, tashqi migratsiyada eng avvalo shahar aholisi qatnashadi. Binobarin, migratsiyaning salbiy oqibati ham aynan shaharlarda va, jumladan, rusiyazabon xalqlar ko`proq joylashgan sanoat markazlarida kuzatiladi. Shuning natijasida, masalan, Chirchiq, Olmaliq, Angren kabi shaharlarda aholi soni 1991 yilga qaraganda kamaygan yoki juda oz darajada ortgan. Qolaversa, Toshkent shahrida ham aholi soni uncha ko`p o`smagan.

Tashqi migratsiyadagi vaziyat shahar joylardagi mehnat resurslarining miqdor va sifat jihatlariga o`z ta'sirini ko`rsatadi. Chunonchi, migratsiyada asosan katta yoshdagilar va malakali ishchi kadrlarning qatnashganlari sababli mehnat resurslaridan foydalanishda muvaqqat muammolar vujudga kelishi muqarrar.

Aholining tabiiy va mexanik harakatidagi o`zgarishlar uning milliy, jins va yosh tarkibiga ham ta'sir ko`rsatadi. O`zbekiston ko`p millatli mamlakat, bu erda 100 dan ortiq millat va elat vakillari teng huquqli bo`lib yashaydilar. 1989 yil aholi ro'yhatiga muvofiq, o`zbeklar jami aholining 71,4 foizini tashkil etadi. 90-yillarda bir vaqtlar ko`chib kelgan boshqa millat vakillarining reemigratsiya qilishi tufayli o`zbeklarning ulushi ko`paymoqda. So`nggi ma'lumotlarga qaraganda 2010 yilda 23,3 mln ga yaqin yoki jami aholisining 82 foizi respublikaning tub millati – o`zbeklarda to`g`ri keladi.

O`zbekistonning barcha hududlari ko`p millatli. Nisbatan sanoatlashgan viloyat va shaharlarda mahalliy xalqlardan tashqari boshqa millat vakillari ham ko`p (Toshkent, Navoiy viloyatlari, Toshkent, Chirchiq, Angren, Olmalik, Zarafshon, Farg`ona va boshqa shaharlar). Shu bilan birga, Xorazm viloyati aholisi

asosan bir millatli – 97,3 foiz aholi o'zbeklardan iborat. O'zbeklarning hissasi Toshkent shahri va viloyati hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida kamroq.

O'zbekistonda taxminan 626 ming qoraqalpoq millati yashaydi. Ularning aksariyati (94,2 %) Qoraqalpog'iston Respublikasida joylashgan. Mamlakatimizda qadimdan tojiklar ham juda ko'p (1,4 mln ga yaqin) yashab kelgan. Ularning asosiy qismi Surxondaryo, Samarqand, Namangan va Farg'ona viloyatlarida joylashgan. Tojiklar, shuningdek, qisman Toshkent, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlarida ham yashaydi. Qozoqlar ko'proq Qoraqalpog'istonda hamda Navoiy va Toshkent viloyatlarida, qirg'izlar Jizzax, Farg'ona va Andijon viloyatlarida, turkmanlar – Surxondaryo va Qashqadaryo, Qoraqalpog'istonda joylashgan. Bulardan tashqari, respublikamizda ukrain, tatar, koreyts, boshqird, arman, ozarbayjon va boshqa millat vakillari ham bor. Ularning ko'pchiligi shahar joylarida istiqomat qiladi.

Aholining jinsiy tarkibi tenglashib bormoqda; shaharliklar orasida ayollar ko'proq (50,7 foiz), qishloqlarda esa jinslar o'rtasidagi farq deyarli sezilmaydi. O'zbekistonda tug'ilish nisbatan yuqoriligi sababli aholi tarkibida yoshlar ulushi katta. Respublika aholisining taxminan 30 foizini 9 yoshgacha bo'lgan bolalar tashkil etadi. Shuning uchun davlatning ijtimoiy siyosatida sog'lom, barkamol avlod tarbiyasiga, yoshlarga katta ahamiyat berilmoqda.

Respublikada mehnat resurslarining soni ko'p, biroq ularning jami aholi tarkibidagi ulushi oz. Buning sababi tug'ilish va tabiiy ko'payishning yuqoriligidadir. Natijada, "demografik yuk" yoki mehnatga layoqatli aholi bilan mehnatga layoqatsizlar nisbati o'ziga xos. Masalan, agar Boltiq dengiz bo'yi davlatlarida oilada 3 kishidan 2 kishi ishlasa, bizda, aksincha, 6 kishidan 2 yoki 3 kishi ishlashi mumkin, xolos.

Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, 2010 yilda O'zbekistonda mehnatga layoqatli yoshdagilar 16046,6 ming kishi, iqtisodiy faol aholi 12003,5 ming kishi, iqtisodiyotda band bo'lganlar 11466,3 ming kishini tashkil qiladi. Ta'kidlash joizki, keyingi yillarda, noishlab chiqarish sohasida band bo'lganlar soni tezroq ko'payib bormoqda. Nodavlat sektorda band bo'lganlar 80 foizga yaqin. Barcha tuman va shaharlarda mehnat birjalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ular asosan "Bandlik" Davlat dasturini amalga oshirish bo'yicha qator ishlarni bajarishadi. Jumladan, birgina 2010 yilda 630 mingga yaqin yangi ish joylari tashkil etilgan bo'lib, ularning asosiy qismi korxonalar va tashkilotlarga, xususan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermer xo'jaliklariga to'g'ri keladi. Yangi ish joylarining 2/3 qismidan ortiqrog'i qishloq joylarda yaratilmoqda. Bu esa "Qishloq joylar rivojlanishi" dasturini bajarishda katta ahamiyat kasb etadi.

2. AMALIY MASHG`ULOTLAR MAVZULARI

1. Aholi ro'yxati tarixi va uni o'tkazish bo'yicha jahaon tajribasini o'rganish va baholash;
2. Dunyo mintaqalari aholi soni va uning dinamikasi jadvalini tuzish;
3. Aholi sonining mutloq ko'rsatkichlarini hisoblash.
4. Aholi soni va dinamikasining nisbiy ko'rsatkichlarini hisoblash.
5. Dunyo mintaqalari aholi soni va uning joylanishi kartasini tuzish;
6. Dunyo mintaqalari aholisi tug'ilish, o'lim va tabiiy ko'payish jadvalini tuzish;
7. Aholining yosh-jins piramidasini chizish;
8. Dunyo aholisi irqiy tarkibi kartasini ishlash;
9. Shimoliyyarim shardagi mamlakatlar aholisi milliy, irqiy va diniy tarkibining geografikva demografik jihatlarini baholash;
10. Aholi etnik tarkibi kartasini ishlash;
11. Etnogenezich nazariyasi va Gumilev ilmiy tadqiqot ishlarini ilmiy o'rganish;
12. Dunyo aholisi diniy tarkibi kartasini ishlash.
13. Dunyo mamlakatlari migratsiya tarixi: Buyuk geografik kashfiyotlar davri, ikkinchi jaxon urishi, oqillar ketishi;
14. Jahon mamlakatlarida aholi migratsiyasining statistik tahlili;
15. Dunyo aholisi zichligi va joylanishini kartasini ishlash;
16. Yirik aglomeratsiyalar, megopolislar, oykumenopolislar geografiyasini tahlil etish;
17. Urbanizatsiya, shaharlar aholi soni, zichligi kartasini ishlash.
18. Monoshaharlar. Resurs shaharlar. Ilm-fan va madaniyat shaharlari;
19. Aholining brutto, netto zichliklarini topish va hududning o'zlashtirilishi darajasini aniqlash;
20. O'zbekiston shahar aholi manzilgohlarini statistik o'rganish;
21. O'zbekiston aholisi zichligi va yirik shaharlari kartasini tuzish;
22. Viloyat markazlari, qishloq ma'muriy tumanlari markazlari aholi soni dinamikasi va zichligini topish;
23. Mexnat resurslari balansini topish.

3. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

1. “Demografik oʻtish bosqichlari” va ushbu jarayonni dunyo hududlari boʻylab ahamiyati.
2. Oʻzbekiston aholisi va joylanishi.
3. Demografik oʻtish konsepsiyasi.
4. Aholi mexanik harakatini miqdoriy va sifatiy baholash.
5. Demografik tadqiqotlar rivojlanishi tarixi.
6. MDH davlatlari aholisi demografik vaziyati.
7. Aholining iqtisodiy, ma'lumotlilik va ijtimoiy tarkibi.
8. “Demografik oʻtish bosqichlari” va ushbu jarayonni dunyo hududlari boʻylab ahamiyati.
9. Oʻzbekiston aholisi va joylanishi.
10. Aholining oilaviy tarkibi.
11. Demografik oʻtish kontsepsiyasi.
12. Rivojlanayotgan mamlakatlar demografik siyosati.
13. Aholi mexanik harakatini miqdoriy va sifatiy baholash.
14. Demografik tadqiqotlar rivojlanishi tarixi.
15. Aholi geografiyasining fan sifatida shakllanishi.
16. MDH davlatlari aholisi demografik vaziyati.
17. Geodemografiya va demogeografiya.
18. XX asrda aholi geografiyasi.
19. Nikoh va ajralish.
20. Geodemografik vaziyatning mintaqaviy tiplari.
21. Dunyo mamlakatlari demografik siyosatlari.
22. Dunyo aholisi migratsiyasi
23. Urbanizatsiya jarayoni. Dunyo shaharlari

4.GLOSSARIY

Aglomeratsiya, aholi punktlari aglomeratsiyasi – aholi punktlari, asosan shaharlar, shuningdek, qishloqlarning intensiv xo'jalik mehnat va madaniy-maishiy hamda rekratsion aloqalar bilan bog'lanib, yagona birlikni tashkil qilgan kompakt hududli guruhi.

Aglomeratsiya (Agglomeration)-yirik shahar atrofida qator shahar va qishloqlarning mujassamlashuvi va o'zaro bog'liq holda rivojlanishi.Uning uchun bir yoki bir necha yirik shahar (yadrosi), ikki yoki undan ortiq yo'ldosh shahar, yadro va yo'ldosh shaharlar o'rtasida kamida ikki soatli aholi aloqalari bo'lishi lozim.

Aholi daromadlari – barcha aholiga tegishli pul va natural (mahsulot shaklida tushumlar hamda ko'rsatilgan bepul xizmatlar summasi; aholining milliy daromaddagi hissasi.

Aholi migratsiyasi(Migration of population) – aholining yashash joyini o'zgartirishi bilan bog'liq ko'chishi.

Aholi migratsiyasi-aholining yashash joyini o'zgartirishi bilan bo'g'liq ko'chishi.

Aholi zichligi – muayyan hududda aholining joylashuv darajasi. Mamlakat yoki biror hudud (viloyat, tuman) aholi sonini shu hudud er maydoniga (odatda 1 km. ga) taqsimlash bilan hisoblab chiqariladi.

Aholi zichligi (Density of population) – muayyan hududda aholining joylashuv darajasi. Mamlakat yoki biror hudud (viloyat, tuman) aholi sonini shu hudud er maydoniga (odatda 1 km. ga) taqsimlash bilan hisoblab chiqariladi.

Aholi zichligi-maydon birligiga . odatda 1 km.kv. ga to'g'ri keluvchi aholi soni tushuniladi. Millat - insonlarning tarixan shakllangan umumjamo'a guruhlari. Millatga hayot moddiy sharoitlari va hududning umumiyliigi, til va milliy xarakter birligi xosdir

Aholining milliy tarkibi – muayyan hudud yoki mamlakatda yashovchi aholining millatlar bo'yicha tarkibi.

Aholining tabiiy o'sishi (Natural growth of population)– ma'lum davr ichida tug'ilganlar va o'lganlar soni o'rtasidagi farq.

Antropogen ta'sir – insonning xo'jalik faoliyati natijasida tabiat va uning resurslariga ko'rsatadigan ta'siri

Antropologiya (grek tilidan – antropos – “inson”) inson organizmining evolyusiyasi va undagi jismoniy o'zgarishlarning kelib chiqish qonuniyatlari, shuningdek irqning vujudga kelishi va geografik tarqalishini o'rganib, u aholi geografiyasi bilan birgalikda aholi mehnat faoliyati turmush sharoiti va madaniyatidagi hududiy xususiyatlarni o'rganadi.

Demografik statistika, aholi statistikasi – statistika fani tarmog'i, aholi yoki uning alohida guruhlarining soni, tarkibi, joylashishi va takror barpo bo'lishi haqida statistik uslub asosida ma'lumotlar to'plash, uni qayta ishlash, tahlil qilishni o'rganadi.

Deportatsiya – (lot. «deportatio» – badarg'a, surgun qilish) – jinoiy yoki ma'muriy jazo chorasi sifatida davlatdan majburiy chiqarib yuborish, haydash.

Doimiy migratsiya- aholining uzoq muddatga (bir yildan oshiq) bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chib yana qaytishidir.

Dunyoning siyosiy kartasi- jahon davlatlarining vujudga kelishi, rivojlanishi, siyosiy-hududiy qurilishi bilan bog'liq murakkab siyosiy, ijtimoiy, hududiy, iqtisodiy jarayonlarning uyg'unligini o'zida mujassam etuvchi insoniyatning uzoq tarixiy taraqqiyoti ko'zgusidir.

Dunyoviy shaharlar (The worldwide cities)- muayyan soha yoki tarmoq va yo'nalishga ixtisoslashgan, aholi sonidan qat'iy nazar jahon ahamiyatiga molik bo'lgan shaharlar.

Dezurbanizatsiya (Deurbanisation)- yirik shaharlardan aholining atrofga ko'chib ketish (qochish) hollari.

Emigratsiya- kishilarning doimiy yoki vaqtincha yashash uchun o'z vatanidan boshqa mamlakatlarga ko'chib ketishi. Emigratsiyada qatnashgan aholi emigrantlar deb ataladi.

Envayromentologiya- atrof muhit to'g'risidagi majmual fan.

Geoekologiya – ekologiyani yuqori bosqichdagi ekosistemalarni, shu jumladan biosferani o'rganuvchi fan.

Geografik muhit – tabiatning insoniyat jamiyati mavjud bo'lgan, odamning butun hayoti va ishlab chiqarish faoliyati ro'y beradigan qismi.

Geosiyosat, geografik siyosat – siyosatshunoslikdagi nazariya. Geosiyosat termini muayyan bir mamlakat o'rnini, tabiiy boyliklari iqlimi va boshqa geografik omillarning davlat tashqi siyosatiga (geografik siyosiy strategiyasi va h.k.) muayyan ta'sirni ifodalash uchun ishlatiladi. Geosiyosat tushunchasini birinchi bor R. Chellen (Shvetsiya) ilmiy muomalaga kiritgan.

Gigiena (yunoncha-sog'lom) - kishilar sog'lig'iga turmush va mehnat sharoitlari ta'sirini o'rganadi hamda kasalliklarni oldini olish, yashash uchun eng qulay sharoit yaratish, sog'liqni saqlash va uzaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi;

Genofond – ma'lum guruhdagi individlarning (populyatsiyalar, populyatsiyalar guruhi yoki turning) barcha genlari yig'indisi

Ijtimoiy ishlab chiqarish – jamiyat yoki milliy iqtisodiyot miqyosida ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida kishilarning ehtiyojlarini qondirish uchun kerak bo'ladigan ne'matlarni yaratishga yunaltirilgan iqtisodiy faoliyatlar majmui. Bu faoliyat natijasida yalpi milliy maxsulot, shu jumladan yalpi ichki mahsulot va milliy daromad ishlab chiqariladi.

Ijtimoiy tuzum-jamiyatning muayyan taraqqiyot bosqichiga xos bo'lgan ijtimoiy munosabatlar tizimi. Ijtimoiy tuzum jamiyatda qanday ijtimoiy munosabatlar amal qilishini aks ettiradi.

Immigrantlar – (lot. «immigrans» – ko`chib keluvchi) bir davlatdan boshqa bir davlat xududiga doimiy yoki uzoq vaqt istiqomat qilish uchun ko`chib kelgan fuqorolar.

Immigratsiya- kishilarning uzoq muddatga doimiy yoki vaqtincha yashashi uchun biron bir mamlakatga boshqa davlatlardan ko`chib kelishi. Imigratsiyada qatnashgan aholi “immigrantlar” deyiladi.

Iqtisodiy geografiya- ishlab chiqarish kuchlarining butun dunyo, mamlakatlar, mintaqalar bo`yicha Hududiy joylashishi va rivojlanishi muammolarini o`rganuvchi fanidir

Iqtisodiy rayon, iqtisodiy-geografik rayon – tabiiy va iqtisodiy sharoitlari bir xil va xalq xo`jaligi tarixan tarkib topgan, ixtisoslashgan ishlab chiqarishga ega bo`lgan hudud.

Iqtisodiy va sotsial gegografiya - mustaqil fan sifatida turli mamlakat va rayonlarda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish va joylanish xususiyatlari hamda inson xayot faoliyati va yashash tarzining hududiy jihatlarini o`rganadi.

Ish bilan band bo`lgan jami aholi – ishchi kuchi (iqtisodiy faol aholi)ning ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo`lgan qismi.

Ishchi kuchi, mehnat qilish qobiliyati – insondagi tirikchilik ne'matlari ishlab chiqarishda foydalaniladigan jismoniy va ma'naviy qobiliyatlar majmui.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar, unum beruvchi kuchlar – ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo`lgan ishlab chiqarish vositalari va kishilar majmui.

Ishsizlik – iqtisodiy jihatdan aktiv (faol) aholining bir qismi o`z kuchini qo`llay olmay «ortiqcha» bo`lib, mehnat zaxirasi armiyasi bo`lib qolish hodisasi.

Konurbatsiya (Conurbation)-hududiy jihatdan bir-biri bilan qo`shilib ketgan shahar va shaharchalarning ulkan tizimi. U ham aglomeratsiyaning bir ko`rinishi.

Mavsumiy migratsiya- aholining ma'lum bir vaqtga (mavsumga) bir joydan ikkinchi bir joyga ko`chib yana qaytishidir.

Mehnat – insonning maksadga muvofiq ijtimoiy foydali faoliyati: eng avvalo tabiat predmetlarini o`zgartirib, ehtiyojga moslashtirishni bildiradi.

Mehnat birjasi – ishsizlarni, ish joyini o`zgartirishni istavchi shaxslarni ishga joylashtirish bilan shuullanadigan maxsus davlat muassasasi. Mexnat bozorining tashkil etilgan va tartiblanib turadigan shakli.

Mehnat bozori – ish kuchi oldi-sotdi qilinadigan bozor.

Mehnat resurslari – mamlakat aholisining mehnatga layoqatli yoshdagi qismi, iqtisodiy resurslarning tarkibiy unsuri; 16 yoshdan 55 yoshgacha bo`lgan ayollar, 60 yoshgacha bo`lgan erkaklar mehnat resurslariga kiritiladi.

Mehnat taqsimoti – mehnat turlarining bir-biridan ajralib mustaqil ahamiyat kasb etishi; mehnat turlarining ixtisoslashuvi.

Mehnatni tashkil etish – nazariya va amaliyotga asoslangan holda korxonada ish jarayoni unsurlarini uyushtirish tartibi va tamoyillari.

Millat – uzoq davom etgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va etno- madaniy jarayonda, anik xududiy doirada, til va o`zlikni anglash birligi asosida shakillangan xalq etnik tarixining eng yuksak cho`qqisi, uziga xos madaniyat, ong va mentalitet zaminida tarkib topgan ijtimoiy birlik shakli.

Megalopolis (Megapolis)- Ikki yoki undan ortiq aglomeratsiyalarning xududiy jihatdan qo`shilib ketishidan hosil bo`lgan urbanizatsiyalashgan hudud. Qadimgi Gretsiyadagi Arkadiylarning bosh shahri Megapol nomidan olingan. U 35 ta qishloqni qo`shilishidan hosil bo`lgan. Dunyodagi yirik megalopolislar BosVash, Tokaydo, Chippits, San-San va hk. Bu termini birinchi bo`lib J.Gottman qo`llagan.

Megapolis- yirik shaharning o`z ma'muriy hududiy doirasidan atrofga chiqishi va kengayib borishi. BMT ko`rsatmasiga binoan aholi soni 8 mln.dan ortgan shahar, ayrim hollarda aholi soni kam bo`lsa ham, mamlakatning bosh shahri shu nom bilan yuritiladi. M: Toshkent shahri.

Mehnat bozori – mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan band boʻlgan va band boʻlmagan qismlari va ish beruvchilar oʻrtasidagi munosabatlarni hamda ularning shaxsiy manfaatlarini hisobga oluvchi shartnomalar asosida ishchi kuchi xarid qilish - sotishni amalga oshiruvchi, shuningdek, unga boʻlgan talab va taklif oʻrtasidagi nisbatlarni bevosita tartibga soluvchi, bozor iqtisodiyotining murakkab, koʻp aspektli, oʻsuvchi va ochiq ijtimoiy-iqtisodiy tizimchasi.

Mehnat resurslari (Labour of resources) – mamlakat aholisining mehnatga layoqatli yoshdagi qismi, iqtisodiy resurslarning tarkibiy unsuri; 16 yoshdan 55 yoshgacha boʻlgan ayollar, 60 yoshgacha boʻlgan erkaklar mehnat resurslariga kiritiladi.

Mehnat taqsimoti (Division of labour) – mehnat turlarining bir-biridan ajralib mustaqil ahamiyat kasb etishi; mehnat turlarining ixtisoslashuvi

Niderlandlar tasviri- Lyudoviko Gvichardinining 1567-yilda yozgan asari;

Nozoeologiya (kasalliklar ekologiyasi) - aholi orasida uchraydigan kasalliklar va ularning tabiiy oʻchoqlari, ularning kelib chiqish sabab va tarqalish qonuniyatlarini oʻrganadi. Mazkur fan ob'ekti epidemiologiya ob'ektidan farqli ravishda nafaqat zooantroponozlar, antropozlar, endemik kasalliklar, shuningdek, onkologik va yurak, qon-tomir hamda boshqa patologiyalarni ham oʻz ichiga oladi

Nozogeografik oʻchoq -u yoki bu kasallikning vujudga kelgan (vujudga keltirgan) joyidir. Tabiiy geografik nuqtai nazardan uni E.N.Pavlovskiyning yuqumli-parazitar kasalliklarning tabiiy oʻchoqlari xususidagi gʻoyasiga mos keladi. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada esa ular ma'lum aholi manzilgohi, sanoat korxonasi va markazlari boʻlishi mumkin.

Nozogeografik areal- muayyan kasallikning bevosita tarqalishi yoki shu kasallik mavjud boʻlgan hudud hisoblanib, u nozogeografik rayon asosini tashkil etadi. Epidemiologik jihatdan yondashilganda bu jarayon geografik diffuziya qonuniyatlariga oʻxshab ketadi. Umuman olganda esa nozogeografik areallar

faqatgina yuqumli kasalliklarga taalluqli bo`lmasdan, u barcha kasalliklarning hududiy tarkibini ham anglatadi.

Populyatsiya – bir turga mansub bo`lgan individlar yig`indisi hisoblanib, umumiy genofondga ega, muayyan sharoitda va maydonda tarqalgan bo`ladi.

Reemigratsiya- kishilarning uzoq muddatga doimiy yoki vaqtincha yashash uchun o`z vatnidan boshqa mamlakatga ko`chib ketib, muayyan muddatdan so`ng yana kaytib ko`chib kelishidir. Reemigratsiyada qatnashgan kishilar “reemigrantlar” deyiladi.

Shahar (City) -aholi va qishloq xo`jaligiga xos bo`lmagan tarmoqlar mujassamlangan aholi manzilgohi.

Shahar aholisi – asosan, sanoat, savdo, shuningdek, xizmat ko`rsatish, boshqaruv, fan va madaniyat sohalarida band bo`lgan yirik aholi manzilgohi.

Shahar aholisi (population of the city) – asosan, sanoat, savdo, shuningdek, xizmat ko`rsatish, boshqaruv, fan va madaniyat sohalarida band bo`lgan yirik aholi manzilgohi.

Shaharlar geografiyasi (geography of the cities)-iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning alohida bir tarmog`i bo`lib, u turli mamlakat yoki rayonlarda shaharlarning vujudga kelish va rivojlanish xususiyatlari, ularning murakkab hududiy tizimlarining shakllanish qonuniyatlarini o`rganadi.

Shaharlar ierarxiyasi (hierarchy of the cities)- shaharlarning aholi soniga ko`ra egallagan o`rni. Geourbanistikada shaharlarning o`lchami ularning aholi soni bilan o`lchanadi.

Shaharlarning funktsiyalari (functions of the cities)- geografik mehnat taqsimotida shaharlarning bajaruvchi vazifalari bo`lib, unda aholining iqtisodiyot tarmoqlarida bandlik tarkibi asos qilib olinadi. Bu ko`rsatkich mamlakat shahar joylari bo`yicha o`rtacha ko`rsatkichdanyuqori bo`lishi lozim.

Sotsial gigiena - atrof muhit, uy-joy, maishiy xizmat, mehnat shart-sharoitlarining inson salomatligiga ta'sirini o`rganuvchi tibbiyotning muhim

tarmog`idir. Shuningdek, mazkur soha sotsial-iqtisodiy omillarning inson salomatligiga ijobiy va salbiy ta'sirini ham o`rganadi; Tibbiyot statistikasi - aholining kasallanishi, o`lim va nogironligi to`g`risidagi jamlangan turkum ma'lumotlar haqidagi fan sohasi. Tibbiyot statistikasi inson ekologiyasi va tibbiyot geografiyasi uchun muhim axborot manbai bo`lib xizmat qiladi.

Sotsial geografiya - meditsina geografiyasi, rekreatsiya geografiyasi, din geografiyasi, jinoyat geografiyasi, geopsixologiya, xulk - atvor geografiyasi, turmush tarzi geografiyasi va boshqalar.

Sotsial -ijtimoiy geografiya - aholi va aholi punktlari geografiyasi, shaharlar geografiyasi (geourbanistika), qishloqlar geografiyasi, aholiga xizmat kursatish, sohalar (savdo, madaniy, maishiy, meditsina, morif va boshqalar) geografiyasi, tijorat geografiyasi va xokazo.

Suburbanizatsiya (Suburbanization)-Yirik shaharlardan aholi bir qismining shahar atrofiga ko`chib o`tishi va shaharning shahar yonida o`shishi. tarkibi.

Tebranma migratsiya- aholining bir joydan ikkinchi bir joyga har kuni yoki har haftada borib qaytishi

Urbanizatsiya (Urbanisation)- lotincha so`zdan olingan bo`lib, Urban – shahar zatsiya- jarayon ma'nosini anglatadi, ya'ni shaharlashish demakdir.

Urbanizatsiya darajasi (Suburbanization)-mamlakat yoki muayyan hududda yashaydigan jami aholi sonida shahar aholisining salmog`i.

Yollanma mehnat-yollanma xodimlar mehnati. YOllanma mehnat bozor iqtisodiyotida amal qiladigan mehnat bozorida oldi sotdi qilinadigan asosiy tovar hisoblanadi.

5. ILOVALAR

5.1. FAN DASTURI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
O'quv ishlari bo'yicha prorektori
D.Xolmatov

"....._" 2022 yil

AHOLI GEOGRAFIYASI VA DEMOGRAFIYA ASOSLARI

FANINING O'QUV DASTURI

(SILLABUSI)

2 kurslar uchun

Bilim sohasi: 500000- Tabiiy fanlar, matematika va statistika

Ta'lim sohasi: 530000- Fizikaga oid fanlar

Ta'lim yo'nalishi: 60530400 -Geografiya

Namangan-2022

Fan/modul kodi AGDB1406	O'quv yili 2022-2023	Semestr 4	ECTS - Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Aholi geografiyasi va demografiya asoslari	90	90	180
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <ul style="list-style-type: none"> Fanni o'qitishdan maqsad – aholi geografiyasining nazariy masalalari, aholi takror barpo bo'lishi jarayonlari va qonuniyatlarini o'rganish, tabiat bilan uzviy bog'liqligini tadqiq etish, aholi joylashuvi va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni shakllantirishdan iborat. Fanning vazifasi - aholi soni va dinamikasi, tarkibi, aholi takror barpo bo'lishi va ularning hududiy xususiyatlari, mehnat resurslari, aholi bandligi, joylanishi haqida nazariy bilimlar berish, buning asosida xulosalar chiqarish hamda amaliy ko'nikmalar hosil qilishni o'rgatishdan, iborat. <p>II. Asosiy nazariy qism (mahruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Aholi geografiyasi va ijtimoiy geografiya fanlari tizimi, fanning obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari, tadqiqot usullari.</p> <p>Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining shakllanishi va rivojlanishi. Uning fanlar tizimida tutgan o'rnini, boshqa fanlar bilan fanlararo aloqalari. Fanning obyekti, predmeti, maqsadi va asosiy vazifalari. Tadqiq etish usullari. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining asosiy bo'limlari. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining xorijda va O'zbekistonda rivojlanishi.</p> <p>2-mavzu. Demografiya asoslari fani va uning aholi geografiyasi tadqiqotlarida tutgan o'rnini.</p> <p>Demografiya - lug'aviy ma'nosi. Fanning obyekti, predmeti va vazifalari. Aholi ijtimoiy va tabiiy fanlarning o'rganish obyekti sifatida. Demografiyaning alohida fan sifatida rivojlanishi. Aholi-demografiyaning obyekti sifatida. Aholi- insonlarning takror barpo bo'lishi yig'indisi. Demografik tarkib va jarayonlar. Demografiya va boshqa fanlar. Demografiya fanlari tizimi. Demografik tadqiqotlar rivojlanishi va aholi geografiyasining fan sifatida shakllanishi tarixi. XVIII-XXI asrlarda xorij va MDH olimlarining aholishunoslik va demografik jarayonlarni o'rganish bo'yicha qarashlari va yondoshuvlari. Demografik rivojlanishning turli kontseptsiyalari. Antik davr olimlari ishlarida aholi to'g'risida ma'lumotlar.</p>			

3-mavzu. Aholi to'g'risida ma'lumotlar manbalari. Aholi ro'yxati.

Aholi to'g'risida ma'lumotlar manbalari xaqida umumiy tavsiflar. Birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlar. Aholini hisobga olish, turlari. Aholining joriy statistik hisobi. Tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish va migratsiya jarayonlarining joriy statistik hisobi. Aholi ro'yxati aholi to'g'risida ma'lumotlar manbai sifatida. Aholi ro'yxati o'tkazish tamoyillari, dasturlari vazifalari. Aholini ro'yxatga olishning usullari. Aholi ro'yxatini o'tkazish bo'yicha jahon tajribalari.

4-mavzu. Aholisi soni va dinamikasi.

Aholi soni dinamikasi (tadrijiy o'zgarishlari). Aholining kategoriyalari: doimiy, vaqtincha, mavjud aholi. Dunyo mamlakatlari aholi soni, ularni klassifikatsiyalash. Aholi soni ko'payishidagi tengsizlikning asosiy sabablari va oqibatlarini. Aholi ko'payishi tarixiy bosqichlari.

5-mavzu. Demografik siyosat.

Demografik siyosatning mazmun va mohiyati. Demografik siyosat olib borishning zaruriyati. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda demografik siyosat. Tug'ilishni cheklash, nazorat qilish. Xitoy va Hindistonda demografik siyosat.

6-mavzu. Aholi tabiiy harakati. Aholi takror barpo bo'lishi tartibi va geografiyasi.

Aholi tabiiy harakati: tug'ilish, o'lim, tabiiy ko'payish. Aholi tabiiy harakatining hududiy xususiyatlari. Aholi takror barpo bo'lishining asosiy qonuniyatlari. Aholi takror barpo bo'lishiga ta'sir etuvchi omillar. Aholi takror barpo bo'lish turlari. Kengaygan, oddiy va qisqargan aholi takror barpo bo'lishi va uning geografik tarqalishi.

7-mavzu. Tug'ilish jarayoni va uning hududiy xususiyatlari

Tug'ilish - demografik jarayon sifatida. Tug'ilish va reproduktiv faoliyat. Tug'ilishga ta'sir etuvchi omillar. Tug'ilish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi. Aholining reproduktiv mayli va uni o'rganish. Aholining reproduktiv mayli va uni o'rganish bo'yicha tadqiqotlar.

8-mavzu. Aholining o'limi va uning o'rtacha umr ko'rish davomiyligi

Aholi o'limi va uning o'rtacha umr ko'rish davomiyligi geografiyasi. Aholi o'limi va tabiiy ko'payish. Aholi o'limi va uning yashash sharoiti bilan bog'liqligi. Aholi o'limi demografik va geografik jarayon sifatida o'rganilishi. Aholi o'limini keltirib chiqaruvchi omillar (endogen, ekzogen va kvaziendogen) va sabablar. Aholi o'limi turlari. Aholining o'rtacha umr ko'rish va geografiyasi.

9-mavzu. Aholining tarkiblari: Aholining yosh tarkibi

Aholining tarkibi tushunchasi. Aholi tarkiblari turlari: yosh, jins, nikoh, iqtisodiy, oilaviy, ijtimoiy, diniy, irqiy v.h. Aholining yosh tarkibi turlari va geografik xususiyatlari. Aholining yosh tarkibi, uning shakllanish omillari va yosh guruhleri bo'yicha taqsimlanishi. Aholi yosh guruhleri va aholi takror barpo bo'lish o'rtasidagi bog'liqlik masalasi. Aholi yosh tarkibining demografik va hududiy jihatlari.

10-mavzu. Aholining jinsiy va oilaviy tarkibi

Aholining jins tarkibi tushunchasi. Aholi jinsiy tarkibini shakllanish omillari, biologik konstanata. Aholi jinsiy tarkibini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi. Aholining jinsiy tarkibi va tug'ilish, aholi jinsiy tarkibi va o'lim, aholi jinsiy tarkibi va migratsiya jarayonlari. Aholi jinsiy tarkibining geografik xususiyatlari. Oilaviy tarkib turlari, mahzmun mohiyati. Aholining oilaviy tarkibi va takror barpo bo'lishi o'rtasidagi bog'liqlik.

11-mavzu. Aholining irqiy tarkibi.

«Irq» haqida tushuncha. Insoniyatning katta yevropoid, mongoloid, negroid, avstroloid va ko'p sonli mayda irqlardan tarkib topganligi. Sof va aralash irqlar, ularning antropologik farqlari. Irqlar kelib chiqishining biologik asoslari. Irqlararo munosabatlar. Irqiy va etnik birliklar nisbati. Dunyo mintaqalari bo'yicha aholining irqiy tuzilishi.

12-mavzu. Aholining etnik tarkibi.

«Etnos», «elat», «millat», «xalq» tushunchalari. Xalqaro milliy munosabatlar. Yirik va kichik tillar va millatlar. Ko'p millatli, ikki millatli va bir millatli mamlakatlar, milliy-etnik jarayonlar: konsolidatsiya, assimilyatsiya, integratsiya, ularning jahon siyosiy-ijtimoiy hayotida tutgan o'rni. Til oilalari. Til oilalarining geografik tarqalishi. Xalqlarning tili bo'yicha guruhlanishi.

13-mavzu. Dinlar geografiyasi. Aholining diniy tarkibi.

Aholining diniy tarkibi. Dunyo dinlari shakllanishi. Arxaik, milliy va dunyoviy dinlar. Xristian: katolik, pravoslav, protestan. Islom: shiya, sunniylar. Budda dinlari geografiyasi va ularning jahon siyosiy-ijtimoiy munosabatlaridagi o'rni. Xinayanlar, maxayanlar va ularning geografiyasi. Dinlarning aholi demografik rivojlanishiga ta'siri. Yirik diniy ziyoratgohlar va ularning xalqaro aholi migratsiyasidagi roli. Dunyodagi boshqa dinlar.

14-mavzu. Aholining ijtimoiy tarkibi.

Aholining ijtimoiy tarkibi va ijtimoiy funktsiyasi. Ijtimoiy-iqtisodiy muhit. Aholining tabaqalanishi, uning dunyo mintaqalari miqyosida turlanishi. Aholi ijtimoiy tarkibi bilan ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik.

15-mavzu. Mehnat resurslari geografiyasi. Aholi bandligi.

Mehnat resurslari, "Iqtisodiy faol aholi", "Iqtisodiy nafaol aholi" tushunchalari va

ularning tarkibi. Mehnat resurslari balansi. Mehnat resurslari shakllanishi va ulardan foydalanishning hududiy xususiyatlari. Mehnat resurslarining shakllanishi va ulardan foydalanish holatlari. Aholi bandligi muammolari. Mehnat bozori tushunchasi, uning hozirgi holati va rivojlanish xususiyatlari. Aholi bandligi, ishsizlik va uning turlari. Aholi bandligi va uning geografik xususiyatlari.

16-mavzu. Aholining mexanik harakati. Migratsiya geografiyasi.

Migratsiya haqida tushuncha. Migratsiya turlari: ichki, tashqi, ixtiyoriy, majburiy doimiy, vaqtinchalik va mayatniksimon (mökkisimon), ularning shakllari va xususiyatlari. Migratsiyani hisobga olish. Migratsiyaning alohida hududlar va davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri. Migratsiya omillari: siyosiy, milliy-etnik, diniy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqalar. Xalqaro migratsion harakatlar tarixi, ularning alohida materiklar, o'lkalar yoki hududlarning iqtisodiy o'zlashtirishdagi roli. Tashqi migratsiya. Emigratsiya, immigratsiya, reemigratsiya, deportatsiya tushunchalari va ularning xususiyatlari. Dunyo aholisi mexanik harakati muammolari va siyosat. Immigratsiya siyosati.

17-mavzu. Aholi va aholi manzilgohlari joylanishi. Aholi zichligi.

Aholining joylanishi va unga ta'sir etuvchi geografik omillar. Aholining joylashishi va manzilgohlari haqida umumiy tushuncha. Aholi joylashishining asosiy shakllari. Aholining joylashishi va xo'jalikni hududiy tashkil etish. Aholi joylanishining shakllari, aholi manzilgohlari, turlari, o'lchami, vazifalari. Aholi punktlari geografiyasi, uning geografik shakllari, turlari. Aholining joylanishi va punktlari haqida umumiy tushuncha. Aholi joylanishining asosiy shakllari. Aholi zichligi haqida tushuncha, uning mohiyati, hisoblash yo'llari. Aholi zichligi va hududning o'zlashtirilishi darajasi. Aholi zichligi bilan bog'liq iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik muammolar. Hududning demografik, mutloq va nisbiy sig'implari haqida tushuncha.

18-mavzu. Shahar aholisi geografiyasi va urbanizatsiya jarayoni

Shaharlar, shaharchalar va ular tizimi haqida tushuncha. Shahar aholi manzilgohlarini klassifikatsiyalash. Urbanizatsiyani ifodalovchi ko'rsatkichlarning geografik xususiyatlari. Shahar aholi manzilgohlari shakllari va funktsional tiplari. Jahon urbanizatsiyasi. Urbanizatsiya tushunchasi. Turli mamlakatlarda urbanizatsiya darajasining xususiyatlari. Urbanizatsiya jarayonining rivojlanish omillari va turlari. Urbanizatsiyaning «ichki» (vertikal) va «tashqi» (gorizontal) rivojlanishi. Suburbanizatsiya, rurbanizatsiya jarayonlari. Urbanizatsiyalashgan mintaqalar, megapolislar, aglomeratsiyalar, oykumenopolislar.

19-mavzu. Qishloq aholisi va qishloq aholi manzilgohlari geografiyasi

Qishloq aholisi soni, dinamikasi, geografik tarqalishi. Qishloq aholi manzilgohlari turlari, vazifalari, o'lchami, klassifikatsiyalari. Qishloq aholi manzilgohlari tizimi shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Aralash qishloqlar. Qishloq aholi manzilgohlarining turlari. Qishloq aholi manzilgohlarining dunyo aholisi ko'payishi va tarqalishidagi roli. Aholining joylanishi

va xo'jalikni hududiy tashkil etish.

20-mavzu. O'zbekistonda aholi geografiyasi va demografiya asoslari

O'zbekiston aholi geografiyasi va demografiya asoslarining asosiy xususiyatlari. O'zbekiston aholisi soni dinamikasi, tarkibi, aholi takror barpo bo'lishi va uning mintaqaviy jihatlari. Tug'ilish, o'lim va aholining tabiiy harakati. Respublika aholisining demografik tarkibi. Mamlakatda aholining bandligi va mehnat resurslari muammosi. O'zbekiston aholisi migratsiyasi. Aholining joylanishi geografiyasi. Aholi punktlari, respublika qishloqlari, shaharlari geografiyasi.

II.2. Ma'ruza mavzularini taqsimlanishi

№	Ma'ruza mavzulari	soati
1	Aholi geografiyasi va ijtimoiy geografiya fanlari tizimi, fanning obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari, tadqiqot usullari.	2
2	Demografiya asoslari fani va uning aholi geografiyasi tadqiqotlarida tutgan o'rni.	2
3	Aholi to'g'risida ma'lumotlar manbalari. Aholi ro'yxati.	2
4	Aholisi soni va dinamikasi.	2
5	Demografik siyosat.	2
6	Aholi tabiiy harakati. Aholi takror barpo bo'lishi tartibi va geografiyasi.	2
7	Tug'ilish jarayoni va uning hududiy xususiyatlari	2
8	Aholining o'limi va uning o'rtacha umr ko'rish davomiyligi	2
9	Aholining tarkiblari: aholining yosh tarkibi	2
10	Aholining jinsiy va oilaviy tarkibi	2
11	Aholining irqiy tarkibi.	2
12	Aholining etnik tarkibi.	2
13	Dinlar geografiyasi. Aholining diniy tarkibi.	2
14	Aholining ijtimoiy tarkibi.	2
15	Mehnat resurslari geografiyasi. Aholi bandligi.	2
16	Aholining mexanik harakati. Migratsiya geografiyasi.	2

17	Aholi va aholi manzilgohlari joylanishi. Aholi zichligi.	2
18	Shahar aholisi geografiyasi va urbanizatsiya jarayoni	2
19	Qishloq aholisi va qishloq aholi manzilgohlari geografiyasi	2
20	O'zbekistonda aholi geografiyasi va demografiya asoslari	2
	Ja'mi	40

III. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

24. Aholi ro'yxati tarixi va uni o'tkazish bo'yicha jahaon tajribasini o'rganish va baholash;
25. Dunyo mintaqalari aholi soni va uning dinamikasi jadvalini tuzish;
26. Aholi sonining mutloq ko'rsatkichlarini hisoblash.
27. Aholi soni va dinamikasining nisbiy ko'rsatkichlarini hisoblash.
28. Demografik siyosat
29. Dunyo mintaqalari aholi soni va uning joylanishi kartasini tuzish;
30. Dunyo mintaqalari aholisi tug'ilish, o'lim va tabiiy ko'payish jadvalini tuzish;
31. Aholining yosh-jins piramidasini chizish;
32. Dunyo aholisi irqiy tarkibi kartasini ishlash;
33. Shimoliy yarim shardagi mamlakatlar aholisi milliy, irqiy va diniy tarkibining geografik va demografik jihatlarini baholash;
34. Aholi etnik tarkibi kartasini ishlash;
35. Etnogenezis nazariyasi va Gumilev ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganish;
36. Dunyo aholisi diniy tarkibi kartasini ishlash.
37. Dunyo mamlakatlari migratsiya tarixi: Buyuk geografik kashfiyotlar davri, ikkinchi jaxon urishi, oqillar ketishi;
38. Jahon mamlakatlarida aholi migratsiyasining statistik tahlili;
39. Dunyo aholisi zichligi va joylanishini kartasini ishlash;
40. Yirik aglomeratsiyalar, megopolislar, oykumenopolislar geografiyasini tahlil etish;
41. Urbanizatsiya, shaharlar aholi soni, zichligi kartasini ishlash.
42. Monoshaharlar. Resurs shaharlar. Ilm-fan va madaniyat shaharlari;
43. Aholining brutto, netto zichliklarini topish va hududning o'zlashtirilishi darajasini aniqlash;
44. O'zbekiston shahar aholi manzilgohlarini statistik o'rganish;
45. O'zbekiston aholisi zichligi va yirik shaharlari kartasini tuzish;
46. Viloyat markazlari, qishloq ma'muriy tumanlari markazlari aholi soni dinamikasi va zichligini topish;
47. Mexnat resurslari balansini topish.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv

usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.		
III.2. Amaliy mashg'ulot mavzularini taqsimlanishi		
№	Amaliy mashg'ulot mavzulari	Soati
1.	Aholi ro'yxati tarixi va uni o'tkazish bo'yicha jahaon tajribasini o'rganish va baholash;	2
2.	Dunyo mintaqalari aholi soni va uning dinamikasi jadvalini tuzish;	2
3.	Aholi sonining mutloq ko'rsatkichlarini hisoblash.	2
4.	Aholi soni va dinamikasining nisbiy ko'rsatkichlarini hisoblash.	2
5.	Demografik siyosat	2
6.	Dunyo mintaqalari aholi soni va uning joylanishi kartasini tuzish;	2
7.	Dunyo mintaqalari aholisi tug'ilish, o'lim va tabiiy ko'payish jadvalini tuzish;	2
8.	Aholining yosh-jins piramidasini chizish;	2
9.	Dunyo aholisi irqiy tarkibi kartasini ishlash;	2
10.	Shimoliy yarim shardagi mamlakatlar aholisi milliy, irqiy va diniy tarkibining geografik va demografik jihatlarini baholash;	2
11.	Shimoliy yarim shardagi mamlakatlar aholisi milliy, irqiy va diniy tarkibining geografik va demografik jihatlarini baholash;	2
12.	Aholi etnik tarkibi kartasini ishlash;	2
13.	Etnogenezis nazariyasi va Gumilev ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganish;	2
14.	Dunyo aholisi diniy tarkibi kartasini ishlash.	2
15.	Dunyo mamlakatlari migratsiya tarixi: Buyuk geografik kashfiyotlar davri, ikkinchi jaxon urishi, oqillar ketishi;	2
16.	Jahon mamlakatlarida aholi migratsiyasining statistik tahlili;	2
17.	Dunyo aholisi zichligi va joylanishini kartasini ishlash;	2

18.	Yirik aglomeratsiyalar, megopolislar, oykumenopolislar geografiyasini tahlil etish;	2
19.	Urbanizatsiya, shaharlar aholi soni, zichligi kartasini ishlash.	2
20.	Monoshaharlar. Resurs shaharlar. Ilm-fan va madaniyat shaharlari;	2
21.	Aholining brutto, netto zichliklarini topish va hududning o'zlashtirilishi darajasini aniqlash;	2
22.	O'zbekiston shahar aholi manzilgohlarini statistik o'rganish;	2
23.	O'zbekiston aholisi zichligi va yirik shaharlari kartasini tuzish;	2
24.	Viloyat markazlari, qishloq ma'muriy tumanlari markazlari aholi soni dinamikasi va zichligini topish;	2
25.	Mexnat resurslari balansini topish.	2
	Ja'mi	50

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

IV.1. Mustaqil ta'limni tashkil etishning maqsad va vazifalari

Talabalarning mustaqil ta'limni tashkil etishdan asosiy **maqsad** fan (modul) bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, boyitish, amaliy ko'nikma va malakalarni takomillashtirish, axborot bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish, kognitiv, kreativ, hamkorlikda ishlash kompetentsiyalarini shakllantirishdan iboratdir.

Talabalarning mustaqil ta'limni tashkil etish quyidagi **vazifalarni** muvaffaqiyatli hal etishga xizmat qilishi lozim:

talabalarda o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish va innovatsion faoliyatni shakllantirishga imkon beruvchi kompetentsiyalarni egallash maqsadi bilan bog'liqlikda mustaqil o'quv faoliyatini amalga oshirish;

bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil egallash, muammoni shakllantira olish va uni hal etishning maqbul yo'larini izlab topishga qobiliyatli kreativ shaxsni tarbiyalash;

talabalarda o'quv dasturini o'zlashtirishga doir motivatsiyani hosil qilish;

ta'lim oluvchilarda bilim olishga doir mas'uliyatni oshirish;

talabalarda umummadaniy va kasbiy kompetentsiyalarni rivojlantirishga imkon berish;

ta'lim oluvchilarda mustaqil bilim olish, o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini rivojlantirishga

qobiliyatlilikni shakllantirish uchun sharoit yaratish

IV. 2. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

24. Aholi geografiasining shakllanishi va rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlar va ularning ilmiy tadqiqotlari
25. Demografiya asoslari fanining shakllanishi va rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlar va ularning ilmiy tadqiqotlari
26. "Demografik o'tish bosqichlari" va ushbu jarayonni dunyo hududlari bo'ylab ahamiyati.
27. O'zbekiston aholisi va joylanishi.
28. Demografik o'tish kontseptsiyasi.
29. Aholi mexanik harakatini miqdoriy va sifatiy baholash.
30. Demografik tadqiqotlar rivojlanishi tarixi.
31. MDH davlatlari aholisi demografik vaziyati.
32. Aholining iqtisodiy, ma'lumotlilik va ijtimoiy tarkibi.
33. Aholining oilaviy tarkibi.
34. Rivojlanayotgan mamlakatlar demografik siyosati.
35. Aholi geografiasining fan sifatida shakllanishi.
36. Geodemografiya va demografiya.
37. XX asrda aholi geografiasini.
38. Nikoh va ajralish.
39. Geodemografik vaziyatning mintaqaviy tiplari.
40. Dunyo mamlakatlari demografik siyosatlari.
41. Urbanizatsiya jarayoni. Dunyo shaharlari.
42. O'zbekiston Respublikasi aholisining hududiy tarkibi
43. Demografik jarayonlarni o'rganish manbalari
44. Aholi tarkiblari. Aholining yosh-jinsiy tarkibi
45. Neonatal va perinatal o'lim ko'rsatkichi
46. Aholining qarishi va uning demografik omillari
47. Aholining oilaviy tarkibi
48. Aholining takror barpo bo'lishi
49. Tug'ilish va uning koeffitsiyentlari
50. Aholi o'limi va uning koeffitsiyentlari. O'rtacha umr ko'rish davri
51. Nikoh. Ajralish (nikohning bekor etilishi)
52. Dunyo aholisi migratsiyasi, uning sabab va oqibatlari
53. Demografik prognozlashtirish

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

Mustaqil ta'lim mavzularini taqsimlanishi

№	Mustaqil ta'lim	Mustaqil ta'lim turi	Bajarish shakli	soati
----------	------------------------	-----------------------------	------------------------	--------------

	mavzulari			
1	Aholi geografiasining shakllanishi va rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlar va ularning ilmiy tadqiqotlari	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	Axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash. Tahliliy fikrlar asosida infografika tuzish	4
2	Demografiya asoslari fanining shakllanishi va rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlar va ularning ilmiy tadqiqotlari	Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish	Axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash. Tahliliy fikrlar asosida infografika tuzish	4
3	“Demografik o'tish bosqichlari” va ushbu jarayonni dunyo hududlari bo'ylab ahamiyati.	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	Axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash. Tahliliy fikrlar asosida savollar banki tuzish.	2
4	O'zbekiston aholisi va joylanishi.	Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish	Axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash; multimediali taqdimotlar yaratish.	2
5	Demografik o'tish kontseptsiyasi.	Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish	FAQ-frequently asked questions orqali o'zini qiziqtirgan savol va muammolarga javob izlash.	4
6	Aholi mexanik harakatini miqdoriy va sifatli baholash.	Auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish	FAQ-frequently asked questions orqali o'zini qiziqtirgan savol va muammolarga javob izlash	4
7	Demografik tadqiqotlar rivojlanishi tarixi.	Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish	Axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash; multimediali taqdimotlar yaratish	4
8	MDH davlatlari aholisi demografik vaziyati.	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan	Axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;	4

		mustaqil ishlar	infografika tuzish	
9	Aholining iqtisodiy, ma'lumotlilik va ijtimoiy tarkibi.	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	Axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash; Esse yozish	2
10	Aholining oilaviy tarkibi.	Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish	Axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash; joylashtirish sxemalarini tuzish	4
11	Rivojlanayotgan mamlakatlar demografik siyosati.	Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish	Axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash; karta-sxemasini tayyorlash va tahlil qilish	4
12	Aholi geografiasining fan sifatida shakllanishi.	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	Axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash; glossariy tuzish	2
13	Geodemografiya va demografiya.	Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish	Axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash; mavzu bo'yicha qisqa videorolik tayyorlash	6
14	XX asrda aholi geografiasi.	Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish	Axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash; mavzu yuzasidan krosvord tayyorlash.	2
15	Nikoh va ajralish.	Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish	Axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash; multimediali taqdimotlar yaratish	2
16	Geodemografik vaziyatning mintaqaviy tiplari.	Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-	FAQ-frequently asked questions orqali o'zini qiziqtirgan savol va muammolarga javob izlash	4

			o'rganish		
17	Dunyo mamlakatlari demografik siyosatlarini.		Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish	Axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash; multimediali taqdimot yaratish	2
18	Urbanizatsiya jarayoni. Dunyo shaharlari.		Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	Axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash; multimediali taqdimot yaratish	2
19	O'zbekiston Respublikasi aholisining hududiy tarkibi		Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	Axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash; savollar omborini tuzish	2
20	Demografik jarayonlarni o'rganish manbalari		Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish	Axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash; infografika tuzish	4
21	Aholi tarkiblari. Aholining yosh-jinsiy tarkibi		Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish	Axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash; multimediali taqdimot yaratish	4
22	Neonatal va perinatal o'lim ko'rsatkichi		Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	Axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash; test topshiriqlari ishlab chiqish	2
23	Aholining qarishi va uning demografik omillari		Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	Axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash; infografika tuzish	2
24	Aholining oilaviy tarkibi		Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	Axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash; krosvord tuzish	2
25	Aholining takror barpo bo'lishi		Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan	Axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;	4

			mustaqil ishlar	infografika tuzish	
	26	Tug‘ilish va uning koeffitsiyentlari	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	Axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash; krosword tuzish	2
	27	Aholi o‘limi va uning koeffitsiyentlari. O‘rtacha umr ko‘rish davri	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	Axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash; Esse yozish	2
	28	Nikoh. Ajralish (nikohning bekor etilishi)	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	Axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash; Esse yozish	2
	29	Dunyo aholisi migratsiyasi, uning sabab va oqibatlari	Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o‘qib-o‘rganish	Axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash; multimediali taqdimot yaratish	2
	30	Demografik prognozlashtirish	Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o‘qib-o‘rganish	Axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash; multimediali taqdimot yaratish	4
	Jami				90
3.	<p style="text-align: center;">V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)</p> <p>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining tadqiqot obyekti va predmeti; iqtisodiy geografik fanlar tizimida tutgan o‘rni va aloqalari; asosiy g‘oya, qonuniyatlari va nazariyalari to‘g‘risida <i>tasavvurga ega bo‘lishi</i>; • hududlarda aholi va aholi manzilgohlari soni va dinamikasi, tuzilishi, tarkibi, aholining yosh-jins va milliy, etnik, irqiy va diniy tarkibini tahlil qilish; aholi kartalarini loyihalash va tuzish <i>ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak</i>. • aholi soni va joylashuviga ta’sir qiluvchi omillarni; demografik koeffitsientlarni; aholi takror barpo bo‘lishi va unga ta’sir etuvchi omillarni, aholini geografik o‘rganishda zamonaviy ilmiy tadqiqot usullari hamda geografik axborot tizimlarini bilishi va ulardan foydalana olishi <i>malakasiga ega bo‘lishi kerak</i>. 				
4.	<p>VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • mahruzalar; • interfaol keys-stadilar; 				

	<ul style="list-style-type: none"> • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fan bo'yicha talabalar bilimni baholash O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2019 yil 9 avgustdagi 19-2019-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'iga asosan Namangan davlat universitetida ishlab chiqilgan "Namangan davlat universitetining talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi bo'yicha Yo'riqnoma"si asosida tashkil etiladi.</p> <p>VII.1. Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirishini baholash quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> – Oraliq nazorat (ON) – Yakuniy nazorat (YaN) <p><i>Yozma ish shaklida bo'lsa:</i></p> <p>Tayanch iboralar yoki savolni to'g'ri yoritish – 3;</p> <p>Mustaqil yondashish, amaliy misollar keltirish – 1;</p> <p>Grafik ishlanmalardan foydalanish – 1;</p> <p><i>Jami -5 baho</i></p> <p>1-Oraliq nazorat – semester davomida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasi baholanadi va o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda shakli (yozma, og'zaki, test va h.k.) belgilanadi.</p> <p>2-Oraliq nazorat - talabaning o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin ma'ruza va amaliy mashg'ulot mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasi baholanadi. Fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda nazorat turi og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin</p> <p>"Aholi geografiyasi va demografiya asoslari" fanidan semestrda bir juftlik amaliy mashg'ulotda 6 tadan 8 tagacha talaba baholanadi. Har bir oraliq nazorat davomida talaba kamida 2 marta baholanadi va barcha baholar yig'indisi baholar soniga bo'lib umumiy bahoni o'rtachasi chiqariladi.</p>

	<p>Yakuniy nazorat: Og'zaki shaklda:</p> <p>Savollarga to'laqonli javob berishi uchun – 3;</p> <p>Ijodiy fikrlashi, amaliy misollar keltirishi uchun – 1;</p> <p>Qo'shimcha savollarga javob berishi uchun – 1.</p> <p>Jami -5 baho</p> <p>VII.2. Talabalar bilimi quyidagi mezonlarga asoslaniladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> • talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda - 5 (a'lo) baho; • talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda- 4 (yaxshi) baho; • talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda - 3 (qoniqarli) baho; <p>talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda - 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Tojiyeva Z. Aholi geografiyasi. Darslik. - Toshkent.: “Innovatsion -Ziyo”, 2020.-168 b. 2. Tojiyeva Z. Aholi geografiyasi. Darslik. - Toshkent.: “Fan va texnologiya”, 2019.-368 b. 3. Анохин А.А., Житин Д.В. География населения с основами демографии: Учебное пособие. – СПб. Изд-во СПбГУ, 2018. – 279 с. <p>Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 4. Абдурахманов Қ.Х., ва бошқалар. Демография. Дарслик. - Т.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 б. 5. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С. Аҳоли географияси ва демография асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: Тафаккур, 2011. – 159 б. 6. Бўриева М.Р., Эгамова Д.Н. Дунё аҳолиси: Ривожланиш жараёнлари (ўқув қўлланма). – Т.: Фан, 2008. – 156 б. 7. Бўриева М. Р. Ўзбекистонда оила демографияси. – Т., Университет, 1997. -157 б. 8. Демографическая энциклопедия/ Редкол.: Ткаченко А.А. Аношкин А.В., М.Б. Денисенко и др. – М.: ООО «Издательство «Энциклопедия», 2013. – 944 с. 9. Солиев А.С., Бўриева М.Р ва бошқалар. Қишлоқ жойлар демографияси. – Т., 2005. - 140 б. 10. Солиев А., Назаров М. Ўзбекистон қишлоқлари (Қишлоқ жойлар географияси). –Т.: 2009. 11. Tojiyeva Z, Dusmonov F. Demografiya. O'quv qo'llanma.-Toshkent.: “Nodirabegim”,

	<p>2019,- 300 b.</p> <p>12. Тожиева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши (Монография). – Т.: «Fan va texnologiya», 2010. – 276 б.</p> <p>13. Қаюмов А.А., Якубов Ў.Ш., Абдуллаев А.Г. Аҳоли географияси ва демография асослари. – Т.: “Фан ва технология”, 2011. – 160 б.</p> <p>14. 2020 World Population Data Sheet of the Population Reference Bureau.</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbaalari</p> <p>http://www.demoscope.ru.</p> <p>http://www.dmo.econ.msu.ru.</p> <p>http://www.undp.org/popin/popin.html.</p> <p>http://www.demography.narod.ru</p> <p>http://stat.uz.</p> <p>http://ziyo.net.</p> <p>uzgeo.uz.</p>
7.	<p>Fan dasturi Namangan davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan</p> <p>- Geografiya kafedrasining 2022-yil, ____ ____dagi __-sonli majlisida muhokama qilingan va tasdiqqa tavsiya etilgan.</p> <p>- Tabiiy fanlar fakulteti kengashining 2022-yil, ____ ____dagi __-sonli majlisida ma’qullangan va tasdiqqa tavsiya etilgan.</p> <p>- NamDU o’quv-uslubiy kengashining 2022-yil, ____ ____dagi __-sonli majlisida muhokama qilingan va tasdiqlangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mashul:</p> <p>Sh.Z.Jumaxanov – NamDU, “Geografiya” kafedrasida dotsenti, geografiya fanlari nomzodi.</p> <p>I.Z.Akaboyev - NamDU, “Geografiya” kafedrasida o’qituvchisi.</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>X.S.Mirzaaxmedov – NamDU, “Geografiya” kafedrasida dotsenti, geografiya fanlari nomzodi.</p> <p>A.S.Baratov – NamDU, “Geografiya” kafedrasida dotsenti, geografiya fanlari nomzodi.</p>

1.3. TESTLAR

1. Aholining ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi uning kundalik hayot tarzini belgilab beruvchi shart-sharoitlar yig`indisi deyiladi.

- A. Ishlab chiqarish infrastrukturasi
- V. Bozor infrastrukturasi
- S. Ijtimoiy infrastruktura
- D. Sog`liqni saqlash tizimi
- E. Ta'lim tizimi

2. Ayrim mamlakat va hududlarda shaharlar va shahar aholisi ulushining ortishi ... deb ataladi.

- A. Aglomeratsiya
- V. Megapolis
- S. Urbanizatsiya
- D. Suburbanizatsiya
- E. To`g`ri javob keltirilmagan

3. Aholi zichligining kamayib borish tarkibi qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?

- A. Andijon, Namangan, Farg`ona
- V. Andijon, Farg`ona, Toshkent
- S. Andijon, Farg`ona, Xorazm
- D. Andijon, Toshkent, Xorazm
- E. To`g`ri javob keltirilmagan

4. Aholi zichligi eng past bo`lgan hudud qaysi?

- A. Surxondaryo
- V. Qashqadaryo
- S. Navoiy
- D. Qoraqalpog`iston Respublikasig
- E. Jizzax

5. O`zbekistonda aholi soniga ko`ra «ikkinchi» shahar qaysi?

- A. Namangan
- V. Samarqand
- S. Farg`ona
- D. Andijon
- E. Qo`qon

6. «Demografik siyosat» nima?

- A. Aholi tug`ilishini cheklashga qaratilgan tadbirlar
- V. Aholi migratsiyasiga qaratilgan siyosat
- S. Aholi kqpayishiga qaratilgan siyosat

D. Aholi tabiiy harakati ko`rsatkichlarini tadqiq etish va nazorat qiluvchi tadbirlar

E. to`g`ri javob keltirilmagan

7. Dunyoda maydoni va aholisiga ko`ra eng yirik mamlakatlar qaysi?

A. Rossiya va Xitoy

V. Rossiya va Hindiston

S. Kanada va Xitoy

D. Xitoy va Hindiston

E. Avstraliya va Xitoy

8. «Demografik portlash» nima?

A. Aholining tez sur'atlarda kqchishi

V. Aholining kamayishi

S. Shaharlarning tez qsishi

D. Aholining tez sur'atlarda kqpayishi

E. to`g`ri javob keltirilmagan

9. Aholi ko`payishining birinchi tipii qaysi rivojlangan mamlakatlar uchun xos hisoblanadi?

A. Shimoliy va Janubiy Amerika davlatlari

V. Evropa va Shimoliy Amerika davlatlari

S. Avstraliya va Afrika davlatlari

D. Afrika va Osiyo davlatlari

E. Barcha materiklar uchun xos

10. Bantu til oilasida qaysi materikning xalqlari gaplashadi?

A. Afrikaning janubiy xalqlari

V. Afrikaning shimoliy xalqlari

S. Afrikaning sharqiy xalqlari

D. Afrikaning G`arbiy qismlari

E. To`g`ri javob keltirilmagan

11. Dunyo aholisining ...% ni o`z ichiga oladi. Bu katta irq hozirgi kunda 3-guruhga “shimoliy evropoid, o`rta evropoid, janubiy evropoid” guruhlariga bo`linadi. Nuqtalar o`rniga zaruriy raqamlarni qo`ying?

A. 40%.

V. 50%

S. 60 %

D. 30%

12. Urdu tilida so`zlashuvchi davlatni aniqdang?

A. Pokiston;
V. Xitoy;
S. Shri-Lanka,
D. Indoneziya

13. Er sharida saqlanib qolgan mahalliy dinlarning 80 foizi qaysi qit'aga tegishli?

A. Amerika;
V. Afrika*;
S. Evropa;
D. Osiyo.

14. «Dunyoning ibtidosi xam, intixosi xam - suvdir» degan ta'limot qaerda vujudga kelgan?

A. Misrda*;
V. Mesopotamiyada;
S. Qadimgi Rimda;
D. Qadimgi Yunonistonda.

15. Zardusht ta'limoti va uning vatani qaerda?

A. Baqtriya;
V. Sugdiyona;
S. Margiyona;
D. Xorazm*;

16. «Avesto» ta'limoti bo'yicha ijtimoiy taraqqiyot va uning mezonini nima deb olingan?

a) ilm-ma'rifatning rivojlanish darajasi;
b) ijtimoiy ongning u yoki bu konkret shaklining takomillik darajasi;
v) buyuk shaxslarning aql idroki va shaxsiy faoliyatlari;
g) ezgulikka yo`g`rilgan axloq normalarga rioya qilish darajasi*.

17. “Kishi o`z bolasiga odobdan ko`ra afzalroq narsa ato etolmaydi”-mazkur pand-nasihati muallifini aniqlang?

A. Muhammad alayhissalom*;
V. Zardo`sht;
S. Imom Buxoriy hadislaridan olingan;
D. Yassaviy hikmatlaridan olingan.

18. “Avesto”da ilgari surilgan eng muhim ta'limot nimadan iborat?

A. Ezgu fikr;

V. Ezgu so`z;
S.Ezgu amal ya'ni ish;
D.A,V,S*.

19. Xristian dinining markazi qaysi shahar?

A. Italiya; V. Vatikan*; S.Quddus; D. Rim.

20. Budda dinining markazini belgilang?

A. Agra; V. Lxasa*S. Dehli; D. Katmandu.

21. Islom dinining markazini belgilang?

A.Makka*; V. Madina; S. Jidda; D. Ar-Riyod.

22. Amerika qit'asi mamlakatlarida qaysi din ustunlik qiladi?

A. Nasroniylik*;
V. Islom;
S. Buddaviylik;
D. Mahalliy dinlar.

23. Janubiy va Markaziy Amerika aholisining asosiy qismi...?

A. Katoliklar*;
V. Protestantlik;
S. Mahalliy dinlar;
D. A va V.

24. Kuba, Gayana, Surinam hamda Trinidad va Tobagoda qaysi dinlar keng tarqalgan?

A. Induislar va musulmonlarning ma'lum guruhleri;
V. Protestantlik;
S. Katoliklar;
D. Barcha javoblar to`g`ri*.

25. Janubiy Amerikaning ichki hududlarida hundu qabilalari qanday dinlarga e'tiqod qiladi?

A. Mahalliy dinlar*;
V. Protestantlik;
S. Katoliklar;
D. Barcha javoblar to`g`ri.

26. Yangi Kaledoniya, Guam orollarida...nisbatan ko`proq.

A. Katoliklar*;

- V. Protestantlik;
- S. Induislar;
- D. Musulmonlar.

27. Urbanistik mujassamlashuv nima?

- A. ishlab chiqarishni korxonalarda tqplanishi
- V. ishlab chiqarishni biror bir hududa tqplanishi
- S. ishlab chiqarishning texnologik uzviyligi
- D. ishlab chiqarishning shaharlar joylashuvi
- E. shahar aholisining kqpayishi

28. Ishlab chiqarishni muayyan hududda tqplanishi .. deb ataladi?

- A. Urbanistik mujassamlashuv
- V. Korxonona mujassamlashuv
- S. Iqtisodiy rayon
- D. XIChM
- E. Hududiy mujassamlashuv

29. Yirik qishloqlar odatda qaysi rayonlarda kqp uchraydi?

- A. Chorvachilik rayonlarida
- V. Dehqonchilik rayonlarida
- S. Sug`oriladigan dehqonchilik rayonlarida
- D. Bog`dorchilik va uzumchilik rayonlarida
- E. Barchasida

30. O`zbekistonda urbanizatsiya darajasi eng past bqlgan viloyatni kqrsating.

- A. Andijon V. Farg`ona S. Xorazm D. Sirdaryo E. Qashqadaryo

31. Yirik shahar atrofida bir necha «yqldosh» shaharlarning vujudga kelishi ... deb ataladi.

- A. urbanizatsiya
- V. megapolis
- S. aglomeratsiya
- D. suburbanizatsiya
- E. to`g`ri javob keltirilmagan

32. O`zbekistonda shahar maqomini olish uchun aholi manzilgohlari qanday talablarga javob berishi kerak?

- A. Aholisi soni 5 mingdan ortsa va mehnat bandlarining 2/3 qismi sanoatda xizmat qila
- V. aholisi 10 mingdan ortsa va aholining 1q3 qismi sanoatda band bqlsa

- S. aholisi 12 mingdan ortsa va aholining yarmi sanoatda band bqlsa
D. aholisi 7 mingdan ortsa va aholining 2/3 qismi sanoatda band bqlsa
E. to`g`ri javob keltirilmagan

33. Yirik shaharlarda aholining shahar atrofida tiklanishi nima deb ataladi?

- A. Urbanizatsiya
V. aglomeratsiya
S. megapolis
D. migratsiya
E. suburbanizatsiya

34. O`zbekistonda aholi soniga kqra «ikkinchi» shahar qaysi?

- A. Namangan
V. Samarqand
S. Farg`ona
D. Andijon
E. Qo`qon

35. O`zbekistondagi eng katta qishloq tumani qaysi?

- A. Qo`ng`irot
V. Tomdi
S. Ohangaron
D. Mo`ynoq
E. Pop

36. Emmigratsiya nima?

- A. Aholining mamlakatdan kqchib ketishi
V. aholining mamlakatga kqchib kelishi
S. aholining shahardan qishloqqa kqchishi
D. aholining qishloqdan shaharlarga kqchishi
E. To`g`ri javob keltirilmagan

37. Juda yirik shaxarlarning aholi soni to`g`ri berilgan qatorni belgilang.

- A) 100 ming
B) 250 ming
C) 500 ming
D) 5000

38. Yirik daryolar bo`yicha shakllangan aglomeratsiyalarni belgilang.

- A) Volgograd, Krivoy Rog
B) Toshkent, Andijon, Namangan
C) Birmengen, London
D) Bratsk, Madrid

1.4. BAHOLASH MEZONLARI

Talabaning “Aholi geografiyasi va demografiya asoslari” fani bo`yicha o`zlashtirish ko`rsatkichi quyidagi mezonlar asosida baholanadi

Baholash usullari	Yozma ishlar, og`zaki so`rovlar, ekspress testlar, prezentasiyalar
	5 baho “a`lo”
	<ul style="list-style-type: none"> • xulosa va qaror qabul qila olish; • ijodiy fikrlay olish; • mustaqil mushohada yurita bilish; • olgan bilimlarini amalda qo`llay olish ko`nikmalariga ega bo`lish; • mavzular mohiyatini to`la bilish va aytib bera olish; • boy uslubiy tasavvur va fikrlashga ega bo`lish; • “Aholi geografiyasi va demografiya asoslari” faniga oid termin va tushunchalarni izohlay olish; • Umumiy o`rta ta`lim maktabi, AL va KXX geografiya kursida Aholi geografiyasi va demografiya asoslari ga doir barcha amaliy ishlarni bajara olish;
	4 baho “yaxshi”
	<ul style="list-style-type: none"> • mustaqil mushohada yurita olish; • auditoriyada olgan bilimlarini amalda qo`llay ola bilish; • mavzular mohiyatini bilish, aytib berish; • “Aholi geografiyasi va demografiya asoslari” faniga oid termin va tushunchalarni izohlay olish; • Umumiy o`rta ta`lim maktabi, AL va KXX geografiya kursida Aholi geografiyasi va demografiya asoslariga doir barcha amaliy ishlarni bajara olish;
3 baho “qoniqarli”	
<ul style="list-style-type: none"> • uslubiy holatlar mohiyatini tushunish; • mavzular mohiyatini bilish, aytib berish; • “Aholi geografiyasi va demografiya asoslari” faniga oid termin va tushunchalarni izohlay olish; 	
2 baho “qoniqarsiz”	
<ul style="list-style-type: none"> • uslubiy holatlar mohiyatini tushunib yetmaslik; • “Aholi geografiyasi va demografiya asoslari” fani bo`yicha aniq tasavvurga ega bo`lmaslik; • “Aholi geografiyasi va demografiya asoslari” faniga oid termin va tushunchalarni izohlay bilmaslik; 	

Talabalar ON dan to`playdigan ballarning mezonlari

№	Ko`rsatkichlar	ON bahosi
----------	-----------------------	------------------

		Maks	O'zgarish oralig'i
1	Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma'ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftarlarining yuritilishi va to'liqligi	5	2-5
2	Talabalarning mustaqil ta'lim topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarishi va o'zlashtirishi	5	2-5
3	Og'zaki savol-javoblar, test va boshqa nazorat turlari natijalari bo'yicha	5	2-5
	O`rtacha ON bahosi	5	2-5

Yakuniy nazorat “Og`zaki” shaklida amalga oshirilib, sinov 15 variantli usulda o`tkaziladi. Har bir variant 3 ta savoldan iborat. Har bir savol 2-5 baho oraliqda baholanadi. Talaba maksimal 5 baho olishi mumkin. YaN bo'yicha umumiy o'zlashtirish kursoratkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarni har biri uchun berilgan javoblarda qo'yilgan o'zlashtirish bahoari qo'shiladi va o`rtacha baho talabanning yakuniy nazorat bo'yicha o'zlashtirish bahosi hisoblanadi.

TALABALAR BILIMINI BAHOLASH

Talabalar bilimni baholash O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirining 2018 yil 9 avgustda 9-2018 sonli “Oliy talim muassasalari talabalari bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to`g`risidagi nizomini tasdiqlash xaqida”gi buyrug`i bilan tasdiqlangan “Oliy talim muassasalari talabalari bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to`g`risidagi Nizom” asosida amalga oshiriladi.

Bunga ko`ra talaba:

➤ Mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikirlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo`llay oladi, faning (mavzunung) mohiyatini tushinadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo`yicha tassavurga ega deb topilganda - 5(a`lo) baho;

➤ mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qoʻllay oladi, fanning (mavzunung) mohiyatini tushinadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) boʻyicha tassavurga ega deb topilganda - 4(yahshi) baho;

➤ olgan bilimni amalda qoʻllay oladi, fanning (mavzunung) mohiyatini tushinadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) boʻyicha tassavurga ega deb topilganda - 3(qoniqarli) baho;

➤ fan dasturini oʻzlashtirmagan, fanning (mavzunung) mohiyatini tushinamaydi, hamda fan (mavzu) boʻyicha tassavurga ega emas deb topilganda - 2(qoniqarsiz) baho bilan baholanadi;

Nazorat turlarini oʻtkazish boʻyicha tuzilgan topshiriqlarning mazmuni talabani oʻzlashtirishini xolis (obektiv) va aniq baholash imkoniyatini beradi.

Talaba fan uchun ajratilgan kreditni fanning oʻzlashtirish darajasi, olgan bahosiga proporsional tarzda oladi. Fan uchun ajratilgan soat boʻyicha talaba maksimal bal toʻplashi kerak boʻlgan kredit miqdori 6 ni tashkil etadi. Talabani kreditini toʻplashi quyidagi formula orqali amalga oshiriladi.

$$\text{Talaba to'plagan kredit} = \frac{\text{fanga ajratilgan kredit} \cdot \text{talabani olgan bahosi}}{\text{maksimal baho}(5)}$$

Baholash tizimi/ grading system

A=4,26-4,5 (86-90)

A+=4,51-5,0 (91-100)

B=3,51-4,0 (71-80)

B+=4,01-4,25 (81-85)

C=3,0-3,25 (60-65)

C+=3,26-3,5 (66-70)

5.5. Tarqatma materiallar

Hududlar bo'yicha shahar va qishloq aholisi soni (yil boshiga; ming kishi)

	Jami	jumladan	
		Shahar aholisi	Qishloq aholisi
2021			
O'zbekiston Respublikasi	34558,9	17510,4	17048,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1923,7	942	981,7
viloyatlar:			
Andijon	3188,1	1665,9	1522,2
Buxoro	1947,1	715,4	1231,7
Jizzax	1410,5	660	750,5
Qashqadaryo	3335,4	1432,8	1902,6
Navoiy	1013,6	497	516,6
Namangan	2867,5	1857,5	1010
Samarqand	3947,7	1458,7	2489
Surxondaryo	2680,8	971,2	1709,6
Sirdaryo	860,9	366,7	494,2
Toshkent	2975,9	1469,9	1506
Farg'ona	3820	2152,1	1667,9
Xorazm	1893,3	626,8	1266,5
Toshkent sh.	2694,4	2694,4	0
2020			
O'zbekiston Respublikasi	33905,2	17144,1	16761,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1898,3	930,5	967,8
viloyatlar:			
Andijon	3127,7	1633,9	1493,8
Buxoro	1923,9	709,5	1214,4
Jizzax	1382,1	648	734,1
Qashqadaryo	3280,4	1410,4	1870
Navoiy	997,1	487,7	509,4
Namangan	2810,8	1815,1	995,7
Samarqand	3877,4	1438,3	2439,1
Surxondaryo	2629,1	954	1675,1
Sirdaryo	846,3	361,3	485
Toshkent	2941,9	1446,7	1495,2

Farg`ona	3752	2117,7	1634,3
Xorazm	1866,5	619,3	1247,2
Toshkent sh.	2571,7	2571,7	0
2019			
O`zbekiston Respublikasi	33255,5	16806,7	16448,8
Qoraqalpog`iston Respublikasi	1869,8	917,7	952,1
viloyatlar:			
Andijon	3066,9	1603,7	1463,2
Buxoro	1894,8	701,4	1193,4
Jizzax	1352,4	634,5	717,9
Qashqadaryo	3213,1	1383,6	1829,5
Navoiy	979,5	478,1	501,4
Namangan	2752,9	1777,6	975,3
Samarqand	3798,9	1414,7	2384,2
Surxondaryo	2569,9	910,6	1659,3
Sirdaryo	829,9	354,8	475,1
Toshkent	2898,5	1427,5	1471
Farg`ona	3683,3	2082,5	1600,8
Xorazm	1835,7	610,1	1225,6
Toshkent sh.	2509,9	2509,9	-
2018			
O`zbekiston Respublikasi	32656,7	16532,7	16124
Qoraqalpog`iston Respublikasi	1842,3	905,5	936,8
viloyatlar:			
Andijon	3011,7	1576	1435,7
Buxoro	1870,2	698,6	1171,6
Jizzax	1325	622,2	702,8
Qashqadaryo	3148,4	1357,5	1790,9
Navoiy	958	467,6	490,4
Namangan	2699,6	1743,7	955,9
Samarqand	3720,1	1390,8	2329,3
Surxondaryo	2514,2	893,3	1620,9
Sirdaryo	815,9	350	465,9
Toshkent	2861,2	1411,5	1449,7
Farg`ona	3620,2	2049,9	1570,3
Xorazm	1805	601,2	1203,8
Toshkent sh.	2464,9	2464,9	-
2017 y.			
O`zbekiston Respublikasi	32120,5	16250,8	15869,7

Qoraqalpog`iston Respublikasi	1817,5	894,7	922,8
viloyatlar:			
Andijon	2962,5	1551,7	1410,8
Buxoro	1843,5	692	1151,5
Jizzax	1301	611,8	689,2
Qashqadaryo	3088,8	1326,3	1762,5
Navoiy	942,8	460,9	481,9
Namangan	2652,4	1716,6	935,8
Samarqand	3651,7	1372,8	2278,9
Surxondaryo	2462,3	877,6	1584,7
Sirdaryo	803,1	345,9	457,2
Toshkent	2829,3	1381,1	1448,2
Farg`ona	3564,8	2022,8	1542
Xorazm	1776,7	572,5	1204,2
Toshkent sh.	2424,1	2424,1	-
2016 y.			
O`zbekiston Respublikasi	31575,3	15963,9	15611,4
Qoraqalpog`iston Respublikasi	1791,1	883,2	907,9
viloyatlar:			
Andijon	2910,5	1521,3	1389,2
Buxoro	1815,2	685	1130,2
Jizzax	1276,1	600,8	675,3
Qashqadaryo	3025,6	1300,7	1724,9
Navoiy	927,9	455,1	472,8
Namangan	2603,4	1641,9	961,5
Samarqand	3583,9	1355,3	2228,6
Surxondaryo	2411,5	861,1	1550,4
Sirdaryo	790,6	341,4	449,2
Toshkent	2794,1	1364,9	1429,2
Farg`ona	3505,3	1994,4	1510,9
Xorazm	1746,9	565,6	1181,3
Toshkent sh.	2393,2	2393,2	-
2015 y.			
O`zbekiston Respublikasi	31022,5	15748	15274,5

Qoraqalpog`iston Respublikasi	1763,1	873	890,1
viloyatlar:		50,8	49,2
Andijon	2857,3	1500	1357,3
Buxoro	1785,4	678,4	1107
Jizzax	1250,1	589,6	660,5
Qashqadaryo	2958,9	1274,5	1684,4
Navoiy	913,2	448,5	464,7
Namangan	2554,2	1618,8	935,4
Samarqand	3514,8	1337	2177,8
Surxondaryo	2358,3	845,2	1513,1
Sirdaryo	777,1	336,6	440,5
Toshkent	2758,3	1350,2	1408,1
Farg`ona	3444,9	1965,9	1479
Xorazm	1715,6	559	1156,6
Toshkent sh.	2371,3	2371,3	-
2014 y.			
O`zbekiston Respublikasi	30492,8	15555,2	14937,6
Qoraqalpog`iston Respublikasi	1736,5	862,0	874,5
viloyatlar:		51,0	49,0
Andijon	2805,5	1476,3	1329,2
Buxoro	1756,4	672,9	1083,5
Jizzax	1226,8	581,4	645,4
Qashqadaryo	2895,3	1250,8	1644,5
Navoiy	901,1	448,2	452,9
Namangan	2504,1	1593,2	910,9
Samarqand	3445,6	1324,8	2120,8
Surxondaryo	2308,3	831,5	1476,8
Sirdaryo	763,8	332,2	431,6
Toshkent	2725,9	1338,5	1387,4
Farg`ona	3386,5	1937,0	1449,5
Xorazm	1684,1	553,5	1130,6
Toshkent sh.	2352,9	2352,9	-
2013 y.			
O`zbekiston Respublikasi	29993,5	15370,1	14623,4
Qoraqalpog`iston Respublikasi	1711,8	850,5	861,3

viloyatlar:		51,2	48,8
Andijon	2756,4	1453,9	1302,5
Buxoro	1729,7	667,1	1062,6
Jizzax	1205,0	574,1	630,9
Qashqadaryo	2831,3	1225,3	1606,0
Navoiy	888,4	445,2	443,2
Namangan	2458,7	1570,1	888,6
Samarqand	3380,9	1312,7	2068,2
Surxondaryo	2260,6	819,2	1441,4
Sirdaryo	750,6	325,1	425,5
Toshkent	2695,7	1328,6	1367,1
Farg`ona	3329,7	1908,7	1421,0
Xorazm	1653,8	548,7	1105,1
Toshkent sh.	2340,9	2340,9	-
2012 y.			
O`zbekiston Respublikasi	29555,4	15143,2	14412,2
Qoraqalpog`iston Respublikasi	1692,8	839,6	853,2
viloyatlar:		51,2	48,8
Andijon	2714,2	1436,5	1277,7
Buxoro	1707,4	648,6	1058,8
Jizzax	1186,6	567,2	619,4
Qashqadaryo	2777,8	1203,2	1574,6
Navoiy	881,2	429	452,2
Namangan	2420,6	1551	869,6
Samarqand	3326,2	1301,2	2025
Surxondaryo	2218,9	807,9	1411
Sirdaryo	739,5	305,7	433,8
Toshkent	2671	1319,6	1351,4
Farg`ona	3280,8	1879	1401,8
Xorazm	1629,1	545,4	1083,7
Toshkent sh.	2309,3	2309,3	-
2011 y.			
O`zbekiston Respublikasi	29123,4	14897,4	14226
Qoraqalpog`iston Respublikasi	1680,9	837	843,9
viloyatlar:			

Andijon	2672,3	1420,1	1252,2
Buxoro	1683,8	644,3	1039,5
Jizzax	1166,7	560,6	606,1
Qashqadaryo	2722,9	1181,2	1541,7
Navoiy	873	429,2	443,8
Namangan	2379,5	1529,7	849,8
Samarqand	3270,8	1202,6	2068,2
Surxondaryo	2175,1	794,7	1380,4
Sirdaryo	727,2	300,7	426,5
Toshkent	2644,4	1308,3	1336,1
Farg`ona	3229,2	1852,4	1376,8
Xorazm	1601,1	540,1	1061
Toshkent sh.	2296,5	2296,5	-
2010 y.			
O`zbekiston Respublikasi	28001,4	14425,9	13575,5
Qoraqalpog`iston Respublikasi	1632	820,3	811,7
viloyatlar:			
Andijon	2549,1	1358,4	1190,7
Buxoro	1612,5	622,4	990,1
Jizzax	1116,8	526,8	590
Qashqadaryo	2616,1	1135,7	1480,4
Navoiy	851,6	420,9	430,7
Namangan	2258,5	1458,8	799,7
Samarqand	3119	1160,4	1958,6
Surxondaryo	2075	767,9	1307,1
Sirdaryo	714,4	294,7	419,7
Toshkent	2585,9	1293,2	1292,7
Farg`ona	3074,6	1802,5	1272,1
Xorazm	1561,6	529,6	1032
Toshkent sh.	2234,3	2234,3	-

Aholining zichligi
(yil boshiga; 1 kv.km ga to`g`ri keladigan aholi soni)

	2000 y.	2001 y.	2002 y.	2003 y.	2004 y.	2005 y.
--	---------	---------	---------	---------	---------	---------

O`zbekiston Respublikasi	54,6	55,3	55,9	56,6	57,3	58
Qoraqalpog`iston Respublikasi	9	9,2	9,2	9,3	9,4	9,4
viloyatlar:						
Andijon	520,5	527,7	535,1	542,8	549,8	557,8
Buxoro	35,2	35,7	36,1	36,6	37	37,4
Jizzax	46	46,8	47,4	48,1	48,6	49,2
Qashqadaryo	75,8	77,4	78,8	80,2	81,7	83,2
Navoiy	7,1	7,1	7,2	7,2	7,2	7,3
Namangan	260	263,9	267,9	272,1	276	280,2
Samarqand	158,9	161,3	163,7	166	168,2	170,7
Surxondaryo	86,4	88,1	89,6	91,3	92,7	94,3
Sirdaryo	149,3	151,1	152,8	154,4	155,5	156,3
Toshkent	153,6	154,9	156,2	157,6	158,8	160,3
Farg`ona	397,7	402,6	407,4	412,8	417,8	424
Xorazm	217	220,9	224,5	228	231,2	234,9
Toshkent sh.	6472,2	6459	6455	6463	6451	6452
	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.
O`zbekiston Respublikasi	58,6	59,4	60,3	61,3	61,3	64,9
Qoraqalpog`iston Respublikasi	9,4	9,5	9,6	9,7	9,7	10,1
viloyatlar:						
Andijon	552,5	560,4	570	581,4	581,4	621,5
Buxoro	37,8	38,3	38,8	39,4	39,4	41,8
Jizzax	49,6	50,2	50,9	51,8	51,8	55
Qashqadaryo	84,7	86,2	87,8	89,7	89,7	95,3
Navoiy	7,3	7,4	7,5	7,6	7,6	7,9
Namangan	282,7	286,9	292,2	298	298	319,8
Samarqand	173,4	176,2	179,1	182,6	182,6	195
Surxondaryo	95,8	97,4	99,1	101,2	101,2	108,2
Sirdaryo	158,2	159,9	161,9	164,3	164,3	169,9
Toshkent	161,7	163,3	165,4	167,4	167,4	173,4
Farg`ona	425,9	432	439,7	447,1	447,1	477,7
Xorazm	240,3	244,3	248,6	253	253	264,6
Toshkent sh.	6467	6517	6586	6666	6750	6876
	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.

O`zbekiston Respublikasi	65,8	66,8	67,9	69,1	70,3	71,5
Qoraqalpog`iston Respublikasi	10,2	10,3	10,4	10,6	10,8	10,9
viloyatlar:						
Andijon	631,2	641	652,4	664,5	676,9	689
Buxoro	42,3	42,9	43,6	44,3	45	45,7
Jizzax	55,9	56,8	57,8	58,9	60,2	61,3
Qashqadaryo	97,2	99,1	101,3	103,6	105,9	108,1
Navoiy	7,9	8	8,1	8,2	8,4	8,5
Namangan	325,3	330,5	336,6	343,3	349,9	356,5
Samarqand	198,3	201,6	205,5	209,6	213,7	217,8
Surxondaryo	110,4	112,5	114,8	117,3	120	122,5
Sirdaryo	172,8	175,4	178,5	181,6	184,7	187,6
Toshkent	175,1	176,8	178,7	180,9	183,2	185,5
Farg`ona	485,3	492,6	501	509,6	518,5	527,3
Xorazm	269,3	273,4	278,4	283,6	288,7	293,7
Toshkent sh.	6914	7009	7045	7100	7165,2	7257,9